

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S.,  
Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH  
METODIKASI**

*5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta'lim  
yo'nalishidagi talabalar uchun darslik*

**Toshkent-2019**

O`UK:

BBK:

Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S., Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi – T.: 2019. -172 bet. ISBN:

Mazkur o`quv qo`llanma Umumiy psixologiyaning asosiy bo`limi “Bilish jarayonlari”ga ba`g`ishlangan bo`lib, o`quv qo`llanmada umumiy psixologiya fani dasturidagi 2-modul bo`yicha Bilish jarayonlari Sezgi, diqqat, idrok, xotira, xayol, tafakkur mavzularining nazariy va amaliy asoslari interfaol usullar asosida yoritilgan. 5111700 – Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta'lim yo`nalishidagi va Oliy ta`lim muassasalarida tahsil olayotgan barcha yo`nalish talabalari uchun mo`ljallangan.

This handbook is dedicated to “The process of knowing” which is main part of General Psychology and based on the Module 2 of the General Psychology Science Cognitive processes: practical and theoretical foundations of the themes of consciousness, attention, cognition, memory, imagination and thinking are presented in interactive methods. 5111700 – Elementary Education and Sports Education is intended for Undergraduate students in all areas of Higher Education.

Данное учебное пособие описывает “Процесс познания” общей психологии, в учебном пособии по второй модули даны практические и теоритические основы интерактивных процессов познания, ощущение, внимание, память, представление, мышление. 5111700 – Направлено для студентов учащихся в высшем образовании для бакалавриата по направлению спортивно воспитательная работа и начальное образование.

Mustaqillik yillari tom m: o'likasi ijtimoiy-iqtisodiv va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlar. ...Jan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamlı ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgach, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berishiga keng imkoniyatlar ochildi. Respublika rahbariyati boshchiligida mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, zamon talabiga va jahon standartlariga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida ham islohotlar olib borilmoqda. Shu asnoda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish maqsadida, yetuk kadrlar tayyorlash ishini jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q"<sup>1</sup>, – deya ta'kidlagan edi.

Mustaqillikning dastlabgi kunlaridan boshlab barkamol avlodni shakllantirish maqsadida ta'lim sohasida tub islohotlarning o'tkazilishi davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda bir qator qonun

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.

va qarorlar qabul qilindi. Ularning asosini dastlabgi bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”<sup>2</sup> tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda 2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar Strategiyasi”da belgilab berilgan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-apreldagi va “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 5-iyundagi Qarorlari tashkil etadi.

Ushbu dasturiy hujjatlarda ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida ta’lim tizimida yangi avlod darsliklarini yaratish vazifasi ilgari surildi.

Davr va yuqoridagi me‘yoriy davlat hujjatlarining talablaridan kelib chiqqan holda mualliflar tomonidan ushbu darslik yaratildi.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2018-yilda tasdiqlangan “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani dasturi asosida tayyorlangan.

Darslikda talabalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani doirasida fan asoslari, fanni o‘qitishning usul va uslublari, mavjud nazariyalarning amaliyotda qo‘llanilishi va kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanishni o‘rganadi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, texnologiyalashtirish ko‘nikma-malakalarini puxta o‘zlashtiradi. Shuningdek, pedagogik mahorat va xalq pedagogikasining muhim g‘oyalari, ustuvor tamoyillari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat ularning kasbiy kamolotga erishishlari uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. – T.: 1997. № 11-12.

Mazkur darslik ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism besh bobdan iborat va unda quyidagi mavzular to'g'risida so'z yuritiladi:

I BOB. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. Ona tili o'qitish prinsiplari, ona tili o'qitish metodikasining tekshirish usullari.

II BOB. Savod o'rgatish davri metodikasi. Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari. Savod o'rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi. Bolalarning savod o'rgatishga tayyorgarligini o'rganish. Savod o'rgatish jarayoni bosqichlari. Savod o'rgatishda tayyorlov davri, bu bosqichdagi o'qish va yozuv darslarining mavzulari hamda ish turlari. Savod o'rgatishda mashq turlari. Savod o'rgatishda nutq o'stirish. Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish darslari.

III BOB. Husnixat metodikasi. Husnixatga o'rgatishning maqsad va vazifalari, ahamiyati. Yozuvlar tarixidan ma'lumot. Husnixatga o'rgatish tarixidan ma'lumot. Husnixatga o'rgatishning gigiyenik shartlari. Yozuv materiallari va qurollari. Husnixatga o'rgatish tamoyillari. Husnixatga o'rgatish usullari. 1-4-sinflarda husnixat darslari.

IV BOB. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikasi. Sinfda o'qish metodikasi. Sinfda o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari. O'qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari. O'qish malakasi haqida tushuncha. O'qish malakalarining sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish. O'qish malakalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish yo'llari. Ifodali o'qish metodikasining asoslari. Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy idrok etishdagi psixologik xususiyatlari. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish. Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. O'qish darslarda mustaqil ishlarni tashkil qilish. Har xil janrdagi asarlarni o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari. Ertakni o'qish metodikasi. O'quvchilarni ertak janri bilan tanishtirish. O'quvchilarni ertakni o'qishga tayyorlash. Hikoya

janridagi asarni o‘qitish metodikasi. She’riy nutqning xususiyatlari. She’rni tahlil qilish uslubiyati. She’rni o‘qitish darsida asosiy ish turi ifodali o‘qish ekanligi. Lirik she’rni o‘qishga tayyorlash. Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi. Topishmoq, tez aytish, maqol janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi. Sinfdan tashqari o‘qish metodikasi. Bolalarning mustaqil o‘qishi haqida tushuncha, uning vazifalari. To‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma. Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlik mustaqilligini shakllantiradigan mashg‘ulot va darslar qurilishining asosiy turlari.

V BOB. Fonetika, grammatika, so‘z yasalishi va orfografiyani o‘rgatish metodikasi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o‘rgatishning ahamiyati. Ona tilini o‘rgatishning lingvistik asoslari. Boshlang‘ich ta’limda ona tilini o‘rgatish mazmuniga tavsifnoma. Fonetika va grafika asoslarini o‘rgatish uslubiyati.

Mualliflar jamoasi darslik to‘g‘risida jamoatchilikning fikr va mulohazalarini mamnuniyat bilan qabul qiladi.

# I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI

## 1. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. Ona tili o‘qitish prinsiplari, ona tili o‘qitish metodikasining tekshirish usullari

**Tayanch tushunchalar:** *O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ta’lim prinsiplari, davlat ta’lim standartlari, ona tili o‘qitish metodikasi fanining shakllanishi, dastur, darslik, o‘quv - uslubiy qo‘llanmalar, ona tili o‘qitish metodikasi fanining obyekti, predmeti, zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish*

Ona tili metodik fan sifatida ona tili o‘qitish metodikasi boshlang‘ich ta’lim standart belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya’ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko‘ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta’rif va qoidaga, shular asosida yana og‘zaki va yozma tarzda nutqiy aloqaga, to‘g‘ri yozuv va to‘g‘ri talaffuzga o‘tiladi. O‘quvchilar jonli nutqiy aloqaga to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozuvni elementar nazariy ma’lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o‘rgangan va o‘zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. Maktabda ona tili o‘qitish metodikasining bunday yo‘nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi. „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi:

— ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; — bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Bu tamoyillar boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasining vazifalarini ham belgilab, aniqlashtirib beradi. Qonunda ta'kidlanganki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani o'z vazifalarini belgilab olishda ta'lim sohasidagi davlat hujjatlariga tayanadi. Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. „Ta'lim to'g'risida“gi qonun va shu asosda yaratilgan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" buning yorqin dalilidir. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish asosiy maqsad qilib olingan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. O'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standart belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko'ra, analitik-sintetik ishlar yordamida



til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi. „Ta'lim to'g'risida“gi qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqdigi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ona tilini o'qitish metodikasi pedagogika fanlari qatoriga kiradi. Buni amaliy fan deb atash mumkin, chunki u nazariyaga asoslangan holda, o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirishning amaliy muammolarini hal qilishga qaratilgan. Har qanday fan singari ona tilining metodikasi ham o'z tekshirish obyektlariga ega. Uning o'rganish mavzusi ona tilini o'rganish nuqtayi nazaridan nutq, yozish, o'qish, grammatika, fonetika va boshqalarni mohirlik bilan o'rganish jarayonidir. Ona tili metodikasi til sohasidagi ko'nikmalarni o'rganish, tilshunoslik grammatikasi va uning boshqa bo'limlarida ilmiy tushunchalar tizimlarini assimilyatsiya qilishni o'rganish uchun

mo'ljallangan. Shu bilan birga, metodika o'qitish uchun bir qator ijtimoiy talablarni hisobga oladi: fan o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalashga, ularning fikrlashlarini rivojlantirishga, kompetensiyaviy qobiliyatlarini oshirishga imkon beradigan o'qitish tizimini yaratadi.

Metodikaning amaliy fan sifatidagi vazifalari haqida gapirganda, uning quyidagi uchta vazifasini ta'kidlash lozim:

1. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlaydi. Ta'lim mazmunini, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar, turli o'quv qo'llanmalari yaratib beradi, ularni doimiy takomillashtirib, samaraliligini tekshirib boradi.

2. Qanday o'qitish kerak? savoliga javob beradi. Ta'lim berishning metodlari, metodik usullar, mashqlar tizimi va uning turlarini ishlab beradi.

3. Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak? savoliga javob tayyorlab beradi. Bunda eng foydali metodlarni o'rganish, tanlangan metodlarni asoslash, tavsiyalarni eksperimental tekshirish, ommalashtirish va boshqalar tushuniladi.

Ona tili metodikasi turli darajadagi o'quvchilarning bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalarini o'rganadi, o'rganishdagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlaydi, odatdagi xatolar – nutq, imlo va hokazolar bilan bog'liq xatolarni o'rganadi, ularni bartaraf qilish va oldini olish usullarini topadi. Bugungi kunda ona tili metodikasi o'quv jarayonida o'quvchilarning maksimal kognitiv faolligi va mustaqilligini ta'minlaydigan usul va uslublarni topish, o'quvchilar tafakkuri va nutqining rivojlanishi, olingan bilim, ko'nikmalarni hayotga joriy etishni ta'minlaydigan tizimlar to'g'risida so'z yuritadi.

Ona tili darslari maktabgacha ta'lim muassasalarida, boshlang'ich va umumta'lim maktablarida o'qitiladi. Albatta, ta'limning barcha bosqichlarida ham ona tilini o'qitish vazifalari bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Ammo fanning asosiy talablari bir xil: hamma joyda fanning predmeti – bu tilni o'zlashtirish jarayoni, o'qitish darajasidan qat'iy nazar, metodika tilni o'rganishning obyektiv qonuniyatlarini o'rganadi, o'quv tizimlarini rivojlantiradi, ularni tekshiradi.

Ammo har bir qadam o'ziga xos xususiyatlarga ega. Maktabgacha ta'lim metodikasi, asosan, ona tili sohasida bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'lim metodikasining barcha bo'limlarida maktabgacha ta'lim davrida qo'yilgan poydevorga suyanib bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish jarayoni quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

*Savod o'rgatish metodikasi.* Bunda boshlang'ich o'qish va yozishni o'rganish jarayoni to'g'risida so'z yuritiladi.

*O'qish metodikasi.* Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda "O'qish" fanining vazifasi bolalarni ravon, to'g'ri, ongli va ifodali o'qish qobiliyatiga o'rgatishdan iborat. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchisini o'quvchi sifatida umumiy o'rta maktab darajasidagi bilimlarni egallashga tayyorlash uchun mo'ljallangan.

*Grammatika va imlo usullari.* Bunga boshlang'ich yozuv va husnixat, grammatik tushunchalarni shakllantirish, imlo ko'nikmalarini shakllantirish kiradi.

*O'quvchilar nutqini rivojlantirish.* Ushbu bo'limda boshlang'ich sinfnig o'ziga xos tomonlari mavjud. Bunda bolalar til va nutqqa uni o'rganish mavzusi sifatida qaraydi. Shuningdek, jarayonda o'qituvchi zimmasida o'quvchilarning lug'atini boyitish vazifasi turadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini chuqur o'rganish zaruriyati uning asosiy funksiyalari bilan belgilanadi: til odamga, birinchidan, fikrlarni shakllantirish va ifoda etish vositasi sifatida, ikkinchidan, kommunikativ vosita sifatida "jamiyat a'zolarining bir-biri bilan muloqoti"da xizmat qiladi va, nihoyat, his-tuyg'ularni ifoda qilish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ona tili (nutq, o'qish, yozish) sohasidagi ko'nikmalar o'quvchilar o'quv faoliyatining zaruriy sharti va vositasidir. Boshqacha qilib aytganda, bilish qobiliyatini o'zlashtirgan bolalar, avvalambor, o'z ona tilini – bilim, ta'lim, ongning haqiqiy rivojlanishi kalitini o'rganishlari kerak. Tilsiz zamonaviy jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish, zamonaviy ishlab chiqarishda, madaniyat va san'atni rivojlantirishda qatnashish mumkin emas.

Til, shuningdek, tarbiyalashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi: ona tilini yaxshi bilish o'quvchiga yuqori g'oyaviy va badiiy adabiyotimizning tarkibiy qismi bo'lishga imkon beradi, uni dramatik san'atning turli shakllarida qatnashishga jalb qiladi, undan gazeta va jurnallarni o'qishni, kattalar bilan to'liq aloqa qilishni talab qiladi.

Ona tili metodikasining eng muhim vazifalaridan biri maktabda ona tili kursini (va ayniqsa, maktabning boshlang'ich sinflarida) maktab predmeti sifatida aniqlash va shakllantirishdir.

Boshlang'ich maktabda ona tilidagi darslarning mazmuni va turlari quyidagilardan iborat:

a) o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda o'qish, yozish, grammatik materiallarni o'rganish, kuzatish;

b) 1-sinfga kelgan bolalarni o'qitish, savodxonlik, ya'ni boshlang'ich o'qish va yozishni o'rganish va bu ko'nikmalarni yanada takomillashtirishda ularni ko'nikmalarga aylantirish;

v) adabiy me'yorlarni o'rganishda imlo va tinish belgilari, to'g'ri talaffuz, nutq va uslub elementlarining ekspressivligini o'zlashtirish;

d) grammatika, fonetika, leksikologiya materiallarini o'rganish, tilda ilmiy tushunchalar tizimini shakllantirish;

e) o'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy adabiyot, ommabop fanlar va boshqa adabiyot namunalari bilan tanishtirish, badiiy asarni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish.

Boshlang'ich sinflardagi bu barcha vazifalar bitta ona tilida «Ona tili» fanidan kompleks tarzida hal qilinadi. Boshlang'ich maktablar uchun ona tili fan dasturi ushbu vazifalarni aniqlashtiradi, bu fanning mazmuni va hajmini, shuningdek, ushbu fan bo'yicha bilim, ko'nikma va ko'nikmalar darajasiga bo'lgan asosiy talablarni belgilaydi. O'qituvchi va o'quvchilar tomonidan dasturni amalga oshirish talab qilinadi va dasturni kengaytirish yoki toraytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Metodikaning amaliy maqsadi barcha o‘quvchilarning til boyligini to‘liq, har tomonlama mukammal egallashni ta‘minlashdir. Shu bilan birga, birinchidan, til odamlar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi ekanligini unutmaslik kerak. Tilsiz jamiyat mavjud emas. Muloqot vositasi sifatida tilning o‘rni doimiy ravishda o‘sib boradi va ona tili metodikasining vazifasi tilni mukammal aloqa vositasiga aylantirishdir.

Ikkinchidan, til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; umumlashma bilish, mavhumlashtirish, hukm va xulosalarda tushunchalarni bog‘lab turish jarayonida lisoniy birlik va shakllarda bo‘ladi. Til, nutq va tafakkur bilan chambarchas bog‘liq: tafakkurda biz fikrni shakllantiramiz, uni til orqali ifoda etamiz.

O‘quvchilar nutqini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining eng muhim vazifalaridan biridir.

Nutq fikrlashdan ajratilgan holda rivojlana olmaydi, u mazmunli bo‘lishi va bilish jarayoniga tayanishi kerak. Ushbu natijani bermaydigan usul qoniqarli emas.

Ona tili o‘qitish metodikasi o‘z ish jarayonida bir qancha fanlarga asoslanadi. Shulardan biri mantiq – logika. Ma‘lumki, til tafakkur bilan uzviy bog‘liq. Tilning rivojlanishida tafakkur muhim ahamiyatga ega: nutqni tafakkurdan ajratilgan holda rivojlantirib bo‘lmaydi. O‘quvchilarni o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon etishga o‘rgatish ularning tafakkurlarini o‘stirishda eng muhim vosita hisoblanadi. Shu jihatdan, ona tili metodikasi logika – mantiq bilan bog‘lanadi.

Bolalarga talim-tarbiya berish yo‘llari, ona tili darslarini tashkil etishda dars turi, metodi, ko‘rgazmali qurollarni qo‘llash kabilar pedagogikada o‘rganiladi. Shuning uchun ham ona tili o‘qitish metodikasi fani pedagogika fani bilan ham uzviy bog‘liq.

Boshlang‘ich sinfda ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, fikri, xarakteri, tasavvur va tushunchasi, idrok etish qobiliyati, irodasi, qiziqishi, faolligi kabi ruhiy holatlarni o‘rganishni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, ona tili o‘qitish metodikasi fani psixologiya fani bilan ham aloqadadir. Ona tilini o‘qitish metodikasining psixologiya va tilshunoslik chorrahasida joylashgan psixolingvistika bilan aloqalari tobora kengaymoqda. U nutqni faoliyat sifatida keltirib chiqaradigan

sabablar, bayonotlarning xilma-xilligini belgilovchi omillar haqida, bayonotlar tuzish bosqichlari, “nutq signallarini qabul qilish” mexanizmlari, individual muloqot va ommaviy muloqotda nutq ta’sirining samaradorligi va boshqalarni belgilab beradi. Ushbu ma’lumotlar metodikaning muammolarini, ayniqsa, nutqni rivojlantirish metodikasini hal qilishda juda muhimdir.

Ona tili metodikasi ona tilini amaliy va qisman nazariy jihatdan mukammal egallashni ta’minlash uchun tilshunoslik fanining fonetika va fonologiya, frazeologiya, so‘z yasash, leksikologiya, grammatika, morfologiyasi va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfografiya va orfoepiya bo‘limlari bilan ham chambarchas bog‘liq.

Grafika bilan fonetika va fonologiya o‘zaro aloqada bo‘lib, badiiy asarlarni o‘qitish usullarini rivojlantirishda, boshlang‘ich o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Husnixat grafika nazariyasiga asoslanadi. Leksikologiyani bilish maktabda lug‘at ishlarini to‘g‘ri tashkil etish uchun zarur: sinonimlar, antonimlar, so‘zlarning tematik guruhlarini bilan turli xil mashqlar va hokazo.

Morfologiya va sintaksis tilshunoslik fanlari sifatida tilning mavhumligini, tilning tuzilishi, uning tizimi haqidagi g‘oyalarni to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi, imlo masalalarini hal qilishda grammatik ma’lumotlardan foydalanadi. Grammatikani bilmasdan turib, imlo va tinish belgilarini ishlab chiqish mumkin emas.

Grammatika nutqni rivojlantirishda ham muhim, chunki u so‘z shakllarining to‘g‘ri shakllanishini, jumalardagi so‘zlarning to‘g‘ri bog‘lanishini va jumalarning to‘g‘ri tuzilishini ta’minlaydi.

Demak, ona tili o‘qitish metodikasi fani tilshunoslik fani bilan ham chambarchas bog‘liq. 1-4-sinflarda ona tili darslarida o‘quvchilar tilga oid fonetik, grammatik va to‘g‘ri yozishga o‘rganish haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bu esa ona tili o‘qitish metodikasi fanining tilshunoslik bilan aloqasini ta’minlaydi.

Til o‘qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko‘pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o‘qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvi va vazifasini bilishning o‘zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo‘lganligi sababli, mashg‘ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o‘quvchi va talabaning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun til ma’ruza orqali emas, balki nutq ko‘rinishlarini tahlil qilish, so‘z birikmasi va gap modellarini o‘zlashtirish, esda saqlash orqali o‘rganiladi. Hozirgi dolzarb masalalardan biri o‘zbek tilining kasb-hunar, ilm-fan va texnika tili sifatidagi lisoniy asosini kengaytirish, atamalarini boyitish hamdir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida turli janrdagi asarlar – hikoya, ertak, she’r, masal kabilar o‘rganiladi. Bu xildagi ish turlaridan kelib chiqqan holda, adabiyotshunoslikka oid ayrim elementlar – o‘xshatish, jonlantirish, sifatlash kabilar haqida ham ona tili o‘qitish metodikasi fanida boshlang‘ich tushunchalar beriladi. Shuning uchun ham ona tili o‘qitish metodikasi adabiyotshunoslik bilan aloqada bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonining umumiy va xususiy tomonlari bor. Ta’limning umumiy tomonini umumiy didaktika, xususiy tomonini xususiy didaktika o‘rganadi.

Umumiy didaktika o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro ta’sirini o‘rganadi va u barcha o‘quv fanlari uchun aloqadordir. “Ona tili o‘qitish metodikasi” umumiy didaktika bo‘yicha o‘rganilganlarni oydinlashtiradi, ya’ni umumiy didaktikadan o‘rganilgan ta’limning maqsadi, qonuniyatlari, prinsiplari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarining ona tilini o‘qitish jarayonida voqelanishini aniqlaydi.

Modomiki shunday ekan, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fani didaktikaga tayanib ish ko‘radi. Chunonchi, ona tili o‘qitish prinsiplari yoki metodlari xususida fikr



yuritilar ekan, avvalo, umumdidaktik prinsiplar va metodlar, keyin xususiy prinsiplar va metodlarga to‘xtalinadi.

Ta’lim prinsiplari jamiyatimizning maktab oldiga qo‘ygan talablaridan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o‘qitish prinsiplarini amalda to‘g‘ri qo‘llash bilan chambarchas bog‘langan.

O‘qitish prinsipi nima? “Prinsip” lotincha so‘z bo‘lib, “asos, qoida, talab” singari ma’nolarni ifodalaydi. “O‘qitish prinsipi” deganda, dars samaradorligini ta’minlash, ta’lim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qo‘yilgan asosiy talablar, qoidalar tushuniladi. O‘qituvchi ta’lim ishini tashkil etar ekan, ana shu qoida va talablardan kelib chiqadi va ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlagan holda, amalda tatbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishadi.

Ona tili darslarida, bir tomondan, umumdidaktik prinsiplarni, ikkinchi tomondan, shu fanni o‘qitishning o‘ziga xos prinsiplarini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Umumdidaktik prinsiplar garchand maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo‘lsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiatidan, o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Maktabda o‘qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo‘lgan didaktik prinsiplar: o‘qitishning bolaga ma’lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o‘qitishning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarligi; sistemaviylik va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; onglilik, faollik va mustaqillik; ko‘rsatmalilik; o‘quvchilarga individual munosabatda bo‘lish va ularning o‘quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi prinsiplar garchand umumdidaktik prinsiplar sanalsa ham, ammo ona tili o‘qitish nazariyasi va usuliyatida ularning har biri o‘ziga xos mazmun kashf etadi.

Ona tili o‘qitishda umumdidaktik prinsiplar bilan bir qatorda shu fanning tabiatidan kelib chiqadigan quyidagi o‘ziga xos prinsiplar ham mavjud:

a) “til- me’yor-nutq mutanosibligi” prinsipi;

b) o‘zbek tili fanini o‘qitish orqali o‘quvchilar tafakkurining o‘sishiga erishish prinsipi;



v) o‘zbek tilini o‘qitishda mavzulararo, bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishga qat’iy amal qilish prinsipi;

g) o‘quvchilarni til hodisalarini ajratishga o‘rgatish prinsipi;

d) o‘zbek tilini o‘qitish orqali o‘quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini oshirish prinsipi;

e) ona tili o‘qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta’sirini nazarda tutish prinsipi.

Maktabda ona tili o‘qitishning bu o‘ziga xos prinsiplari umumdidaktik prinsiplar bilan uyg‘unlashib, ona tili darslari samaradorligini ta’minlovchi asosiy talablar silsilasini vujudga keltiradi.

Ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir. Ularni bir-biridan ajratgan holda alohida-alohida yoki darsning muayyan bir bosqichida birin-ketinlik bilan amalga oshirib bo‘lmaydi. O‘quvchilar til hodisalarini o‘rganishar ekan, ayni vaqtda, shu jarayonda ularga tarbiya beriladi, shaxsi rivojlantiriladi.

Ma’rifiy matnlar ta’lim, tarbiya va rivojlanishni ta’minlovchi muhim vositadir.

Ona tili mashg‘ulotlarida tanlanadigan matnlar mavzu jihatidan rang-barang bo‘lsa, o‘quvchilarning til materiallariga qiziqish darajasi ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Ona tili darslarini o‘quvchilarning kundalik hayoti, mehnat faoliyati, turmushi bilan bog‘lash, foydalanish uchun tanlanadigan rasmlarning mazmun va mavzuiy rang-barangligini kuchaytirish darsning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo‘nalishini oshiradi.

Ma’lumki, ona tili darslarida o‘quvchilar bajaradigan ishlar: kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari; xayol, diqqat, xotira, tafakkur kabi shaxsiy psixik xususiyatlarni rivojlantirish, qiyinchiliklarni yengish mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, ayni vaqtda, o‘quvchi shaxsini rivojlantiradi.

Ta’limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarli bo‘lishi prinsiplari o‘zaro bog‘langan, bir-birini to‘ldiradigan didaktik kategoriyalardir.

Ta'limning ilmiyligi prinsipi o'quv materialini hozirgi zamon o'zbek tilshunosligi fani yutuqlari asosida bayon qilishni taqozo etsa, ta'limning bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsipi o'quv materiallarini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilish imkoniyatlariga moslab bayon qilishni talab etadi. Ta'lim jarayoni mantiqi bu prinsiplarni o'zaro aloqadorlikda qarashni zaruriyat qilib qo'yadi. Mazkur prinsipga ko'ra, ona tilidan har bir sinfda o'rganiladigan material hajm hamda mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Maktabda ona tili fani o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Bu prinsip o'quvchilarni hozirgi o'zbek tilshunosligida qat'iy hal etilgan, ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi.

Ilmiylik prinsipini tushunarlilikdan ajratib bo'lmaydi. Bu ikki prinsip bir-birini to'ldiradi va dars samaradorligini ta'minlaydi. Ona tili darslarida ilmiylik va tushunarlilikni ta'minlash uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

- fanda ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan, ilmiy jihatdan asoslangan maktab atamalarini ishlatish; har bir tushuncha va atamaning ma'nosini atroflicha ochish; ularni bolalarning puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun yetarli miqdorda asosli materiallar bilan tahlil qilish;

- o'rganilayotgan o'quv materialining oldin o'rganilgan mavzular bilan bog'liqligiga amal qilish; bolalarni keyingi mavzularni o'zlashtirishga tayyorlash; til asoslari, tushunchalarini o'zaro chog'ishtirib o'rganish;

- ona tili ta'limi mazmunida grammatizmga yo'l qo'ymaslik, o'quv materialini bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlashga, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki hamda yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga bo'ysundirish;

- o'quv topshiriqlarini o'quvchilarning ruhiy (psixologik) xususiyatlari va imkoniyatlariga mo'ljallab tanlash.

### **Savol va topshiriqlar:**

- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ta'lim

sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini aytib bering.

- Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Munis Xorazmiylar til ta'limini o'z asarlarida qanday talqin va targ'ib etishgan?

- “Ona tili o'qitish metodikasi”ning fan sifatida shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli to'g'risida nimalarni bilasiz?

- “Ona tili o'qitish metodikasi” fanining shakllanish jarayonini nechta davrga bo'lib o'rganish mumkin?

- “Izohli o'quv” ta'limi deganda nimani tushunasiz?

- XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ta'lim sohasida yuz bergan o'zgarishlar haqida nimalar bilasiz?

- “Ona tili”dan yangi yo'nalishdagi darsliklarning yaratilishiga nimalar asos bo'lgan?

- 50-80-yillarda Ona tili o'qitish metodikasi fanining rivojlanishida kimlarning ilmiy qarashlari va asarlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan?

- Mustaqillik yillarida ona tili ta'limi sohasidagi islohotlar haqida so'zlang?

- “Ona tili o'qitish metodikasi” fanining obykti, predmeti, maqsad va vazifalarini asoslang.

- Ona tilidan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi deganda nimani tushunasiz?

- “Ona tili o'qitish metodikasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikringiz?

- Ona tilini fan sifatida o'qitishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy zaruriyatlari deganda nimani tushunasiz?

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarida “O'zbek tili”ning o'quv fani sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixini qanday davrlashtirish mumkin?

- Ona tili ta'limining asosiy maqsadi nimadan iborat?

- “O'zbek tili” doimiy anjumanlari (O'TDA) haqida nimalar bilasiz?

- Maktabda ona tili o'qitishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

- Mustaqillik yillarida yaratilgan “Ona tili” darsliklari haqida fikr-mulohaza

bildiring.

- Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning muhim belgilarini ayting.
- Nima uchun matn ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko‘rinishi hisoblanadi?
- Ona tilidan o‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi qaysi parametrlar orqali tekshiriladi?
- Ona tili darslarida o‘quvchini ta’lim jarayonining subyektiga aylantirishda nimalarga e’tibor berish kerak?

## II BOB. SAVOD O‘RGATISH METODIKASI

### 2. SAVOD O‘RGATISH METODIKASINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

#### SAVOD O‘RGATISH METODIKASINING ILMIY, PSIXOLOGIK VA LINGVISTIK ASOSLARI

**Tayanch tushunchalar:** *bolalarga savod o‘rgatish, boshlang‘ich sinf fan dasturi, o‘qish va yozish qobiliyati, boshlang‘ich savodxonlik dasturi, nutq faoliyati, og‘zaki nutq, o‘quvchilarni ongli va to‘g‘ri o‘qish, yozishga o‘rgatish, o‘quvchilarni harflarni to‘g‘ri yozishga, harfni harfga qo‘shib, so‘z va gaplarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish, imlo qoidalariga rioya qilib, savodli yozishga o‘rgatish, o‘quvchilarning lug‘at boyligini va nutqini o‘stirish, bolalarga axloq-odob, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik kabi tarbiyalarni singdirish*

Bolalarga savod o‘rgatish katta ta’limiy ahamiyatga ega. Bunda bola o‘qish va yozishga o‘rganadi Savod o‘rgatish ta’limning muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda bolaning mukammal bilim olishi keyingi davr uchun ham katta ahamiyatga ega.

Maktabdagi ta’lim boshlang‘ich o‘qish va yozishdan boshlanadi. Boshlang‘ich sinfda fan dasturi doirasida bolalar 3-3,5 oy davomida o‘qish va yozishni o‘rganadi.

Bu davrda o‘qish va yozish qobiliyati shakllanadi, ko‘nikmalar hosil qilinadi va mustahkamlanadi

Maktabning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ushbu boshlang‘ich savodxonlik dasturi qanday tashkil qilinganligiga bog‘liq.

O‘qish va yozish qobiliyatlari nutq faoliyatining boshqa turlari bilan –og‘zaki nutq bilan, tinglash bilan – birovning nutqini eshitish, ichki nutq bilan uzluksiz tarzda shakllanadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich o‘qish va yozishni o‘rgatish – savodxonlik davri mashg‘ulotlari o‘quvchilarning faoliyati, bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan motivlar va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lishi kerak.

Bolalar o‘qishni o‘rganish jarayonida topishmoqni topish, rasm izohida nima yozilganligini bilish, tengdoshlari eshitishi uchun so‘zni o‘qish, so‘zni o‘qish uchun harflarni birlashtirish kabi vazifalarni bajaradilar. Masalan, kub o‘ynayotgan bola uchun o‘yinning maqsadi bino qurish emas, balki uni bajarish, ya’ni harakat. Bu maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiyalanuvchi haqidagi fikrdir. Ammo boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ham bu borada maktabgacha ta’lim muassasasidagi tarbiyalanuvchidan unchalik farq qilmaydi. Demak, metodika nafaqat o‘z nuqtayi nazariga ko‘ra yondashishi, balki o‘qish va yozish jarayonidagi motivlarni ham o‘z ichiga olishi kerak. O‘qilganlarni va bolalar nima yozayotganligini tushunish ham muvaffaqiyatli savodxonlik uchun zarur shartdir. Yozish, tushunish ma’noni anglash harakatlardan oldin bo‘ladi, o‘qishda esa o‘qish harakatlaridan kelib chiqiladi. Shuning uchun savodxonlik nutq va aqliy faoliyatning har xil turlarini o‘z ichiga oladi: jonli suhbatlar, hikoyalar, kuzatishlar, topishmoqlarni topish, ovozli yozuvlarini tinglash va b.

Harakatlarni takroriy bajarmasdan mahoratni shakllantirish mumkin emas. Shuning uchun, savodxonlikni o‘rgatishda ko‘p o‘qish va yozish talab etiladi. Bunda o‘qish uchun va yozish uchun yangi matnlar olinadi. Negaki, xuddi shu narsani qayta-qayta o‘qish oqlanmaydi, nutq faoliyati uchun motivatsiya prinsipiga javob bermaydi va ko‘pincha o‘qilayotgan matnni mexanik yodlashga olib keladi. Bundan tashqari, takroriy harakatlardagi vaziyat va tarkibning o‘zgarishi mahoratni kuchaytirishga, harakatlarni o‘tkazish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalarga savod o‘rgatish o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

1. O‘quvchilarni ongli va to‘g‘ri o‘qish, yozishga o‘rgatish.
2. O‘quvchilarni harflarni to‘g‘ri yozishga, harfni harfga qo‘shib, so‘z va gaplarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish.
3. Imlo qoidalariga rioya qilib, savodli yozishga o‘rgatish.
4. O‘quvchilarning lug‘at boyligini va nutqini o‘stirish.
5. Bolalarga axloq-odob, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik kabi tarbiyalarni singdirish.

Bu vazifalar savod o‘rgatish davrida alifbe va yozuv darslarida amalga oshiriladi.

Savod o‘rgatishda qadimda eski usuldagi maktablarda turli metodlardan foydalanilgan. Unda o‘qish bilan yozish bir vaqtda o‘rgatilmagan, avval faqat o‘qishga o‘rgatilgan. O‘qish “hijo” usuli orqali amalga oshirilgan. O‘qishga o‘rgatishning bu usuli "hijai qadimiy" deb ham atalgan. Bu usulda o‘qishga o‘rgatish uch bosqichda olib borilgan:

1- bosqich. Bu bosqichda harflar nomi yodlatiladi. Bu harfiy metod deyilgan.

2- bosqich. Bu bosqichda bo‘g‘in hosil qilish o‘rgatilgan. Harflar nomi yodlab bo‘lingach, bo‘g‘in hosil qilish – zer-u zabarni o‘rgatishga o‘tilgan. Bunda ham quruq yodlatilgan.

3- bosqich – bo‘g‘inlarni qo‘shish. Eski maktabda bo‘g‘inni bo‘g‘inga qo‘shib, so‘zlar yodlatilgan. Bu usuldagi savod o‘rgatishda bolalarning savodi chiqmagan.

Turkistonda taxminan XIX asrning ikkinchi yarmida ochilgan rus-tuzem maktablari savod o‘rgatishda ma’lum darajada ijobiy natijalarga erishdi. Rus-tuzem maktablarining o‘zbek sinflarida o‘zbekcha xat-savod o‘rgatish metodi 1900-yildan boshlab asta-sekin isloh qilindi. Hijo metodidan tovush metodiga o‘tildi. 1902-yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodiga muvofiq tuzilgan alifbesi – “Ustodi avval” qo‘llanmasi nashr etildi. Mazkur qo‘llanma uch bo‘limdan iborat edi:

1-bo‘lim: Alifbe bo‘limi. Unda tovush va harf o‘rgatiladi.

2-bo‘lim: Alifbedan keyingi davr. Bu davrda hikoya, masal, ertaklar o‘qilgan.

3-bo‘lim: “Alifboi Qur’on”. Mazkur bo‘limda bolalarga islom dinining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”ni tushunib o‘qishga o‘rgatish maqsad qilib qo‘yilgan.

Ushbu qo‘llanma orqali bolalar uch-to‘rt oy ichida o‘qish va yozishni mukammal o‘rganib olganlar.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Nutq faoliyatining turlari va ularning shakllanishini tushuntiring.
- Eski maktablarda savod o‘rgatish qanday metod va bosqichlarda olib borilgan?
- O‘zbek sinflari uchun yaratilgan dastlabgi o‘quv qo‘llanmaning afzal-liklari nimalardan iborat?
- Bolalarga savod o‘rgatish qanday vazifalarni o‘z ichiga oladi?
- Eski maktablardagi va bugungi kundagi o‘qitish usullari va vositalarini o‘zaro taqqoslab, fikrlaringizni bayon eting.

### **3. SAVOD O‘RGATISHNING ANALIZ-SINTEZ (TAHLIL-TARKIB) TOVUSH METODI. SAVOD O‘RGATISH DAVRLARI**

**Tayanch tushunchalar:** *o‘qish jarayoni, idrok, xotira, fikrlash va nutq, kognitiv jarayon, kognitiv faoliyat, o‘quvchining rivojlanishi, savodxonlik davri, fonemik eshitish, fonema, analiz-sintez (tahlil-tarkib) tovush metodi, shaxsni shakllantirish, o‘qish va yozishning parallelligi, jonli nutq, savod o‘rgatishda tovush, o‘qish birligi, bo‘g‘in, differensial va individual yondashish*

Birinchi sinf o‘quvchisi uchun o‘qish jarayoni murakkab jarayon. Bola mazkur jarayonni muvaffaqiyatli o‘tashi uchun qiziqish, xohish-istak va e’tibor, barqarorlik talab qilinadi. Bunda bolada idrok, xotira, fikrlash va nutq kabi eng muhim kognitiv jarayonlarning rivojlanishi katta ahamiyatga ega.



Har bir o‘quvchining faol, ko‘p jihatdan mustaqil, kognitiv faoliyatga ega bo‘lishini maqsad qilib olgan tarzda o‘quv jarayonini tashkil etish bola idrokining tezligi va aniqligini, diqqatning barqarorligini, davomiyligi va kengligini, xotira mustahkamligini rivojlantiradi.

O‘quvchining rivojlanishi faqat faoliyat orqaligina samarali bo‘lishi mumkin.

Maxsus tadqiqotlar va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, 1-sinfga kelgan bolalar, ayniqsa, bolalar bog‘chasidan boshlab, aqliy rivojlanishda individual tovushlarni idrok etishga, aqliy harakatlar sifatida tahlil va sintez qilishga tayyor.

Savodxonlik davrida fonemik eshitishning rivojlanishiga katta e‘tibor qaratiladi, ya’ni nutq oqimida individual tovushlarni ajratish, tovushlarni so‘zlardan, bo‘g‘inlardan ajratish qobiliyati shakllantiriladi.

Fonemalarning tovush variantlarini farqlash uchun o‘quvchilar fonemalarni (asosiy tovushlarni) tanib olishlari kerak.

Fonemik eshitish nafaqat muvaffaqiyatli o‘rganish uchun, balki imlo mahoratini rivojlantirish uchun ham zarurdir.

Fonemik eshitishning rivojlanishi ham yuqori darajada rivojlangan eshitish vositasini talab qiladi. Shuning uchun, savodxonlik davrida turli xil eshitish mashqlarini bajarish maqsadga muvofiq. Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozishning asosi – bu bolalarning o‘z nutqlari, maktabgacha davrdagi rivojlanish darajasining yuqoriligidir.

Savod o‘rgatishning analiz-sintez (tahlil-tarkib) tovush metodi rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan yaratilgan. Analitik (analiz)-tahlil, *yaxlitdan maydaga*, sintetik (sintez)-tarkib, *maydadan yaxlitga* degan tushunchani ifodalaydi. Bu metodga ko‘ra, savod o‘rgatishda tovush asos qilib olinadi. So‘zning ma’nosini o‘zgartira oluvchi tovush yozuvda harf orqali ifodalanishi, so‘zda tovushlar almashinishi, ortishi yoki kamayishi natijasida boshqa bir yangi so‘z hosil bo‘lishi mumkinligi bolalar ongiga yetkaziladi. Masalan: *don-non; ko‘z-kuz; son-son; tilak-bilak; ziyrak-zirak*.

Analiz-sintez tovush metodining tavsifi:

1. Bu metod shaxsni shakllantirish maqsadiga ko‘ra, ta’limiy xarakterga ega, chunki bu metod orqali o‘quvchilar savodli bo‘ladi.



2. Bu metodga ko'ra, savod o'rgatish quyidagi davrlarda olib boriladi: *tayyorgarlik davri, alifbe harfiy davr, alifbedan keyingi davr.*

3. O'qish va yozish bir vaqtda, parallel holda olib boriladi.

4. Savod o'rgatishda bolalarning jonli nutqiga suyaniladi.

5. Savod o'rgatishda tovush asos qilib olinadi.

6. O'qish birligi bo'g'in hisoblanadi.

7. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashiladi.

8. Tilga oid fonetik va grammatik bilimlar nazariy tushunchalarsiz, amaliy tarzda beriladi.

O'quvchilarga xat-savod analiz-sintez (tahlil-tarkib) tovush metodi bilan o'rgatiladi. Bu metodning asosini tovushni tahlil va tarkib qilish tashkil etadi. Analitik-sintetik mashqlar bir-biri bilan bog'liq holda olib boriladi.

Analitik mashqda nutq gaplarga; gap so'zlarga; so'z bo'g'inlarga; bo'g'in tovushlarga bo'linadi.

Sintez mashqida tovushlardan bo'g'in, bo'g'inlardan so'z, so'zlardan gap, gaplardan bog'lanishli nutqni hosil qilish haqida tushuncha beriladi.

O'qituvchi bolalar uchun tushunarli bo'lgan badiiy asarlarni o'qiydi. O'qilgan asar bolalar maktabgacha davrda tanishgan asar bo'lishi mumkin.

O'qituvchi nutq oqimidan jummalarni, keyin so'zlarni ajratib ko'rsatadi. So'zlarni bo'g'inlarga ajratadi, ta'kidlangan bo'g'inlarni bolalar takrorlaydi. So'zlar bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli va uch bo'g'inli bo'lishi mumkin. O'qituvchi undan tovushlarni ajratib ko'rsatadi.

Maktabgacha (tayyorgarlik) davrida bolalarga ular uchun nisbatan yangi faoliyat qo'shiladi: maktabgacha bo'lgan davrda o'yin faoliyati ustunlik qilgan bo'lsa, maktabda ustuvorlik doimiy diqqat, ixtiyoriy kuch va o'zini boshqarish qobiliyatini talab qiladi.

Darslar ko'ngilochar va quvnoq lahzalar tarzida o'tkazilishi kerak. Unda topishmoqlar, ertaklar aytib berish, ularni sahnalashtirish, ertak syujetini ijodiy ifodalash, o'quvchilarning hikoyalari kabilar o'qituvchining mahoratini namoyon etadi.

Tayyorgarlik davrida bolalar o'qituvchining ko'rsatmalariga quloq solishni va aniq bajarishni o'rganadilar, o'rtoqlarining javoblarini tinglaydilar, xatolarini payqaydilar. Ular

savollarga baland ovozda, aniq, izchil javob berishni, sinf ishlarida faol ishtirok etishni o'rganadilar.

Alifbo davri savodxonlik jarayonining ikkinchi davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar barcha harflarni, o'qishni va yozishni o'rganadilar. Ushbu davr savod o'rganishda muhim bo'lganligi sababli, unda o'qituvchi ko'plab turli xil usullardan o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanishi lozim.

O'qituvchi, birinchidan, o'rganilayotgan tovushlar va harflarning alfavit tartibi, keyin esa unli va undosh tovushlar bilan qanday tanishtirish masalalarini bir-biri bilan uzviy bog'lashi lozim.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi va o'qish jarayoni o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni izohlang.
- Savod o'rgatish jarayoni haqida to'liq ma'lumot bering.
- Fonemik eshitish savodxonlikni shakllantirishda qanday rol o'ynaydi?
- Analitik-sintetik tovush metodi va uning tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?
- Savod o'rgatish jarayoni oxirida o'quvchilar qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur?

## **4. SAVOD O'RGATISH JARAYONI BOSQICHLARI. SAVOD O'RGATISHDA TAYYORLOV DAVRI, BU BOSQICHDAGI O'QISH VA YOZUV DARSLARINING MAVZULARI HAMDA ISH TURLARI**

**Tayanch tushunchalar:** *o'qish ko'nikmasi, so'zni sidirg'a o'qish, bo'g'inlab o'qish, harflab o'qish, yozuv ko'nikmasi, hamma harfni yoza olish, so'zni yozish (bosma yoki yozma), ayrim harflarnigina yozishni bilish (bosma yoki yozma), yozishni butunlay bilmaslik, tovushni analiz qilishga tayyorgarlik ko'nikmasi, so'zni bo'g'inlarga bo'lish, so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratish, hamma tovushni to'g'ri talaffuz qilish, ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish*

Savod o'rgatish uch davrdan iborat:

1. Tayyorgarlik davri.

2. Alifbe harfiy davr.
3. Alifbedan keyingi – o‘qish va yozishga o‘rgatish davri.

Tayyorgarlik davri bir hafta davom etadi, bu davrning ahamiyati shundaki, bolalar nutqni o‘stirishga, harflarning belgisini yozishga o‘rganishlari kerak. Tayyorgarlik davrining vazifalari quyidagilardir:

1. Maktab hayoti bilan tanishtiriladi, qoidalari, talablari o‘rgatiladi.
2. O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasini tashkil etish va har bir o‘quvchi shu jamoaning a‘zosi ekanligini ular ongiga singdiradi.
3. Partada to‘g‘ri o‘tirish, savol yoki javob berishdan avval qo‘l ko‘tarish, hamma eshitadigan qilib shoshilmay gapirish, kitob va daftarni ozoda tutish, maktab jihozlarini yaxshi saqlash lozimligi va boshqalar haqida tushuntiriladi.
4. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan tanishadi, ularni o‘rganib chiqadi.
5. O‘quvchilar o‘quv qurollari bilan tanishtiriladi. Birinchi navbatda, “Alifbe” kitobi bilan tanishtiriladi. Uning muqovasi, muallifi, varaqlari bilan tanishtiriladi.
6. Yozuv daftarini qanday tutish kerakligi tushuntiriladi.
7. O‘quvchilarning nutqini o‘stirish uchun so‘z, gap, hikoya ustida ishlanadi.
8. Tovush analiz qilishga o‘rgatiladi.

Nutqni analiz qilishga o‘quvchilarni o‘rgatishda, asosan, analitik mashqlardan foydalaniladi. Bunda o‘quvchilar gapni so‘zlarga bo‘lish yuzasidan dastlabgi mashqlarni bajaradi. Ular quyidagilardir:

1. Alifbe kitobidagi rasmlarga qarab gaplar tuziladi.
2. Har bir gapdagi so‘zlar nechta ekanligi aniqlanadi.
3. Tuzilgan gapdagi so‘zlar chiziqlar bilan belgilab ko‘rsatiladi.
4. Gaplar sxemaga solinadi.
5. So‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi: *lo-la, gul-don*.
6. So‘zdagi ayrim unli va undosh tovushlar haqida ma’lumot beriladi.

Yozuvga o‘rgatish:

Birinchi sinf o‘quvchilari uchun harf va harflarni to‘g‘ri qo‘shib yozish qiyin va muhim mashg‘ulot hisoblanadi. Alifbegacha bo‘lgan davrda bolalar yozuvga tayyorlaydigan mashqlarni bajaradilar.

Avvalo, bolalarni yozuv mashqini bajarish vaqtida to‘g‘ri va erkin o‘tirishga, ruchkani to‘g‘ri ushlagan, daftarni parta ustida me‘yordagi qiyalikda qo‘yishga o‘rgatish zarur. Buning uchun *“Yozganda to‘g‘ri o‘tir”* nomli rasmdan foydalaniladi. Daftar chiziqlari bilan tanishtiriladi va unga harf qismlarini yozishga, ular oralig‘ini to‘g‘ri chamalashga o‘rgatiladi.

Savod o‘rgatishning dastlabgi davrida o‘quv mashg‘ulotlari yetti yoshli bolaning yosh xususiyatlarini, uning diqqatini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu davrda o‘quvchilar uzoq vaqt bir xil ish bilan shug‘ullana olmaydilar. Shuning uchun ham, ish turi har 10-15 minutda boshqasi bilan almashtirib turilishi lozim. Darsda ish shunday uyushtirilishi kerak: hikoya qilish va suhbatlar o‘quvchilarning faol harakati va jismoniy mashqlar bilan almashtirib turiladi.

Alifbedan rasmlar mazmuni asosida gapni so‘zlarga bo‘lish yuzasidan olib borilgan suhbatdan so‘ng o‘quvchilarga ertak aytiladi. Shu ertak qahramonlarining rasmlarini chizadilar. Ertakdan bitta gap olinib, gap tarkibida nechta so‘z borligi so‘raladi hamda doskaga to‘g‘ri chiziq bilan sxemasi chiziladi. O‘quvchilarning o‘zlari ham doskada va daftarlarida shunday mashqlarni bajaradilar.

Yozuv darsida o‘qituvchining tushuntirishi o‘quvchilarning barmoq harakati yuzasidan bajaradigan mashqlari bilan almashtirib turiladi, ya’ni o‘quvchilar ruchka ushlagan qo‘llaridagi barmoqlarning qanday ko‘tarilishi va pastga tushirilishini ko‘rsatadilar. O‘quvchilar yozadilar, ularning qo‘llari charchasa, qo‘l va barmoqlarini harakatga keltiruvchi mashqlar bajartiriladi.

O‘quv jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan savodxonlik jarayonida o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan va individual yondashish lozim. Bu bolalarning umumiy rivojlanishdagi sezilarli farqlar bilan bog‘liq. 1-sinfga kelgan yetti yoshli bolalarda o‘qish va yozishga tayyorlik darajasi tadqiqotlarga ko‘ra shuni ko‘rsatdiki, ular harflarning 80 foizini yoki barcha harflarni biladi.

Ularning ko‘plari tahliliy – bo‘g‘inlar, ba’zilari sintetik, ya’ni so‘zlar bilan o‘qiydilar. Shuning uchun o‘qituvchining zimmasiga o‘qitish istiqbollari nuqtayi nazaridan, grammatika, so‘zlarni shakllantirish, imlo, leksikologiyaning propedevtik elementlarini muntazam ravishda

joriy etish, psixologik va lingvistik nuqtayi nazardan, kirish va qulaylikni hisobga olgan holda, tovushlar va harflarni o‘rganishning eng oqilona tartibini izlash, ikkinchi tomondan, ta’lim va rivojlanishni ta’minlash vazifalari yuklatiladi.

Birinchi sinf o‘quvchisi bilan yozish jarayoni ko‘plab mustaqil harakatlarga bo‘linadi. Bunda o‘quvchi qalamni to‘g‘ri ushlab turishi, daftarni talab darajasida qo‘yishi kerak. Xat yozishni o‘rgangan holda, o‘quvchi uning shakli, elementlarini eslab qolishi, o‘lchagichni hisobga olgan holda daftarga chiziq qo‘yishi, qalamning chiziq bo‘ylab qanday harakatlanishini yodda tutishi kerak. Agar u butun so‘zni yozsa, u bitta harfning boshqasiga qanday bog‘lanishini ham eslab qolishi va bu so‘z satrga to‘g‘ri kelishini hisoblashi kerak. U daftarning teshigini siljitmasdan qanday o‘tirishni yodda tutishi kerak. Bola hali bu vazifalarni bajarishga odatlanmagan, shuning uchun yuqorida ko‘rsatilgan barcha harakatlar ongli harakatlarni talab qiladi. Bu nafaqat yozishni tezlashtiradi, balki bolani aqliy va jismoniy tomondan charchatadi. Birinchi sinf o‘quvchisi yozganda, butun vujudi, ayniqsa, qo‘l va bilak mushaklari charchab qoladi. Bu esa dars paytida maxsus jismoniy mashqlar zarurligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi o‘quvchining qanday yozganini kuzatadi. Ruchka asta-sekin, noaniq ravishda qog‘ozga siljiydi, miltillaydi; o‘quvchi yozgandan so‘ng, o‘qituvchi uni tekshiradi, namunasi bilan taqqoslaydi va ba’zan tuzatadi. Qo‘llarning harakati ko‘pincha bosh yoki tilning harakatlari bilan birga keladi.

O‘quvchining daftarlarini tekshirib, o‘qituvchi har xil holatlarda bir xil harflar turli xil yozilganligiga ishonch hosil qiladi. Bu mahoratning yetishmasligi, charchoqning natijasidir. O‘quvchilar uchun xat va so‘zlarni qayta yozish bu mexanik jarayon emas, balki ongli faoliyatdir. O‘quvchi o‘z ishiga ko‘p kuch sarflaydi.

Savod o‘rganishni to‘g‘ri tashkil qilish uchun bolalarning nutqiy tayyorgalik darajasini maxsus o‘rganish talab etiladi. Bunday maxsus o‘rganish bola maktabga kelishidan oldin, ya’ni avgust, hatto undan oldin boshlanadi. Bahorda o‘qituvchi birinchi sinfga keladigan bolalarning oilasiga va bolalar bog‘chasiga boradi. Ular bilan suhbat o‘tkazadi, savollar beradi, biror narsa haqida hikoya qilib berishni tavsiya qiladi, bolalarning umumiy bilim darajasini aniqlaydi.

Yig‘ilgan ma’lumotlarni hisobga olib, nutqiy tayyorgarligi qayd etib boriladi. Bu o‘qitishda bolaga individual yoki differensial yondashish uchun kerak bo‘ladi.

Tanishish natijasini hisobga olish va nutqiy tayyorgarlikni o'rganish uchun quyidagi jadvalni tavsiya qilish mumkun:

I. O'qish ko'nikmasi:

1. So'zni sidirg'a o'qiydi.
2. Bo'g'inlab o'qiydi.
3. Harflab o'qiydi (noto'g'ri o'qish ko'nikmasi).
4. Anchagina harfni biladi, ammo o'qimaydi.
5. Ayrim harflarnigina biladi.

II. Yozuv ko'nikmasi:

1. Hamma harfni yozishni biladi, so'zni yozadi (bosma yoki yozma).
2. Ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma).
3. Yozishni butunlay bilmaydi.

III. Tovushni analiz qilishga tayyorgarlik ko'nikmasi.

1. So'zni bo'g'inlarga bo'ladi.
2. So'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi.
3. Hamma tovushni to'g'ri talaffuz qiladi.
4. Ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi.

IV. She'rni yoddan aytish.

1. Uchta she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi.
2. Bir-ikki she'rni biladi. Aytishga uyaladi.
3. Birorta she'rni yoddan o'qishni bilmaydi.

V. Og'zaki bog'lanishli nutq. Ertak aytish.

1. Bir yoki bir necha ertakni aytishni biladi.
2. Ertakni aytishga harakat qiladi, ammo aytolmaydi.
3. Ertak aytishni bilmaydi, o'rganishga harakat ham qilmaydi.

VI. Og'zaki bog'lanishli nutq, fikr bayon qilish.

*(Rasmda nimalarni ko'rayotganingni aytib ber.)*

1. 20 so'zdan ortiq bog'lanishli hikoya, bir necha gap.
2. 10 tadan 20 tagacha so'z, bir necha gap.

3.10 tacha soʻzli, bogʻlanishli javob.

4. 3-4 soʻzli qisqa gap.

Rus pedagogi Ushinskiy oʻz uslubini “yozish va oʻqish uslubi” deb atagan. U yozuvni oʻqishdan ajratib boʻlmasligini ishonchli tarzda isbotladi. U ovoz tahliliga asoslangan yozuvni oʻqishdan oldinroq boshlash kerak deb hisoblagan. Ushinskiyning "Alifbosi" ga binoan, bolalar dastlab qoʻl yozuvi bilan tanishadilar va keyin bosma harflar kiritiladi. Ammo shunga qaramay, yangi harf, tovushni oʻrganib chiqib, birinchi navbatda, yozma ravishda beriladi.

K.D.Ushinskiy oʻz metodikasida tahlil va sintezni birlashtirgan, tovushlar, boʻgʻinlar va soʻzlar yordamida analitik va sintetik mashqlar tizimini joriy etgan. Uning tizimida tahlil va sintez ajralmas va bir-birini qoʻllab-quvvatlaydi.

Uning metodikasining ustunligi shundaki, u jonli nutqqa tayanardi. Savodxonlik oʻquvchilarning nutqini rivojlantirish bilan bogʻliq. Birinchi darslardan boshlab bolalar xalq maqollari, topishmoqlar bilan ishlaydilar; oʻqilishi mumkin boʻlgan matnlar bolalar uchun mavjud. Ovozli tahlil qilish uchun oʻquvchilarning nutqidan olingan jumlar va soʻzlar ishlatiladi.

Ushinskiy oʻzining rivojlanish xususiyatini metodikaning afzalligi deb hisoblagan. Va haqiqatan ham, analitik va sintetik mashqlar, nutqni rivojlantirishga doimiy eʼtibor, maʼlumotlarni oʻqishga eʼtibor, suhbatlar, yozish va oʻqish oʻrtasidagi munosabatlar – bularning barchasi oʻquvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishning izchil tizimini yaratdi. Ovozli analitik-sintetik usul shu tariqa ommaviy taʼlim uchun kurash yoʻlidagi katta qadamni anglatadi. Bu soʻzma-soʻz usulning dogmatizmini butunlay yoʻq qiladi.

Ushinskiyning butun pedagogik tizimi bolani har tomonlama rivojlantirishga, uning tafakkuri va nutqini rivojlantirishga qaratilgan edi va u ishlab chiqqan savodxonlik metodi uning tizimidagi birinchi boʻgʻin edi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

- Savod oʻrgatish davrlari haqida maʼlumot bering.
- Bolalarning savod oʻrgatishga tayyorgarligi qanday yoʻnalishlarda oʻrganiladi? Oʻzingiz bir-ikkita bolaning savod oʻrgatishga tayyorgarligini oʻrganing va taqqoslang, farqini aniqlang.
- Savod oʻrgatish jarayonida qanday mashq turlaridan foydalaniladi? Ularni toʻliq bayon



qiling.

- Pedagog Ushinskiyning o‘qitish jarayoniga qo‘shgan hissasi nimalardan iborat?
- Savod o‘rgatish davri o‘qish darslariga dars namunasini ishlab chiqing.

## 5. SAVOD O‘RGATISHDA MASHQ TURLARI. SAVOD O‘RGATISHDA NUTQ O‘STIRISH. TOVUHLARNI TANISHTIRISH BO‘YICHA ALIFBE DARSLARINING BOSQICHLARI

**Tayanch tushunchalar:** *Alifbe kitobi, savodxonlik mashg‘ulotlari, savod o‘rgatishning asosiy davri, tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish va eshitishga o‘rgatish, unli va undosh, bo‘g‘in, hamma tovushlarni erkin va to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zni bo‘g‘inga ajratish, kesma harflardan bo‘g‘in va so‘z tuzish, jarangli va jarangsiz tovushlarni farqlash, darak, so‘roq, undov gaplarni bir-biridan farqlab o‘qish, bo‘g‘in jadvali bilan ishlash, harf kassasidan foydalanish*

Alifbe kitobi bola hayotidagi birinchi kitob bo‘lib, u rang-barang tarzda yaratilgan, mazmuni e‘tiborni jalb etadigan bo‘lishi kerak.

Savodxonlik mashg‘ulotlarini faqat fonetik ish, o‘qish texnikasi bilan cheklash mumkin emas. Savodxonlikka o‘rgatishning barcha usullari bolalar uchun ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etishi kerak.

Alifbe davri savod o‘rgatishning asosiy davri hisoblanadi. Bu davr sentyabr oyidan yanvar oyigacha davom etadi. Bu davrda bola o‘qishga va yozishga o‘rgatiladi. Alifbedagi tovushlar quyidagi bosqichlarda o‘rgatiladi.

**Birinchi bosqich.** Bu bosqichda unli va talaffuzi oson undosh tovushlar o‘rgatiladi: *o, a, i* unlilari va *n, t, l, m, r, k, b* undoshlari.

Bosqichning vazifalari:

- 1) tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish va eshitishga o‘rgatish;
- 2) unli va undoshdan bo‘g‘in hosil qilish;
- 3) so‘z va bo‘g‘inni tovush tomondan analiz qilish;
- 4) so‘zdan bo‘g‘in boshida, o‘rtasida, oxirida kelgan tovushni



ajratish;

- 5) bir va ikki bo‘g‘inli so‘zlarni o‘qish;
- 6) o‘qish birligi – bo‘g‘in.

**Ikkinchi bosqich.** Bu bosqichda talaffuzi qiyinroq tovushlar o‘rgatiladi: *o‘, i, e* unlilari va *d, y, g, ng, s* undoshlari.

Bosqichning vazifalari quyidagilar:

- 1) Birinchi bosqichda o‘tilganlarni takrorlab, mustahkamlash;
- 2) *o‘, u, d, y, ng, s* tovushlarining hosil bo‘lish o‘rni va usuli bilan amaliy tanishtirish;
- 3) bir bo‘g‘ini uch harfdan iborat ikki bo‘g‘inli so‘zlarni sidirg‘a o‘qishga o‘rgatish;
- 4) o‘qilishi murakkab bo‘lgan yangi turdagi bo‘g‘inlarni (*do‘st, rasm*) o‘qish;
- 5) ongli o‘qish ustida ishlash.

**Uchinchi bosqich.** Bu bosqichda alifbodagi qiyin tovushlar o‘rgatiladi:

Portlovchi *j*, sirg‘aluvchi *j*, tutuq belgisi (‘), *x, h, f, q, g‘, z, v, p, ch, sh* tovushlari.

Bosqichning vazifalari:

- 1) hamma tovushlarni erkin va to‘g‘ri talaffuz qilish;
- 2) so‘zni bo‘g‘inga ajratish;
- 3) kesma harflardan bo‘g‘in va so‘z tuzish;
- 4) jarangli va jarangsiz tovushlarni farqlash;
- 5) darak, so‘roq, undov gaplarni bir-biridan farqlab o‘qish;
- 6) bo‘g‘in jadvali bilan ishlash;
- 7) harf kassasidan foydalanish.

Alifbo davrida o‘qituvchining asosiy vazifalari:

a) so‘zlar va jummalarning tahlili; so‘zdagi turli pozitsiyalardan tanlash; bir so‘zdagi tovushlarning ketma-ketligi; bitta tovushning aniq talaffuzi, uning artikulyatsiyasi va boshqalar fonemik eshitishning rivojlanishi ustida ish olib boradi; unlilarga urg‘u berish, bo‘g‘inni o‘qiyotganda ularga yo‘nalish berish;

b) bo‘g‘inlarni o‘qish asoslarini shakllantirish – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki harfli bo‘g‘inlarni o‘qishni o‘rgatish;

v) orttirilgan tovushlarni bildiruvchi harflar bilan tanishtirish.

**Tovush ustida ishlash.** Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Tovush ustida ishlash harf ustida ishlash bilan, ayniqsa, kesma harflardan bo'g'in, so'z tuzish kabi sintez qilish usullarida birlashib ketadi; tovush va harf o'rtasidagi munosabatni doimo aniqlab borish o'qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imloviy jihatdan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir.

So'zlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usullari hozirgi kunda takomillashtirilib borilmoqda. Savod o'rgatishda, asosan, quyidagi usullar amalda qo'llanilmoqda:

### **I. Analiz mashqlari.**

1. Nutq (gap)dan so'zni ajratish, so'zni aniq talaffuz qilish, bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish, so'zdan, bo'g'indan tovushni kuchli talaffuz qilib o'qish, muayyan tovushni ajratgan holda so'zni bo'g'inlab o'qish.

2. Darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

a) so'zdan tovushni cho'zib talaffuz qilish bilan ajratish: *aaa-na, looo-la, booo-la*;

b) undosh tovushni yopiq bo'g'indan ajratish: *Usss-mon, O-limmm, A-minnn*.

d) sirg'aluvchi undoshni ochiq bo'g'indan ajratish:

e) bo'g'in hosil qilgan bir unlini ajratish: *o-na, it-pit, o'-tin, a-na, e-tik, i-pak*;

f) o'rganiladigan tovushni so'z boshida kelgan so'zlardan ajratish (so'zni o'qituvchi aytadi, birinchi tovushni esa o'quvchi aytadi): *non, tok, olma,...*;

d) rasm nomini ifodalovchi so'zni aytish: o'qituvchi nokning rasmini ko'rsatib, *noo* deydi, o'quvchilar *k* tovushini qo'shib aytadilar: *nok*.

Bu jarayonda Omonashvili ishlab chiqqan usuldan ham foydalanish mumkin. Bunda tovush emas, harf asos qilib olinadi. O'quvchilar o'rganilgan harflar ichidan notanishini topadilar, so'ng uning o'qilishi va fonetik belgilari ustida ishlanadi. Darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so'ng, odatda, shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan va

aniq talaffuz qilinadigan soʻzlar tanlanib, oʻquvchilarga talaffuz qildiriladi:

O tovushi: olma, non, O-mon.

D tovushi: *Odil* (soʻz oxirida jarangsizlashadigan *ozod, obod* kabi soʻzlarni tanlash tavsiya qilinmaydi).

1. Soʻzdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, boʻgʻinlarni sanash: *Olma – ol-ma, o-l-m-a* Bu soʻz toʻrtta tovush, toʻrtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki boʻgʻin .... Bu usuldan oʻquv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

2. Jarangli va jarangsiz undoshli soʻzlarni amaliy taqqoslash: *dil-til, zira-sira* kabi.

Savod oʻrgatishda analiz va sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz oʻqish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa koʻproq oʻqish malakasini shakllantiradi.

## **I. Sintez mashqlari.**

1. Tovush tomonidan analiz qilingan soʻzni yoki boʻgʻinni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu soʻz yoki boʻgʻinni oʻqish.

2. Oʻrganilgan undosh yoki unli bilan (*na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...*) boʻgʻin jadvalini tuzish; boʻgʻin jadvalini kitobdan yoki matndan oʻqish; kesma harflardan boʻgʻin jadvalini tuzish; *bola-lola-tola, boy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh* kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki *ona-ana, ikki-ikki, osh-ish* kabi bir unli harf bilan farqlanadigan soʻzlarni oʻqish (bunday soʻzlarni oʻquvchilarning oʻzlari topib oʻqishlari mumkin).

3. Soʻzning boshiga yoki oxiriga bir harf qoʻshib, yangi soʻz hosil qilib oʻqish: *ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, loy; oʻroq-soʻroq; ol-xol, sol; sava-savat; son-oson; ayiq-qayiq; olti-oltin.*

4. Soʻz oʻrtasiga harf qoʻshib, yangi soʻz hosil qilib oʻqish: *koʻmak- koʻlmak, zirak-ziyrak, tana-tashna, sila-siyla* kabi.

5. Boʻgʻinlarni almashtirib yangi soʻz hosil qilish va oʻqish: *Gulnor- Norgul, asil-sila* kabi.

6. Tovushlarning oʻrnini almashtirib yangi soʻzni hosil qilish va oʻqish: *somon-osmon, tilak-kalit, qoʻy-yoʻq.*

7. Tovushni yoki boʻgʻinni tushirib qoldirib, yangi soʻz hosil qilish va oʻqish: *anor-nor,*

*gulnor-gul, yelkan-yelka, bog'la-bola.*

8. Bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish va o'qish: *bog'-bog'bon, gul-gulzor, paxta-paxtakor.*

Sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo'shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo'lib, darsda yarim o'yin holatini vujudga keltirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilganda, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib bo'lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi o'rin tutadi. O'quvchi so'zni analiz qilish bilan uni leksik ma'noga ega bo'lgan bir butunlik sifatida anglaydi, bu – sintezdir; so'z sintez qilinganda, uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir.


Umuman, savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta'minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, „muammoli“ vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish taxtasi, shuningdek, abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), kadoskop, alifbo multimediyasi va shu kabi texnik vositalardan ham foydalaniladi, tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitofon yoki lingofon kabineti xizmat qiladi.

**Tovushlar artikulyatsiyasi, diksiya ustida ishlash.** Analiz-sintez ishlari tizimida tovushning o'zini analiz va sintez qilish, tovushni talaffuz qilish vaqtidagi nutq apparati organlarining holati va harakatini kuzatish (analiz) va harf bilan ifodalangan tovush va tovushlar birikmasini talaffuz qilish maqsadida nutq organlarini zarur holatga keltirish (sintez) muhim o'rin tutadi. Masalan, **u** tovushining analizida til tanglayga tomon baland ko'tariladi, tanglay bilan til orasida torgina bo'shliq qoladi, lablar bir-biriga yaqinlashib yumaloqlashadi, ovoz hosil bo'ladi; **r** tovushining sintezida og'iz ozroq ochiq, tishlar orasida bo'shliq bo'ladi, lablar ozgina kengroq tortilgan, til ozroq orqaga itarilgan va tanglay (tepa)ga tomon baland ko'tarilgan holatda ovoz eshitiladi, o'tayotgan havo kuchi bilan tilning uchi titraydi.

Sinfda barcha tovushlarning artikulyatsiyasi (hosil bo'lishi)ni ko'rsatib bo'lmaydi. Masalan,

qorishiq portlovchilar (*ch, j*), chuqur til orqa (*q, g, x*), bo'g'iz tovushi (*h*) artikulasiyasini ko'rsatish qiyin. Ammo bunday tovushlarning hosil bo'lishini tushuntirish uchun o'qituvchi, o'quvchilar diqqatini jalb qilgan holda, tovushni talaffuz qilib ko'rsatadi, so'ngra o'quvchilar talaffuz qiladilar. Bunday usulni bir necha bor takrorlagan ma'qul.



Oo



Uu





O'o'



I i



# Ee



**Diksiya ustida ishlash** o‘quvchilar nutqini tushunarli, sof, tiniq, jarangdor bo‘lishiga erishishdir. U savod o‘rgatish uchun ham, ifodali o‘qish, orfoepik va orfografik malakani, xushovozlik ko‘nikmasini o‘stirish uchun ham juda muhimdir. Yaxshi diksiya tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligiga bog‘liq, shuning uchun diksiyani o‘stirish mashqlari tovush hosil qiluvchi apparatning egiluvchanligini oshirishga qaratiladi.

Diksiya ustida ishlashda quyidagicha mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1. Baland talaffuzni mashq qilish: Masalan, *sara-shira-sara-shira* kabi so‘zlarni ovozni to qichqiriqqacha balandlatib, so‘ngra esa ovozni to shivirlashgacha pasaytirib talaffuz qilish.

2. Talaffuz tempini mashq qilish. Shu *sara-shira* kabi so‘zlarni sekin talaffuz qilib, tempni asta tezlash tira borish.

3. Ayrim undosh tovushlarni, ayniqsa, o‘quvchilar qiyinchilik bilan yoki noto‘g‘ri talaffuz qiladigan so‘zlarni qayta talaffuz qilish mashqi.

4. Murakkab tovush birikmalarini talaffuz qilishni mashq qilish. Buning uchun tez aytishlardan foydalaniladi. Misol: *Qishda kishmish pishmash, pishsa kishmish qishmash.*

Bolalarni so‘zlayotganda to‘g‘ri nafas olishga, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish



zarur. Ba'zi tortinchoq bolalar tovushni talaffuz qilishga uyaladilar. Bunday vaqtda tovushni, so'zni xor bilan talaffuz qildirish, xor bilan o'qitish, tez aytishlarni xor bilan aytirish foydalidir.

### **Savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish**

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Ona tilidan olib boriladigan ishlarning hammasi, shu jumladan, savod o'rgatish ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet va syujetli rasm yuzasidan suhbat va shu kabilar bilan bog'lanadi. Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik „hikoya“ (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga, ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (*Bolalar yuguryaptilar*), sodda yoyiq gap (*Lola do'konga bordi*), uyushiq bo'lakli gap (*Anvar o'qidi va yozdi*) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuzatishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Narsalar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalarning o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va „*Bu nima?, Bu kim?, U nima qilyapti?*“ kabi savollar asosidagi suhbatdan ham foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog', sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar, keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar.

O'qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalarning talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasini (*sh* o'rniga *s*, *r* o'rniga *l*) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar va hokazo. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

### **“Alifbe” darsligi qurilishining ilmiy-pedagogik tamoyillari**

“Alifbe” birinchi o'quv kitobi bo'lib, uni ishlab chiqishda di- daktikaning umumiy mezonlariga: g'oyaviylik; bayonning ilmiyligi, tushunarligi; ko'rsatmalilik; onglilik; o'quv materialining hayot bilan bevosita aloqadorligi; bolalar yoshi va dunyoqarashi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarining hisobga olinishi<sup>3</sup> hamda “Alifbe” darsligi tuzilishining xususiy mezonlariga asoslaniladi.

“Alifbe” darsligi, asosan, quyidagi ilmiy-pedagogik tamoyillar asosida tuziladi:

1. “Alifbe” materiali bolalarda ongli, to'g'ri, bo'g'inlab o'qish va to'g'ri yozish malakalarini hosil qilishga yordam berishi kerak.

---

<sup>3</sup> R. Safarova va boshq. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma). — T.: „Ma'naviyat“, 2003. 3-bet.

2. O‘qish uchun berilgan matnlar, rasmlar bolalar saviyasiga mos bo‘lishi, shu bilan birga, ularning tafakkuri va nutqini o‘stirishi lozim.

3. “Alifbe” tuzilishida tovush-harflarning ko‘p ishlatilishi tamoyilidan foydalanish kerak.

4. “Alifbe”dagi harflarni joylashtirishga va ular qatnashgan so‘zlarni tanlashga alohida e‘tibor qaratish lozim.

5. “Alifbe”dagi materiallarning hajmi savod o‘rgatishga ajratilgan vaqtga mos bo‘lishi zarur.

6. “Alifbe”ning harfi, terilishi, qog‘ozi, rasmlarining bo‘yoqlari gigiyenik talablarga javob berishi lozim.

7. “Alifbe” ning tashqi ko‘rinishi chiroyli, bolalar diqqatini o‘ziga tortadigan bo‘lishi kerak va hokazo.

“Alifbe”ga qo‘yilgan barcha talab va tamoyillarni faqat “Alifbe” darsligini tuzuvchilar emas, balki u bilan ishlaydigan o‘qituvchilar ham bilishi zarur. “O‘qituvchi”, avvalo, “Alifbe” ning mazmunini, tuzilishini yaxshi bilib olib, undagi materialdan pedagogik jarayonni tashkil etish (alohida bir dars rejasini tuzish, darslar tizimini belgilash, alifbe materialiga qo‘shimcha material tanlash, ba’zi materiallarni qayta ko‘rib chiqish)da foydalanadi. Shundagina o‘qituvchi kitobga ijodiy yondashib, undan metodika talablari va o‘zining pedagogik tajribasidan kelib chiqib foydalangan bo‘ladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Alifbe davrining o‘ziga xos xususiyatlari va bosqichlari haqida so‘zlang.
- Bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tahlili mashqlarining mazmuni va ahamiyatini sharhlab bering.
- Savod o‘rgatish jarayonida tovushlarning to‘g‘ri va ravon talaffuzi ustida qanday ishlanadi?
- Diksiya ustida ishlash mashqlariga nimalar kiradi?
- Savod o‘rgatish davrida nutq o‘stirishga oid ish turlarini misollar bilan tushuntiring.
- Savod o‘rgatish davrida gap va so‘z ustida ishlashga doir ish turlarini ayting.
- “Alifbe” darsligi qurilishining ilmiy-pedagogik tamoyillarini tushuntirib bering.
- Hozirgi kunda amalda qo‘llanilayotgan “Alifbe” darsligini tahlil qiling va unga taqriz

yozing.

## 6. SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA BOSHLANG‘ICH YOZUVGA O‘RGATISH. SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA O‘QISH VA YOZISH DARSLARI

**Tayanch tushunchalar:** *Alifbe davri, “O‘qish kitobi”, matn ustida ishlash, alifbedan keyingi yozuv, yozuvga o‘rgatish, dastlabgi yozuv darslarining vazifalari, tuzilishi va o‘ziga xos tomonlari, partada to‘g‘ri o‘tirish, daftarni to‘g‘ri qo‘yish, chiziqlarni chamalash, yozayotgan ruchkadan to‘g‘ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish, ish daftari, tahlil qilingan so‘z, yozuv daftari bilan ishlash, yozuv daftari, orfografik elementlar, umumdidaktik talablar, maxsus metodik talablar*

Alifbe davrida o‘zbek alfavitidagi barcha harflarni o‘qish va yozishga o‘rgatilgach, savod o‘rgatishning alifbedan so‘nggi davri boshlanadi. “O‘qish kitobi”da berilgan turli janrdagi matnlar: ertak, hikoya, ilmiy-ommabop maqola, she‘r, kichik xalq og‘zaki ijodi janrlaridan maqol, topishmoq, tez aytishlarni o‘qish ko‘nikmasi yanada takomillashtirib boriladi.

Ona tili darslarida esa yozma topshiriqlarni bajarishda o‘rganilgan harflar va ularni o‘zidan oldin yoki keyin kelgan harflar bilan bog‘lab yozish yuzasidan olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Matn ustida ishlash, o‘qilganining mazmuniga tushunib, qayta hikoya qilish, ifodali o‘qishga o‘rgatish, rolga bo‘lib o‘qish mashqlari alifbe davrida tovush va harflarni o‘rganish bilan birga olib borilgan bo‘lsa, alifbedan keyingi davrda esa bu asosiy ish bo‘lib qoladi.

O‘qilgan va o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilingan matnlarning mazmuniga muvofiq, darak, so‘roq, undov ohangiga rioya qilib, verguldan so‘ng biroz to‘xtab o‘qishga alohida diqqat qilinadi va odatlantira boriladi. Ayrim sekin o‘qiydigan o‘quvchilarga matnni avval bir necha bor ichida o‘qib tayyorgarlik ko‘rish va uni sinfda bo‘g‘inlab emas, so‘zni butunicha (yaxlit, sidirg‘a) o‘qib berish vazifasi topshiriladi.

Bu davrda tanlab o‘qishni mashq qilish yaxshi natija beradi. O‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra, bolalar matndan ma‘lum qismni topadilar va berilgan savollarga javob beradilar, qayta hikoya qilib beradilar.

Alifbedan keyingi yozuv(ona tili) darslarida alifbe davrining har bir bosqichida hosil etilgan yozuv malakalari mustahkamlanadi. Bu paytga kelib, o‘quvchilar kichik va bosh harflarni qo‘shib yozishni, tegishli tinish belgilarini o‘rinli qo‘yishni, daftarni to‘g‘ri yuritishni, sarlavhalarni chamalab, chiziqning o‘rta qismiga yozishni bilib olgan bo‘ladi. Bu darsda esa ularga bosma matnlarni yozma shaklda xatosiz yozish, ko‘chirib yozish kabilar o‘rgatiladi.

Bu davrda o‘quvchilarning to‘g‘ri va chiroyli yozuv malakalarini aniqlash uchun o‘rganilganlar yuzasidan nazorat diktanti o‘tkazish mumkin. Bunday yozma ishlarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar jamoa yoki yakkama-yakka tekshirish usuli bilan tuzatiladi.

### **Yozuvga o‘rgatish. Dastlabgi yozuv darslarining vazifalari, tuzilishi va o‘ziga xos tomonlari**

Yozuv daftarining boshida tayyorgarlik davri uchun mashqlar berilgan. Bu mashqlar 7-betgacha davom etadi. So‘ngra 8-betdan *o* harfini yozdirish bilan savod o‘rgatish davridagi yozuv materiallari boshlanadi. Daftarda rasmlar berilgan. Bu o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stiradi. O‘qish va yozish alohida-alohida darslarda o‘tkazilsa ham, yozishga o‘rgatish bilan bog‘lab olib boriladi. Yozilishi lozim bo‘lgan harfni o‘rgatishdan oldin o‘quvchilarga gap tuzdiriladi, so‘ngra gaplarni so‘zlarga, so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘ladilar va nihoyat, bo‘g‘in ichidagi yangi tovushni ajratib oladilar. Harflarning bosma shakli bilan yozma shaklini farqlagach, to‘g‘ri va chiroyli yozishga kirishadilar.

Dastlabgi yozuv darslarining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Partada to‘g‘ri o‘tirish, daftarni to‘g‘ri qo‘yish, chiziqlarni chamalash, yozayotgan ruchkadan to‘g‘ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish.

2. Ish daftari yoki alifbe asosida o‘zbek alfavitidagi barcha kichik va katta harflarni yozish, shuningdek, harflarni so‘zda bir-biriga bog‘lab yoza olish. Bosma matnni yozma matnga aylantirib yozish.

3. Tahlil qilingan so‘z va 2-3 so‘zli gaplarni o‘qituvchi yordamida yozish.

Harflarni yozishda o‘quvchilar qiyinchilikka duch keladilar: harf elementlarini noto‘g‘ri yozadilar, harflarni bir-biriga noto‘g‘ri bog‘laydilar. Buning oldini olish uchun harf elementlarini bolalarga ko‘rsatib, doskaga yozib tushuntirilsa, yaxshi bo‘ladi, chunki bolalar yozish jarayonidagi o‘qituvchining qo‘l harakatlarini kuzatib turadilar. O‘qituvchi harf elementlarini ko‘rsatishda elementlarning qayerdan boshlanishi, qayerda burilishi, ikkinchi elementlarni ko‘rsatishda bu elementlarning qayerda qanday qo‘shilishini izohlab boradi. Bunday izohni 2-3 marta takrorlagach, o‘quvchilardan birini doskaga chiqaradi. So‘ngra havoda yozish mashqlari o‘tkaziladi va o‘quvchilar daftariga namunaga qarab nuqtalar ustidan yozadilar.

Xatolarning oldini olish uchun o‘quvchilar bilan yakka holda ishlanadi.

Yozuv darslarida alifbe davrida harflar yozdiriladi. Shu bilan birga, bir-ikki bo‘g‘inli so‘zlar ham yozdiriladi: *no, non, na...*

Harflarning o‘rnini almashtirib bo‘g‘in hosil qildiriladi. Bo‘g‘inga bo‘g‘in qo‘shib, so‘z hosil qilamiz.

Gap ustida ishlanadi. *Ona, ana non* gapi doskaga yoziladi. Nechta so‘z borligini bilish uchun gapning sxemasi tuziladi. Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan yozilishi va oxiriga nuqta qo‘yilishi o‘rgatiladi.

Yozuv darslarida xilma-xil ish turlaridan foydalaniladi, sababi o‘quvchilar hali yozish malakasini hosil qilmaganlar. Shuning uchun ular tez charchab qoladilar. Ularning charchashiga, zerikishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun darslarda ish turlarini har 5-10 minutda almashtirib turish lozim. Masalan, 1-2 qator harf yozdirilgach, o‘quvchilarning qo‘li charchaydi. Shunda jismoniy daqiqa o‘tkazish lozim. So‘ng yana harf yoki so‘zni yozdirishda davom ettiriladi. Bunday dam olish daqiqalarini o‘yin tarzida o‘tkazish mumkin. Masalan, og‘zaki topshiriqlar aytib, dars samaradorligi oshiriladi. Shu tariqa, o‘quvchilar charchog‘i tarqaladi, diqqati to‘planadi, ish qobiliyati faollashadi:

**1. Kulrang g‘ozlar uhdilar,**

**Ko‘lmakchaga qo‘ndilar.**

**U yon, bu yon qarashib,**

**Yana uchib ketdilar 1, 2, 3...**

**2. O‘ng qo‘limda besh barmoq,  
Chap qo‘limda besh barmoq,  
Ikkalasi esh barmoq.  
Har birining nomi bor,  
O‘z o‘rnida joyi bor.  
Boshmaldoq, boshbarmoq,  
O‘rta terak, xo‘jaterak,  
Kenja buva –  
Hammasi bo‘lib  
O‘n barmoq. (chapak chalinadi)**

Yozuvning o‘ziga xos tomoni shundaki, o‘quvchilar qo‘lni uzmasdan yozadi, bo‘g‘inlab yozishga o‘rgatiladi. Yozuv daftarining shakli harflarning kichik shakliga moslashtirilgan. Mana shu harflar bir maromda, uzluksiz, qo‘lni uzmasdan yozishga mo‘ljallangan.

Yozuv darslarida o‘quvchilar bilan ko‘proq yakkama-yakka ishlashga to‘g‘ri keladi. Yozuv darsining 30 daqiqasi yozuvga ajratiladi. 15 daqiqasi esa boshqa ish turlariga sarflanadi. Yakkama- yakka ishlash orqali yozuv tezligini rivojlantiramiz. Darsda 20 ta so‘zni, har daqiqada 4 ta harfni yozish kerak.

Sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan ommaviy ishlarda tayyorgarligi bo‘sh bolalar yana ko‘proq orqada qoladilar, puxta tayyorgarlik bilan kelgan bolalar esa zerikadilar. Oddiy dars sharoitida o‘qituvchi, asosan, saviyasi o‘rtacha o‘quvchiga mo‘ljallab ish ko‘radi. Bunda bo‘sh o‘zlashtiruvchi ayrim o‘quvchilar bilan darsdan keyin ishlanadi va u o‘quvchi dam olish hisobiga o‘quv ishini yana davom ettirishga majbur bo‘ladi, natijada charchaydi, kuchli o‘quvchi esa unga e‘tibor berish natijasida zerikadi. Differensial yondashish yuqoridagi kamchiliklarni qisman bo‘lsa ham yo‘qotishga imkon beradi, chunki bunda o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi, har bir guruhning saviyasi va imkoniyatiga mos topshiriqlar beriladi.

Differensial ta’lim izchil o‘tkazib turilgandagina yaxshi natija beradi.



Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi, 2-sinfdan, ba'zan 1-sinfdan o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tiladi.

Daftar tutishda bolalarni hoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yozishga, sarlavhani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi. Yozuv darsida o'quvchilar "Yozuv daftari" bilan ishlaydilar. Sinfdan o'rganilgan harfni uyda mashq qilish uchun alohida daftar bo'lishi kerak.

O'qituvchi yozish vaqtida 65° qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25° qiyalikda qo'yilishini amaliy ko'rsatib turadi.

### **Yozuv daftari bilan ishlash**

Yozuv daftari asosida uyushtiriladigan yozuv darslarida o'quvchilar, asosan, grafik malakalarni egallaydilar. Yozuv ko'nikmalarini shakllantirish ham bevosita nutq hamda tafakkur faoliyati bilan bog'liq. Shu sababli yozuv daftari ham savod o'rgatish jarayoniga mos holda tuziladi.

Yozuv daftarida ta'lim beruvchi, o'rganuvchi-tekshiruvchi va tekshiruvchi mashqlar beriladi. Bu mashqlar bilan ishlash jarayonida lug'at ustida ishlash, to'g'ri talaffuz, og'zaki suhbat, gap va so'z tahlili, so'z yoki bo'g'indagi yozilishi o'rganiladigan harfni ajratish, bo'g'inlarni birlashtirish, tuzilgan so'zlarni o'qish va yozish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Yozuv daftarida o'quvchilar "Alifbe"da o'rganilgan harfni yozma shakllantiradilar. Suhbat uchun daftarning yuqori qismida predmet rasmi yoki biror mazmunli rasm keltirilishi, ayrim predmet nomlarini ifodalovchi so'z chizmasi katakchalarga ajratib berilishi, gap nusxalarining keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Ba'zi o'rinlarda o'quvchilar berilgan gap yoki so'z chizmasini o'zlari mustaqil tasvirlaydilar.

Predmet rasmi berilgan o'rinlarda shu predmet nomi – so'z bo'g'in-tovush jihatdan tahlil qilinadi, so'zdagi tovushlar soni suhbat yo'li bilan aniqlanadi va katakchalarda ranglar bilan belgilanadi.



Mazmunli rasm asosida gap chizmasiga mos gap tuziladi, keyin o‘sha gapning tahlili ustida ish olib boriladi.

Harflarning yozma shakli ularning bosma shakli bilan taqqoslash orqali tanishtiriladi.

Yozuv daftarida tinish belgilar qo‘llangan. Ular shu belgi uchragan o‘rinlarda tanishtirib boriladi.

Yozuvga o‘rgatishda o‘quvchilarning ko‘ruv, eshituv, qo‘l harakati sezgilarini ishga solish lozim. Shunda yozuv quruq yozuv bo‘lmay, ongli yozuvga aylanadi.

### **Yozuvga o‘rgatishda orfografik elementlar**

Orfografiya yunoncha so‘z bo‘lib, „to‘g‘ri yozuv“ degan ma‘noni bildiradi. Orfografiya (imlo) adabiy tilning yozma shakli bilan bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar yig‘indisidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til me‘yorlari asosida yozma ifodalab bo‘lmaydi. O‘quvchilarning imloviy savodxonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to‘g‘ri ifodalash, kishilar bilan o‘zaro xatosiz muomala qilish uchun g‘amxo‘rlik demakdir. Savod o‘rgatish davrida bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan birga, imloga oid malaka ham shakllantiriladi.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar quyidagilarni amaliy tarzda o‘rganadilar:

- a) talaffuzi va yozilishi farq qilmaydigan so‘zlarda tovush bilan harfning mosligini;
- b) so‘zlarni alohida yozishni, ya‘ni yozuv vositasida so‘zni ma‘no birligi sifatida ajratishni;
- d) so‘zning satrga sig‘may qolgan qismini keyingi qatorga bo‘g‘inlab ko‘chirib yozishni (bunda bo‘g‘in hosil qilgan bir unli harfni qatorga ko‘chirib yozib bo‘lmasligini);
- e) gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo‘yilgan nomlarda bosh harfning ishlatilishini.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tekshirishga oid malaka shakllantiriladi: ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar, yo‘l qo‘ygan xatolarini topadilar, ularni izohlashga o‘rganadilar. Shu davrdanoq ko‘chirib yozish, diktant va ijodiy yozuv (insho)lardan foydalaniladi.

Gap va so‘zlarni yozishdan oldingi tayyorgarlik ishlari, muntazam o‘tkazib boriladigan o‘z-

o‘zini tekshirish mashqlari, o‘qilgan matnning imlosini kuzatish o‘quvchilarda yuqori savodxonlik garovi bo‘lgan orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, ularni yuqori sinflarda o‘rganiladigan imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirishga tayyorlaydi.

Yozuv darslarida ham o‘quvchilar nutqini o‘stirish, fikrlashga o‘rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Yozuvga o‘rgatishning dastlabgi kunlaridanoq bolalarning o‘z fikrini yozma ifodalashi muhim ekanligini, u insonlarning aloqaga kirishuvida muhim vositaligini tushunishlariga erishish lozim. Buning uchun o‘quvchilar yozadigan birinchi so‘z ularning jonli nutqidan yoki o‘zlari tuzgan gapdan olinishi kerak. Bu jarayonda ko‘chirib yozish va diktant ijodiy yozuvdan so‘ng o‘tkaziladi. Bu yozma mashq turlarining ongli bajarilishini, o‘quvchilarning bilish faolligini ta‘minlaydi. Masalan, bolalar o‘qish darsida “Alifbe” da berilgan rasmga qarab gap yoki hikoya tuzadilar, yozuv darsida esa o‘sha gap yoki hikoyadagi ma‘lum bir so‘zni yozadilar. Bu ular uchun ijodiy yozuv – inshodir. Keyinchalik o‘quvchilar alohida so‘z yozishdan kichik-kichik gaplarni yozishga o‘tadilar.

O‘quvchilar gap yoki hikoyani og‘zaki ravishda erkin tuza oladilar, lekin yozish uchun o‘rganilmagan harf bo‘lgan so‘zni tanlashda qiynaladilar. Bu jarayonda o‘qituvchi yordam berishi va yozuvni kuzatib borishi lozim.

Ijodiy yozuv mashqini doimo izchil ravishda o‘tkazib, asta-sekin murakkablashtirib borish kerak. Bunday mashqlar o‘quvchilarni insho va bayon yozishga tayyorlaydi, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda yozma bayon qilishga o‘rgatadi.

Yozuv darslarida yuqoridagi kabi mashqlar o‘quvchilarning yozma nutqini og‘zaki nutqi bilan bog‘liq holda o‘stirishni ta‘minlaydi.

### **Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozuv darslari**

Dars ta‘limning asosiy shakli hisoblanadi. Analitik-sintetik tovush metodi asosida olib boriladigan savod o‘rgatish darslari xilma-xil bo‘lishi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi va charchatib qo‘ymasligi kerak.

Savod o‘rgatish davridagi o‘qish yoki yozuv darslari va ularning ayrim turlari uchun umumiy bo‘lgan asosiy talablar mavjud:

## **1. Umumdidaktik talablar:**

a) har bir darsning tarbiyaviy maqsadi bo'lib, unda bironta axloqiy sifat rivojlantirilishi lozim;

b) darsning ta'limiy maqsadi, ya'ni o'quvchilar darsda qanday yangilikni bilishi, nimani o'rganishi, qanday ko'nikma va malakalar o'stirilishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligining qanday bo'lishi aniq belgilab olinishi kerak;

d) darsning izchilligi va istiqboli, uning oldingi va keyingi darslar bilan bog'liqligi aniq belgilab olinishi zarur;

e) o'tiladigan materialning xarakteri va ta'lim maqsadidan kelib chiqib dars uchun xilma-xil va qiziqarli metodik usullar va vositalar tanlanishi lozim;

f) dars davomida o'quvchilarga differensial va individual yondashish, ishni barcha o'quvchilarning imkoniyati, bilimi, ko'nikma va malakasi hamda fikrlash faoliyatini hisobga olgan holda uyushtirish kerak;

g) o'quvchilarni aqliy mehnat (o'qish) usullariga o'rgatish, ularda maktabda o'qish uchun kerakli ko'nikmalarni hosil qilish zarur;

i) beriladigan material ilmiy, o'quvchilar yoshiga mos va muvofiq bo'lsin va hokazo.

## **2. Maxsus metodik talablar:**

a) o'quvchilar nutqi uchun qayg'urish, darsda adabiy til nuqtayi nazaridan to'g'ri, ifodali, obrazli, aniq nutqqa erishish lozim;

b) o'qish darsida ham, yozuv darsida ham o'quvchilar nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, gap tuzish va uni tahlil qilishga, og'zaki hikoyalash va shu kabi ish turlariga alohida ahamiyat qaratish kerak;

d) maktab va sinf devorlariga osilgan, xattaxtaga yozilgan har qanday yozuv mazmunan va imlo jihatdan savodli bo'lishi zarur;

e) darsda nutq madaniyati hukmron bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilar adabiy tilda so'zlashishlari kerak;

f) o'qish va yozuv ko'nikma-malakalarini shakllantirish mashqlari darsda yetakchi o'rinni

egallab, taxminan, darsning uchdan ikki qismiga to‘g‘ri kelishi lozim;

g) har bir o‘qish va yozuv darsida “Alifbe”dagi matnlar bilan bir qatorda Q.Muhammadiy, P.Mo‘min, Z.Diyor, A.Obidjon kabi sevimli bolalar shoiri va yozuvchilari asarlaridan namunalar tanlab olinishi va sinfda o‘qish, sinfdan tashqari o‘qish hamda o‘qib berilgan matnni eshitish bilan bog‘lanishi zarur;

h) o‘qish va yozuv darslari bir-biri bilan uzviy bog‘lanishi, ya’ni o‘qish darsi o‘quvchilarni yozuv darsiga tayyorlashi, yozuv darsi oldingi o‘qish darsining davomi sifatida xizmat qilishi kerak va hokazo.

Savod o‘rgatish jarayonidagi darslar quyidagi belgilariga ko‘ra farqlanadi:

1. Ta’limning predmetiga ko‘ra:

- a) “Alifbe” darsligi asosidagi o‘qish darslari;
- b) “Yozuv daftari” asosidagi yozuv darslari.

2. Ta’limning davri va bosqichlariga ko‘ra:

- a) alifbogacha bo‘lgan davrdagi darslar;
- b) alifboni o‘rganish jarayonidagi darslar.

3. Darsda yangi mavzu o‘tilishi va o‘tilmasligiga ko‘ra:

- a) yangi tovush-harf o‘rganiladigan o‘qish darslari;
- b) yangi harfni yozish darslari;
- d) yangi tovush-harf o‘rganilmaydigan darslar;
- e) yangi harf yozilmaydigan yozuv darsi.

Bulardan tashqari, umumlashtiruvchi va takrorlash darslari hamda savod o‘rgatish davrining oxirida “Alifbe” bayrami o‘tkaziladi.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar bilimi dars jarayonida barcha ishlarga bog‘lab aniqlanadi, bog‘lanishli nutqni o‘stirish ham o‘qish va yozuv darslariga uzviy bog‘lanib ketadi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlariga rahbarlik qilishlariga haftada bir marta 20 daqiqa ajratiladi. Ssavod o‘rgatishning tayyorlov davrida darslar 35 daqiqa, asosiy (alifbe) davrida 45 daqiqa bo‘ladi.

Savod o'rgatish davri uchun darslar tizimi o'quv jarayoni bosqichlari asosida o'qish va yozuv darslari muayyan guruhini ajratishni ko'zda tutadi. Amaldagi "Alifbe" darsligi va ularga yozilgan qo'llanmalarga, asosan, savod o'rgatishga jami 4 oy (shundan tayyorgarlik davriga 8 dars (ikki hafta, asosiy davrga qolgan vaqt) ajratiladi. Ta'limning har bir bosqichidagi darsning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Darslar qurilishida ichki mantiqiylik bo'lib, har bir darsda yangi tovush va harf o'rganiladigan dars bilan yangi mavzu o'rganilmaydigan darsni navbatlashtirish, imlo va so'zning bo'g'in tuzilishi haqida ma'lumot berish, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish kabi talablarga rioya qilinadi. Darslar umumlashtirish-takrorlash darsi bilan yakunlanadi.

Savod o'rgatish davridagi darslarni interfaol usullardan foydalanib tashkil etish katta ahamiyatga ega.

Savodxonlikni o'rgatish metodikasi bo'yicha darslarga qo'yiladigan talablarni umumiy va maxsus talablarga bo'lish mumkin.

Umumiy ta'lim talablari:

a) darsning tarbiyaviy xususiyati, darsning tarbiyaviy maqsadining ravshanligi; ushbu darsda qanday axloqiy fazilatlar rivojlanadi;

b) darsning tarbiyaviy maqsadining ravshanligi: bolalar nimani o'rganadilar, qanday ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantiradilar, bu ko'nikmalarning rivojlanish bosqichi qanday, darsda bolalarning mustaqillik darajasi qanday bo'ladi, ularning bilim faoliyati, aqliy rivojlanish darajasi qanday bo'ladi, mavzuni tugatish darajasi qanday bo'ladi va hokazo;

d) darsning davomiyligi va istiqbollari, uning oldingi va keyingi darslar bilan aloqasi;

e) dars uchun tanlangan uslubiy vositalar va ish usullarining xilma-xilligi, ishning o'zgaruvchanligi, uslubiy vositalarni tanlashning materialning xarakteriga va mashg'ulot vazifalariga bog'liqligi, usulning mavjudligi – uning ko'ngilochar va o'ynoqi xarakteri;

f) barcha o'quvchilarning bilimlari, ko'nikmalari va aqliy rivojlanishining yetarlicha yuqori darajasida o'z imkoniyatlariga muvofiq ishlashni tashkil etish; dars davomida o'quvchilarga tabaqalashtirilgan va individual yondashish; darsning barcha bosqichlarida (o'quvchilardan o'qituvchigacha) fikrlarning mavjudligi;

g) o‘quvchilarga aqliy mehnat usullarini o‘rgatish (“o‘quvchilarga o‘rganishni o‘rgatish”), bu maktabda muvaffaqiyatli o‘qishning zarur sharti bo‘lgan ko‘nikmalar;

h) ba’zi boshqa didaktik talablar ham majburiydir – ilmiy, materiallarning mavjudligi va boshqalar.

Alfavit davrining birinchi va ikkinchi bosqichlari va butun alifbo davrining oxirida qo‘shimcha ravishda takrorlash bo‘yicha darslar o‘tkaziladi va alfavitdan keyingi davr oxirida “Alifbo bilan xayrlashish” festivali o‘tkaziladi.

Tekshiruv turidagi maxsus darslar va izchil nutqni rivojlantirish darslari (kompozitsiya va taqdimot) savodxonlik davrida o‘tkazilmaydi. Bilimni aniqlash, uni tekshirish darsdagi barcha ishlar jarayonida amalga oshiriladi, nutqning rivojlanishi o‘qish va yozish darslarida ham organik ravishda to‘qiladi; o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘qishlariga rahbarlik qilishga kelsak, shu maqsadda haftada bir marta (odatda, shanba) 20 daqiqa davom etadigan darsning bo‘limi ajratiladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

Yozuvning inson hayotidagi ahamiyatini ayting. Hozirgi yozuv shriftiga o‘z munosabatingizni bildiring.

- Yozuvga o‘rgatishning tashkiliy, gigiyenik va ta’limiy shartlarini aytib bering. Ularni biror harfni yozish darsiga tatbiq eting.
- Yozuv daftari ustida ishlashni tushuntiring.
- Yozuv darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishda qanday usullardan foydalaniladi?
- Savod o‘rgatish davridagi o‘qish va yozuv darslariga tavsif bering.
- Oz komplektli maktablarda savod o‘rgatish darslarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

## **III BOB. HUSNIXAT METODIKASI**

### **7. Husnixatga o‘rgatishning maqsad va vazifalari, ahamiyati**

**Tayanch tushunchalar:** *nutq, husnixat bilan yozish, dastxat, yozuv, piktografik yozuv, ideografik yozuv, mixxat, iyeroglif, yozuv turlari, aloqa-aralashuv vositalari*

Inson o'z fikrlarini boshqalarga og'zaki va yozma shaklda yetkaza oladi. Nutqning bu ikki shakli o'zaro o'xshash va shu bilan birgalikda farqli tomonlarga ham ega bo'lib, ular turli afzalliklarga ega. Xususan, og'zaki nutq tovushlar vositasida hosil qilinadi va eshitish uchun mo'ljallanadi. U kishining mavjud nutq jarayonidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashinishi va bilim egallashi uchun qudratli vosita hisoblanadi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixat bilan yozishga o'rgatish ularda aniq, chiroyli va tez yozish ko'nikmasini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, yozuv o'rgatishning gigiyenik shartlarini, o'quvchilar yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur. Demak, yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuqoridagi talablar asosida yozishni o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak. Husnixat va uni o'qitish fani amaliy fan bo'lib u chiroyli yozishga o'rgatish bilan bir qatorda ta'lim berish, tarbiyalash vazifalarini ham bajaradi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Husnixat va uni o'qitish metodikasi" fanining maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Talabalarga husnixat metodikasidan nazariy ma'lumot berish.
2. Talabalarni – bo'lg'usi o'qituvchilarni husnixat talablari asosida yozishga o'rgatish.
3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini husnixatga o'rgatish metod va usullari bilan qurollantirish.



Husnixat va uni o'qitish metodikasi fanining predmeti esa ta'lim berish jarayonida chiroyli yozish ko'nikmasini egallash, grafik jihatdan to'g'ri va chiroyli yozishni o'rgatish hisoblanadi. Husnixat va uni o'rgatish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- talabalarga chiroyli yozuv haqida nazariy bilim berish;
- o'z dastxatlari ustida ishlash yuzasidan malaka hosil qilish;
- boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish va tashkil etishni o'rgatish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixat materiallarini tanlay olish tamoyillari bilan tanishtirish.

Birinchiidan, husnixat bilan yozish o'quvchilarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko'nikmasini hosil qiladi. Ikkinchiidan, dastxatga pala-partish va e'tiborsiz munosabatda bo'lish o'quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada, o'quvchilar qiladigan ishlarini o'ylab o'tirmay bajaraveradilar, o'z xato va kamchiliklarini ham o'ylab ko'rmaydigan bo'lib qoladilar. Uchinchiidan, husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi.

### **Husnixat va uni o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.**

Husnixat va uni o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan uzviy aloqada bo'lib, ularning natijalariga tayanadi. Amaliy fan hisoblangan husnixat va uni o'qitish metodikasi til o'rganish jarayonining uzviy bir qismidir. Xususan, yozish uchun tanlangan til faktlari ayni vaqtda adabiy tilni o'zlashtirib borishga yordam beradi. Pedagogik fanlar qatorida husnixat darslari ham ta'lim-tarbiya berish vazifasini ham bajaradi, pedagogikaning ta'lim-tarbiya birligi tamoyiliga amal qiladi. Husnixat darslarida barkamol shaxs tushunchasi ichiga tozalik, tartiblilik tarbiyasi kiradi. Husnixat va uni o'qitish metodikasining asoslaridan yana biri – psixologiyadir. Psixologiya his, tasavvur, fikr, intilish, istak, havas, qobiliyat kabi tushunchalar haqida ma'lumot beradi. Husnixatga o'rgatishda bola psixologiyasidagi yuqoridagi

holatlariga tayanib ish ko‘riladi, o‘quv materiallari tanlanadi, sinflar bo‘yicha taqsimlanadi. Shuningdek, husnixat fiziologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarix fanlari bilan ham uzviy aloqadadir. Bu fan o‘quvchining yozuv jarayonidagi fiziologik holati, qo‘l harakatlari, yozganlarini to‘g‘ri, aniq talaffuz qilishda fiziologiyaga tayansa, yozuv uchun tanlangan matnni tahlil qilishda adabiyotshunoslik materiallariga, yozuvning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi tutgan o‘rnini tushunishda esa tarix fanining yutuqlariga asoslangan holda ish ko‘radi.

**Yozuv haqida ma’lumot.** Yozuv – biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig‘indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlari (so‘z, bo‘g‘in, tovush)ni ifodalovchi belgilarnigina emas, balki piktografiya, ideografiya shakllarini ham o‘z ichiga oladi. Bular aloqa qilish belgilari yig‘indisi sifatida yozuvdan ilgarigi belgilar (xotira yozuvi, hisoblash yozuvi va boshqalar)ga qarama-qarshi qo‘yilgan. Urug‘chilik tuzumi davrida dastlab surat yozuvi paydo bo‘ldi. Kishilik jamiyati kichik va tarqoq oila – urug‘lardan tashkil topgan darvda kishilar bir-birlari bilan faqat og‘zaki nutq yordamida fikr almashgan. Insoniyatning shu ehtiyoji zaminida yozuv paydo bo‘lgan. Boshida yozuv bilan bir qatorda grafik shaklga ega bo‘lmagan usullar ham qo‘llanilgan (mis, iplarni tugib qo‘yish). Bu yozuvning qoldiqlari hozir ham urug‘-qabilalarining tamg‘alari, shimoliy indeyeslarning chig‘anoq marjonlari, biror ijtimoiy tabaqaning xususiy mulkini ifodalovchi belgilar va boshqa shakllarda mavjud. Yozuv zamon va masofa jihatidan og‘zaki nutqqa nisbatan ustunlikka ega. Texnikaning rivoji (telefon, telegraf, radio, televizor, internet) natijasida undagi ustunlik masofa jihatidan zaiflashdi, lekin zamon e’tibori bilan yozuv hali ham og‘zaki nutqdan ustun. XIX-XX asr boshlarida topilgan va qayta shifrlangan juda ko‘p yodgorliklar yozuvning paydo bo‘lishi va tarixiy taraqqiyotini yoritish imkonini berdi. Fanning bu yutug‘i yozuv tarixini tilshunoslik fanining mustaqil bir bo‘limi sifatida ajralishiga olib keldi.

Insoniyat tomonidan foydalanilgan eng qadimgi yozuv turlari quyidagilardir:

1. Turli tipdagi Misr iyerogliflari. Bu tur yozuvi XIX asrning 20-yillarida fransuz olimi Shampalon tomonidan o‘qilgan, XIX-asrning 70—90-yillarida Evans o‘qigan

qadimgi Kput surat yozuvlari va Kipr surat yozuvlari ham Misr surat yozuvlari tipiga kiradi.

2. Mixxat yozuvlarining turli tiplari. Bu tip yozuvlar Osiyoda qadimda yashagan qator xalqlarning tillarida ishlatilgan (shumer assiro-ovavilon, elam, xala, xet-kappodokiya, fors tillariga moslangan). Bu turdagi yozuvlar XIX asr boshlarida deshifrovka qilina boshlanib, XX asrning 10-yillarida tugallandi.

3. Somiy xalqlarda qayd qilingan va tillariga moslangan harf yozuvining eng qadimgi shakllari. Bular finikiy va xalaan yozuvlari (asosiy yodgorliklari XIX asrning 60-70-yillarida va XX asrning 20-yillarida topilgan). Janubiy arab, oromiy yozuvlari (qadimgi namunalari XIX asrning 60—70-yillarida topilgan). Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, qadimgi uyg'ur va O'rxun-Enasoy yozuvlari ham aslida oromiy yozuvlari zaminida yuzaga kelgan. Uni XIX asrning 90-yillarida tilshunos olimlar V. Tomsen va V. Radlov deshifrovka qilganlar.

4. Yunon alfavitining qadimgi shakli va lotin alifbosining alohida varianti bizgacha yetib kelgan. Bu yozuvlar XVIII asrdayoq ilm ahliga ma'lum bo'ladi va ularning grammatik jihatdan o'rganilishi XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fanining rivojiga katta yordam ko'rsatdi.

Yozuvning eng qadimgi shakli piktografiyadir. Bu yozuv, asosan, Amerika indeyslarida aloqa quroli sifatida qo'llanilgan. Chunki ularning til xususiyatlari shunga mos edi. Bu yozuv qadimiy bo'lgani uchun unda ideografik yozuv bilan bir qatorda piktografiyaning ham ayrim elementlari bor. Masalan, toshbaqaning rasmi quruqlik tushunchasini ifodalagan, ya'ni shartli belgi vazifasini o'tagan. Chunki quruqlik tushunchasini yozuvda ideografiya bilan berish qiyin edi. Hayotiy ehtiyoj bora-bora yozuvni soddalashtirdi va tasvirlangan predmet bilan yozuv shakli o'rtasidagi o'xshashlik yo'qoldi, belgi so'zning simvoli bo'lib qoldi. Bu xitoy, misr, shumer, vavilon va xett yozuvlariga xos xususiyatdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Husnixat va uni o'qitish metodikasi nima uchun pedagogik fanlar qatoriga kiradi?

- Husnixatga o'rgatish metodikasining predmeti deganda nimani tushunasiz?
- Yozuvning pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bering.
- Husnixatga o'rgatish metodikasining maqsadi nimalardan iborat?
- Qadimda insoniyat yozuvning qanday turlaridan foydalangan?

## 8. Husnixatga o'rgatishning gigiyenik shartlari

**Tayanch tushunchalar:** *husnixat malakasi, chiroyli yozuv, yozuv daftari, xatboshi, yozuv quroli, gradus, qiyalik, tushunarlilik prinsipi, takroriylik prinsipi, xato*

**Yozuv materiallari va qurollari. Husnixat darslarini tashkil etish va uning gigiyenik asoslari.** Husnixat saboqlari o'quvchilar maktabga dastlabgi qadam qo'ygan davrdanoq o'rgatila boshlansa-da, birinchi sinfda savod o'rgatish davri tugagandan so'ng, uchinchi chorakdan boshlab alohida dars sifatida olib boriladi. Birinchi sinfda yozuv darslari husnixat malakalarini o'stirish orqali olib boriladi. Chiroyli va toza yozilgan xat uni yozayotgan kishining madaniyatini va uni o'qiydigan kishiga nisbatan hurmatini ham belgilaydi.

Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyoti natijasida kundalik hayotimizda turli hujjatlardan keng foydalanamiz. Har xil konspektlar, ish qog'ozlari, hisobotlar hayotimizda keng o'rin olgan. Bunday hujjatlar chiroyli, aniq va tezlik bilan yozishni talab etadi. Bugun ta'lim muassasalarida bolalarga yozuv darslarida harflarni aniq, toza, chiroyli yozishni o'rgatish talab etiladi. Ammo qisqa davr ishida yozuv bo'yicha mukammal malakaga ega bo'lish mumkin emas, bu yillar davomida shakllantiriladi. Bolalarni chiroyli yozuvga o'rgatish uchun ularning maktabga ilk kelgan kunlaridan boshlab, quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi:

1. Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish.
2. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish.
3. Daftardan to'g'ri foydalanish.
4. Harflarning yozma va bosma shakllari bilan tanish bo'lish.
5. Yozma harflar yordamida bo'g'in, so'z va gaplarni yoza olishga o'rganish.

Yuqorida ko'rsatilgan malakalar shakllanganidan so'ng, ular husnixat darslarida mustahkamlanadi. Husnixat malakalarini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda – 65 gradusda yozishga,

soʻzlarda harflarni toʻgʻri bogʻlashga, soʻzlar qatorini toʻgʻri joylashtirishga oʻrgatiladi. Daftar chiziqlari birin-ketin almashinuvi davomida harflarning qiyaligi va ular orasidagi masofani saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini toʻgʻri chamalab yozishga oʻrgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi va ikkinchi sinflarda chiroyli yozishga oʻrgatishda ikki chiziqli daftarlardan toʻgʻri foydalanishga alohida eʼtibor berish zarur. Birinchi sinfda kichik harflarning qiyaligi va balandligi chiziqlar yordamida chegaralangan boʻlsa ham, oʻquvchilar bosh harflarni yozishda xatoga yoʻl qoʻyishi mumkin. Bir chiziqli daftarga yozishga oʻtilganda esa oʻquvchilar oldiga qator vazifalar qoʻyiladi. Endi ulardan harflarning balandligini, qiyaligini, harflar orasidagi masofalarni chamalab yozishlari talab etiladi.

Chiroyli yozuvga oʻrgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi oʻziga xos qoidalarni ham oʻz ichiga oladi. Umumiy didaktik qoidalar husnixat qoidalarini amalga oshirishda juda muhim: takroriylik, koʻrgazmalilik, yosh va oʻziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarlik, onglilik. Ayniqsa, koʻrgazmalilik prinsipi chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻquvchi har bir kichik va bosh harfni yozishda uning oʻzini va elementlarini koʻrgazmali qurollardan koʻrib yozadi. Takroriylik prinsipida esa oʻquvchi bir harfni bir necha qator yozadi. Bu shu harfni takror yozganida koʻnikmalarini mustahkamlaydi. Tushunarlik prinsipida harfning elementlarini tushunib bir-biriga bogʻlashi uchun darkor.

Onglilik tovushni harfga aylantirishda muhim ahamiyatga ega. Yosh va boshqa oʻziga xos xususiyatlarni hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ayrim bolalar besh yarim-olti yoshida maktabga keladi va unda yetti yoshli bolaga nisbatan yozuv koʻnikmasi sekin rivojlanadi. Yana ayrim bolalar chap qoʻlda yozadi.

Chiroyli yozuv malakasini shakllantirishning quyidagi usullari mavjud:

1. Namunaga qarab yozish usuli.
2. Namunaga qarab koʻchirib yozish usuli.

3. Nusxa ko‘chirish usuli.
4. Tasavvur orqali yozish usuli.
5. Harf elementlarini tahlil qilish.
6. Sanoq – ohang usuli.
7. Xatolar ustida ishlash usuli.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirib olgunlariga qadar, bolalarning harakatlarini muttasil kuzatib bormog‘i lozim. Xususan:

- Yozuv mashg‘uloti vaqtida bolaning oyog‘i to‘g‘ri turishi, gavidani to‘g‘ri tutish va ko‘krakni partaga tekkizmaslik lozim.
- Parta bilan ko‘krak orasida 2–5 sm masofada oraliq ushlab turiladi.
- Ko‘z bilan ruchka uchidagi oraliq 25–30 sm dan kam bo‘lmasligi darkor.
- Barmoq tolib qolmasligi uchun ruchkani qattiq siqib ushlamaslik kerak.

Hozirgi davrda o‘quvchilarga daftarga 65 gradus qiyalikda yozish o‘rgatiladi. Bu qiyalik stol ustida tez yozishga qulaylik yaratadi. Bolalar bunday qiyalikda yozishlari uchun daftarni stol ustiga 25 gradus qiyalikda qo‘yishlari lozim. Buni o‘qituvchi bolalarga to‘g‘ri tushuntirishi kerak.

Maktabda asosiy yozuv quroli binafsharang ruchka va yordamchi yozuv quroli yumshoq qora qalam hisoblanadi. Savod o‘rgatish jarayonida bolalarga ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Sinf doskasi ham shunga moslashgan bo‘lishi zarur. Ikkinchi sinfdan bir chiziqli daftarga yozishga o‘tiladi. Daftar tutishda bolalarni daftar chiziqlariga rioya harflarni bir xil hajmda yozish, sarlavha ajralib turishiga e‘tiborli bo‘lish, xatboshilarni to‘g‘ri va aniq belgilash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish lozim.

O‘quvchi ikkita daftar tutadi. Birinchi daftar shu kungi mashg‘ulot uchun, ikkinchi daftar tekshirish uchun o‘qituvchida bo‘ladi. Daftar ustiga o‘quv yilining birinchi yarmida “Yozuv daftari” deb yoziladi. Ikkinchi yarmida esa “Ona tili daftari” deb yoziladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning daftarlariga aniq, ravon, tushunarli holda yozadi – xatolarni to‘g‘rilaydi, so‘z va harflarning yozilish shakllari va imlosidagi



noaniqliklarni tuzatadi, harflarning qo‘shilishini qoidaga binoan yozib ko‘rsatadi, o‘quvchilarga topshiriqlar beradi. Izohlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Daftarni iflos qilma! Chiziqlarni to‘g‘ri chamala!”

### **Savol va topshiriqlar:**

- Husnixat saboqlarini qaysi paytdan boshlab o‘quvchilarga singdirib boriladi?
- Bolalarni chiroyli yozuvga o‘rgatish uchun qanday vazifalarni bajarish talab etiladi?
- Husnixat qoidalarini amalga oshirishdagi umumiy didaktik qoidalar qanday prinsiplarni o‘z ichiga oladi?
- Chiroyli yozuv malakasini shakllantirishning qanday usullari mavjud?
- Qachondan boshlab o‘quvchilarga bir chiziqli daftarga o‘tish tavsiya qilinadi?

### **9. Husnixatga o‘rgatish tamoyillari**

**Tayanch tushunchalar:** *metodik tavsiya, yozma shakl, yozish texnikasi, namunaga qarab yozish, nusxa ko‘chirish, tasavvur bilan yozish, yozuv sifati, sanoq-ohang usuli, xatolar ustida ishlash, tayyorgarlik mashqlari*

**“Yozuv daftari”dan foydalanish uchun metodik tavsiya.** Kichik yoshdagi o‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatish uchun ularni maktabga kelgan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishga o‘rgatish zarur:

1. Yozuv vaqtida partada to‘g‘ri o‘tirish.
2. Yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish.
3. Daftardan to‘g‘ri foydalanish.
4. Yozma shakldagi harf va uning unsurlari bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo‘g‘in, so‘z va gaplar yozish.

Husnixat malakalarini shakllantirish uchun, birinchi navbatda, harflarning shaklini to'g'ri tasavvur qilishga, bir xil qiyalik ( $65^\circ$ )da yozishga, harf unsurlarini va so'zlarda harflarni bir-biriga to'g'ri bog'lab yozishga, so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi. Harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish lozim. Bu sinfda umumiy didaktik qoidalar, takroriylik, ko'rgazmalilik, onglilik husnixat qoidalarini amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko'rgazmalilik chiroyli yozuv malakasini singdirishda katta ahamiyatga ega. Maktabga qadam qo'ygan har bir o'quvchi u yoki bu harfning shaklini tushunib, yozilishini, ularning bir-biriga bog'lanishini, kichik va bosh harflarning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, ruchkani ushlab va to'g'ri o'tirish qoidalarini yaxshi bilishi lozim. Bu davrda olingan bilim va malakalar o'quvchilar uchun doimiy qoida bo'lib qolishi kerak.

Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishda eng birinchi qoida bu gigiyenik talablardir. O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etishini ko'ramiz. Bu bog'lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol o'quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhrlash imkonini beradi. Masalan, o'quvchilarning o'qituvchi bayon qilayotgan harflar shaklini qanday yozayotganliklarini tahlil qilib ko'raylik. Bu jarayonni uning asosiy xarakteriga ko'ra idrok etish jarayoni deb atash mumkin. Biroq bu idrokning aniq va ravshan bo'lishi uchun o'quvchi o'z irodasini ishga soladi, diqqatini harflarning shaklini to'g'ri ifodalashga jalb qiladi. Yozayotgan so'z yoki gapning mazmunini tushunmasdan harflarning shaklini bilmasdan ularni idrok etib bo'lmaydi. Yozish jarayoni ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Idrok etilishi lozim bo'lgan materialni tartibga solish, o'rganiladigan manba yoki uning tasvirini yaqqol ko'rsatish, bayonning ravshan va izchil bo'lishi, sinf doskasiga hamma o'quvchi ko'ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydigan omillardandir.

Bola maktabga qadam qo‘ymasdan oldin (3-4 yoshdan boshlab) qo‘liga qalam olib turli shakllarni chiza boshlaydi, ammo bu chiziqalar chiroyli yozuv talablariga to‘g‘ri kelmasa-da, ulardagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushlab) shakllanishiga yordam beradi. Kichik yoshdagi bolalarning barmoq mushaklari yaxshi rivojlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirib, mashq qildirish yozuvning sifatiga salbiy ta‘sir etadi.

Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo‘r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishga qarab qo‘l harakatlari shunga moslashtiriladi. Chiroyli yozuvga o‘rgatish uchun birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

- Yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish.
- Parta ustida daftarni to‘g‘ri qo‘yish.
- Yozayotganda gavnani to‘g‘ri tutish va tirsaklarni to‘g‘ri harakat qildirish.
- O‘z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o‘rgatish.
- Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o‘rgatish.
- Harflarning shaklini to‘g‘ri idrok etishga (qayerdan boshlash, qayerda to‘xtatish, o‘ngga, chapga burilish, boshlash va h. k.) o‘rgatish.
- Harflarni bir-biriga bog‘lab yozishga o‘rgatish (qayerda qo‘l harakati uziladi, qayerda uzilmay, bog‘lab yoziladi).
- Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o‘rgatish.
- Daftar chizig‘idagi qatorlarni to‘g‘ri to‘ldirish, sarlavha, oy va kunlarni to‘g‘ri yozish.
- Harflarning qiyaligini to‘g‘ri saqlash.

Demak, birinchi sinf o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim:

1. Yozuv texnikasi, ya‘ni yozuvning turli usullaridan foydalanish.
2. Harflarning shaklini to‘g‘ri ifodalash, ya‘ni grafik malakalarini egallash.

3. Yozuv vaqtida harflarning shakli bilan bir qatorda ularning qanday tovush bildirishini ham bilish, ya'ni imloga oid malakalarini egallash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir malaka o'z oldiga ma'lum bir qoidani maqsad qilib qo'yadi. Masalan, yozuv texnikasi – yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish, yozayotganda partada to'g'ri o'tirish, qo'lni to'g'ri tutish, umuman, gigiyenik qoidalarga amal qilishni talab qiladi. Grafik malakalar esa harflarning shaklini to'g'ri ifodalashni, ularning orasidagi masofaning bir xil bo'lishini, qiyalikni to'g'ri saqlashni talab etadi. Imloga oid malakalarda esa qaysi harf qanday tovush bildirishini va ularning o'z o'rnida turishini talab etadi.

Yozuv malakalari 6-7 yoshli bolalar uchun o'qituvchi tomonidan bevosita kuzatib borishni talab etadigan qiyin jarayondir. Xuddi shu davrda o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlar kelgusi uchun muhim ahamiyatga egadir. O'quvchi o'zining dastlabgi yozgan harf va unsurlaridan ruhlanadi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va qiyinroq harflarni yozishdan cho'chimaydi. Shuning uchun ham o'quvchilarda dastlabgi yozuv malakalarini hosil qilishda ularning irodasini mustahkamlashga e'tibor berish lozim. Bunda o'qituvchining bolalar bemalol bajara oladigan topshiriqlar tanlashi katta rol o'ynaydi. Bu davrda bolalardagi psixologik xususiyatlarni ham tarbiyalash hamda ularning fiziologik o'sishlarini hisobga olish boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim vazifasidir.

Sinfda o'quvchilarning ish joyini to'g'ri tashkil etish o'quvchilar juda ko'p vazifalarni, ya'ni o'qish, yozish, rasm chizish va boshqa mashqlarni partada o'tirib bajaradilar. Bu davrda o'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri o'tirishga o'rgatishi, ularning erkin ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratib berishi kerak. Buning uchun o'quv yili boshida o'qituvchi maktab hamshirasi bilan hamkorlikda bolalarni yoshiga, bo'yiga hamda ko'rish va eshitish qobiliyatiga qarab partaga o'tqazishi lozim.

O'quvchilar partasi sinfdagi asosiy jihoz bo'lib, u o'quvchilarning yoshlari va bo'ylariga mos, yozish va rasm chizish uchun qulay bo'lishi va o'quvchi o'tirib-turganda xalaqit bermasligi lozim.

**Yozuv qurollari va ulardan foydalanish.** O‘quvchilarda yozuv malakalarini hosil qilishdan oldin ularni sifatli yozuv qurollari bilan ta’minlash lozim. Yozuvning chiroyli bo‘lishi ko‘p jihatdan yozuv qurollariga bog‘liq. Ularning yozuv qurollarini muntazam nazorat qilib borish o‘qituvchining muhim vazifasidir.

Dastur talablari bo‘yicha 1-sinf o‘quvchilari “Alifbe” kitobiga ilova tariqasida chiqarilgan “Yozuv daftari”dan foydalanishlari lozim. “Yozuv daftari” sifatli qog‘ozdan ishlangan, silliq va chiziqlari aniq ko‘rinib turadigan bo‘lishi lozim. Daftardagi qiya chiziqlar oralig‘i 25 mm, qiyaligi 65°, kichik harflar yoziladigan satr chizig‘i oralig‘i 5 mm ga teng bo‘lishi lozim. O‘quvchilar uchun tavsiya etiladigan sharikli yoki gelli avtoruchkalarining yo‘g‘onligi ularning qo‘l barmoqlariga mos bo‘lib, uzunligi 130 mm dan oshmasligi kerak. O‘quvchilar yozuvining sifati ko‘p jihatdan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yozuv qurollariga bog‘liq.

**Yozuv sifatini shakllantirish.** Yozuvning sifatini shakllantirish deganda, biz uning aniq va toza, bir xil qiyalikda va balandlikda bo‘lishini, bir tekis silliq yozilishini tushunamiz.

O‘quvchilarda yozuv sifatlarini shakllantirish uchun o‘qituvchi quyidagi ko‘rsatmalarga amal qilishi lozim:

- Harf unsurlari va harflarni to‘g‘ri bog‘lab yozish.
- Yozuvni 65° qiyalikda yozishga o‘rgatish.
- Har bir qatordagi harflarning bir xil balandlikda bo‘lishiga erishish.
- Harf unsurlari, harflar va so‘zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash.
- Sinfdagi barcha o‘quvchilarni bir xil tezlikda ravon qilib yozishlariga erishish.

### **Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullari.**

1. Namunaga qarab yozish. Chiroyli yozuvga o‘rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko‘rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi doskada barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o‘quvchilarga daftarda alohida-alohida ko‘rsatib berilishi lozim. O‘quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarini (harf, bo‘g‘in, so‘zlar) o‘z daftarlariga

to'g'ri aks ettirishdir. Duskada yozib ko'rsatilayotgan har bir harf barcha o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi shart, agar ayrim o'quvchilar uni ko'ra olmagan bo'lsalar, qaytadan takrorlab ko'rsatish lozim. Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog'lanishini ko'rsatish, vaqtda qayta-qayta takrorlash juda muhimdir.

O'qituvchi tomonidan har bir harf yoki harflarning bog'lanishi, og'zaki yoki doskada tushuntirish orqali, qo'lni qayerga qo'yish kerakligi, qayerda qo'l harakatining burilishi va qayerda bu harakat uzilishi talab etilishi, harflarning baland-pastligi qay darajadaliği kabilar ko'rsatmalar orqali tushuntiriladi. Keyinchalik o'quvchilar ham u yoki bu harfning yozilishini o'qituvchi bayon etgan tarzda tushuntirib beradilar.

2. Namunaga qarab ko'chirib yozish. Bu juda qadimiy usul bo'lib, hozirgi kunda ham u o'z qiimmatini yo'qotgani yo'q. O'quvchilar, asosan, harflarning shaklini "Husnixat" kitobidagi yoki "Yozuv daftari" dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar. Namunaga qarab ko'chirib yozish tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo'llashni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. O'quvchilarning daftarlarida o'qituvchi tomonidan yozib ko'rsatilgan har bir namuna chiroyli va aniq yozilishi lozim. "Husnixat" darsligida berilgan namunaga qarab yozdirish o'qituvchining vaqtini tejaydi hamda unumli ishlash uchun imkoniyat yaratib beradi. Buning uchun har bir o'quvchining oldida darslik bo'lishi lozim.

3. Nusxa ko'chirish. Bu usulni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin. Masalan, bir o'quvchi B harfini yozishda xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, o'qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab, daftarga qalamda yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu harf haqidagi tasavvurini kengroq shakllantiradi. Ayrim hollarda nuqtalar ifodalangan harflar orasini kengroq tashlab, ular orasida mustaqil mashqlarni ham tashkil etish mumkin. Shundagina o'quvchi shu harfning yozilishi haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi. Ayrim o'qituvchilar chiroyli yozuvga o'rgatishning dastlabgi davrlarida o'quvchilarni

harf va uning unsurlari haqida turli tasavvurga ega qilish uchun yupqa xitoy qog'oz (kalka)dan ham foydalanadilar. Bunday mashqlar faqat qo'l harakatini o'stirish uchun yordam beradi, xolos. Uzoq muddat bunday usulda yozgan bolalar harflarning shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladilar. Shuning uchun nusxa ko'chirish usulidan faqat yakka-yakka mashq qilishda foydalanish lozim.

4. Tasavvur orqali yozish. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskada yozib ko'rsatgan harf yoki bog'lanishlarni o'quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkaning havoda harakatini ko'rsatib, o'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozishga ruxsat etiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi hamda jismoniy mashqlarni ham bajarish imkonini beradi. Ammo o'qituvchi bu usuldan foydalanishda sinfdagi barcha o'quvchilarning qo'l harakati qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bir vaqtda tekshira olmaydi, bir necha o'quvchinigina kuzatib, tegishli ko'rsatma bera olishi mumkin. Nusxa ko'chirish, tasavvur orqali yozish chiroyli yozishga o'rgatishda yordamchi usullardir.

5. Harflarning shaklini tahlil qilish. Harf va uning unsurlarini tahlil qilishni turlicha amalga oshirish mumkin. Harflarni unsurlariga ajratib tahlil qilish, har bir harfning necha unsurdan tuzilganligini, har bir unsur qanday shaklga ega ekanligini, bu unsurlar boshqa harflar bilan bog'lanishda qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasavvur etadilar. Ammo soddalashtirilgan harflar alfaviti ko'p harflarni unsurlarga ajratmay, bir butun shaklda yozishni tavsiya etadi. Masalan, kichik b va f harflari unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Ayrim harflar bir necha unsurdan tashkil topgan bo'lib, ular bir butun shaklda yoziladi, ammo o'qituvchi uning nechta unsurdan iborat ekanligini faqat eslatib turishi mumkin. Masalan, kichik n va m harfining birinchi unsuri bir xil shaklga ega, ammo kichik n harfida bitta ilmoqli kichik tayoqcha bo'lsa, kichik m harfida ikkita ilmoqli tayoqcha bo'ladi. Bu yerda faqat o'qituvchi harflarning nechta unsurdan tashkil topganligini eslatib o'tadi, xolos, yozishda esa bu harflar qo'l harakatini uzmasdan yozishni talab etadi.



6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish. Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin. Masalan, birinchi sinfda dastlab to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri holatda qo'yish kabi talablar asosida so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va harflarning oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish qoidalari kelib chiqadi. Faqat ikkinchi sinfdan boshlab chiroyli yozish malakasiga o'rgatishda yozuv texnikasiga oid bo'lgan kichik va bosh harflarni bir xil balandlikda chamalab yozish, harf va 4-5 harfdan iborat so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish, tez va toza yozish kabi qoidalar talab etiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir qoida o'zining aniq mazmuniga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi har bir qoidani asta-sekin o'z o'rnida o'rgatib borishi lozim. Masalan, dastlab yozuvning qiyaligini to'g'ri saqlash qoidalari talab etilgan bo'lsa, bu "Alifbe" gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bolalar qiya chiziqlar ahamiyatini yaxshi bilib olganlaridan so'ng, bu qoidalarni harf va so'zlarni yozishda qo'llaydilar.

Yozuvning qiyaligi haqidagi tushunchalar chuqur singdirilgandan so'ng harflarni bir xil masofada tekis yozish qoidalari o'rgatiladi. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rganilgandan so'ng, so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rgatiladi. Chiroyli yozuv deganda biz toza, aniq chiziqlar bo'yicha, husnixat namunalarida ko'rsatilgandek yozilgan xatni tushunamiz. Uchinchi sinfdan boshlab esa bu qoidalarga yana qo'shimcha tez va toza yozish qoidalari kiritiladi. Ammo har bir qoidani har darsda o'quvchini bezdiradigan darajada takrorlash yaramaydi, bunda ongli ravishda o'zlashtirish uchun mo'ljallangan qoidalar foyda berishi mumkin.

7. Sanoq-ohang usuli. Bu usuldan foydalanishda o'qituvchi harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o'rgatish davrida keng qo'llash mumkin. Sanoq-ohang usulining afzalligi shundaki, birinchidan, u harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo'l

qo‘ymaydi. Ikkinchidan, sekin yozadigan o‘quvchilarni tez va sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan barobar yozishga undaydi. Uchinchidan, o‘quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o‘rgatadi. To‘rtinchidan, sinfda darsni jonlantirishga yordam beradi. Ammo bu usuldan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki o‘quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin. Sanoq-ohang usulini qo‘llashda, asosan, harflarning asosiy unsuri “bir”, “ikki”, “uch” deb sanab boriladi, yordamchi ulash unsuri esa “va” deb bog‘lanadi. Masalan, kichik m harfini yozishni quyidagicha mashq qilish mumkin. Sanoq-ohang usulini qo‘llashda harf yoki unsurlar avval sanoqsiz yoziladi, so‘ngra sanoq bilan yozdiriladi. Shuningdek, bu usul bilan yozishda dastlab sekinroq, keyinchalik uni tezlashtirib yozib ko‘rsatiladi. Sanoq-ohang usulidan bo‘g‘in, so‘z va gaplarni yozdirishda ham foydalanish mumkin.

8. Xatolar ustida ishlash. Bu usulni qo‘llashdan maqsad har bir o‘quvchini o‘z xatosini mustaqil topa olishga va uni tuzatishga o‘rgatishdir. O‘quvchilarning o‘z yozuvlaridagi harflarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini, qiyaligini, baland yoki past yozilganligini tekshirib chiqish topshiriladi. O‘quvchilar navbati bilan o‘zlari yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni aytib beradilar, ayrim o‘quvchilarga o‘qituvchi yordam beradi. Undan tashqari, o‘quvchilar o‘z kamchiliklarini yozuv daftarida yoki “Husnixat” kitobida berilgan namunaga qarab taqqoslash orqali ham tuzatishlari mumkin. Ko‘pchilik o‘quvchilarning takrorlangan bir xildagi xatolarini o‘qituvchi doskada tahlil qilib, uni qanday tuzatish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

**O‘quvchilarni chiroyli yozuv texnikasiga o‘rgatish.** Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo‘lib, u bir necha davrlarga bo‘linadi va bir necha xil vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bolalar o‘qituvchining ko‘rsatmasiga asosan, doskaga yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, so‘z va bo‘g‘inlarni tahlil qiladilar, nuqtachalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo‘yaydilar.

O‘quvchilarni yozdirishga o‘rgatishdan avval to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini tushuntirib berish shart. Shu bilan birga, o‘qituvchi butun dars davomida o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini eslatib turishi lozim. O‘quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish uyg‘otish birinchi navbatda o‘qituvchiga bog‘liq.

Boshlang'ich sinf dasturining so'nggi bosqichida yozuvga o'rgatish o'qish darsi bilan yozuv darsini chambarchas bog'lashni maqsad qilib qo'yadi. o'qish darslarida o'quvchilar tovush hamda bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sintez qilish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Shu kabi yozuv darsi ham o'zining ayrim alohida xususiyatiga ega. Masalan, o'quvchilar o'qish darsida alifbe kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsalar ko'rinmaydi. Har bir harf va uning unsurini o'quvchining o'zi namunaga qarab bajarishi shart. Harf va uning unsurlari orasidagi masofalarni to'g'ri saqlash hamda daftarga bir tekis yozish endigina yozishga o'rganayotgan o'quvchi uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o'rgatish o'z navbatida quyidagi qator tushunchalarni bilishni talab etadi. Masalan, "baland-past", "bir xil", "keng-tor", "yaqin-uzoq", "yuqoriga", "teng", "teng bo'lmagan masofa", "to'g'ri-qiya", "chapga-o'ngga" va hokazo.

O'qituvchi yozuvga o'rgatishni boshlashdan oldin o'quvchilar bilan yuqorida qayd etilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o'quvchilarga harflarning shaklini, uning harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yozish malakasi o'qish malakasiga nisbatan ancha murakkabdir. Shuning uchun birinchi sinfda o'quv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo'lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin ("Alifbe" kitobida esa bu davr uchun 20–25 kun berilgan). Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o'qish darsi o'rtasida birmuncha farq bo'lishi mumkin, bundan cho'chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o'quvchilar so'z va harflarni o'tilgan materiallar asosida yozib o'rganadilar. Keyinchalik esa o'qish bilan yozuv darsi bir-biri bilan uzviy bog'langan holda davom etadi. Yozuv darsiga taalluqli bo'lgan ayrim tomonlar hisobga olingan holda tayyorgarlik mashqlari beriladi. O'qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari, asosan, og'zaki nutqni o'stirishga qaratiladi. Ammo butun bir soatlik dars davomida og'zaki nutq bilan shug'ullanish bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun bu darslarning yarmini og'zaki nutq o'stirishga, ikkinchi yarmini esa yozuv darsiga taalluqli bo'lgan tayyorgarlik mashqlarini bajarishga qaratish mumkin. Bu mashqlar qiziqarli chiqishi uchun rangli qalam yoki flomasterdan foydalanish

mumkin. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish muhim ahamiyatga egadir.

**Tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish.** Birinchi sinf o'quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to'g'ri olib borish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

1. Partada to'g'ri o'tirishga, avtoruchkani to'g'ri ushlashga va daftarning holatini to'g'ri tutishga o'rgatish.
2. O'quvchilarning husnixatga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish.
3. Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o'stiruvchi mashqlarni bajartirish.
4. Qo'l va barmoq mushaklarining harakatini o'stirish.

Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o'quvchilarni qora va rangli qalamlar, flomaster hamda yozuv daftari bilan ta'minlash lozim. O'qituvchining bu davrda rangli bo'rlardan foydalanishi yaxshi natijalar beradi. Tayyorgarlik davrida o'tkaziladigan mashqlarni ma'lum guruhlariga bo'lib, avval sodda va keyin murakkabroq mashqlarni bajarish lozim.

Mashqlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: O'quvchilarni daftarning chiziqlari bilan tanishtirish va nuqtalarni ko'z bilan chamalashga o'rgatish.

Birinchi vazifa: O'quvchilarga bir xil masofada nuqtalar qo'yishga o'rgatish.

Ikkinchi vazifa: O'quvchilarga "baravar masofa", "yaqin", "uzoq" kabi tushunchalarni berish.

Uchinchi vazifa: O'quvchilarni daftarning qiya holati bilan tanishtirish. Bolalarga oldin daftarni tik, keyin esa qiya qilib qo'yish topshiriladi (daftarning pastki chap burchagi ko'krak o'rtasiga to'g'ri bo'lishi lozim). So'ngra daftarning qiya va tik holatlari solishtirib ko'rsatiladi hamda yozuvning qiyaligi daftarning holatiga taalluqli ekanligi bolalarga tushuntiriladi.

To'rtinchi vazifa: O'quvchilarning qalam ushlashlari tekshirib chiqiladi va qizil qalam bilan bir qator nuqta qo'yib chiqish topshiriladi.

Ikkinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: Chiziqlarning qiya shaklda yozilishini ko'rsatish hamda chiziqlar orasidagi masofani to'g'ri topishga o'rgatish.

Vazifa: Kichik harflar yoziladigan chiziqlar orasiga qiya tayoqchalarni yozdirib mashq qildirish.

O'qituvchi bu mashqni xattaxtada namuna qilib ko'rsatib beradi. o'quvchilar esa qizil qalamda qiya tayoqchalarni chizadilar. o'quvchilar birinchi qatorni yozib bo'lganlaridan so'ng tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi. Yozilgan tayoqchalarning bir xilligini tekshirish uchun ularning o'rtasiga boshqa rangdagi qalam bilan nuqtalar qo'ydiriladi.

Agar nuqtalar baravar masofada bo'lsa, o'quvchi vazifani to'g'ri bajargan, baravar masofada bo'lmasa, xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi. Xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilarga shu mashqni qayta bajartirish lozim.

Uchinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: O'quvchilarga "baland", "yuqori" va "past" tushunchalarini anglatish. Chiziqlar orasini to'g'ri topishga o'rgatish.

Vazifa: Har bir balandlikdagi qiya tayoqchalarni yozdirish.

O'qituvchi xattaxtada daftarning yuqori chizig'idan pastki chizig'igacha uzun tayoqchalar tushirishni, tayoqchalarning teng o'rtasini topib nuqta qo'yishni aytadi; uzun tayoqchanning yarmidan, ya'ni nuqta qo'yilgan yeridan uning yoniga qiya tayoqcha chizishni topshiradi. Uzun tayoqchalarning o'rtasiga qo'yilgan kichik tayoqcha yotiq chiziq bilan bog'lanadi.

Xattaxtada tayoqchalarning baland va pastligi taqqoslab ko'rsatib beriladi. Shundan so'ng o'quvchilar vazifani bajarishga kirishadilar.

To'rtinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: Har bir shaklga va qiyaliklarga ega bo'lgan chiziq unsurlarini yozishga o'rgatish.

Birinchi vazifa: Uzun tayoqcha unsurini bir necha bo'laklarga bo'lib, ularning orasidagi masofani bir xil saqlashga o'rgatish (bu chiziqlar jigarrang qalam bilan chizdiriladi).

Ikkinchi vazifa: Tayoqchalarning baland-pastligi, oralaridagi masofaning tengligi tekshirib chiqilgandan so‘ng, zangori rang qalam bilan har xil qiyalikka ega bo‘lgan kichik baliq shaklini ifodalovchi chiziqlar chiziladi.

O‘quvchilar bu mashqni bajarish orqali oraliq masofani chamalashga va qiyaliklarni to‘g‘ri saqlashga o‘rganadilar.

Beshinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: O‘quvchilarga “keng” va “tor” tushunchasini anglatish; tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklidagi unurni yozishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa: Tagi ilmoqli kichik tayoqcha unsurini har xil rangli qalamda bajarish. Masalan, 3 ta tayoqcha qizil rangda, 3 ta tayoqcha ko‘k rangda bajarilsa, o‘quvchilarning qiziqishlari ortadi.

Ikkinchi vazifa: O‘tkir burchak hosil qilib yozilgan unsur bilan tagi ilmoqli kichik tayoqcha unsurlarini qiyos qilib ko‘rsatish (tagi ilmoqli tayoqcha unsurlarining to‘g‘ri yozilishi ko‘rsatib o‘tiladi, chunki bu unsur kichik harflarning yozilishida ko‘p uchraydi). O‘quvchilarga bu qoidalar tushuntirilgandan so‘ng bir qatorga oralatib bitta kichik to‘g‘ri tayoqcha va bitta tagi ilmoqli kichik tayoqcha unsuri yozdiriladi.

Oltinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: Ovalsimon shaklni chizishga o‘rgatish.

Vazifa: Oval shakli bilan tanishtirish hamda uni aylana bilan qiyos qilib ko‘rsatish.

O‘qituvchi xattaxtada aylana va uning yoniga oval shaklini yozib, ularni solishtirib ko‘rsatadi.

Ularning bir-biridan farqini tushuntiradi, aylana — bu koptok yoki tarvuzga, oval esa olxo‘ri yoki qovun shakliga o‘xshaydi. So‘ng o‘qituvchi oval shaklini tik va qiya holatda chizib ko‘rsatadi.

O‘quvchilar uni solishtirib ko‘radilar, biri tik holatda, ikkinchisi esa chap tomonga qiya qilib yozilgan bo‘ladi.

O‘qituvchi oval shaklidagi bu unurni bir tomonga zich qilib chizish shart ekanligini ta’kidlaydi. o‘quvchilar uning yozilishini bir necha marta havoda bajarganlaridan so‘ng yozishga ruxsat etiladi. O‘qituvchi ovalning balandligi ham tayoqcha bilan

baravar yozilishini eslatadi. o‘quvchilar bir qatorga ikkita kichik tayoqcha va bitta oval shaklini chizadilar.

Oval shaklining orasiga qo‘yilgan bu kichik tayoqchalar uning qiyaligini saqlab yozishga yordam beradi.

Yettinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: Kichik harf unsurlarini qo‘shib yozishda hamda ularning orasidagi masofani to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

Vazifa: Tagi ilmoqli kichik tayoqcha unsurlarini mashq qildirish hamda ularni bir-biriga qo‘shib yozishga o‘rgatish.

Bu vazifani to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganligini ikkita unsur o‘rtasidagi bo‘shliqqa boshqa rangli qalam bilan nuqta qo‘ydirish orqali ham bilish mumkin.

Agar o‘quvchi vazifani to‘g‘ri bajargan bo‘lsa, nuqta harf unsurlari orasiga to‘g‘ri joylashadi, aksincha, noto‘g‘ri bajargan bo‘lsa, nuqta uchun joy topilmaydi. Bunday usul bilan vazifani tekshirish o‘quvchilarda uchraydigan xatoning oldini olishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘lidir.

Sakkizinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: “Uzunroq” va “kaltaroq” tushunchasini anglatish.

Vazifa: Ikki xil uzunlikdagi tayoqcha unsurlarini yozib ko‘rsatish.

Bu vazifa ham rangli qalam bilan bajariladi. o‘quvchilar bu tayoqchalarning qaysi biri uzun, qaysi biri kalta ekanini solishtirib ko‘radilar.

To‘qqizinchi guruh mashqlari.

Darsning maqsadi: Harf unsurlarini bir qatorga to‘g‘ri joylashtirishga o‘rgatish.

Birinchi vazifa: O‘quvchilarga bir qator ovalsimon shaklni chizdirib mashq qildirish.

Ikkinchi vazifa: O‘quvchilarga zangori qalam bilan oval shakli ichiga har xil masofada tayoqchalar chizib chiqishni topshirish. Har bir tayoqcha olma shaklining o‘rta qismi, ya‘ni uning o‘ng va chap tomonlari vazifasini bajaradi. Olma shaklining tashqarisiga ham kichik tayoqcha chiziladi, bu esa uning bandi hisoblanadi.

Tayyorgarlik mashqlarini bunday tashkil etish o‘quvchilarni ruchka bilan yozishga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi. Ammo tayyorgarlik davrida o‘quvchilar yozuvga taalluqli bo‘lgan hamma malakalarni to‘liq hosil qiladilar deb bo‘lmaydi. Shuning

uchun ayrim tayyorgarlik mashqlarini harflarni o'rgatish davrida ham olib borish mumkin. Masalan, kichik y harfini yozishni o'rgatishda uning ikkinchi tagi tugunchakli unsuri bog'lanishida qiynalishlari mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan tayyorgarlik mashqlarini o'qituvchi o'quvchilarning kuchiga qarab biroz soddalashtirishi yoki, aksincha, murakkabroq qilib olishi mumkin.

“Yozuv daftari”da harflarning eng ko'p qo'llaniladigan asosiy unsurlari bilan tanishtiruvchi materiallar bilan birga unsurlarni qo'shib yozish uchun mo'ljallangan ayrim mashqlar ham berilgan. Bu mashqlar o'quvchilarning qo'l harakatini uzmasdan qo'shib yozishlarida katta rol o'ynaydi. Ayrim mashqlarda harf unsurlari nuqtalar bilan qo'shib beriladi, bunday ishlar o'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirishga katta yordam beradi. “Yozuv daftar”idagi mashqlarning ko'pchiligida unsur aralash beriladi, chunonchi, bir qatorda kichik tayoqcha, cho'zinchoq doira shakli va boshqalar. O'quvchilar uchun tanish bo'lgan unsurlarni bunday aralash qilib berish ularni yozuvga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi, chunki bir qator yozuvda bir necha xil unsur takrorlanadi. Mashqlarni bunday tuzish takrorlash vazifasini ham bajaradi. “Yozuv daftari”da namunalar berilgan bo'lsa ham, sinfda husnixat mashqlari o'qituvchi tomonidan xattaxtada yozib ko'rsatilgan namunalar asosida olib boriladi. Shuning uchun har bir o'qituvchidan harf shaklining yozilishini yaxshi bilish talab etiladi. Yozuv daftarida berilganlar bilan o'qituvchining yozib ko'rsatgan namunasi o'rtasida farq bo'lmasligi kerak. O'qituvchi yangi materialni to'liq tushuntirib bergach, shu materialni yozuv daftaridan qarab yozishga ruxsat etadi. O'tilmagan harf unsuri yoki harfni mustaqil yozishga ruxsat etilmaydi.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullaridan qaysi biri boshqalariga nisbatan qadimiyroq hisoblanadi?
- Bolalarda normal yozish ko'nikmasi necha yoshdan shakllana boshlaydi?
- Birinchi sinfda o'quv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo'lgan davr qanchaani tashkil etadi?



- O'quvchilarda yozuv sifatlarini shakllantirish uchun o'qituvchi qanday ko'rsatmalarga amal qilishi lozim?
- Yozuv daftarlaridagi qay bir qulaylik o'quvchilarning chamalash qobiliyatlarini o'stirishga katta yordam beradi?

### **10. 1-4-sinflarda husnixat darslari**

**Tayanch tushunchalar:** *husnixat mashqi, diktovka bilan yozish, yozuv darslari, Alifbe davri, 1-sinfga tayyorgarlik mashqi, 2-3-4-sinflarda husnixat darslari, grafik ishlar, me'yoriy husnixat*

Husnixat malakalarini mustahkamlash maqsadida ona tili va husnixat darslari bog'lab olib boriladi. Husnixat mashqi uchun ona tilidan 6-8 minut vaqt ajratiladi. Shu vaqt ichida husnixat bilan ishlanadi. Namunani o'qituvchi beradi, lekin 1-sinfda yozuv darsining o'zi husnixat hisoblanadi. 2-3-sinfda husnixat uchun 1 soat dars ajratiladi va jadvalga qo'yiladi. 4-sinflarga 6–8 daqiqa ajratiladi. Bu mashg'ulotlarning mazmuni har sinfnig husnixat dasturida belgilab berilgan. 1-sinfda qo'l muskullarining harakatini va ko'z bilan chamalashni takomillashtirish uchun va ayrim harflarni, harf guruhlarining murakkablashib borishiga qarab mashqlar o'tkaziladi. Harflardan tashqari so'z va gaplarni, matnlarni ko'chirib yozish, diktovka bilan yozish mashq qilinadi. 2-4-sinflardagi grafik mashqlar mazmuniga shu sinf dasturini bajarishdan tashqari yozilishi murakkab harflar va ularni boshqa harflarga bog'lab yozish, yozma va bosma matnlarni ko'chirib yozish, diktovka bilan yozish mashqlaridan keng foydalaniladi. Kollegrafik xarakterdagi kamchiliklarni harflarning qiyaligiga yetarli e'tibor bermaslik, ularni buzib yozish, harflarning balandlik va kenglik o'lchami chizig'idan chiqib ketish va har qaysi bolaning yozuviga xos boshqa xatlarni tuzatish mashqlari ham husnixat darsi tarkibiga kiradi. Shu maqsadda, birinchi sinflarda hamma harflarni, ikkinchi va uchinchi sinflarda harflarni tanlab namunadan ko'chirib yozish tavsiya etiladi. Husnixat mashqlarining mazmuni grammatik materiallarni o'rganish, lug'atchadagi imlosi qiyin so'zlarning yozilishini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuvi aniq, to'g'ri, ozoda va tartibli bo'lishi lozim. O'quvchilarni

yozuvga o'rgatishdan, xususan, husnixatga doir turli mashqlar o'tkazishdan asosiy maqsad, bolalarda quyidagi malakalarni hosil qilish kerakligini unutmaslik lozim:

1. Nutq tovushlarini harflarga aylantirib yozish.
2. Harf, so'z, gapni to'g'ri hamda aniq yoza olish, kitobdan va doskadan to'g'ri ko'chirish, yozilganlarini tekshirish va yo'l qo'yilgan xatolarni tuzata olish.
3. O'z fikrini va taassurotlarini yozma bayon qila olishga o'rganish.

Bu malaka va ko'nikmalar ona tili o'rganish jarayonida asta-sekin rivojlanadi.

Alifbegacha va alifbe davrlarida yozuv darslarini tashkil etish. O'quvchilar alifbega tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajargan bo'lishlariga qaramay, o'qituvchi navbatdagi darsni e'lon qilishi bilan birga yozuv qurollarini qayta tekshirib chiqishi hamda quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'yishi lozim:

1. Barmoq va qo'l mushaklarining harakatini o'stiruvchi gimnastika mashqlarini o'tkazish.
2. Xattaxtaga mashqni yozib ko'rsatish va asosiy diqqatni qayerga jalb etishni tushuntirish (ayrim o'quvchilar harfni qanday yozishni aytib berishlari mumkin).
3. Yozuv daftarlaridan foydalanish va yozishni qayerdan boshlashni tushuntirish.
4. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri tutish qoidalarini eslatib o'tish.
5. Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o'quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish.
6. Ishning birinchi qismi tugagandan so'ng (o'qituvchining savoliga qarab) o'quvchilarning yozuvlarini xattaxtagidagi namuna bilan solishtirib, yo'l qo'yilgan xatolarini topishga o'rgatish.
7. Topshiriqni qayta tushuntirish orqali o'quvchilardagi kamchiliklarni bartaraf etish.
8. Jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazish.
9. Ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish.
10. Har bir mashqni bajarishda uni tahlil qilish, zarur bo'lsa, qo'shimcha ko'rsatmalar berish.

Yuqorida ko'rsatilgan talablarni o'qituvchi doim amalda qo'llashi lozim. Shu bilan bir qatorda, bu davrda o'quvchilarni asta-sekin yozuv daftaridan to'g'ri foydalanishga

ham o'rgatib borish zarur. o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan, o'quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim. Alifbegacha bo'lgan davrdan boshlab e'tibor harf va uning unsurlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga qaratiladi. Ko'chirib yozish mashqlari uchun esa ayrim harf unsurlari emas, balki alohida guruhlar beriladi. Alifbegacha bo'lgan davrda bu talablarni amalga oshirish alifbe davrida darsni yanada samaraliroq olib borish uchun imkoniyat yaratadi. Alifbe davrida o'quvchilar nutq tovushlari bilan amaliy tanishadilar, so'z tuzishga, so'z va gaplarni o'qishga hamda ayrim unsurlar, harflar ishtirokida so'z va gaplarni yozishga o'rganadilar. Alifbe davrida bolalarni yozishga o'rgatish juda muhimdir. Bu davrda o'quvchilarga harf va uning unsurlari alifbe kitobida ko'rsatilgan tartibda o'rgatiladi. o'quvchilarga vaqti-vaqti bilan yozuv gigiyenasi qoidalarini eslatib turish lozim, chunki ayrim o'quvchilar yozuv bilan mashg'ul bo'lib, yozuv gigiyenasi qoidalarini unutib qo'yadilar.

Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish.
2. Bo'g'in va so'zlarda harflarni qo'shib yozish.
3. Qo'l harakatini uzmay yozishga o'rgatish.
4. Harflarning qiyaligini va enini to'g'ri saqlashga o'rgatish.

O'qituvchi ayrim harflarning unsurini noto'g'ri yozayotgan o'quvchilarga shu unurning to'g'ri yozilishini ko'rsatib berishi lozim. Bu davrda o'quvchilarning harflarni to'liq yozmaslik yoki almashtirib yozish kabi xatolarini aniqlash mumkin. Alifbe davrida o'quvchilarning yozayotgan matnlarini uch xil yo'l bilan tahlil qilish mumkin:

- a) so'zlarning tarkibini aniqlash;
- b) so'zlarning ma'noviy tomonini aniqlash;
- d) mashqlarning grafik tasviri ustida ishlash.

Shuning uchun ham "Yozuv daftari"dagi mashqlarning joylanishi "Alifbe" kitobi asosida beriladi.

**"Yozuv daftari"dan foydalanish.** "Yozuv daftari" "Alifbe" kitobi asosida tuzilgan bo'lib, savod o'rgatish davrida o'quvchilarni yozuv malakalarini shakllantirishga

mo'ljallangan. "Yozuv daftari"da harflarning o'rni va shakli aniq berilgan bo'lib, o'quvchilar shu namunalarga qarab yozadilar. "Yozuv daftari" o'qituvchining ishini ancha osonlashtiradi, har bir o'quvchiga harf namunasini yozib berishdan ozod bo'ladi. Ammo shu bilan birga harf unsuri yoki harfning shaklini sinf taxtasida ko'rsatib berishi shart. "Yozuv daftari"da harf yoki uning unsurlari va so'zlar bilan bir qatorda bo'sh satrlar ham berilgan. Undan har bir o'qituvchi shu kunning topshirig'iga moslab foydalanishi mumkin. Ba'zi bir betlardagi nuqtachalar bilan berilgan harflarning ustidan ruchka yurgizib chiqish orqali o'quvchilar shu harf shaklini to'g'ri tasavvur qilishga o'rgatiladi. Bu mashqlarni barcha o'quvchilarga qo'llash shart emas. Uni xunuk yozadigan va harflarni yozishda qiynalayotgan o'quvchilarga qo'llash mumkin.

"Yozuv daftari"dan o'quvchilar "Alifbe" davrining oxirigacha foydalanadilar. So'ngra ikki chizikli oddiy yozuv daftaridan foydalanish mumkin. "Yozuv daftari"ga yozdirishga boshlashdan oldin ularga sinf partasida o'tirish qoidalari, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yish qoidalari eslatib o'tiladi. Yozuv mashqlari kichik yoshdagi o'quvchilar uchun mashaqqatli bo'lib, ular tez charchab qoladilar. Bu davrda o'qituvchi o'quvchilarga bir darsda bir necha marotaba jismoniy mashqlar qildirishi lozim.

"Yozuv daftari"ning dastlabgi bir necha beti yozuv mashqlari uchun berilgan bo'lib, qolgan betlaridagi harflar alifbe tartibida yozishga o'rgatiladi. Yozuvga tayyorgarlik davrida o'tkaziladigan 1 soatlik dars namunasini ko'rsatamiz:

Darsning maqsadi: yozuv daftari va sharikli ruchka bilan tanishtirish; daftarning chiziqlari bilan tanishtirib, qiya chiziqlarning ahamiyatini tushuntirish.

Dars jihozlari: sinf taxtasi, bo'r, latta, yozuv daftari, ruchka, rangli qalamlar.

Darsga tayyorgarlikni tekshirish. O'quvchilar, bugun biz sizlar bilan harflarni yozishni o'rganamiz. Qarang-chi, oldingizda yozuv daftari, sharikli ruchka bormi? (o'qituvchi bolalarning ruchkalari bir xilda bo'lishiga alohida e'tibor berishi lozim).

O'qituvchi sinf partasida yozuv daftarini qanday qo'yish lozimligini amaliy ko'rsatib beradi.

2. To'g'ri o'tirish qoidalarini tushuntirish. Sinf partasida o'tirganda boshimizni o'ng yoki chapga qiyshaytirmasdan to'g'ri o'tirishimiz lozim. Ko'zimiz bilan yozuv daftari orasidagi masofa 30–35 sm ga teng bo'lishi lozim (albatta, o'qituvchi buni o'quvchi misolida amaliy ko'rsatib berishi lozim).

3. Ruchka ushlab qoidasini tekshirish. Ruchkani o'ng qo'limiz bilan ushlaymiz. Yozayotganda esa ruchkaning uchi bilan barmoqlarimiz orasida 10–12 mm masofa bo'lishi, ruchkaning orqa tomoni esa o'ng yelkamizga to'g'ri bo'lishi lozim (o'qituvchi amaliy ko'rsatib beradi).

4. Yozuv daftariga nuqtacha va chiziqchalar yozish. O'quvchilarga yozuv daftarining birinchi betidagi nuqtachalar bilan bir qatorda ko'ndalang chiziqlarni, satr chizig'ini va qiya chiziqlarni ko'rsatib, uning chetidagi qizil chiziqdan o'tish mumkin emasligini tushuntiradi. Bu qizil chiziq daftarning hoshiyasi deyiladi. Har qanday mashqlar shu qizil chiziqqacha yoziladi.

5. Jismoniy daqiqalar o'tkazish. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni qo'l va barmoq mushaklarini harakatga keltiruvchi mashqlarni bajartirishi lozim. Jismoniy daqiqalar 1-2 daqiqadan oshmasligi lozim.

6. Kichik tayoqchalarni yozish. Bu mashq orqali o'quvchilarni bir xil masofada chamalab yozishga o'rgatiladi. Albatta, yozuvni bir tomonga qiya qilib yozish ta'kidlab o'tiladi.

7. Darsni yakunlash. Mashqni yaxshi bajargan o'quvchilarning yozuv daftarlari namuna qilib ko'rsatiladi. Yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlanadi.

8. Alifbe tartibida harflarni yozish.

1) katta va kichik « \_\_\_\_ » harflarini yozish.

Kichik \_\_\_\_ harfi cho'zinchoq doira shaklida bo'lib, uni ikki xil shaklda ulash unsuri va ulash unsurisiz yozdirib mashq qildiriladi. Katta \_\_\_\_ harfi bir butun shaklda yoziladi, kichik harflar bilan yordamchi ulash unsuri orqali bog'lanadi.

2) katta va kichik « \_\_\_\_ » harflarini yozish.

Kichik \_\_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, kichik to'g'ri tayoqcha, tagi va usti ilmoqli kichik tayoqchadan iborat bo'lib, qo'l uzmasdan qo'shib yoziladi.

Katta \_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi, kichik harflar bilan yordamchi ulash unsuri orqali bog‘lanadi.

3) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfi kichik cho‘zinchoq doira va osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidan iborat. Bu harfni yozish uchun avval cho‘zinchoq doira, so‘ng qo‘l harakatini uzmay turib, ikkinchi osti ilmoqli kichik tayoqcha unsuri yoziladi. Bu harf o‘zidan oldin va keyin kelgan harflar bilan qo‘l harakatini uzmay bog‘lanadi. Katta \_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Buning uchun daftar chizig‘ining sal yuqorisiga ruchkaning uchini qo‘yib (ammo nuqta hosil bo‘lmasligi kerak), pastki chiziqchaga yarim oy shakli tushiriladi. Uni harf qiyaligiga nisbatan tikroq qilib yuqoriga davom ettiriladi hamda daftarning yuqori chizig‘iga yetkazmay turib (taxminan 1 mm masofada) pastga 65° qiyalikda to‘g‘ri tayoqcha unsuri tushiriladi va qo‘l harakatini uzmay turib, shu chiziq bo‘ylab yana yuqori ko‘tarib, tugunchali unsuri yoziladi.

4) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfini yozish uchun daftar chizig‘idan pastga qarab kichik tayoqcha tushiramiz va uni pastki chiziqqa yetkazmay turib, o‘ngga buramiz va yuqoriga qarab davom ettiramiz. Osti ilmoqli kichik tayoqchanning ustiga nuqta qo‘ysak «\_\_\_» harfi hosil bo‘ladi. Katta \_\_\_ harfi qo‘l harakatini uzmasdan bir butun shaklda yoziladi.

5) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfi uch unsuridan, kichik to‘g‘ri tayoqcha, usti ilmoqli kichik tayoqcha va tagi ham, usti ham ilmoqli kichik tayoqchadan iborat bo‘lib, bir butun shaklda yoziladi. Katta \_\_\_ harfi uch unsuridan iborat bo‘lib, bu harf qo‘l harakatini uzmasdan yoziladi.

6) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfi osti ilmoqli uzun tayoqchadan iborat bo‘lib, «belbog‘i» so‘z tugagandan so‘ng qo‘yiladi. Katta \_\_\_ harfi ikki unsuridan iborat bo‘lib, yozishda qo‘l harakati uziladi.

7) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi unsurlari ajratilmay bir butun shaklda yoziladi.

Katta \_\_\_\_ harfi bir butun shaklda qo‘1 harakatini uzmay yoziladi va o‘zidan keyingi kichik harflar bilan oson bog‘lanadi:

8) katta va kichik «\_\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Uni ikki xil ko‘rinishda, bog‘lovchi unsur orqali va yopiq holda yozish mumkin. Katta \_\_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, birinchi unsur pastdan yuqoriga qarab yoziladigan chiziq va ikkinchi unsur ikki yarim cho‘zinchoq doiradan iborat.

9) katta va kichik «\_\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_\_ harfi uch unsurdan iborat bo‘lib, birinchi unsur usti tugunchakli uzun tayoqcha shaklida, ikkinchi unsur kichik doira shaklida, uchinchi unsur esa ham usti, ham tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklida yoziladi. Katta \_\_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, ikkinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli tayoqchadan iborat bo‘lib, keyingi kichik harflar bilan oson bog‘lanadi.

10) katta va kichik «\_\_\_\_» harflarini yozish.

Kichkina \_\_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, birinchi boshlanish unsuri to‘lqinsimon shaklda, ikkinchi unsuri esa tagi ilmoqli kichik tayoqcha shaklida yoziladi.

Katta \_\_\_\_ harfi katta \_\_\_\_ harfiga o‘xshash bo‘lib, faqat uchinchi unsuri bilan farq qiladi.

11) katta va kichik «\_\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_\_ harfi cho‘zinchoq doira shaklidagi «\_\_» harfining ustiga kichik ko‘ndalang to‘lqinsimon chiziqcha chizish orqali hosil bo‘ladi. Katta \_\_\_\_ harfi ustiga ko‘ndalang to‘lqinsimon chiziqcha chizilsa \_\_\_\_ harfi hosil bo‘ladi.

12) katta va kichik «\_\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat, birinchi unsuri kichik cho‘zinchoq doira shaklida, ikkinchi unsuri esa osti ilmoqli uzun tayoqchadan iborat. Katta \_\_\_\_ harfini yozishda qo‘1 harakati uzilmaydi va bir butun shaklda yoziladi. Ammo kichik harflar bilan qo‘shimcha chiziqcha orqali bog‘lanadi.

13) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi ikki usti ilmoqli kichik tayoqchadan iborat bo'lib, ular qo'shib yoziladi. Katta \_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri ham usti, ham tagi ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi ilmoqli uzun tayoqcha shaklidan iborat.

14) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri osti ilmoqli kichik tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa uzun tayoqcha shaklidan iborat. Katta \_\_\_ harfi ham ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsuri tagi va usti ilmoqli tayoqcha shaklidan, ikkinchi unsuri esa tagi tugunchakli uzun tayoqcha shaklidan iborat. Ammo uning unsurlari bir butun shaklda yoziladi.

15) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Kichik \_\_\_ harfi boshqa harflar bilan oson bog'lanadi. Katta \_\_\_ harfining tashqi ko'rinishi sodda bo'lsa ham, yozilish usuli ancha murakkab, chunki bu harflar qo'1 harakatining soat miliga qarshi yurgizishni talab etadi. Bu harfning yuqoridagi yarim cho'zinchoq doira unsuri pastki unsuriga nisbatan kichikroq bo'lib, ular qo'shib yoziladi.

16) kichik «\_\_\_» birikma harflarni yozish. Kichik \_\_\_ harfi ikki unsurdan, kichik to'g'ri tayoqcha, tagi va usti ilmoqli kichik tayoqchalardan iborat bo'lib, qo'1 uzmasdan qo'shib yoziladi. Kichik \_\_\_ harfi ikki unsurdan iborat bo'lib, birinchi unsur cho'zinchoq doira shaklida, ikkinchi unsur esa osti tugunchakli uzun tayoqchadan iborat.

17) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi qo'1 harakatini uzmasdan bir butun shaklda yoziladi. Katta \_\_\_ harfi kichik \_\_\_ harfi shaklida bo'lib, faqat ikki barobar katta yoziladi.

18) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ ikki unsurdan iborat bo'lib, ular bir butun shaklda yoziladi. Katta \_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi. Uning pastki va ustki tugunchaklari bir xil bo'lishi lozim.



19) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfiga kichik \_\_\_ harfini qo'shsak \_\_\_ harf birikmasi hosil bo'ladi. Katta \_\_\_ harfiga kichik \_\_\_ harfi qo'shib yozilsa \_\_\_ harf birikmasi hosil bo'ladi.

20) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi ikki unsuridan iborat bo'lib, birinchi unsur uzun tayoqcha shaklida, ikkinchi unsur esa cho'zinchoq doira shaklida yoziladi. Katta \_\_\_ harfi ikki unsuridan iborat bo'lib, qo'l harakatini uzib yozishni talab etadi. Bu harfning ikkinchi unsurining yozilishini ko'proq mashq qildirish lozim. Katta \_\_\_ harfi kichik harflar bilan yordamchi ulash unsuri orqali qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yoziladi.

21) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi kichik \_\_\_ haitiga osti tugunchakli unsurini qo'shib yozish orqali hosil bo'ladi. Katta \_\_\_ harfi katta \_\_\_ harfiga osti tugunchakli unsurini qo'shib yozish orqali hosil bo'ladi.

22) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik yarim cho'zinchoq doira shaklidagi unsurga kichik \_\_\_ harfi bog'lab yozilsa \_\_\_ harf birikmasi hosil bo'ladi. Katta \_\_\_ harfi katta yarim cho'zinchoq doira shaklidagi unsurga kichik \_\_\_ harfini bog'lab yozish orqali hosil bo'ladi.

23) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi osti ilmcqli uzun tayoqcha shaklidan iborat bo'lib, bir butun shaklda yoziladi. Uning nuqtasi esa so'z tugagandan so'ng qo'yiladi. Katta \_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi.

24) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi ikki unsuridan iborat: birinchi unsuri kichik cho'zinchoq doira shaklida, ikkinchi unsuri esa osti tugunchakli uzun tayoqchadan iborat. Katta \_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi.

25) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish. Kichik \_\_\_ harfi kichik \_\_\_ harfining ustiga ko'ndalang chiziqcha qo'yish orqali hosil bo'ladi. Katta \_\_\_ harfining ustiga kichik to'lqinsimon chiziqcha qo'yilsa, katta \_\_\_ harfi hosil bo'ladi.

26) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfi bir butun shaklda unsurlarga ajratilmay yoziladi.

Katta \_\_\_ harfi bir butun shaklda yoziladi va boshqa kichik harflar bilan oson bogʻlanadi.

27) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfi unsurlarga ajratilmay bir butun shaklda yoziladi. Katta \_\_\_ harfi kichik \_\_\_ harfi shaklida boʻlib, faqat oʻlchami bilan farq qiladi.

28) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfi ikki, oʻng va chap yarim choʻzinchoq doiralardan iborat boʻlib, qoʻl harakati uzilmay yoziladi. Katta \_\_\_ harfi yarim choʻzinchoq doira shaklidagi ikki unsurdan iborat boʻlib, qoʻl harakati uzilmay qoʻshib yoziladi.

29) katta va kichik «\_\_\_» harflarini yozish.

Kichik \_\_\_ harfi kichik \_\_\_ harfiga oʻxshash boʻlib, bir butun shaklda yoziladi, ammo uning unsurlari chiziqdan pastga tushadi. Katta \_\_\_ harfining unsurlarini alohida yozib mashq qildiriladi.

Tutuq belgisi \_\_\_ vergul shaklida ifodalanib, ikki harf oraligʻining yuqori qismiga qoʻyiladi.

**Boshlangʻich sinflarda yozuv va husnixat darslarini tashkil qilish.** Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti (DTS) va oʻquv dasturining “Boshlangʻich taʼlim” yoʻnalishi talabiga koʻra 1–4-sinflarda husnixat mashgʻulotlari oʻtiladi. Dasturga koʻra, 1-sinfda yozuvga oʻrgatish uchun 70 soat ajratilgan, bu sinfda husnixatga oʻrgatish savod oʻrgatish bilan bir paytda amalga oshiriladi. Bunda oʻquvchilar husnixatning gigiyenik talablariga rioya qilishlari, harflarni grafik jihatdan toʻgʻri shakllantirishlari, ulashlari, ritm asosida yozishlari nazarda tutiladi. 1-sinfda xat-savod oʻrgatish davrida bolalar yozuvga bevosita “Yozuv daftarlari”dagi materiallar asosida oʻrgatiladi. 1-sinfda oʻquv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab boʻlib, u bir necha davrlarga boʻlinadi va bir necha vazifalarni oʻz ichiga oladi. Bolalar oʻqituvchining soʻzini tinglaydilar, ayrim matnlarni koʻchirib yozadilar, soʻz va boʻgʻinlarni tahlil qiladilar. Oʻquvchilarda chiroyli, aniq va toza yozuvga qiziqish va muhabbat uygʻotish uchun, birinchi navbatda, oʻqituvchining

o‘zi chiroyli yozishi lozim, bu sohada o‘quvchilarning taqlidchanligini unutmaslik lozim. “Boshlang‘ich ta‘lim” dasturida yozuvga o‘rgatish o‘qish darsi bilan yozuv darsini chambarchas bog‘lashni maqsad qilib qo‘yadi. O‘quvchilar o‘qish darsida “Alifbe” kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsalar ko‘rinmaydi. Har bir harf va uning unsurini o‘quvchilarning o‘zi namunaga qarab bajarishlari kerak. Harf va uning unsurlari orasidagi masofani to‘g‘ri saqlash hamda daftarga bir tekis yozish endigina yozishga o‘rganayotgan o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o‘rgatish bir qator tushunchalarni bilishni talab etadi. Masalan, baland-past, bir xil, keng-tor, uzoq-yaqin, yuqoriga, pastga, o‘ngga va hokazo. O‘qituvchi yozishga o‘rgatishdan oldin o‘quvchilar bilan yuqorida qayd etilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o‘quvchilarga harflarning shaklini, uning xarakterini yaxshi tushunishlariga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, yozish malakasi o‘qishga qaraganda ancha murakkabdir. O‘qishning birinchi haftalaridagi tayyorgarlik mashqlari, asosan, og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Ammo butun bir soatlik dars davomida og‘zaki nutq bilan shug‘ullanish bolalarni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Bu davrda husnixatga oid tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

**1-sinfda tayyorgarlik mashqlarini tashkil qilish.** 1-sinf o‘quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to‘g‘ri olib borish uchun quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim: Partada to‘g‘ri o‘tirishga, ruchkani to‘g‘ri ushlashga, daftarning holatini to‘g‘ri tutishga o‘rgatish. O‘quvchilarning husnixatga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish. Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o‘stiruvchi mashqlarni bajartirish qo‘l va barmoq muskullarining harakatini o‘stirish.

O‘quvchilar “Alifbe”ga tayyorgarlik davrida ayrim mashqlarni bajargan bo‘lishlariga qaramay, o‘qituvchi navbatdagi darsni e‘lon qilish bilan birga, yozuv qurollarini qayta tekshirib chiqishi hamda quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo‘yishi lozim:

◀ Barmoq va qo‘l muskullarining harakatini o‘stiruvchi gimnastika mashqlarini o‘tkazish.

- ◀ Dorskada mashqni yozib ko'rsatish va asosiy diqqatini qayerga jalb etishni tushuntirish.
- ◀ "Yozuv daftari"dan foydalanish va yozishni qayerdan boshlashni tushuntirish.
- ◀ Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yish qoidalarini eslatib turish.
- ◀ Har bir qatorga nechta harf yozishni tushuntirish, o'quvchilarning yozuvini muntazam kuzatib borish.
- ◀ Ishning birinchi qismi tugagandan so'ng (o'qituvchining topshirig'iga qarab), o'quvchilarning yozuvini doskadagi namuna bilan solishtirib, yo'l qo'yilgan xatolarni topishga o'rgatish.
- ◀ Topshiriqni qayta tushuntirish bilan o'quvchilar yo'l qo'ygan kamchiliklarni yo'qotish.
- ◀ Jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazish.
- ◀ Ko'z bilan daftar orasidagi masofani to'g'ri saqlashga o'rgatish.
- ◀ Har bir mashqni bajarishda, uni tahlil qilish zarur bo'lsa, qo'shimcha ko'rsatmalar berish. Alifbegacha bo'lgan davrdan boshlab harf va uning unsurlarini bir xil balandlikda, qiyalikda va qalinlikda yozishga, o'quvchilarni asta-sekin yozuv daftariidan to'g'ri foydalanishga o'rgatiladi. O'qituvchining ko'rsatmasiga binoan, o'quvchi daftardan zarur mashqni topishi va bajarishi lozim. Alifbe davrida o'quvchilar nutq tovushlari bilan amaliy tanishadilar, so'z tuzishga, so'z va gaplarni yozishga hamda harflar ishtirokida so'z va gaplarni o'qishga hamda yozishga o'rganadilar. Bu davrda o'quvchilarga harf va uning unsurlari "Alifbe" kitobida ko'rsatilgan tartibda o'rgatiladi. Shuning uchun ham "Yozuv daftari"dagi mashqlarning joylanishi "Alifbe" kitobi asosida berilgan. Bu mashqlar harf, so'z va gaplardan iborat. O'qituvchi so'zlarni yozdirishga boshlashdan oldin bu harflarning boshqa harflar bilan qo'shilishini ham tushuntirib berishi lozim. Masalan, ma, na, da kabi bo'g'inlarni yozishdan oldin kichik m, n, d harflarini kichik a harfi bilan qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish tushuntiriladi. Yozma alifbodagi hamma harflarni unsurlarga bo'lib yozishga ruxsat etilmaydi, faqat ayrim yozilish shakli murakkab bo'lgan harflarninggina unsurlarini alohida yozib ko'rsatish va mashq

qildirish mumkin. Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar quyidagilardan iborat:

1. Kichik va bosh harflarni “Alifbe” tartibida yozish.
2. Bo‘g‘in va so‘zlarda harflarni qo‘shib yozish.
3. Qo‘l harakatini uzmay yozishga o‘rgatish.
4. Harflar qiyaligini va enini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.

Alifbe davrida o‘quvchilar yozayotgan matnlarini 3 xil yo‘l bilan tahlil qilishlari mumkin:

- So‘zlarning tarkibini aniqlash.
- So‘zlarning ma’noviy tomonini aniqlash.
- Mashqning grafik tasviri ustida ishlash.

Alifbe davrida o‘quvchilarni bo‘g‘inlab yozishga, keyinroq esa so‘zlarni bir butun qilib yozishga o‘rgatiladi. Ayrim o‘quvchilar so‘zlarni yozishda harflarni alohida-alohida yozishga harakat qiladilar, bunga aslo yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki harflarni bunday yozish natijasida ayrim harflarni tushirib qoldiradilar yoki almashtirib yozadilar. Bu davrda o‘quvchilarni yoddan yozishga o‘rgatish uchun ularga ayrim ko‘rsatmalar berib borish lozim: “Matnni o‘qing, uning yozilishiga qarang va esda tuting, doskaga qaramay yozing, o‘qing, namuna bilan solishtirib ko‘ring” va hokazo. Alifbe davrining oxiriga kelib, ko‘pchilik o‘quvchilarning yozuv malakalari ancha mustahkamlanadi, lekin bu bilan qanoatlanmasdan yozuvga o‘rgatish malakasini takomillashtirib borish zarur. Quyida alifbe davrida o‘tkaziladigan darsning taxminiy rejasini keltiramiz:

Dars mavzusi: Kichik r harfini to‘g‘ri va chiroyli yozishga o‘rgatish.

Dars rejasi: O‘tgan darsda “Alifbe” kitobidan o‘qigan harfni qaytarish. Yangi dars mavzusini bayon etish. Ko‘rgazma hamda kesma alifbe yordamida yozma va bosma harflarni solishtirib ko‘rsatish. Kichik r harfining asosiy unsurlari bilan tanishtirish. O‘quvchilarga kichik r harfining unsurlari qo‘shilib yozilishini tushuntirish. O‘quvchilarni yozuvga tayyorlash: partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani to‘g‘ri ushlab, qoidalarini ko‘rgazmalardan (plakatdan) ko‘rsatish. Qo‘l va barmoq muskullarini o‘stiruvchi mashqlarni o‘tkazish. Kichik r harfini yozish, harflarni qatorlarga to‘g‘ri

joylashtirish. Kichik r harfi ishtirok etgan soʻzlarni yozish. Kichik r harfining boshqa kichik harflar bilan bogʻlanishini koʻrsatish. Darsni yakunlab, uyga vazifa berish.

Oʻquv yilining IV choragidan boshlab haftada bir marta husnixat uchun alohida dars soati ajratiladi. Bu davr bolalarning yozuv malakalari shakllanishida muhim rol oʻynaydi, chunki husnixat mashqlari ona tili darslari bilan bir vaqtda olib boriladi. Ammo alifbedan keyingi davrda yozuvga oʻrgatish sharoitlari biroz oʻzgaradi, chunki oʻquvchilar endi “Yozuv daftari”da emas, balki oddiy ikki chiziqli daftarga yozib mashq qiladilar. Ular endi koʻproq oʻqituvchi bergan namunalarga suyanadilar. Bu davrda oʻquvchilarga alifbe davrida yaxshi oʻzlashtirilmagan va yozilishi murakkab boʻlgan harflar ustida mashq oʻtkaziladi. Alifbedan keyingi davrda chiroyli yozuv darslarining mazmuni savod oʻrgatish davridagiga nisbatan yozuv malakalarini yanada kuchliroq shakllantirib borishga qaratiladi. Ammo 7-8 yoshli bolalarning qoʻl va barmoq muskullarini charchatib qoʻymaslik kerak. Shuning uchun har bir yozuv darsida 2-3 marta jismoniy mashq daqiqalarini oʻtkazib turish lozim. Bunday mashqlar bolalarning kayfiyatini koʻtaradi va ishlash qobiliyatini tiklaydi. Jismoniy mashq daqiqalari quvnoq kayfiyatda quyidagicha sheʼrlar asosida oʻtkazilishi mumkin:

Bizning nozik qoʻlchalar

Yoza-yoza charchadi,

Yozgan yozuvlarimiz

Koʻngillarni ochadi.

1-sinfda barcha kichik va bosh harflarning yozilish qoidalarini oʻquvchilar toʻla oʻzlashtirib olganlaridan soʻng namuna sifatida ayrim kichik matnlarni yozib, tinish belgilarini qoʻllashni mashq qildirish lozim. Savod oʻrgatishdan keyin yozuv sharti ham oʻzgaradi. Oʻquvchilar daftarlarida harf namunalarining yoʻqligi sababli ular qoʻshimcha bir qancha shartlarni bajarishlari zarur. Jumladan, bosma harflarni yozma harflarga aylantirishlari, ulanishini aniqlay olishlari va soʻzlarni qatorlarga toʻgʻri joylashtirishni mustaqil amalga oshirishlari, bundan tashqari, mashq shartlarini ham bajarishlari kerak. Shuning uchun oʻqituvchi yozuv materiallarini koʻzdan kechirib,

yordamga muhtoj holatlarni o'ziga belgilab olishi va qisqa izohlashlardan foydalanishi zarur.

**2-sinfda husnixat darslarini tashkil qilish.** 2-sinfda husnixat darslari uchun har haftada ona tili darslarining oxirgi bir soati ajratiladi va o'quv yili davomida 32 soatni tashkil etadi. 2-sinfda husnixat darslarini rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) bir chiziqli daftarga yozishning qiyinligini hisobga olib harflarni genetik tamoyil asosida yozdirish;
- 2) har bir harfning o'zidan oldingi yoki keyingi harfga ulanishini o'rgatib borish;
- 3) harflar elementlarining o'xshashligini hisobga olib guruhlash;
- 4) bosh harflarning elementlarini yuqoriga va pastga tomon tushishini hisobga olgan holda guruhlash;
- 5) matnlarning bolalar hayotiga mos bo'lishiga erishish;
- 6) imlosi qiyin so'zlarni yozuv materialni sifatida tanlash;
- 7) yozuv sur'atini oz-ozdan tezlashtirib borish;
- 8) xato yozilgan harflar ustida mashqlar o'tkazish;
- 9) doskaga yozib mashq qildirish.

2-sinfning ikkinchi yarmidan boshlab o'quvchilar bir chiziqli daftarga yozishga o'tadilar. Bunda kichik harflarning o'lchami 3 mm, bosh harflarning o'lchami esa 6 mm ni tashkil etadi. O'qituvchi har bir yozuv darsiga va o'quv fanlariga qanday tayyorlanishi, mashg'ulotda ishlab chiqadigan materialni qanday tayyorlab olishi, butun darsga yetadigan sinf ishi uchun materialni tayyorlashi muhim ahamiyatga egadir. Ba'zida, ayniqsa, endi dars o'ta boshlayotgan o'qituvchida materiallar yetarli bo'lmaydi: bir xildagi mashqlar mashg'ulotning sust va zerikarli o'tishiga sabab bo'ladi, mashg'ulot so'ngida esa minimal natijalarga erishiladi.

**3- va 4-sinflarda husnixat mashg'ulotlarini o'tkazish.** 3- va 4-sinflarda alohida husnixat darslari o'tkazilmasa ham, yozuvga o'rgatish qoidalari ona tili darslari bilant qo'shib olib boriladi. Ya'ni har bir ona tili darsining 8-10 daqiqasi husnixatga ajratiladi. 3-sinfdan boshlab bolalarda chamalash qobiliyatining o'sib borishi, qo'l va barmoq muskullarining taraqqiy etishi bilan ularda tez va mayda

yozuv shakllana boradi. 3-sinfda chiroyli yozuvga o'rgatish yuzasidan olib borilgan mashqlar har bir ona tili darsida 4-5 qatordan oshmasligi kerak. Bu sinfda bosh harflarning yozilishini takrorlash bilan birga ayrim ish qog'ozlarini yozish qoidalari ham tushuntiriladi. Ish qog'ozlarini aniq, ozoda va to'g'ri bajarish shu sinfdan boshlab talab etiladi. Ish qog'ozlari (xat, adres, ya'ni manzilgoh, tilxat, ariza kabilar) qanday yozilishini o'qituvchining o'zi namuna sifatida yozib ko'rsatishi lozim. Bu sinfda ham o'quvchilarga yozuv qoidalari eslatib turiladi. Yozuv mashqlarini o'stiruvchi mashqlar ona tili daftarida bajartiriladi. Uy vazifasi uchun berilgan mashqlar bir betdan oshmasligi kerak. 4-sinf o'quvchilarining yozuvlari kattalarga xosligi bilan xarakterlanadi. Bu sinfda o'quvchilar qiynalmay erkin yozishga o'tadilar, ularning yozuv tezligi ham ancha yuqori darajaga ko'tariladi. Bu davrda o'quvchilar o'z fikrlarini tezroq qog'ozga tushirishga harakat qiladilar. Yozuv tezligi past bo'lgan o'quvchilar esa ona tilidan berilgan topshiriqlarni bajarishda orqada qoladilar, ayniqsa, bu narsa diktant va yozma ishlarni bajarishda o'quvchilarga ancha qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham bu sinfda tez yozish malakasini o'stirish juda muhimdir. Bu sinfda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda kattalarga xos bo'lgan yozuv kalligrafiyasini shakllantirishdan iborat. 4-sinfda to'g'ri tashkil etilgan chiroyli yozuv malakalari bir umrga saqlanib qoladi. O'qituvchi o'z yozuvini yanada chiroyli va mukammal bo'lishi uchun uzluksiz shug'ullanib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim. Shunday fikrlar borki, agar muntazam yozib borilsa, yozuv yaxshilanib boradi. Lekin buning aksi ham bo'lishi mumkin: inson qanchalik ko'p yozsa, uning yozuvi shunchalik tushunarsiz bo'lib borishi ham mumkin. O'qituvchi husnixatda yozishni o'rganib olishi lozim. O'qituvchi faqat nazariy jihatdangina emas, balki har bir harf uchun yo'lga qo'yilgan amaliy proporsional bog'liqlikni ham bilishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, bajarish lozim bo'lgan mashqlar orqali qo'lning kaftini va barmoqlar harakatini yengillatish va rivojlantirish kerak bo'ladi. O'qituvchi sinf xattaxtasida yozish usullarini o'rgatishga alohida e'tibor berishi lozim. Sinf xattaxtasida yozish jarayonida yo'l qo'yadigan xatolarga harflarni noto'g'ri yozish bilan birgalikda uning uzoqdan qanday ko'rinishini hisobga olmasdan yozish kiradi. Yozuvning noto'g'riligi shunda ko'rinadiki, barcha asosiy va



birlashtiruvchi shtrixlar bir xil qolipda yoziladi, unda asosiy shtrixlar qalinroq chiziqlar bilan yozilmasdan qolaveradi. Faqatgina yaxshi yozuvga ega bo'lgan holdagina o'qituvchi bolalarga yozuvning to'g'ri yozilgan namunasini berishi va ulardan yaxshi natijalar olishi mumkin. O'quvchilar harflarning tuzilishini, uni chizishdagi ketma-ketlikni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun o'qituvchi bularning hammasini sinf xattaxtasida ko'rsatishi lozim. Tajribalarning ko'rsatishicha, chiroyli va to'g'ri yozuvda sinf xattaxtasiga bo'rda aniq va chiroyli yozadigan o'qituvchining o'quvchilari chiroyli va to'g'ri yozadilar. Sinf xattaxtasida yozish malakalariga quyidagilar kiradi: birinchi navbatda, qo'l harakatini rivojlantirish, simmetriyani his qilish va taxtaning qaysi qismida harf, so'z va gap yozilganini tezda topishni, ya'ni bir qarashda topa bilishlikni o'rgatish lozim. Bundan so'ng bo'r bilan yozishni, u bilan ishlash texnikasini o'rganib olish lozim. Bo'r bilan yozishda ingichka va qalin shtrixlarni yozishni, shuningdek, ingichka chiziqdan bosib yozishga o'tish kabi malakalarni egallashlari lozim. Dars uchun material tanlab olinadi, so'ng o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning qobiliyatiga va kuchiga qarab rejalashtirib olishi kerak. Agarda dars o'tish jarayonida yozuv taxtasidan foydalanish kerak bo'lsa, o'qituvchi oldindan kerakli materialni ishlab chiqishi lozim. Ko'pchilikka ma'lumki, hamma narsaga birdaniga erishib bo'lmaydi; sinf yozuv taxtasida namunalarni chiroyli qilib yozish ko'proq mashqlarni bajarishda katta mahorat talab etadi. Noto'g'ri yozilgan mashq esa o'quvchining o'qituvchiga bo'lgan ishonchining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bo'r bilan yozish texnikasining murakkabligidan tashqari, ma'lum bo'lgan namunani yozuv taxtasiga joylashtirish ham e'tiborni talab etadi, shuning uchun darsga tayyorgarlik ko'rishda bu yo'nalishda ham mashq qilib borish lozim. Bundan tashqari, o'qituvchi tanlab olayotgan materialining sifati ustida ham o'ylashi kerak. Agarda darsga tayyorlangan material mazmunli bo'lsa, o'quvchilar zo'r qiziqish bilan ishlaydilar va mashg'ulotlar ular uchun qiziqarli tarzda o'tadi. O'qituvchining asosiy diqqati sinfdagi barcha o'quvchilarni birgalikda, ahil va hamkorlikda ishlashga va ularni darsga jalb etishga qaratilishi lozim. Shu maqsadda o'qituvchi oldindan qaysi o'quvchilarning bilimini dars jarayonida sinab ko'rishi kerakligini belgilab oladi. Sinfdagilar hamkorlikda, ahil bo'lib bajaradigan ish,

qachonki, o'qituvchining ta'lim berish shakli va ishga bo'lgan munosabati yuqori darajada bo'lsagina, ijobiy natijalar berishi mumkin. O'quvchilar o'qituvchining kayfiyatiga bevosita sherik bo'ladilar. O'qituvchining kayfiyati bo'shshib, parishon, ortiqcha hayajonlanayotgan bo'lsa yoki haddan tashqari harakatchan bo'lsa, bu holat o'quvchilarga o'tib ularning ish faoliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qituvchi izchil, aniq o'ylab olgan va jonli ravishda dars o'tsa, o'quvchilarning darsga munosabati ijobiy bo'ladi va dars mazmunli bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarga uyga beriladigan topshiriqlarni ham oldindan rejalashtirib qo'yishi kerak. Beriladigan topshiriq o'quvchilarni mustaqil ravishda mashq bajarishga va o'tilgan dastur materialini mustahkamlab borishga o'rgatib borishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim davri, ayniqsa, savod o'rgatish davri boshlang'ich sinflarda o'quvchilari uchun intellektual bilimlar shakllanishining muhim davri bo'lib, bu davrni, bu jarayonni to'g'ri tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limning savod o'rgatish davrida, asosan, o'quvchilarga yozuv darslari olib boriladi, lekin yozuv darslarining o'zida husnixat malakalari shakllantirib boriladi. Yozuv va husnixat darslarida chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish, o'quvchilarning yozuv nuqsonlarini bartaraf etish juda katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki o'quvchi har qanday bilimni o'zlashtirish jarayonida faqat og'zaki nutqqagina tayanmaydi, balki axborotlar, fikrlar, mashqlar, misol va masalalar, qoida va ta'riflar yozma nutq orqali ifoda qilinadi. Shu bilan birga, yozuv darslarida o'quvchilarni yozuvga o'rgatish orqali go'zallik va nafosat tarbiyasini ham shakllantirib borish mumkin. Insonning xulq-atvorini yozuvidan bilib olish mumkin. Kimning yozuvi aniq, tushunarli bo'lsa, badiiy va estetik didi ham yuqori bo'ladi. Badxatlik esa dangasalik belgisi.

Ma'lumki, chiroyli yozish sirlari boshlang'ich sinfdanoq o'rgatiladi. Ammo keyinchalik aksariyat o'quvchilarning husnixati xunuklashib boradi. Buning o'ziga xos sabablari bor. Birinchidan, ayrim o'quvchilar jarayonga beparvo qaraydi. Ikkinchidan, o'qituvchining malakasizligi ham badxatlikka sabab bo'ladi. 1-sinfda husnixatga o'rgatishning dastlabki kunidan o'qituvchi va o'quvchilarning oldida qator vazifalar turadi. Bolalarning bir qismi tez, ikkinchisi sekin o'rganadi. Buni



lozim. Bu mashqlarni bajarishda qo‘l harakatini uzmay yozish, bosh va kichik harflarni bir-biriga bog‘lab yozish o‘rgatiladi. Shuningdek, boshni biroz pastga egib, to‘g‘ri o‘tirish, oyoqni bo‘sh tutib, yerga qo‘yib o‘tirish, qo‘lni to‘g‘ri tutish, ruchkani to‘g‘ri ushlab, shoshmasdan, chaplashtirmay yozish kabi qoidalarga amal qilish kerak.

Chiroyli yozuv shunchaki yozish, nusxa ko‘chirish bo‘lib qolmasligi kerak. Risoladagidek yozgan o‘quvchilarni “Balli”, “Barakalla” kabi so‘zlar bilan rag‘batlantirib borish zarur. Chiroyli yozuv malakasini mustahkamlash sinfxonaning yorug‘ligiga, doskaning tekis hamda uning harakatlanishga mosligiga ham bog‘liq.

*Husnixat darslarida quvnoq dam olish daqiqalari uchun she‘rlar:*

### 1

**O‘tiramiz o‘g‘il-qiz,  
Barchamiz ahil-inoq.  
O‘rnimizdan turamiz,  
Asta joyda yuramiz,  
Qo‘llarni ko‘taramiz,  
So‘ngra chapak chalamiz.  
Qo‘llarni tushiramiz,  
Boshni chapga va o‘ngga  
Aylantirib olamiz.  
Birozgina dam olib,  
Keyin yana yozamiz.**

### 2

**Qushlar uchib keldilar,  
Ko‘lmakchaga qo‘ndilar.  
U yon-bu yonga qarab,  
Yana uchib ketdilar.**

### 3

**Barmoqcham, barmoqcham,**

**Yozishni sen tez o‘rgan.  
O‘rganmasang yozishni  
Deyman seni “Lapashang!”**

**4**

**Yoza-yoza qo‘llarim toldi,  
Bir ozgina yozuvim qoldi.  
Dam olaman ozgina,  
So‘ng yozaman sozgina.**

**5**

**Elakda un elandi,  
Supra unga belandi.  
Xamir qordik ko‘pgina,  
Kulcha yopdik tezgina.**

**6**

**Shamol bo‘ldi,  
Yomg‘ir yog‘di.  
Dala-dashtga  
Nima bo‘ldi?  
Quyosh chiqdi,  
Gul ochildi.**

**7**

**Bir, ikki, uch,  
Barmoqlarga kirsin kuch.**

**8.**

**Baliq bo‘lib suzaman,  
Ayiq bo‘lib yuraman,  
Quyvon bo‘lib sakrayman,**

|  |           |
|--|-----------|
| <b>O‘quvchi bo‘lib o‘tiranman.</b>   | <b>9</b>  |
| <b>Dutor chalaman,<br/>Doira chalaman,<br/>Pianino chalaman,<br/>G‘ijjak chalaman,<br/>Raqsga tushaman,<br/>Bir aylanib,<br/>Joyimga o‘tiranman.</b> | <b>10</b> |
| <b>Boqqa kirsam olmalar<br/>Qip-qizarib pishibdi.<br/>Silkitibdi shamollar,<br/>Yerga to‘p-to‘p tushibdi.</b>  | <b>11</b> |
| <b>Oyim yopar kulcha non,<br/>Menga yoqar u chunon.<br/>Bizlar o‘tin tashiymiz,<br/>Tandir qizdirish uchun.</b>                                      | <b>12</b> |
| <b>G‘oq-g‘oq-g‘oq,<br/>Nega pating oq?<br/>Suvda suzaman,<br/>Shuning uchun oq.</b>  | <b>13</b> |
| <b>Chumchuq chuq-chuq etadi,<br/>Donni cho‘qib ketadi.<br/>Donni cho‘qsa mayli-ya,<br/>Nega to‘kib ketadi?</b>                                       | <b>14</b> |

G'ozlar qo'shiq kuylaysiz: G'oq-g'oq-g'oq,  
Qayerlarda o'ynaysiz, g'oq-g'oq-g'oq.  
Uchib-o'ynab ko'klarda, g'oq-g'oq-g'oq.  
Cho'milamiz ko'llarda, g'oq-g'oq-g'oq.

15

O yallo, yallo,  
Jamalagi tillo.  
Maktabga kelamiz,  
"Besh" baho olamiz,  
Quvonishamiz,  
Uyga ketamiz.

16

Bizlar yosh bolalarmiz,  
Bog'dagi gul-lolalarmiz.  
Ham o'qiymiz, ham yozamiz,  
Charchasak, dam olamiz.

17

Uzum uzdik bog'lardan,  
Lola terdik tog'lardan.  
Endi asta o'tiramiz,  
Yalqovlikdan qutilamiz.

18

Gulzorimda kapalak  
Guldan gulga qo'nadi.  
Tutib olay deganda,  
Tutqich bermay qochadi.  
Agar poylab turmasam,  
Gulni uzib ketadi.

19

Biz o'rmonga boramiz,

**Qo‘limizda boltamiz,  
Daraxtlarni chopamiz,  
Bir, ikki, uch, to‘rt,  
Ufff, charchadik...**

**20**

**To‘g‘ri o‘tirganning,  
Daftarni to‘g‘ri qo‘yganning,  
Ruchkani to‘g‘ri ushlaganning  
Yozuvi bo‘lar chiroyli.**

**21**

**Ruchkam deydi: Yozavergin,  
Ilm konin qazavergin,  
Ayab sira tindirmagin,  
Meni also sindirmagin.  
Qog‘ozlarda izim qolsin,  
Elga aytar so‘zim bo‘lsin!**

**22**

**Chumchuq etsa pirrr,  
Yuragi etib shirrr.  
Qo‘rqoq quyonvoy,  
Yuguradi zirrr.**

**23**

**Qarg‘a qarillrr,  
Varrak varillrr.  
Tarnovda suvlrr,  
Oqib sharillrr....**

**24**

**Bo‘yin cho‘zib qarag‘ay,  
Yon-atrofga qaragay.  
Der u: barcha daraxtdan,**



**Baland akang qarag‘ay.**

**25**

**Olma yedim baqalog‘idan,**

**Anjir yedim yapalog‘idan.**

**Olcha yedim qo‘shalog‘idan,**

**Dehqon bobomning shapalog‘idan.**

**26**

**Daraxt tagin yumshatamiz,**

**Daraxtga suv quyamiz.**

**Daraxtim o‘sib ketdi,**

**Bo‘yi osmonga yetdi.**

**27**

**Ayiq asal yalabdi – ko‘p, ko‘p, ko‘p,**

**Arilar ham talabdi – xo‘p, xo‘p, xo‘p,**

**Yur, yordamga boraylik – tez, tez, tez,**

**Tartibga chaqiraylik – biz, biz, biz, biz.**

**28**

**Yo‘lda yurib Sotvoldi**

**Yerdan tanga topvoldi.**

**Olib yegin, deb, makka,**

**Berdi uni chittakka.**

**29**

**Semizligi yostiqdaka**

**Sakrab-sakrab o‘ynar baqa:**

**“Vaq-vaq-vaq”, “qur-qur-qur”**

**Qanday mazza suzsang nuqul!**

**30**

**Yoza-yoza qo‘llarimiz charchadi,**

**O‘qiy-o‘qiy ko‘zlarimiz charchadi.**

**Birozgina dam olamiz,  
“Besh” bahoni biz olamiz.**

**31**

**Rosa maza qish,  
Qorlari kumush.  
Oq kiygan atrof  
Qish havosi sof.**

**32**

**Bog‘bon chiqar bog‘iga,  
Cho‘pon ketar tog‘iga.  
Bolarilar g‘uvullab,  
Qo‘nar gul yaprog‘iga.  
Suvlar shildirab oqar,  
Qo‘shig‘i dilga yoqar.  
Bizga shodlik keltirding,  
Salom, senga gulbahor!**

**33**

**Bo‘m-bo‘sh dala-qir,  
Yog‘adi yomg‘ir.  
Qushlar uhdilar,  
Barglar tushdilar.  
Sariq dala-tuz  
Hamma yoqda kuz!**

**34**

**Bog‘da uchar ninachi,  
Gulni quchar ninachi.  
Yozganda ikki qanot  
Xuddi ko‘kda samolyot.**

**35**

**Shalpangquloq quyonim,**

**Endi sakrab o‘ynasin,  
Mazza qilib quvnasin.  
Kimdandir cho‘chib ketdi,  
Quyuncham qochib keetdi.**

**36**

**Baliq-baliq, baqaloq  
Akulaga chaqaloq.  
Qani endi, zo‘r bo‘lsang,  
Akvariumdan chiqib boq.**

**37**

**Echki kiyibdi etik,  
Yana bo‘libdi tetik.  
Kiyibdi to‘rt oyoqqa  
Chopqillabdi har yoqqa.**

**38**

**Non ushog‘in sochmaymiz,  
Yerda yotsa bosmaymiz.  
Terib olib avaylab,  
Qush oldiga tashlaymiz.**

**39**

**Quyosh kulyapti,  
Bizlarga qarab.  
Nurga to‘lyapti,  
Qarang to‘rt taraf.  
Quyosh bizniki,  
O‘g‘il-qizniki!**

**40**

**Quyon, quyon,  
Kelgin buyon.  
Qo‘rqma uncha,**

**Qurdik uycha.**

**Sovuq kunda**

**Mazza bunda!**

**41**

**Yoza-yoza charchadik,**

**Qo'llarimiz dam olsin.**

**O'qiy-o'qiy charchadik,**

**Ko'zlarimiz dam olsin.**

*Darslar uchun shiorlar:*

**1**

**Shoshilmaymiz, oz yozamiz,**

**Lekin toza, soz yozamiz.**

**2**

**O'tirishim to'g'ri, soz.**

**Qoidaga juda mos.**

**Ko'kragimni men sira**

**O'tirganim yo'q tirab.**

**Chiroyli yoz, yozsang xat,**

**Chunki bu ham zo'r san'at.**

**3**

**Ona tilim – oy tilim,**

**Hikmatlarga boy tilim.**

**Shon tilim, shavkat tilim,**

**Mustaqil davlat tilim.**

**4**

**Ona tilim – jon-u dilim,**

**Sen-la olay chuqur bilim,**

**Yozuv darsin boshlaymiz,**

**Olg'a qadam tashlaymiz.**

**Daftarlarni chiqarib  
Ruchkalarni shaylaymiz.  
Chiroyli yozish uchun  
Bor kuchimiz sarflaymiz!**

**5**

**A'lochilar sinfi bu  
Chakki emas ishimiz.  
Bir sinfga to'planganmiz,  
A'lodir o'qishimiz!**

**6**

**Biz sinfda anchamiz,  
Lekin zo'r sinfchamiz.  
Bo'sh kelmaymiz darslarda  
Biz "besh"chimiz, "to'rt"chimiz,  
A'lochi o'quvchimiz!**

**7**

**O'qish kitob ochildi,  
Ko'z nurlari sochildi.  
O'qish kitobi bizni  
Yetaklar o'g'il-qizni.  
Yetaklar bilim sari  
Nurli kelajak sari.**

**8**

***O'qituvchi:*  
Bugun oddiy dars emas,  
Balki sinov darsidir,**

O'tib olsak sinovdan  
Bu hammaga yaxshidir.  
Qani, ayting, bolalar,  
Kim navbatchi bo'ladi?  
Bugungi kun hisobin  
Menga aytib beradi?

9

Salom, ona tili darsim,  
Bilim olish maqsadim.  
Kelishtirib so'zlarni  
Tuzarman ko'p gaplarni.  
Qanot bog'lab parvozga  
Ergashamiz ustozga.  
Sinfim – mening gul bog'im,  
Ko'pdir do'st-u o'rtog'im.

10

Darslarimiz xilma-xil,  
Ongim o'sar yilma-yil.  
A'lo o'qishdir burchim  
Sarf etaman bor kuchim!

11

*O'qituvchi:*  
Shodlik to'lsin desangiz,  
Yuraginga, dilimga.  
A'lo o'qing maktabda  
Mehr qo'yib bilimga.

12

Varaqglasam bir boshdan,  
Quvnab bahrim ochilar,  
Oltin harf so'zlardan

**Totli ma'no sochilar.  
Shuning uchun deymanki,  
Kitob mening do'stimsan!**

**13**

**Maktabda doim  
O'qiyman a'lo  
Qiyin ishlardan  
Qochmayman also.  
Sport mashqlarin  
Qilmayman kanda.  
Kuch bilan aql  
Bo'lar sog' tanda!**

**14**

**Qushlarga eng birinchi  
Uchishni o'rgatarlar.  
Bolalarga birinchi  
O'qishni o'rgatarlar.  
Katta bo'lgach, albatta,  
Qushlar uchishi kerak.  
Bolalar-chi, albatta,  
A'lo o'qishi kerak!**

**15**

**Mening o'qib, yozganim,  
Oltin-kumush qazganim,  
Tilak sari uchishga  
Go'yo qanot yozganim.**

**16**

***O'quvchilar:***

O'qish – bu odob ilmi,  
Berar bizga hayotdan saboq.  
U bordirki, hayot sururli,  
U bordirki, kelajak porloq.

*O'qituvchi:*

Ushbu dars yoqar kimga?  
Qani, ayting-chi, menga?

*O'quvchilar:*

Sizga, bizga, hammaga,  
Yoqar ushbu darsimiz.  
Chunki kitob o'qishga  
Havas uyg'otgan o'zingiz!

17

Biz o'qiymiz hozirda  
.....nchi maktabda  
A'lo o'qib, albatta,  
Olim bo'lish niyatda.

18

Salom maktab, jon maktab!  
Seni sevaman maqtab.  
Bizga ochgin quchog'ing  
Yoningda gulzor. bog'ing.

19

*O'qituvchi:*

Salom, aziz bolalarim,  
Gul-u rayhon, lolalarim.  
Qani, tinglang so'zlarim  
Jajji o'g'il-qizlarim.  
Ona yurt egasi – siz,  
Istiqlol ertasi – siz,



**Bo‘ling aqli rasolar,  
Ham bilimdon, donolar.  
O‘quvchilar:  
Bizlar yaxshi bolamiz,  
Ochilgan gul-lolamiz.  
Ota-ona izmidan,  
Ustozlarning so‘zidan,  
Bizlar also chiqmaymiz,  
Darsga shay gul-g‘unchamiz!**

*Dam olish daqiqalari uchun o‘yinlar:*

### **1.“Domino” o‘yini**

Uni quyidagicha o‘tkazish mumkin. Bir o‘quvchi so‘z aytadi, shu so‘z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so‘zini boshga o‘quvchi aytishi kerak. Bu o‘yin shu tarzda davom ettiriladi. Yozma tarzda ham qo‘llash mumkin. Namuna: ishla – adolatli – insofli – ilimli – inson – nargiz – zafar – rostgo‘y – yilnoma – anor – rubob.

### **2.“Nazoratchi harf” o‘yini.**

O‘qituvchi belgilangan harf asosida o‘quvchilarga so‘z yozishni taklif etadi. Masalan, o‘qituvchi biror harfni tanlab, uni nazoratchi harf qilib belgilaydi va shu harf so‘z boshida kelishiga namunalar yozing, deb aytadi. Ishni bajarish uchun aniq 2-3 minut vaqt belgilanadi. O‘quvchilar yozadilar: *shodlik, shahar, shovqin, shalola, sharshara, sharaflil, shar, sher* v.h. Belgilangan vaqtda ko‘p so‘z yozgan o‘quvchi birinchilikni oladi.

### **3.“So‘z tuz” o‘yini.**

O‘quvchilarda doira ichida 8 ta harf taqdim etiladi. O‘quvchilar shu harflar ishtirokida so‘zlar hosil qiladilar. Belgilangan vaqtda ko‘p so‘z hosil qilgan o‘quvchilar yoki guruh g‘olib sanaladi. Bu o‘yinni, ayniqsa, unli va undosh tovushlarni o‘rgangandan keyin o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar

o‘quvchilar e’tiboriga a, u, b, z, f, s, t, a harflari berilgan bo‘lsa, ular bu harflarni qatnashirib, *bu, sab, tuz, aft, saf, bas* kabi so‘zlar hosil qiladilar.

#### 4. “Keyingi bo‘g‘inni top” o‘yini.

Berilgan bo‘g‘inlar ishtirokida so‘z tuzish tushuntiriladi. Qaysi o‘quvchi ko‘p so‘z tuza olsa, “besh” baho bilan mukofotlanadi. Masalan, **bo** bo‘g‘ini : bola, bobo, bozor, bodom, ...

**bo‘** bo‘g‘in, bori, bo‘liq, bo‘zchi ...

**sa** savob, sarob, sadaqa, salom ...

5. “Egizaklar” o‘yini. O‘quvchilarga so‘zlar tarkibida qo‘sh undoshlar kelishini izohlashgach, ularni egizaklarga o‘xshatish mumkinmi deyiladi. Bolalar uchun bu esda qoladigan o‘yin bo‘la oladi. Agar bir xil (mm, ll, ss) undosh bo‘lsa, Hasan-Husan, ikki xil undosh qo‘sh kelsa (nsh, st, nd) Tohir-Zuhra kabi obrazli o‘xshatishlar aytilsa, o‘quvchilar darrov shunday so‘zlarni izlashadi, o‘yin qiziqarli bo‘ladi.

#### Namuna:

Hamma, amma, pilla, tilla, issiq, hassa. (Hasan-Husan)

Ganch, do‘st, go‘sh, qand, vaqt, baxt (Tohir-Zuhra )

#### 6. “Bo‘g‘inlar ko‘prigi” o‘yini.

Ushbu o‘yinni barcha o‘quvchilar alohida qiziqish bilan o‘ynashadi. Ba‘zan katta yoshdagi o‘quvchilar orasida o‘tkazilganda ham yaxshi natija beradi. Hatto maktab o‘qituvchilari bu o‘yinni mas’uliyat bilan bajarishadi. Bolalar uni bajarish davomida mavhum fikrlaydilar. Ilgaridan o‘rgangan so‘zlarini xotiralarida qayta tiklab, ikki so‘z uchun umumiy bo‘lgan bo‘g‘inni aniqlashadi. O‘yinni o‘tkazishda “Bo‘g‘inlar zanjiri” o‘yinidan foydalansa bo‘ladi.

#### O‘yindan namuna

| I                | II                   |
|------------------|----------------------|
| Qa ....pa (-lam) | Mohi ....zor (-gul ) |
| Sha...ra (-kar)  | San ....qat (-diq)   |

#### 7. “Kun va tun” o‘yini.

O'qituvchi *uka* so'zini alohida yozib, bolalarga: "So'zni ko'rib olib, ko'zingizni yuming", – deydi va u harfini a harfi bilan almashtirib: Endi ko'zingizni oching, so'zda qanday o'zgarish bo'lganini ayting, – deydi. Bolalar *u* harfi *a* harfi bilan almashtirilganini, natijada so'z ma'nosi o'zgarganini, *aka* so'zi paydo bo'lganini aytadilar. Bu o'yin 1-2 marta o'tkazilgach, so'zlarning soni ko'paytirilishi, murakkablashtirilishi mumkin: *bola-bolg'a, ko'kat-ko'mak, sovuq-tovuq*. "Kun va tun" o'yinini har xil shakllarda o'tkazish mumkin.

#### 8. "Par etdi" o'yini

Bu o'yin quvnoq daqiqada o'tkazishga mo'ljallangan. «Par etdi» o'yini o'qituvchi boshchiligida o'tkaziladi. O'qituvchi qush va boshqa uchadigan narsalarning nomini aytadi, bolalar «par etdi, par etdi» deb qo'llarini baland ko'tarib, pastga tushiradilar. O'yin o'rindan turgan holatda o'ynaladi. Qushdan boshqa narsa nomi aytilganda, bolalar cho'kkalab o'tirib turadilar va *ketdi, ketdi* deb aytadilar. Bu o'yin bolalarni zukkolikka, topqirlikka, hozirjavoblikka o'rgatadi.

#### 9. "Xotira mashqi" o'yini

O'yinni uyushtirish uchun avvaldan ko'rgazma tayyorlanadi. Hozir xotira mashqi o'yini o'tkazilishini aytib, o'yinning shartini tushuntiradi. O'qituvchi ko'rgazmadagi so'zlarni ikki marta o'qib beradi. O'quvchilar uni eslab qolishga intiladi. Keyin ko'rgazma yopib qo'yiladi. Ko'p so'zni eslab qolgan va ularni yozgan o'quvchi g'olib deb topiladi va rag'batlantiriladi. Masalan: daftar, paxta, qish, bahor, kuz, kitob, soat, o'quvchi, ustoz.

O'yinni og'zaki tartibda ham o'tkazish mumkin. Masalan, bir o'quvchiga 8ta so'z o'qib beriladi: javon, kitob, parta, qo'ng'iroq, bo'r, baho, qor, qo'zichoq.

O'quvchi xotirasida qolganini takrorlaydi.

#### 10. "O'z so'zingni top" o'yini

Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruhdagi bolalar berilgan matndan o'qituvchi bergan topshiriqqa oid so'zlarni tanlab oladi. Birinchi guruhdagi o'quvchilar matndagi ot so'z turkumiga oid so'zlarni,

ikkinchi guruhdagilar sifat soʻz turkumiga oid soʻzlarni tanlab yozadi. Buning uchun oʻqituvchi soʻzlar yozilgan koʻchma doska yoki kartonni bolalarga koʻrsatadi. Har ikkala guruh ham ishga tushib ketadi, qaysi guruh tez va toʻgʻri bajarsa, oʻsha guruh gʻolib hisoblanadi va ragʻbatlantiriladi.

Soʻzlar: *Kartoshka, shirin, parta, baland, olma, katta, qora, kichik, tuzli, oʻrik, koʻrkam, nordon, kitob, yoqutday, daftar, koʻk, bodring, achchiq, paxta, pilla, taxir, qalam, ruchka, doʻppi, boʻr, totli.*

#### 11. “Soʻz ichida soʻz” oʻyini

Ushbu oʻyin oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini oʻstiradi. Soʻz tarkibi va soʻz turkumlari va soʻzning lugʻaviy maʼnosini yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi. Oʻquvchida har bir soʻzga va tovushga alohida diqqat bilan qarash koʻnikmasi shakllanadi. Buning uchun oʻqituvchi xattaxtaga bitta soʻzni yozib qoʻyadi. Oʻquvchilar ana shu soʻz ichidagi tovushlar ishtirokida yangi soʻzlar tashkil qiladi. Agar oʻyin guruhlar oʻrtasida oʻtkazilsa, har bir guruh navbatma-navbat bittadan soʻzni xattaxtaga yozib boradi. Soʻz topa olmagan guruh yengilgan hisoblanadi.

#### 12. “Mozaika (ermak)” oʻyini.

Bu oʻyinda toʻrt oʻquvchi ishtirok etadi. Ularning har biriga 20-25 tadan boʻgʻin yozilgan kartochkalar solingan konvert beriladi. Konvertda har xil boʻgʻinlar oʻrin oladi. Bu boʻgʻinlar ishtirokida tuzilgan soʻzlar maʼlum tartib bilan joylashtirib chiqilsa, qisqaroq hikoya, sheʼriy parcha yoki toʻrtlik hosil boʻlishi mumkin. Oʻquvchilar ushbu oʻyin orqali gapda soʻzlarning bogʻlanishini, soʻzlarni tashkil qilishda boʻgʻinning rolini bilib oladi. Har bir oʻquvchiga beriladigan kartochkalar, iloji boʻlsa, alohida rangda boʻlishi zarur. Bu kartochkalarning almashib ketishi natijasida kelib chiqadigan bir qator muammolarning oldini oladi. Oʻquvchilar konvertlarni olib, oʻyin qoidasi bilan tanishib boʻlishgandan keyin, oʻqituvchi matnni oʻqiydi. Qaysi oʻquvchi birinchi boʻlib boʻgʻinlarni toʻgʻri joylashtirib oʻqib bersa, oʻsha gʻolib hisoblanadi. Matnda bosh harflar boʻgʻinda ifodalanish zarur.

Shod-lik-ka toʻl-di

Bu-gun u-yi-miz.

Qut-lug' bay-ram-dir

Yan-gi yi-li- miz.

Tinch bo'l-sin o-lam,

Bor bo'l-sin deh-qon.

To'x-tab qol-ma-sin

Hech bir te-gir-mon.

### 13. "Tilsim" o'yini

Tilsim o'yini bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Bu o'yinda sodda gaplarning, ba'zan qo'shma gaplarning andozasi beriladi. Gapni tashkil etishda ishtirok etayotgan har bir so'zning necha harfdan iboratligi va qaysi tovush bilan boshlanishi ko'rsatiladi. O'quvchilar gapning sxemasini kuzatib, qolgan tovushlarni topgach, gap tarkibidagi so'zlarni berilgan andoza bo'yicha to'ldiradi.

|   |   |   |   |   |
|---|---|---|---|---|
| o | l | t | i | n |
|---|---|---|---|---|

|   |  |  |  |
|---|--|--|--|
| o |  |  |  |
|---|--|--|--|

|   |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|
| o |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|

|   |  |
|---|--|
| o |  |
|---|--|

|   |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|
| o |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|

|   |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|
| o |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|

|   |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|
| e |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|

Yuqorida berilgan gapda o'zbek xalq maqollaridan biri yashirilgan. O'quvchilar o'qitilgan maqollarni eslab, ushbu maqolni topadilar. Agar o'quvchilar maqolning javobini topishga qiynalsalar, har bir so'zning oxiridagi harfdan ham ko'rsatib qo'yish yoki birinchi so'zni to'liq yozib ko'rsatish mumkin: *Oltin olma, olqish ol, Olqish oltin emasmi?*

1-4-sinflarning o'qish kitoblarida o'zbek xalq maqollari o'rin olgan. O'quvchilar ularni ushbu o'yin orqali o'zlashtirib oladi.

O'yinning sharti: Maqolni toping.

|   |  |  |   |
|---|--|--|---|
| d |  |  | t |
|---|--|--|---|

|   |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|
| s |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|

|   |  |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|--|
| t |  |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|--|

|   |  |  |  |  |   |
|---|--|--|--|--|---|
| T |  |  |  |  | b |
|---|--|--|--|--|---|

|   |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|
| b |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|

|   |  |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|--|
| q |  |  |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|--|--|

Savol va topshiriqlar:

- Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlar nimalardan iborat bo'lishi kerak?
- Birinchi sinflarga husnixatni o'rganish uchun qancha vaqt ajratilishi lozim?
- Alifbe davrida o'quvchilar yozayotgan matnlarini qanday usullar bilan tahlil qilishlari mumkin?
- 3-4-sinflarda ona tili darslarining necha soati husnixatga ajratish maqsadga muvofiq?
- Me'yoriy husnixatda harflar necha gradus qiyalikda yozilishi lozim?

#### IV. SINFDA VA SINFDAN TASHQARI O'QISH METODIKASI

##### 11. Sinfda o'qish metodikasi.

**Tayanch tushunchalar:** *sinfda o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari, o'qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari, o'qish malakasi, tez, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish, analitik (bo'g'inlab), sintetik (sidirg'a), avtomatlashgan (birdaniga bir nechta so'zni ko'rish) o'qish, so'z ma'nosi, izohli o'qish, ichdan, ovoz chiqarib o'qish, tanlab o'qish*

Savod o'rgatish davri tugagach, o'qish darslari boshlanadi va bu 1-2-3-4 sinflarda davom etadi. O'qish darslarining asosiy vazifasi bolalarda ongli, to'g'ri, tez ifodali o'qish malakalarini shakllantirib, mustahkamlab borishdir. Bolalar o'qish darslarida "O'qish kitobi"dagi she'r, hikoya, masal, ertak, kichik ilmiy-ommabop maqolalarni o'qiydilar. Matn ustida ishlaydilar. Kitob va boshqa bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalari faollashadi. Asar o'qiganlarida uning qahramonlari, ularning xatti-harakatlari bilan tanishadilar, asar mazmunini o'rganadilar. Shu bilan birga, badiiy asarning tili, tasviriy vositalari - o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, jonlantirish kabilar haqida dastlabki tushunchalar hosil qilinadi. Bular bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Sinfda o'qish darslarining vazifalari:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatleri- to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga o'rgatish.

3. O'quvchilarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish.
4. Badiiy asarlar orqali o'quvchilarga odob–axloq, mehnatsevarlik tarbiyalarini singdirish .
5. O'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish.
6. Adabiy tasavvur elementlarini o'zlashtirish, sifatlash, jonlantirish va boshqalar haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

O'qish turlarini ikkiga bo'lish mumkin: ovoz chiqarib o'qish va ichda o'qish. Ovoz chiqarib o'qish orqali matnni o'qiganda o'qish davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar aniqlanadi. Ichda o'qishdan lug'at ustida ishlash, matn mazmuniga mos rasm chizish, savollarga javob topish, reja tuzish ishlarini bajarishda foydalanish mumkin.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha fan darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning asosiy yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, ruhiyati, xususiy metodika sohasidagi yutuqlari bilan bog'liq bo'lgan fanlar asosida shakllanib boradi. Masalan, ilgari eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, ifodali o'qishga katta e'tibor berilgan. Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib borilyapti. Izohli o'qishga keyingi ma'ruzalarda to'xtalamiz.

O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, odamlar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilar haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg'onadi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. V.A.Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: "Bolalar dunyoni va o'z-o'zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va

ma'naviy boyliklar uchun o'zining mas'ulligini oz-ozdan bila borishlari kerak... bolaga yaxshilik va yomonlikni to'g'ri ko'rish imkonini berish kerak. Yaxshilik bolalarda quvonch, zavq, hayajon, ma'naviy go'zallikka erishish ishtiyoqini hosil qiladi; yomonlik qahr-g'azab, murosasizlik uyg'otadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma'naviy kuchga to'ldiradi".

Sinfda o'qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish.
6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo'li bo'lishi zarur.

Yaxshi o'qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo'llari.

Yaxshi o'qish malakalarining sifatlariga to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro bog'liq holda takomillashtiriladi, bu to'rt o'qish sifati bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ongli o'qish asosiy hisoblanadi, chunki o'quvchi o'zi o'qisa-yu, o'qiganini anglamasa, bunday o'qish talabga javob bermaydi, o'qiganini tushunmaslikka olib keladi. To'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. Tez, to'g'ri, ongli o'qish ifodali o'qishning asosi hisoblanadi. Yaxshi o'qish sifatlarini egallash maktabda barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning sharti sanaladi.

O'qish malakasi murakkab malaka bo'lib, uning shakllanish jarayonini metodist T.G.Yegorov 3 bosqichga bo'ladi:

1. Analitik bosqich (o'qish). Savod o'rgatish jarayoniga to'g'ri keladi. Unda bolalarda so'zlarni bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi.



2. Sintetik bosqich (o'qish). Bu bosqichda so'zni sidirg'a o'qish malakasi shakllantiriladi. Bunda so'zni ko'rish bilan uning tovush qismi idrok qilinadi. So'zning talaffuzi bilan ma'nosini anglash mos keladi. Sidirg'a o'qishga o'quvchilar asosan 3-sinfda o'tadilar.

3. Avtomatlashgan o'qish. Bu o'qishda o'quvchi so'zning bosh qismiga qarab o'qib ketaveradi. Bu usulda o'qishga o'quvchilar mutolaaning keyingi yillarida erishishlari mumkin. 4-sinfda ba'zi o'quvchilarning o'qishi avtomatlashadi.

O'qish darslari shunday tashkil qilinishi kerakki, mazmunini tahlil qilish yaxshi o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilsin.

Yaxshi o'qish malakasining sifatlaridan biri to'g'ri o'qishdir. To'g'ri o'qishga bir nechta metodist olimlar ta'rif berganlar:

K.Qosimova: "To'g'ri o'qish xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qishdir". Shu ta'rifni kengaytirib, to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan, so'zdagi biror tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmasdan, ortiqcha tovush yoki bo'g'in qo'shmasdan, harflarning o'rnini almashtirmasdan, so'zning urg'usiga rioya qilib o'qish to'g'ri o'qishdir, deyish mumkin.

M.Odilova, T.Ashrapova: "Adabiy talaffuz normalariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir", deyishadi. Demak, olimlarning fikricha, materialni adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o'qish to'g'ri o'qish deyiladi.

Rus metodisti Yakovleva: "To'g'ri o'qish bu materialni tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir".

Har 3 ta ta'rifning mohiyati bir xil. Ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini grammatik shaklini buzmasdan, adabiy-orfoepik talaffuz normalari asosida o'qishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishga qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra kelib chiqadi:

1. Soʻzni talaffuz qilish bilan uning maʼnosini tushunish oʻrtasida puxta sintez boʻlmagani uchun, yaʼni bola oldin soʻzni tovush tomonini koʻradi, uni talaffuz qilishga harakat qiladi va maʼnosini eʼtibordan chetda qoldiradi.

2. Soʻzlar koʻp boʻgʻinli (murakkab boʻgʻin tuzilishidagi soʻzlarni oʻqishda), yaʼni soʻzning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez oʻqiyman deb xatoga yoʻl qoʻyadilar.

3. Toʻgʻri oʻqish yorugʻlikka, matn shriftiga, bolaning koʻrish sezgisiga ham bogʻliq. Toʻgʻri oʻqishni taʼminlash uchun oʻqituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni oʻqishdan avval oʻqilishi qiyin, tuzilishi murakkab soʻzlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Maʼnosi tushunarsiz soʻzlarni aniqlab olishi kerak.

3. Matnni yaxshi, oʻrta, yomon oʻqiydigan oʻquvchilarga oʻqitiladigan qismni oldindan belgilab chiqishi mumkin.

4. Oʻqituvchi nazorati ostida oʻquvchilar oʻqishni doimiy mashq qilishi lozim.

5. Xato qilishi mumkin boʻlgan oʻrinni belgilab olishi shart.

Xato oʻqishni bartaraf etish yoʻllari:

1. Tuzilishi murakkab soʻzlarni xattaxtaga yoki kartonga boʻgʻinlarga boʻlib yozish, oldin oʻquvchilarga ularni boʻgʻinlab, soʻng sidirgʻa oʻqishni mashq qildirish.

2. Soʻz maʼnolarining sinonimini, antonimini keltirib yoki gap ichida qoʻllab tushuntirishi.

3. Xatchoʻpdan foydalanish. Xatchoʻp diqqati tarqoq bolaga, koʻrish sezgisi past oʻquvchiga juda foydali.

4. Xato oʻqishi mumkin boʻlgan oʻrindan oʻquvchini ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma boʻgʻindan foydalanish.

6. Toʻgʻri oʻqish uchun sharoit yaratish.

7. Shivirlab va ichda oʻqishdan foydalanish.

Oʻquvchilar yoʻl qoʻyadigan xatolar 2 xil:

1. Soʻz maʼnosini notoʻgʻri anglashga olib keluvchi xatolar (urgʻuni notoʻgʻri qoʻyib oʻqish tufayli).

2. Soʻzlarni oʻqib olishga xalal beradigan xatolar.

Xatoni quyidagicha toʻgʻrilash usulidan foydalaniladi:

1. Soʻz oxiridagi qoʻshimchani notoʻgʻri oʻqisa, oʻqishdan toʻxtamasdan toʻgʻrilash.
2. Oʻqish paytida gapning mazmuni buzilib ketsa, oʻqib boʻlgach qaytadan oʻqitish yoʻli bilan toʻgʻrilash.

**Oʻqish malakasining sifatlari: toʻgʻri, tez (meʼyorida), ongli va ifodali oʻqish.** Tilshunos K.Qosimova aytganidek: “Tez oʻqish normal tezlikda oʻqishdir”. K.D.Ushinskiy tez oʻqish matnini tushunishdan ajralib qolmasligi lozimligini taʼkidlaydi. Oʻqish tezligi matnini tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda oʻqishi kerak. Tez oʻqish ongli idrok etishni taʼminlaydigan oʻqishdir. Ogʻzaki nutq tempiga mos keladigan oʻqish tempi normal tezlik hisoblanadi. Oʻta tez oʻqish va oʻta sekin oʻqish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. Oʻqish tezligi bir daqiqada oʻqiladigan soʻzlar miqdori bilan belgilanadi.

Tez oʻqishni taʼminlovchi yoʻllar:

- Oʻqishni turli topshiriqlar asosida mashq qilish.
- Oʻqishga qiziqish uygʻotish.
- Rollarga boʻlib oʻqitish (Dialoglarni 2 oʻquvchiga oʻqitish: 1) oldin tez oʻqiydigan oʻquvchiga;  
2) keyin sekin oʻqiydigan oʻquvchiga).
- Matnini navbat bilan oʻqitish.

Koʻpincha oʻquvchilar tez oʻqiyman deb xatoga yoʻl qoʻyadilar. Oʻquvchilarning oʻqish surʼati bir daqiqada sinflar boʻyicha quyidagicha:

1-sinf: 1-yarim yillikda boʻgʻinlab oʻqiydi. 2-yarim yillik oxirida notanish matndan 20-25 soʻz.

2-sinf: 1-yarim yillikda 25-30 soʻz. 2-yarim yillikda 40-50-soʻz.

3-sinf: 1-yarim yillikda 50-60 soʻz. 2-yarim yillikda 65-70 soʻz.

4-sinf: 1-yarim yillikda 70-80 soʻz. 2-yarim yillikda 80-90 soʻz.

Ongli oʻqish asar mazmunini, asarning gʻoyaviy yoʻnalishini, timsollarini, badiiy vositalarini rolini tushunib oʻqish ongli oʻqish deyiladi. Bola asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga munosabat bildirsa, ongli oʻzlashtirgan boʻladi.

Ongli oʻqish quyidagi metodik shartlarga bogʻliq:

- Oʻquvchining hayotiy tajribasiga.

- So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushunishga.
- Gapda so‘zlarning bog‘lanishini tushunishga.

Ongli o‘qish 2 xil ma’noda qo‘llanadi: 1) o‘qish texnikasi; 2) o‘qish sifati.

Asar mazmunini tushunish ongli o‘qishdir. O‘quvchining ongli o‘zlashtirib o‘qigani uning ifodali o‘qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlanadi.

Ongli o‘qish bilan ifodali o‘qish biri ikkinchisini taqozo etadi.

Ifodali o‘qish. Asarning g‘oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, asar jozibasini ifodalab, to‘g‘ri va ravon o‘qish ifodali o‘qish deyiladi. Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va ko‘rgazmali o‘qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O‘qituvchi ifodali o‘qish orqali asar mazmunini va emotsionalligini o‘quvchilarga ko‘rgazmali ravishda yetkazadi.

Intonatsiya (ifodali)– urg‘u, temp, ritm, to‘xtam, ovozning baland-pastligining yig‘indisi. Bular og‘zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarining turli kayfiyatlari, ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Ifodali o‘qishni egallashning asosiy shartlari:

1. Nafasni to‘g‘ri olish va to‘g‘ri sarflash.
2. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, to‘g‘ri va tushunarli gapirish.
3. Adabiy talaffuz normalarini egallash.

Bular ifodali nutqqa ham taalluqli. Ifodali o‘qish shartlaridan yana biri ovozning baland-pastligi, yoqimliligi, uni o‘z o‘rnida asar mazmuniga mos holda o‘zgartira olishdir.

Ifodali o‘qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo‘linadi:

1. Qahramonlarning xatti-harakatini tahlil qilish, asar g‘oyasini belgilash, badiiy vositalarning vazifasini tushunish. Demak, asar tahlili ifodali o‘qishni ta’minlaydi.
2. Pauzaning, urg‘uning o‘rnini, nutq tempini belgilab olish.
3. O‘qishni mashq qilish.

Avvalo, o‘qituvchi ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatish zarur. Ifodalilik ko‘rgazmalilik demakdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Sinfda o‘qish darslarida o‘quvchilarga qanday bilimlar beriladi?

- O‘qish darslarining tarbiyaviy ahamiyatini ayting.
- O‘qish darslarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Yaxshi o‘qish malakasining sifatlari deganda nimani tushunasiz? Ular o‘zaro qanday aloqada?
- To‘g‘ri o‘qish nima? Xato o‘qishni keltirib chiqaradigan sabablarni ayting.
- To‘g‘ri o‘qishni ta‘minlovchi shartlarni sanang.
- Tez o‘qish nima? Unga erishishning metodik usulini ayting.
- O‘quvchilarning o‘qish sur‘atiga qo‘yiladigan dastur talablarini ayting.
- Ongli o‘qish haqida gapirib bering.
- Ifodali o‘qish, uning ahamiyatini ayting.
- Ifodali o‘qishga o‘rgatish shartlarini ayting.
- Ifodali o‘qish malakasini shakllantirish shartli ravishda necha bosqichga bo‘linadi. Har bir bosqichning vazifalarini ayting.
- O‘qish turlarini ayting.
- O‘qish darslarining ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyati nimadan iborat?
- Yaxshi o‘qish malakasi sifatlarini ayting.
- O‘qish malakalaring rivojlanishida yaxshi o‘qish malakasi sifatlari o‘rnini ayting.
- To‘g‘ri o‘qish uchun nimalarga e‘tibor berish lozim?

## **12. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar tahlili va uning metodik shartlari**

**Tayanch tushunchalar:** *boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan badiiy adabiyot janrlari, badiiy asarni tahlil qilishdagi metodik shartlar, boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari, kichik yoshdagi o‘quvchilarning badiiy asarni idrok etishdagi psixologik xususiyatlari, asarni tahlil qilishning ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyati*

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, boshlang‘ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O‘qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga

ko'proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko'proq e'tibor beriladi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.
2. Asarning g'oyaviy-tematik ma'nolarini uning obrazlari, syujet chizig'i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.
3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.
4. Sinfda o'qish o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta'sirini ham hisobga olish zarur. O'quvchi matnni o'qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlansin. Matnni tahlil qilishda o'quvchilarda fikr uyg'onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin.

Boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi"da turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Sizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi.

Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, asar ustida ishlashni muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini sekin tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqelar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondoshilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir.

Psixolog olimlarning ko'rsatishicha, badiiy asarni idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'ladi:

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonning boshqa fazilatlarini baholash uchun ularda so'z boyligi, tajriba yetishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko'rsatish va o'quvchilar nutqiga kiritishdir. Shuningdek, quyidagi holatlarga ham e'tibor berish maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar asar qahramoniga munosabatlarini ifodalashda u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar.
2. Qahramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar, uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borishlari zarur.

#### **Savol va topshiriqlar:**

- Badiiy asar qanday muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi?
- O'qish jarayonida o'quvchilar badiiy asar mazmunni to'g'ri tushunishida nimalarga ahamiyat berishi lozim.
- Badiiy asarlarda qanday g'oyalar ilgari surilgan bo'ladi?
- Asarni tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish kerak?
- Badiiy asar qahramonlarining fazilatlarini baholashda nimalarga e'tibor berishi zarur?

### **13. O‘qish malakalarining sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish. O‘qish malakalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish yo‘llari. Ifodali o‘qish metodikasining asoslari**

**Tayanch tushunchalar:** *o‘qish sifati, to‘g‘ri o‘qish, tez o‘qish, ongli o‘qish, ifodali o‘qish, o‘qish jarayonida muammoli holat*

I-IV sinf o‘quvchilarining o‘qish darslarida bilimlari puxta va har tomonlama rivojlangan bo‘lishi uchun ularning o‘qish sifatiga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. O‘qish sifati quyidagilardir: to‘g‘ri o‘qish, tez o‘qish, ongli o‘qish va ifodali o‘qish.

O‘qish sifatlari bir-birga bog‘liq ravishda takomillashib boradi. Ya‘ni, to‘g‘ri o‘qishni takomillashtirish ustida ishlash o‘qish tezligini oshiradi, u o‘z navbatida o‘qishning ongli bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Ongli o‘qish ifodali o‘qishga zamin yaratadi.

O‘qilayotgan so‘zdagi harflarning o‘rnini almashtirmaslik, gapda so‘zni tushirib qoldirmaslik, tovushni, bo‘g‘inni, so‘zni qayta takrorlamaslik, so‘zda bo‘g‘inlarning, tovushlarning, gapda so‘zlarning o‘rnini almashtirmaslik to‘g‘ri o‘qish sanaladi.

O‘qish tezligi deganda ongli idrok etishni ta‘minlaydigan o‘qish tushuniladi. Og‘zaki nutq tempiga mos keladigan o‘qish tezligi me‘yoriy tezlik hisoblanadi. Tez o‘qish bir daqiqada nechta so‘z o‘qish bilan belgilanadi. Masalan, bir daqiqada 1-sinfda 20-25 ta so‘z, 2-sinfda 35-50 ta so‘z, 3-sinfda 60-75 ta so‘z, 4-sinfda 80-95 ta so‘z o‘qilishi maqsadga muvofiq.

Ongli o‘qish o‘qilgan matnning mazmunini, badiiy asar vositalarini va qahramonlarni tushunib o‘qishdir. O‘quvchilarni matnni ongli o‘qiganlarini matn yuzasidan berilgan savollarga o‘quvchilarning bergan javoblari va qayta hikoyalashlari orqali bilib olish mumkin. Ongli o‘qishni ta‘minlovchi ish turi lug‘at bilan ishlash usulidir. Bunda ma‘nosi qiyin bo‘lgan so‘zlarga izoh beriladi, ma‘nosi tushuntiriladi. Lug‘at ustida ishlash ongli o‘qishga zamin yaratadi. So‘zlarning ma‘nosini izohlashda mazkur so‘zlarning sinonimlari keltiriladi: fazo-osmon kabi. Ba‘zi hollarda so‘z gap ichida tushuntiriladi.



Ifodali o‘qish ovoz chiqarib o‘qishning asosiy xususiyatidir. Adabiy asar matnidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib, asarda ifodalangan muallif fikrini, asar qahramonlarining ichki kechinmalarini va ruhiy holatini anglab, tushunarli va ta’sirchan qilib o‘qish ifodali o‘qish deyiladi.

Ifodali o‘qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini tovush orqali o‘quvchilarga yetkazishdir. Ifodali o‘qishning elementar vositalari quyidagilardir:

1. Tinish belgilariga rioya qilish.
2. So‘zlar va gaplar orasidagi pauza.
3. Logik urg‘ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi.
4. O‘qish tempi va ritmiga rioya qilish.
5. Intonatsiyaga rioya qilib o‘qish.

### **Boshlang‘ich sinfda o‘qish sur‘atiga qo‘yiladigan talablar hamda o‘quvchilarining o‘qish sur‘atini oshirish metodlari:**

Nutq o‘stirish: lug‘atni boyitish, so‘z birikmasi, gap, bog‘lanishli hikoya tuzish.

Umumlashtirish: yangi harfni jadvalga qo‘yish, yangi o‘rganilgan tovushni unli va undoshga kiritish, yangi harfni ilgari o‘rganilganlar bilan qiyoslash, tovush va harfning ahamiyatini takrorlash va hokazo.

O‘rganilganlarni mustahkamlash darsida yangi tovushni ajratish, yangi harf bilan tanishtirish, mashqidan tashqari barcha ish turlaridan foydalaniladi, shuningdek, qo‘shimcha so‘zlar va matnlar bilan ishlanadi; matnni o‘qish va tahlil qilishga, ko‘rgazma vositalar bilan ishlashga (harfni terish karton, magnit doskasi, abak, sirli mato, rasmlar va b.) nutq o‘stirishga, o‘yinlar va qiziqarli materiallarga, ilgari o‘rganilgan tovushlar va harflarni takrorlab mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladi, tarqatma materiallardan ham foydalaniladi.

Birinchi uchragan so‘zlar bilan ishlash: ochiq bo‘g‘inlar bir undosh bilan tuziladi va o‘qiladi, yopiq bo‘g‘in esa unli bilan tuzilgan ochiq bo‘g‘inni o‘qib keyingi undosh o‘qiladi va so‘z to‘liq o‘qiladi.

Yangi so‘z urg‘usi qo‘yilgan holda beriladi, bu uni o‘qishga, bo‘g‘inlab o‘qishdek sintetik o‘qishga (so‘zni butunligicha o‘qishga) yordam beradi. Yangi so‘zni doskada

katta bosma harflar bilan yozish, o'quvchilarga o'qitish tavsiya qilinadi. So'z shivirlab o'qiladi, kesma harf bo'g'in bilan yoziladi.

Syujetli (rasmning asosiy mazmunini bildiradigan) rasimga qarab o'qituvchi yordamida, uning yo'llovchi so'roqlari asosida hikoya tuzish, undan gapni ajratish va analiz qilish.

Yangi bo'g'in, so'z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so'zni doskada va daftarda «yasash»ning ahamiyati juda katta. O'qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko'p bo'lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o'qish shunchalik ongli, qiziqarli bo'ladi, malaka puxta shakllantiriladi.

Bola endigina o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, hatto, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muhimdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatcho'p (o'qiyotgan betni belgilab quyish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha) va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish ko'nikmasi sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'rilashni talab qilish bilan ham erishiladi. O'quvchilar bu talabni qizg'anib bajaradilar, shu yo'l bilan ularda darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi.

Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tqazilgan tayyorlov suhbat ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tqazilgan suhbat ham shu maqsadga - ongli o'qish uchun xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday muammoli holatning javobini «Alifbe»dan yoki harf terish matosidan o'qiladigan topishmoq yaratishi mumkin. Bunday maqsadni muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida ham amalga oshiriladi. Masalan, «qishda qushlar qayerga uchib ketadilar?» (harf terish matosida: «Issiq o'lkalarga uchib ketadilar».) Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi va shu bilan birga, bolalarda o'quv mehnati o'zlashadi, ularni qiziqtiradi.

Ongli o‘qishni ifodali o‘qishdan ajratib bo‘lmaydi. Ammo analitik o‘qishning birinchi bosqichida ifodali o‘qish mumkin emas, chunki bolalar so‘zda urg‘uli bo‘g‘inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so‘roq intonatsiyasini, hatto, orfoepik to‘g‘ri o‘qishni ham bera olmaydilar. Shuning uchun analitik o‘qish bosqichida so‘zni yaxlit, orfoepik qayta o‘qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o‘qish to‘g‘ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o‘qishga o‘rgatibgina qolmay, o‘qishning ongli bo‘lishiga ham yordam beradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

- O‘qish sifatiga ega bo‘lish uchun nimalarga e‘tibor berish lozim?
- O‘qish tezligi deganda nimani tushunasiz?
- Ifodali o‘qishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- O‘qish jarayonida muammoli holatni yaratish nima uchun muhim?
- Ifodali o‘qishning elementar vositalari qaysilar?

### **14. O‘qish darslarida ta’limiy vositalardan foydalanish metodikasi**

**Tayanch tushunchalar:** *ta’limiy vosita, metodik qo‘llanma, o‘qish darslari, darslik, badiiy asarlar, darsni samarali tashkil etish*

Ta’limiy vositaga darslik, tarqatma materiallar, doska, turli ko‘rgazmali materiallar, suratlar, jadvallar, elektron qurilmalar, metodik qo‘llanmalar kiradi. Shulardan darslik boshqalariga nisbatan yetakchi ahamiyat kasb etadi.

O‘qish darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama komil insonlar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarni samarali tashkil qilish jarayonida ta’limiy vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qish kitoblari o‘z ichiga “Ona bitta, Vatan yagona”, “Xalq og‘zaki ijodi”, “Oltin kuz”, “O‘tmishni o‘rganish – burchimiz”, “Kumush qish”, “Vatan posbonlari”, “Tengdoshlar”, “Ulug‘lardan o‘rganmoq – oqillik”, “Bahor manzarasi va mehnat”, “Ma’naviyat – qalb quyoshi” “Tabiatni seving va asrang”, “Go‘zal fazilat – inson husni”, “9-may – Xotira va qadrlash kuni”, “Yoz – o‘tadi soz”, “Yoz manzarasi va mehnat” kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi va bu bo‘limlar mavsumiylik tamoyili asosida tartiblangan. Mazkur bo‘limlardan o‘rin olgan qiziqarli she‘r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq va rivoyat,

ilmiy ommabop asarlar bola yoshiga mos bo'lib, ular o'quvchilarda Vatanga, mehnatga, milliy istiqloq g'oyalariga sodiqlik, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik kabi sifatlarni shakllantirishda katta tarbiyaviy, ma'rifiy ahamiyatga ega.

Biz quyida ta'limiy vositalardan foydalanish metodikasini yoritishga harakat qilamiz: "Yilnomadan", "Oltin kuz", Tolib Yo'ldoshning "Kuz kelganda", Anvar Obidjonning "So'nggi axborot", Mahmud Murodovning "Olma", Yusuf Shomansurning "Kuz", Malik Murodovning "Bobur va kabutarlar", "Yer tagida ilon qimirlasa, biladi", Quddus Muhammadiyning "Men dadamga yordamchi", Hakim Nazirning "Bebaho boylik", Nurmat Maqsudiyning "Ilmli ming yashar", O'tkir Hoshimovning "Xazonchinak", Abdusodiq Irisovning "Qo'shterak", K.Ersarinning "Va'da berdi" asarlari.

Yuqorida nomlari zikr etilgan barcha asarlar kuz, tabiat va mehnat mavzulari bilan chambarchas bog'liq bo'lib maktab o'quvchilarini yilning eng ko'rkam fasli hisoblanadigan bahor xususidagi fikrlarini kengaytirish, ularning nutqini o'stirish, dunyoqarashini o'stirish nuqtai nazaridan muhim ta'limiy va ma'naviy ahamiyatga ega. 4-sinf o'quvchilari bu mavzularni o'qish asnosida bahor faslida tabiatda, insonlar orasida bo'ladigan o'zgarishlar, mehnat jarayonlari, an'analar va milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Ularda estetik did, o'zgacha bir shijoat va g'ayrat, hayotga muhabbat hislari, so'z san'atiga oshnolik, shaydolik fazilatlar tarbiyalanadi.

Bo'lib o'tdi qishloqda,

Kecha zo'r shamol.

Natijada ro'y berdi,

Anchayin kor-hol.

Uzum boshi aylanib,

Bo'p qoldi kasal.

Shoxdan yiqilib olma,

Yotibdi o'sal.

Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she’rida lirik qahramon shoirning o‘zi, u tabiatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni katta bir ishtiyoq, zavq bilan kuylaydi. O‘z navbatida, bu shavq beixtiyor o‘quvchilarga ko‘chadi.

Hatto gilos lat yedi.

Bo‘lsa ham abjir.

To‘qnashuvda anhorga,

Chaplandi anjir.

Shamollatdi qornini,

Oshqovoq polvon.

Pachhoq qildi burnini,

Mulla baqlajon.

Shu o‘rinda ta’limiy vositalardan foydalanishda tavsiya sifatida boshlang‘ich sinflarga mo‘ljallangan dars-ishlanmasini keltiramiz:

### **Mavzu: Tabiat bilan suhbat**

Maqsad: Ta’limiy-o‘quvchilarning o‘qish sur‘atini oshirish, ifodali o‘qish malakalarini o‘stirish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish, fikr doirasini kengaytirish.

Dars jihozi. Rasmlar, darslikdagi matn, tarqatma materiallar.

Tashkiliy qism amalga oshiriladi.

Oldingi mavzu so‘rab, o‘quvchilar bilimi baholanadi va keyingi mavzu bilan bog‘lanadi.

Yangi mavzu bayoni:

O‘qituvchi matnni o‘zi ochib beradi, so‘ngra bir necha o‘quvchiga matnni navbat bilan o‘qitadi.

Tanlab o‘qish amalga oshiriladi.

*O‘qituvchi.* Bo‘ronning nutqi berilgan o‘rinni topib o‘qing.

*O'quvchi.* Kuchda menga teng keladigani yo'q. Men qudratliman. Istasam, dov-daraxtlarni ildizi bilan sug'urib tashlayman. Xohlasam, tog'ni talqon qilaman. Istasam, bog'larni soyga uloqtiraman. Istasam, quyosh yuzini to'sib, daryolar o'zanini o'zgartira olaman. Ha, men ana shunday dahshatliman.

*O'qituvchi.* Jalaning tilidan aytilgan so'zlari berilgan o'rinni topib o'qing.

*O'quvchi.* Jahlim chiqib, qahrim qo'zib, bir quysam bormi, bo'ronni tinchitaman, yer yuzini suvga bostiraman. Hech kim qochishga joy topa olmay qoladi.

*O'qituvchi.* Daryoning tilidan aytilgan so'zlari berilgan o'rinni topib o'qing.

*O'quvchi.* Dunyoda eng zo'r menman. Bo'ron ham, jala ham faqat menga qo'shilsagina kuchli bo'ladi. Aks holda jala, seni yer o'z qo'riga yutib yuboradi.

*O'qituvchi.* Odamning fikri ifodalangan o'rinni topib o'qing.

*O'quvchi.* Bo'ron ham, jala ham, daryo ham, quyosh ham insonning do'stligi oldida o'qizdir. Agar barcha insonlar o'zaro do'st-birodar bo'lib yashasalar, ular uchun na bo'ron, na daryo, na jala va na quyosh hech qanday qo'rqinchli kuch hisoblanmaydi.

O'qituvchi darsni samarali tashkil qilish, uning o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishini ta'minlash maqsadida asarni rollarga bo'lib o'qitadi. Yaxshi va ifodali o'qishni amalga oshirgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### ***Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:***

- Bo'ron qanday oqibatlariga olib keldi?
- Jalaga qarshi nima uchun va qanday kurashdilar?
- Daryo bizning hayotimizda qanday ahamiyatga ega?
- Quyoshga sizning munosabatingiz qanday va nima uchun?
- Inson nega do'stlikni hamma narsadan ustun qo'yadi?

Darsni yakunlash. Baholar e'lon qilinadi, vazifa beriladi, ilg'orlar rag'batlantiriladi.

She'rni o'rganish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy (g'oyaviy) mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. Shuning uchun she'rning tahlilida uning mazmunini o'quvchilarga tushuntirish lozim. She'riy asarlarni tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishdagi ish turlaridan foydalanish mumkin. G'ayratyning "Boychechak" she'riy hikoyasi mazmuni savollar yordamida o'rganilishi va tushunarli bo'lishi mumkin. Ammo lirik she'rni

tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Lirik she'rni o'qish darsida eng asosiy ish turi uni his-hayajon bilan ifodali o'qishdir. She'r ifodali o'qilgach, undagi tushuntirilishi zarur bo'lgan so'z va iboralar ikki-uch so'z bilan izohlanadi.

Bahordan berding darak,  
Oson bo'lmadi kutmak.  
Senga talpingach yurak,  
Sevgan gulim, boychechak.  
Yerdan tortqilab quyosh,  
Siynang uzra qo'ydi bosh.  
Yasantirding tog'-u tosh,  
Chiroyda sen oy chechak.

She'rni o'qishdan oldin ba'zan unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi - aytib beradi. Ba'zi she'rlarni o'qishga o'quvchilarni uzoqroq tayyorlash lozim. Masalan, G'ayratiyning "Boychechak", «Bahor» she'rlarini o'qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, bog'ga, qir-adirlarga ekskursiya o'tkazish maqsadga muvofiq.

Seni ko'rdim bog'larda,  
Baxmal adir, tog'larda.  
Yam-yashil o'tloqlarda,  
Sen husnda boy chechak.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy formasi lirik she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham, she'riy hikoyani ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin.

Masalan, Yusuf Shomansurning "Kuz" she'rini ifodali o'qishdan foydalangan holda o'qituvchining o'zi namuna sifatida quyidagicha o'qib beradi:

Bizda yashab, qolmay armoni,

Uchib o‘tar turna karvoni.

Yer-u ko‘kni qoplab suroni,

Xush qol, kuz!

Suvlar oqar sokin va tiniq,

Baliqlarning sharpasi aniq.

Eshitilar, oqshom suvga chiq,

Go‘zal kuz!

O‘qish oddiy bo‘lishi kerak. O‘qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-gazab hissini qichqiriq ovoz bilan yoki mayin muloyim ohangda soxta ifodalashga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Bolalar she’rni o‘qiganda, she’riy satrga rioya qilishlari, she’r ritmini buzmasliklariga erishish lozim.

Bog‘larda g‘arq pishgan olmalar,

Yuzlarida shakar o‘rmalar.

Terib olinadi tonnalar,

Har gal kuz!

Hali bog‘lar hosilga serob,

Chanoqlarda oltin behisob.

Demak, do‘stlar, bizga ham shu tob,

Mahtal kuz!...

Biz 3-sinfda noan’anaviy shakldagi umumlashtiruvchi darsni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalarimizni quyidagi ishlanmamizda yoritib bermoqchimiz:

### **Mavzu: “Oltin kuz” bo‘limi yuzasidan umumlashtiruvchi-takrorlash darsi**

Darsning maqsadi:

1. O‘quvchilarning bo‘lim yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash. Kuz haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirish.
2. O‘quvchilarning vatanparvarlik, bahor-tabiat oldidagi burchini ado etish, tabiatga muhabbat tuyg‘usini o‘stirish



3. O'quvchilarning savol-topshiriqlar ustida mustaqil ishlash, matn tuzish, asar yuzasidan xulosa chiqarish, mavzuga mos maqollar topish ko'nikmasini rivojlantirish  
Darsning turi: Bilimlarni mustahkamlash darsi.

Dars shakli: Noan'anaviy dars.

Darsning metodi: Suhbat, tarmoqlash, didaktik o'yinlar, muammoli o'qitish metodlari.

Darsning jihozi: Mavzuga oid rasmlar, o'quv materiallari.

Kutilayotgan natijalar: O'quvchilar "Oltin kuz" bo'limidagi o'rganilgan asarlarni eslaydilar, ularning mavzulari, janrlariga ko'ra o'xshashliklarini aniqlash, har bir yozuvchining badiiy mahoratini solishtirish ko'nikmasini egallaydilar. Bo'lim mavzusining mohiyatini anglaydilar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Asosiy qism.

O'quvchilarni bo'lim yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlash darsiga qiziqtirish.

Doskaga O'zbekistondagi kuz manzarasi bilan bog'liq diqqatga sazovor joylar, bog'lar, tabiiy boyliklari, go'zal manzaralar suratlari ilib qo'yiladi.

Doskaga "Bir savolga besh javob" deb yozib qo'yiladi.

"Men nechun sevaman O'zbekistonni?" qo'shig'ini eshittirish. Qo'shiq texnik vositalar orqali eshittiriladi. "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" qo'shig'ining matnidan parcha yozib qo'yiladi:

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo,

Nechun Vatan deya yer-u osmonni ,

Muqaddas atayman, atayman tanho?

Qo'shiq mazmuni yuzasidan suhbat. \*Qo'shiq matnining muallifi kim? (Bu she'rning muallifi O'zbekiston Respublikasi madhiyasining so'zlarini ham yozgan.) \*Qo'shiq nima haqida ekan ? \*Qo'shiq qanday gap bilan boshlangan? ("Men nechun sevaman O'zbekistonni?" degan so'roq gap bilan boshlangan.)

Dars mavzusi bilan tanishtirish. O‘qituvchi: Shoir she’rida “Vatanni nima uchun sevishimiz lozim?” degan so‘roqqa javob izlamoqda. Keling, bugungi “ Ona bitta – Vatan yagona” bo‘limi yuzasidan umumlashtiruvchi darsimizga shu nomni shior qilib, savolga javob izlaymiz. Bu savolga birdan ortiq javob topishimiz mumkin. Shuning uchun darsimizni “Bir savolga besh javob” shaklida o‘tkazamiz.

1-javobni topish. Topshiriq. Krossvordni tuzing va yeching. 1- javobni toping. Krossvord tuzishda vertikaliga harflar soniga mos katakchalar chizasiz.

1. Shoir Abdusaid Ko‘chimov qalamiga mansub she’r. (“Bahordagi o‘zgarishlar”)
2. Shoir Muhiddin Omon she’ri. (“Gulg‘unchalarmiz”)
3. “Marsdan kelgan odam “ asarining muallifi. (Turg‘unboy G‘oyibov)
4. “Bolaligim seni sog‘indim” asarida keltirilgan bozor nomi. (Xastimom)
5. Shu asarda keltirilgan Toshkentdagi qadimiy mahalla nomi. (Eski Jo‘va)
6. “Barkamol avlod” she’rida kimga “tole yor” deyilgan? (Yoshlarga –bolalarga)
7. Abdulla Oripovning she’ri. (“O‘zbek noni”)
8. “Kichik Vatan” asarida boboning ismi. (Jo‘ra bobo)
9. Sepkilshohni mag‘lub etgan pahlavon. (Meshpolvon)
10. “Vatanni sev” she’rining muallifi. (Oybek)

O‘quvchilar avvalo topshiriq javobini topadilar, so‘ng tuzadilar. “Tug‘ilgan joy” kalit so‘zini topadilar. 1-javob tarmoqlash usulida doskaga yoziladi: “Vatanni tug‘ilgan joyim bo‘lgani uchun sevaman”.

5. 2-javobni topish. \*Tug‘ilgan joy – uyimizning aziz ekanligi haqida qaysi hikoyada gap boradi? (“Kichik vatan”) O‘quvchilar quyidagi jumlaning topadilar: Ajdodlarim yashagan joy. “Vatanni ajdodlarimiz yashagan joy bo‘lgani uchun sevamiz”.

6. Darslik bilan ishlash. Savol: \*Yurtimizni “Allomalar yurti” deb atashimizning sababi nimada? \*Sohibqiron Amir Temur bobomizning vatan oldidagi xizmatlari haqida nimalar bilasiz? \*Bu ma’lumotlarni qaysi asardan bilib oldingiz? (“Bulbul chamanin sevar, odam Vatanni” asaridan bilib oldik.)

O‘qish darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama komil inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni samarali va qiziqarli amalga oshirishda turli ta’lim vositalarining o‘rni beqiyos. Demak, ta’lim vositalari

yordamida bolalarda estetik did, o'zgacha bir shijoat va g'ayrat, hayotga muhabbat hislari, so'z san'atiga oshnolik fazilatlari tarbiyalanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'qish darslarida qanday ta'limiy vositalardan foydalanish samarali bo'ladi?
2. O'qish darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama komil insonlar sifatida tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish zarur?
3. Anvar Obidjonning "So'nggi axborot" she'rini ifodali o'qib bering.
4. "So'nggi axborot" she'rida lirik qahramon kim?
5. O'zingiz o'rgangan she'rni yoddan aytib bering.
6. "Jonajon vatanim" mavzusida kichik matn tuzing.

### **15. Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy idrok etishdagi psixologik xususiyatlari. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish. Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. O'qish darslarda mustaqil ishlarni tashkil qilish**

**Tayanch tushunchalar:** *asar tahlili, analiz, sintez, asar qurilishi, grafik tasvirlash, idrok etish, tasavvur, tanlab o'qish, savol tuzishga o'rgatish*

Badiiy asar tahlili uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich – birinchi sintez. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit o'qish asosida asarning mazmuni bilan tanishtirishdir.

Ikkinchi bosqich – analiz. Bu bosqichning vazifalari yaxlitdan qismga prinsipi asosida olib boriladi. Bunda quyidagilar maqsad qilib olinadi:

1. Asar qurilishi mazmunini ochish.
2. Qahramonlarning asosiy xususiyatlarini ochish va aniqlash.
3. Asardagi tasviriy vositalarni tahlil qilish, qahramonlar xulq-atvorini baholash.

Uni quyidagi savol va topshiriqlar bilan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Asarda kim haqida hikoya qilinadi?
2. Hikoyada qatnashuvchi shaxslarni ayting.
3. Muallif nima haqida hikoya qilganini qisqacha ayting.

4. Hikoyaning qaysi o‘rni sizga juda yoqdi?
5. Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?
6. Ishtirok etuvchi shaxslardan qaysi birining xatti-harakatiga qo‘shilmaysiz?
7. Asarda qanday badiiy, tasviriy vositalar bor?

Uchinchi bosqich – ikkinchi sintez. Bu bosqichda yana qismdan yaxlitga, qahramonlarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, ularni taqqoslab, asarning tarbiyaviy tomonini yoritish, asar nimaga o‘rgatganligi haqidagi fikrlarga ega bo‘lishdir.

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Tanlab o‘qish. Bunda o‘quvchi matnning berilgan topshiriq va vazifaga mos qismini topib, tanlab o‘qiydi. Masalan, Zumradning sehrli kampir uyidagi holatini topib, tanlab o‘qing. Qimmatni gullar qanday kutib oladi? O‘sha joyni topib o‘qing. Tanlab o‘qish o‘quvchilarning ongli va ifodali o‘qishini shakllantiradi. Tanlab o‘qishdan matn rejasini tuzishda, qahramonlarga tavsif berishda foydalaniladi.

2. Berilgan savolga o‘z so‘zi bilan javob berish. O‘qituvchi tomonidan berilgan savolga bolalar o‘z so‘zlari bilan javob beradilar. Bu javobda o‘quvchilarning matn mazmunini va ulardagi voqealar rivojini, qahramonlar xarakterini qanchalik tushunib, idrok etishi ko‘rinadi. Bu bilan uning ongli o‘qiganini bilish mumkin.

3. O‘quvchilarni savol tuzishga o‘rgatish. Avval bir savol tahlil qilinadi. Savol qaysi so‘zlar bilan boshlanishi, nega bunday savol qo‘yilganligi, unda kim yoki nima haqida gap borishi tushuntiriladi. Savol tuzishdan oldin matnni diqqat bilan o‘qish, qahramonlarni kuzatish, savol tuziladigan qismini ajratish lozimligi aytiladi. Dastlab jamoa bo‘lib tuziladi, so‘ng mustaqil ravishda tuzish topshiriladi.

Asar rejasini tuzish uning mazmunini ongli va chuqur tushunish uchun xizmat qiladi. Reja matndagi asosiy fikrni ajratishga va voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining bog‘lanishini tushunishda o‘quvchilarga yordam beradi. Ular matnni qismlarga bo‘lishni o‘rganadilar. Reja ikki xil shaklda tuziladi:

1. Rasmlı reja.
2. Logik (mantiqiy) reja.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi rejadir. Agar kitobda matn qismlariga tayyor rasmlar berilgan bo'lsa, har bir rasimga nom va sarlavha qo'yiladi va u reja punkti tarzida yoziladi. Agar kitobda rasm berilmasa, bolalarning o'zi har bir qismga mos rasmlar chizadilar.

Logik – mantiqiy reja so'z bilan darak gap shaklida mantiqiy reja tuzishdir. Logik reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matn tanlab, reja tuzadi va matn reja punktlarining o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida doskaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning birinchi qismini o'qiydilar va doskadan mazkur qism mazmuniga mos sarlavhani tanlaydilar. Uni o'qituvchi doskaning o'ng tomoniga yozib qo'yadi va shu tarzda ish davom ettiriladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlaydilar. Unga sarlavha topadilar.

Matnni tasvirlash. Matn ikki xil usulda tasvirlanadi: so'z bilan tasvirlash va grafik tasvirlash.

So'z bilan tasvirlashda voqea sodir bo'lgan joyni, tabiat tasvirini, uning ko'rinishini, qatnashuvchi shaxslarning tashqi ko'rinishini – portretini, xarakterli xususiyatlarini so'z bilan tasvirlay olishdir. Manzarani tasvirlashda so'zni aniq tanlay olish kerak. Masalan: Qimmat o'rmonda adashib qolgandagi o'rmon tasvirini so'z bilan tasvirlang. Bu holat shunday tasvirlangan: o'rmon qop-qorong'u. Boyo'g'lilar sayraydi. Shamol guvillaydi.

**Grafik tasvirlash.** Bu vazifa ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar tasvirlaydigan matn qismini ajratadilar. Mazmunini o'zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Masalan, gullarning ochilishi. Bahor, kuz, qish fasllarining ko'rinishi yoki biron asar qahramonining rasmini chizadilar.

### **Badiiy asarni idrok etishning mohiyati**

Maktabda axloqiy, estetik tarbiya tizimida o'quvchining ko'z oldida tabiat, hayot, insoniy munosabatlar manzarasini keng ochadigan, odamlar xatti-harakatiga, hayotga baho beradigan badiiy adabiyotga, so'z san'atiga katta o'rin ajratilar ekan, ta'lim rus tilidagi maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'zbek tili

ta'limi jarayoni ham ana shu imkoniyatlardan bebahra qolmasligi shart. Badiiy adabiyot yordamida rusiyzabon o'quvchi(talaba)ni sharqona axloq bilan tanishtirish, uni milliy axloqiy-estetik tarbiya bilan tanishtirish, hayotiy saboq doirasini kengaytirish imkoniyatlari ortadi. Lekin ta'lim mazmuniga o'zbek adabiyotining go'zal durdonalaridan namunalar kiritgan bilan ular shunchaki o'qiladigan bo'lsa, ezgu maqsadlar amalga oshmay qoladi. Ta'lim jarayonida adabiy asarni to'liq va chuqur badiiy idrok etishni ta'minlashgina kutilgan natijaga yo'l ocha oladi. Badiiy idrok umumiy estetik tarbiyaning eng muhim qismlari sirasiga kiradi.

Ruhshunoslik va adabiyot o'qitish metodikasiga doir turli yoshdagi o'quvchilarning badiiy asarni o'qib idrok etish xususiyatlari haqida atroflicha ma'lumotlarni uchratish mumkin. Yosh xususiyatlari to'g'risida so'z yuritishdan oldin idrok bilan bog'liq masalalarning o'zini aniqlab chiqishni lozim deb topdik. Psixologiya fanlari doktori prof. P.M.Yakobson idrok tushunchasini shu so'zning tor ma'nosida, "bunda obyektlarni idrok etishning sezgi a'zolarimizga bergan ta'siri bilan bog'liq asl faktlarini ko'zda tutgan holda", shuningdek, so'zning keng ma'nosida, "bunda predmetni nisbatan uzoqroq idrok etish mobaynida, idrok etilayotgan obyektidan turli xil aloqalar va munosabatlar tizimini aniqlash chog'ida kechadigan idrokni ko'zda tutgan holda" farqlash zarur deb ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqadiki, badiiy asarni o'qib idrok etganda, kitobxon qandaydir tasvirlar, asar qahramonlari, voqea-hodisalardan xabar topibgina qolmay, ular orasidagi sabab-natija aloqalariga daxldor muammolar girdobiga sho'ng'iydi, o'zicha muayyan xulosalar chiqaradi. O'quvchi badiiy asarni o'qib, uni idrok etishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallab borar ekan, adabiy rivojlanadi, o'zidagi so'zli-badiiy obrazlar bilan fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Ma'lumki, badiiy obrazni dastlabgi idrok etish chog'ida muayyan aqliy harakatlar sirasi yuzaga keladi. Ana shu bajariladigan aqliy harakatlarga o'quvchining matnda tasvirlangan obraz yoki manzarani o'z tasavvurida gavdalantirishi va ruhshunoslar aytganlaridek, muhrlab saqlab qolishga intilishi kiradi. Lekin parcha birinchi marta o'qilgandan keyin kishi ko'z o'ngiga keladigan tasvirga monand obraz (manzara) hali to'liq anglab yetilmagan bo'ladi. Vaholanki, adabiy san'atni o'rganish uchun asos qilib olinuvchi

tushuncha badiiy obrazdir. Shunga ko'ra, A.A.Abdullina ilk tasavvurning tug'ilish bosqichini dastlabgi idrok etish deb ataydi. Kitobxon asarda tasvirlangan manzaralarni, qahramonning qiyofasini, axloqiy fazilatlarini, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishlarini yetarlicha ko'z oldiga keltira olmay turadi. Hali to'liq anglanmagan, o'z belgilari bilan paydo bo'lish bosqichida turgan bu jarayon nihoyalanishi uchun tahlil usulidan foydalanish talab etiladi. Badiiy obrazning umumlashma tavsifini ochish uchun yuzaga kelgan dastlabgi tasavvur tahlilga tortiladi. A.A.Abdullina buni stabil holga keltirish" deb tushuntiradi. Parcha o'qilgandan keyin o'quvchi(talaba)lar tomonidan uning o'z tasavvuriga ko'chgan mazmuni asosida rasm chizishlari shunga, ya'ni stabillashtirishga yordam beradi. Bunda kitobxon badiiy obrazni ijodiy qayta ishlay boshlaydi. Rasm chizish chog'ida o'quvchi (talaba) o'zida yetishmayotgan ma'lumotlarni (bu ma'lumotlar e'tiborsiz o'tkazib yuborilgan bo'lishi mumkin) asardan uni ko'z yugurtirib o'qish orqali qidira boshlaydi va topadi. Xullas, badiiy obrazning umumlashgan ma'no-mazmunini ochish uchun paydo bo'lgan dastlabgi tasavvur asosida tahlil o'tkazish, masalan, dastlabgi idroki asosida bajaradigan rasm chizish harakati orqali o'quvchilarning dastlabgi tasavvurlari "stabillanadi".

#### **Savol va topshiriqlar:**

- Badiiy asar ustida ishlash jarayonida nimalarga ahamiyat qaratish kerak?
- Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilishda nimalarga e'tibor berish lozim?
- Badiiy asarning ma'no-mazmunini ochishda o'quvchi qanday mashqlarni bajarishi mumkin?
- Adabiy san'atni o'rganish uchun asos qilib olinuvchi tushunchalar nimalardan iborat?
- Oxirgi marta o'qigan hikoyangizni tasvirlab bering.

**16. Har xil janrdagi asarlarni o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari. Ertakni o'qish metodikasi. O'quvchilarni ertak janri bilan tanishtirish. O'quvchilarni ertakni o'qishga tayyorlash**

**Tayanch tushunchalar:** *ertak, janr xususiyati, sehrlı ertak, maishiy ertak, hayvonlar haqidagi ertak, ertak o'qishga tayyorlash*

Эртақлар дунёдаги барча халқлар оғзаки ижодида кенг тарқалган, хусусан, ўзбекларда ҳам энг оммавий жанрлардан бири ҳисобланади. Эртақлар қадимдан турли вилоятларимизда яшайдиган юртдошларимиз томонидан севиб айтиб келинган. “Эртақ” атамасининг Махмуд Кошғарий томонидан 1074 йилда ёзилган “Девону луғотит-турк” асарида “этуқ” тарзида қўллангани бунинг ёрқин далилидир: “Этуқ – ҳикоя, эртақ; бирор мақсадни шоҳга билдириш, ҳикоя қилиш учун ҳам бу сўз қўлланади. Асли бир нарсани ҳикоя қилишдан олинган”. Шунингдек, бу жанрнинг қадимийлигини қозоқ, қирғиз, туркман ва бошқа бир қатор туркий халқлар оиласига кирувчи миллатлар оғзаки ижодида ҳам эртақ деб аталишидан англаш мумкин. Агар халқимиз оғзаки ижодини қадимги қадриятлар сифатида эъзозласак, бу хазинанинг ноёб дурдонаси сифатида ҳеч иккиланмай эртақларни қайд этиш мумкин. Эртақ терминини Ўзбекистондаги ҳамма вилоятлар аҳолиси жуда яхши билса-да, бу жанрга оид асарлар турли ҳудудларда турлича аталган. Жумладан, тошкентликлар “чўпчак”, фарғоналиклар “матал”, хоразмликлар “варсақи”, ўзбек ва тожик тилида сўзлашувчи ватандошларимиз “ушук»” тарзида аташган. Булардан ташқари, жонли сўзлашувда баъзан афсона, ўтирик, тутал атамалари ҳам учрайди. Ҳатто ҳазрат Алишер Навоий ҳам ғазалларидан бирида “чўпчак” сўзини қўллаганлар:

Ҳабибим ҳусни васфин уйла муҳлик англаким бўлғай,

Қошинда қиссаи Юсуф бир уйқу келтурур чўпчак.

Байтдаги “чўпчак” “Наводир уш-шабоб”нинг 1959 йилги нашрида “чўрчак” шаклида ёзилган. Шунинг учун Алишер Навоий замонида “чўрчак” ёки “чўпчак” атамаси бор эди, деб хулоса қилиш мумкин бўлади. Айни пайтда байтдаги “уйқу” сўзига эътибор беринг. Маълум бўладики, оқшом пайти болаларни ухлатишда эртақнинг сеҳрли таъсир кучидан фойдаланар эканмиз, бу анъана бежиз пайдо бўлмаганини қайд этамиз. Ertakning bolalar ruhiyatiga



ta'sirini, ertak aytish an'anasini shoir Hamid Olimjon ham "Oyguil bilan Baxtiyor" ertak-dostonida yorqin ifoda etgan. Shoир дoston бошланишида (дostonнинг бош мазмуни ҳам "Озодачеҳра" эртагига асосланган) халқ эртаклари жозибасини шоирона кашфиётлар билан ёритиб беради. Doston мисраларида "Тоҳир ва Зухра", "Ёрилтош" эртакларининг номи тилга олинишидан ташқари, "Ўзи учар гиламлар", "ойни уялтирган қошлар", "беқанот учган отлар", "сўйлагувчи деворлар", "бола бўп қолган чоллар" санаб ўтилади. Ҳақиқатан ҳам, "Ойгул билан Бахтиёр" адабий эртагини ёзишда шоирга халқ эртакларининг сирли олами илҳом бағишлаган ва Ҳамид Олимжон ўз ўқувчисига бу илҳом изоҳини гўзал сўзлар билан етказишга ҳаракат қилган. Юқорида келтирган фикрлар халқ эртакларининг ҳақиқий сўз санъати сифатида қадимдан яшаб келаётганини, халқ ҳаётида уларда тасвирланган олам муайян аҳамият касб этганини далиллайди. Халқ эртақларимизнинг бадиий ижод намунаси сифатидаги жанр хусусиятлари қуйидагилардан иборат:

1. Эртақлар халқ оғзаки ижодининг эпик жинси (тури)га мансуб.
2. Эртақлар, асосан, насрда яратилади. Фақат айрим асарлардагина ("Ёрилтош", "Тоҳир ва Зухра" ва б.) қўшиқчи эслатувчи шеърӣ парчалар учрайди.
3. "Бир бор экан, бир йўқ экан" бошланмаси ва "мурод-мақсадига етибди" якунланмаси эртақларнинг анъанавӣ белгиси ҳисобланади.
4. Хаёлий-фантастик тасвир эртақлар сюжетида қўлланадиган устувор усулдир.
5. Эртақларнинг умумӣ мазмунида IMF формуласи доимӣ такрорланади. Ҳар бир эртақ I – инициал – бошланма; M – медиал – асосий қисм; F – финал – якунланмадан иборат бўлади.

Эртақларнинг мифлардан ижод усулини ўзлаштирганлиги маълум. Бу анъана ўзбек халқ эртакларининг умумӣ мазмунида бугунги кунгача сақланиб келмоқда. Эҳтимол, бу жанр асарларининг яшовчанлигини таъминлаган асосий хусусият ҳам шундан иборатдир. Халқ ўз эртақларида чегарасиз равишда хаёлот оламини кезиб чиқади. Яъни уларда халқ фантазияси маҳсули бўлган

чегара билмас уйдирмалар, трансфигурация (бир шаклдан иккинчи шаклга ўтиш) ҳолатлари тингловчини ўзига жалб этади. Ваҳоланки, эртак бошланмаларидаги “Бир бор экан, бир йўқ экан, бир оч экан, бир тўқ экан, бўри баковул экан, тулки ясовул экан...” (олимлар бошланмадаги таркибий “экан” қисмининг 20 га яқин бўлишини белгилашган) сингари ибора ва жумлалар мутахассислар фикрича, эртакда баён қилинган воқеаларнинг аслида умуман бўлмагани ва рўй бериши мумкин эмаслигини англатар экан. Ҳақиқатан ҳам, дostonларда биз бу мазмундаги бошланма – зачинларни учратмаймиз. Шу боис, дostonлардаги воқеалар ҳаётда бўлган деб қабул қилинади. Эртакда эса тамоман бошқа ҳолат ҳукм суради. Чунки бу жанр бошланмасидаги “бор-йўқ”, “оч-тўқ” сўзларининг ўзи ҳикоя қилинаётган воқеага нисбатан шубҳа уйғотади. Аммо масаланинг қизиқ томони шундаки, воқеа бошланмасдан атайин шубҳа уйғотишга бўлган ҳаракат тингловчига деярли таъсир қилмайди. Биз эртаклардаги уйдирмаларга тўла ишонамиз, асар қаҳрамонларининг тақдирига бефарқ қарай олмаймиз, севиқли малика ёки чўпон муваффақият қозонса, бу ғалаба ўзимизникидек қувонаверамиз. Халқ эртаклари мазмунида ижтимоий, иқтисодий, маиший ҳаётнинг ҳамма масалалари ўз ифодасини топади, десак хато бўлмайди. Шунинг учун ҳам ер юзининг ҳамма минтақаларида яшайдиган халқларда умумий ҳаёт тарзи яқин бўлгани сабабли бир хил мазмундаги эртаклар кўп учрайди. Француз, инглиз, хитой, япон эртаклари аксарият ҳолларда ўзбеклар ижодидаги эртаклар мазмунини такрорлайди. Фақат французларда пишлоқ, узум; хитойларда гуруч; ўзбекларда тухум ёки қатик каби нарсаларда фарқ сезилади. Агар бошқа халқлардаги эртаклар матнида шу ёки бошқа нарсалар номини миллий предметлар билан алиштирсак, кўпинча, бошқа халқлар намуналари ҳам ўзбекники бўлади-қолади. Бу ҳолат сабабини аввал қайд қилганимиздек, бир халқнинг иккинчи халқдан ўзлаштириши деб эмас, умумий ҳаёт тарзининг яқинлиги билан асослаш маъқулроқдир. Масалан, ёқут халқидаги “Бекинмачоқ”, руслардаги “Ўн икки ой” (“Морозбобо”) ва ўзбеклардаги “Зумрад ва Қиммат” эртакларида воқеа тугунидан тортиб ечимигача бир хил йўналишда кечади. Аммо бу асарларнинг ҳар бири бевосита

ўша халқ ижоди намунаси деб тан олинади. Ўзбек фольклоршунослиги ривожига муносиб ҳисса қўшган Мансур Афзалов ўзбек халқ эртаклари юзасидан илмий иш ёзар экан, бу жанрнинг ўрганилиш тарихига алоҳида тўхталиб ўтган. Олимнинг маълумот беришича, ўзбек эртакларига бўлган илмий эътибор XIX аср иккинчи ярмидан бошланган. Бу ўринда А.А.Кушакевич, Н.Лапунова, А.Васильев, А.Н.Самойлович, В.В.Бартольд каби бир қатор зиёли ва таниқли олимлар исмлари келтирилган. Шунингдек, “Фарҳод ва Ширин”, “Ширин қиз”, “Самарқанд”, “Шаҳзода Назар Муҳаммад ва Малика Назарбиби”, “Аннамурод бова ҳақида”, “Эрни эр қилган хотин”, “Донишманд Чўпон” каби афсона ва эртаклар матнларининг ёзиб олинishi, дастлабги тадқиқ қилиш жараёни ҳақида маълумотлар қайд этилган. Ўзбек эртаклари ўз вақтида Миён Бузрук Солиҳов, Ҳоди Зарифов, Холид Расул, Буюк Каримов каби олимлар томонидан ўрганилган. Кейинчалик бу фаолиятни К.Имомов, Т.Ғозибоев, Ғ.Жалолов, Х.Эгамов, Ҳ.Раззоқов, Ж.Юсупов каби олимлар давом эттиришди.

Халқ табиатан ҳамиша адолатни ёқлайди, ҳимоя қилади. Эртаклар яратилиш жиҳатидан мифларга асосланса, мавзунинг танланиши, образлар тизимидаги йўналишлар, ҳаёт муаммоларини акс эттиришда адолат мезонига бўйсунди. Қаллоблик, виждонсизлик, хиёнат, ёлғончилик, маънавий нопоклик каби иллатлар доимий равишда қораланади. Мардлик, тўғрисўзлик, меҳнатсеварлик, иймонлилик, поклик фазилатлари ҳурмат билан тилга олинади. Воқеанинг тугуни ҳам ҳамиша ана шу фазилатларни улуғлаш билан ечимини топади. Моҳир халқ фарзандлари томонидан ўйлаб топилган фантастик ҳодисалар, уйдирма лавҳалар, сеҳрли нарса-буюмлар, жодулар, ғайритабиий ҳодисалар эса том маънода ёвузликнинг қораланиши, эзгуликнинг улуғланишида поэтик хомашё сифатида хизмат қилади. Халқ эртакларининг мазмуни ва ҳаётдаги воқеаларни тасвирлаш йўналишига кўра уч тури мавжудлиги М.Афзалов, К.Имомов томонидан кўрсатиб ўтилган. Бу таснифга кўра, эртаклар сеҳрли ва ҳаётий турларга бўлинади. Аммо айрим адабиётларда эртаклар ҳайвонлар ҳақидаги, сеҳрли, маиший турларга бўлинади. Мансур Афзалов таснифида яна

хайвонлар, сеҳрли-фантастик, ҳаётий-сатирик турлар ҳам кўрсатилган. Умумий таҳлилнинг осон ва тушунарли бўлиши учун биз ана шу таснифга биноан иш кўришни маъқул топдик. Эртакларни тасниф қилиш қанчалар мураккаб эканлигини уларни таҳлил қилиш жараёнида ўзингиз англаб етасиз.

*Ҳайвонлар ҳақидаги эртаклар.* Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларни айрим мутахассислар сеҳрли-фантастик эртаклар туркумига мансуб деб ҳисоблайдилар. Хусусан, К.Имомов, Ғ.Жалолов ўзларининг тадқиқотларида ҳайвонлар иштирок этадиган эртакларни сеҳрли эртаклар каторида таҳлил қиладилар. Бу асарларда ҳайвонлар иштироки, уларнинг асар қаҳрамонлари билан суҳбатда бўлишлари олимларнинг сеҳрли эртаклар деб аташларига асос беради. Биз бу атамани шартли равишда қабул қиламиз, чунки сеҳрли эртакларнинг ҳайвонлар иштирок этмаган мазмундагилари ҳам етарли бўлиб, уларни алоҳида таҳлил қилиш мумкин. М.Афзалов ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг ўзида турли фарқланувчи асарлар борлигини қайд этади. Уларнинг биринчи турига мифологик мазмун ифодаланганларини кўшади. Маълумки, қадим замонларда тотемизм ва фетишизм тушунчаси нуқтаи назаридан аجدодларимиз ҳар бир нарса-предметни, шу жумладан, ҳайвонларни ўзларига ҳомий деб билганлар. Улар тасаввурида одамлар тотем ва фетиш ёрдамида муайян ютуқларга эришишлари мумкин бўлган. Бу ҳақда мифлар ҳақида тўхтаганимизда ҳам маълумот берганмиз. Ўзбек аجدодлари бўри, илон, от ва бошқа бир қатор ҳайвонларни ўзларига ҳомийлик қилишини руҳан ҳис этганлар. Эртакларнинг дастлабги намуналарида айнан ана шу дунёқараш асосида асарлар яратганлар. “Бўри”, “Чўлоқ бўри”, “Илон оға”, “Айиқ полвон” каби эртаклар шулар жумласидандир. “Қуёш ерининг паҳлавони” эртагида она айиқ Рустамни парвариш қилади, унинг ҳаётида ҳомий сифатида ўрин эгаллайди: Рустам ва отаси – ямоқчи чолга қўлидан келганча яхшиликлар қилиб, душмандан асрайди. Мансур Афзалов “Илон оға” эртагини алоҳида ажратиб кўрсатади: “Илон – куёв ниқобини олса, инсонга айланади. Қиз илоннинг ниқобини куйдириб юборса, у каптар бўлиб учиб кетади. Илон оғанинг онаси ва холаси ялмоғиз кампир бўлади. Улар Илон оға билан қизга

кўп тўсқинлик қиладилар. Лекин Илон оға ва қиз ўз тадбирлари орқали ялмоғиз кампирни енгиб, мурод-мақсадларига етадилар”. Ёки “Чўлоқ бўри” эртагида подшоҳнинг кенжа ўғли афсонавий тилла қушни олиб келиш учун сафарга чиққанида чўлоқ бўрига дуч келади. Унга нон беради. Бўри ундан ёрдамни аямайди. Қуш учун сафарга чиққан бола бир қиз ва от билан уйига қайтади. Йўлда акаларининг ҳолидан хабар олади. Аммо акалари унинг кўзларини ўйиб, чоҳга ташлайдилар. Эртак охирида кенжа ўғил барибир мурод-мақсадига етади, акалари жазоланадилар. Бу турдаги эртакларнинг моҳияти тотем ҳисобланган ҳайвон ва қушларнинг асар қаҳрамонига ўзларининг сеҳрли фазилатлари воситасида ёрдам бериши билан изоҳланади. Шу мазмундаги яна бир эртак “Кенжа ботир” деб аталади. Унда ҳомий сифатида от катнашади. Ҳайвонлар ҳақидаги эртакларнинг яна бир турида мажозий фикр юритиш усули устувордир. Бундай эртаклар фарзандларга панд-насихат, тарбия бериш мақсадида яратилган. Ҳар қандай вазиятда бирга бўлиш, дўстликни қадрлаш кераклиги эртакнинг бош ғояси ҳисобланади. Инсон бир-бирига яхшилик қилса, албатта, ўзининг орзусига етишади, деган фалсафа асосида тўқима воқеалар, қизиқ-қизиқ образлар ўйлаб топилади. “Сусамбил” эртаги ана шундай асарлар қаторидан ўрин олган. Ҳўкиз, эшак афсонавий Сусамбил шаҳрида эркин, тўкин ҳаёт кечирмоқчи бўладилар. Уларга хўроз, каламуш, арилар эргашадилар. Узоқ қийинчиликдан сўнг ушбу қаҳрамонлар ўз мақсадига етадилар. Аммо бу ерда уларга бўрилар хужум қилади. Шунда хўкиз уларни сузади. Каламушлар ер ковлаб, бўриларни гўрга тикмоқчидек кўрқитадилар. Арилар чақади. Хўроз қичқириб, эшак ҳанграб бўриларни безовта қилади. Охир-оқибат бўрилар аҳил биродарлардан зўрға қочиб қутуладилар. Ўз галаларига бориб ваҳима соладилар. Натижада, бутун бўрилар Сусамбилдан қочишга мажбур бўладилар. Ҳайвонлар эса тўкин ҳаёт кечирадилар. Бу эртакда бахтга эришиш осон эмас, аммо эришилган бахтни сақлаб қолиш ундан ҳам қийинроқдир, деган доно фикр ҳайвонлар мисолида мажозий тарзда ўз ифодасини топган. “Овчи, Кўкча ва Доно” эртагида ҳам каптар, сичқон, қарға, тошбақа, кийикнинг дўстлиги уларни бир неча марта ўлимдан қутқаради. Фақат

самимий, бегараз дўстлик туфайли каптарлар тўрдан, кийик тузоқдан, тошбақа овчи солган халтадан қутулади. Бу фикрлар замирида ҳам фақат дўстликни қадрлаш ғояси ўз ифодасини топган.

Ҳайвонлар ҳақидаги эртақларнинг кейинги тури кўпроқ маърифий мақсадни амалга ошириш учун яратилган. Оталар фарзандларига ўз ҳаёт тажрибаларидан сабоқ беришлари керак. Фарзандлар ўз оиласида катта бўлаётгани сабаб атрофида яшаётган ҳайвонлар ҳақида маълумотга эга бўлмайдилар. Тўғри, улар қўй, от, эчки, товук, эшакни ўз кўзлари билан кўрганлар, муайян тасаввурга эгалар. Аммо бўри, айик, илон, тулки, бургутни улар билмайдилар. Шунинг учун эртақларда уларнинг ҳаёт кечириш тарзи юзасидан муайян маълумотларни бериш лозим бўлади. Бу жиҳатдан ҳайвонлар ҳақидаги эртақлар туркумида бўрининг ваҳшийлиги, одамга ҳужум қилиши мумкинлиги, тулкининг айёрлиги, лайлак тумшуғининг узунлиги, кийик думининг тўмтоқлиги изоҳланган асарлар вужудга келган. Дарвоқе, илмий адабиётларда кўрсатилишича, бундай эртақларнинг асосий қаҳрамони сифатида, кўпинча, эчки иштирок этади. Бир қатор эртақларда нима учун қарға қора, кийикнинг думи тўмтоқ, мусичанинг кўкраги нима учун чакичланганга ўхшайди каби саволларга жавоб берилади. Бундай эртақлар таркибида “Бўри билан тулки”, “Кийик билан кади”, “Хўроз билан тулки”, “Лайлак билан тулки”, “Бузоқ, эчки ва қўзи” каби намуналар бор. Масалан, “Кийик билан кади” эртагида кади кийикни қўрқитади. Кийик кадидан ўч олмоқчи бўлади ва уни думига боғлаб чўктиради. Кади кийикни сув тагига тортади. Кийик қирғоққа интилади. Охири кийикнинг думи узилиб, тўмтоқ бўлиб қолади. Кийик думи калталигини масхара қилган барча кийикларнинг думини бир-бирига боғлаб қўяди-да, “мерган келяпти”, деб қочади. Думи боғланган кийиклар ҳам ҳар томонга қочадилар ва думларидан айриладилар. Шундай қилиб, кийикларнинг думи тўмтоқ бўлиб қолган экан.

Эртақларда болаларнинг ёш хусусиятлари алоҳида эътиборга олинади. Воқеалар қизиқарли, содда, ихчам, изчил, қисқа баён этилиши талаб қилинади. Баъзан бу мақсад кулгили мазмунга эга ҳолда баён этилади. Тулки билан

бўрига бағишланган эртақларнинг бирида гўшт тишлаб кетаётган бўридан тулки: “Бўривой, қаердан келяпсан?” – деб сўрайди. Бўри: “Попдан”, – деб жавоб беради ва оғзидаги гўштини тушириб юборади. Иккинчи марта худди шундай вазиятда тулки яна сўрайди. Шунда бўри: “Ғиждувондан”, – деб жавоб беради. Кулгили вазият ифодаланган бундай эртақларда, бир томондан, шунчаки ҳазил назарда тутилгандек туюлади. Аммо уларнинг заминида одамларнинг бир-бирига бўлган муносабати акс этади. Ҳайвонлар ҳақидаги эртақларнинг юқорида қайд этилган уч туридан ташқари, қаҳрамонлар иштирокига кўра ҳам муайян турлари бор. Масалан, фақат ҳайвонларгина иштирок этган эртақлар, ҳайвонлар билан одамлар иштирок этган эртақлар ва ҳ.з.

Хуллас, ҳайвонлар ҳақидаги эртақлар мазкур жанрнинг шаклланишида дастлабги намуналарни ташкил этган. Уларда қадимги аждодларимизнинг мифик дунёқараши ўз ифодасини топган. Кейинги намуналарда эса одамлар ўртасидаги ижтимоий, маиший муносабатлар ҳам мажозий усулда акс этган. Уларда, асосан, кўпроқ тарбиявий мақсадлар назарда тутилган. Ва, ниҳоят, бу турдаги эртақларнинг нисбатан кейин яратилган намуналарида маърифий маълумот бериш мақсади амалга оширилган.

*Сеҳрли эртақлар.* Жаҳон халқлари эртақларидаги умумий ўхшашлик ҳақида фикр борганида, кўпроқ сеҳрли эртақлар назарда тutilади. Инсон қадим замонларда ҳам хаёл сурган, ўзича турли-туман ғаройиб воқеаларни ўйлаб топган. Аслида, мифларнинг вужудга келишида ҳам аждодларимиздаги айнан ана шу хусусият етакчи аҳамиятга эга бўлган. Кейинчалик фантастик воқеалар тотем, фетиш образлардан учар гиламларга, сеҳрли дастурхонларга, олтин қайнайдиган хумларга, истаган одамни истаган пайтда кўриш мумкин бўлган жомларга, ойналарга ўтган. Бундай воқеаларни ўйлаб топиш аждодларимизнинг орзулари, ҳаваслари билан асосланган. Йўл азобидан азият чеккан инсон учар гилам, от, манзилга кўз очишда етказган бўрини ўйлаб топган. Озиқ-овқат топишга қийналган одам эса очил дастурхоннинг

ижодкорига айланган. Натижада, сеҳрли эртақлардаги воқеа-ҳодисалар ҳақиқий маънода аждодларимиз орзу-ҳавасларининг мажмуасига айланган.

Илм-фан тараққиётида катта кашфиётлар, одатда, олим ҳаёлида пайдо бўлган режа – гипотезадан бошланади. Гипотеза аста-секин ривожланади ва ҳаётга татбиқ этиш лойиҳаси шаклланади. Олим ана шу лойиҳанинг илмий заминини топганидан сўнг, кашфиётнинг амалга ошиши учун шароит яратилган бўлади. Сеҳрли эртақлар бир жиҳатдан инсон онгида яратилувчи ана шу гипотезалар йўналишини бошқарган, деб хулоса қилиш учун етарли асос бор. Гап шундаки, бугунги кунда оддий ҳаёт ҳақиқатига айланган велосипеддан тортиб автоулов, поезд, самолётлар; телефон, телеграф, радио, телевидение, электр чироқларнинг кашф этилишини бевосита эртақларда акс этган орзулар билан далиллаймиз. Уяли телефонни айтмайсизми, тўқув дастгоҳлари, ҳар хил кимёвий, физикавий кашфиётлар босқичма-босқич таҳлил этилса, уларнинг ҳаммасини биз бир оз олдинроқ сеҳрли эртақлар воқеаларида учратганимизга амин бўламиз.

Сеҳрли эртақлар бош қаҳрамонга нимадир (кўпинча, фарзанд) етишмаслиги, қаҳрамоннинг етишмаётган нарсасига эга бўлиши, унга нимадир қилишнинг (гапириш, алоҳида бир эшикни очиш, бирор нарсага қараш ва ҳ.к) тақиқланиши, тақиқнинг бузилиши, кучли рақибга дуч келиш, хавфли сафарга чиқиш, сафар якуни, рақиб билан олишув, мурод-мақсадга етиш каби лавҳалардан иборат бўлади. Таниқли олим В.Я.Пропп юқоридаги тартибнинг жаҳон халқлари ижодидаги сеҳрли эртақлар матни таркибини ташкил қилувчи асосий унсурлар эканини чуқур илмий асосда мисоллар билан исботлаб берди. Юқорида қайд этилган мулоҳазалардан ғайритабиий мўъжизалар рўй бериши, афсунгарчилик, сеҳрли воқеалар, бир нарсанинг иккинчисига айланиши, булар ҳаммасининг муайян тизим (В.Я.Пропп тавсияси) тартибида ҳикоя қилиниши сеҳрли эртақлар хусусиятини ҳосил қилади. Ҳамид Олимжон ифодалаган “Ўзи учар гиламлар”, “Ўт боғлаган қанотлар”, “Беқанот учган отлар”, “Қиз бўлиб очилган гул”, “Сўйлагувчи деворлар”, “Бола бўп қолган чоллар” каби тасвирлар айнан сеҳрли эртақлар матнлари билан боғлиқ экани маълум бўлади.



Аксарият ҳолларда сеҳрли эртақ воқеаси фарзандсизлик мотивидан бошланади. Аммо тез орада асар қаҳрамони фарзандга эга бўлади. Бу ҳодиса олма, арпа ёки бирор нарса ейишдан, баъзан ўз-ўзидан рўёбга чиқади. Туғилган бола билан дастлабги танишишданок, унинг ғайриоддий фазилатлари борлиги аён бўлади. Бу фазилат, аввало, унинг ўта тез суръатлар билан катта бўлишида кўринади. Фарзанд вояга етгач эса ўзи яшаётган муҳитга таъсир этади ва ҳаётда кескин ўзгаришларга эришади.

Сеҳрли эртақ қаҳрамонлари ўлиб қайта тирилиш хусусиятига эга эканликлари билан ҳам бизни ўзига жалб қилади. Тўғри, ўлган одамга жон ато этилиши қадимги аجدодларимиз дунёқараши ифодаси сифатида баҳоланади. Аммо айна пайтда ўлган одам руҳининг кун, ой, йиллар давомида ўзи яшаган хонадондан ажралмаслиги, турли шакл-ҳолатларда қариндошларига кўриниб туриши сеҳрли эртақларда оддий тасвир воситаларига айланганини ҳам қайд этиш мақсадга мувофиқдир.

Халқ онгида инсоннинг бирон яхшилиги, албатта, тақдирланиши лозим. Асар қаҳрамони семурғга, айиққа, лайлакка кўрсатган ёрдами эвазига мушкуллари осон бўлади. Унинг ёрданидан фойдаланган ҳайвонлар кейинчалик сеҳрли имкониятлари билан қаҳрамон ҳамроҳига ва бирон олижаноб мақсадни қўлга киритиш воситасига айланадилар. Айрим эртақларда эса адолат айнан ана шу яхшилик эвазига ғалаба қозонади. Хусусан, “Ур тўқмоқ” эртагидаги чол даволаган лайлак унга бир мартагина лутф кўрсатиб қолмайди. Балки ўз сеҳри таъсирини охиригача амалга ошириб, унинг қўшнисини қилган хиёнатни охиригача фош этади ва жазолайди. Бундай эртақларда адолат тасодифий эмас, қонуний ажрим экани воқеалар моҳиятига сингдириб юборилади.

Сеҳрли эртақлар жозибаси, кўпинча, асардан ўрин олган мўъжизавий сафарлар, ҳайратомуз тўқинлик акс этган лавҳалар, ақл бовар қилмайдиган жоду ва афсонавий учрашувлар тасвирида ўз ифодасини топади. Эртақларда ҳаёт шу қадар мазмунли ва бебаҳо эҳсонки, унда бўлиши мумкин бўлмаган ҳодисалар тизимининг ўзи йўқ, ечими топилмас муаммо учрамайди, деган халқ

фалсафаси нафас олади. «Моҳистара» эртагида Одил исмли подшоҳнинг фарзанди бўлмайди. Охири Дилоро исмли кичик хотини ўғил туғади ва унинг исмини Шавкат қўйишади. Эътибор беринг: шоҳ исми Одил, кичик хотини – Дилоро, кутиб-кутиб кўрган фарзанди – Шавкат. Ота ўз фарзандини ақлли, илмли, ҳарбий санъатнинг моҳир эгаси, хулқли-ахлоқли қилиб тарбиялайди. Яна эътибор беринг: подшоҳ ўғлини ўз давлатига ишониб эрка ва ишқмас қилиб ўстирмади. Подшоҳлик давлати ўткинчи эканини таъкидлади. Шавкат ўн етти-ўн саккиз ёшга етганида овга чиқади. Овда тўртала туёғи садафдан, ҳар бир оёғида тўрттадан олтин ҳалқаси бор, шохига олтиндан, кумушдан, марвариддан, брильянтдан нақшлар ишланган кийик учрабди. Шундан кейин одамни ҳайратга солган ов бошланади. Кийик Шавкатнинг ёнидан қочиб ўтиб кетади. Шавкат дунёни унутиб уни қувлайди ва жаннатмакон боққа боради. Уни файзли чол кутиб олади. Кийик унинг қизи Сайёра экан. Эртақ воқеаси аслида шу ерда ечимини топиши керак эди. Аммо Шавкат чолнинг тақдири билан қизиқади. Ота унга Моҳистара исмли гўзал ҳақида хабар беради. Чол йигитлик пайтида Моҳистарага ошиқ бўлган экан. Моҳистара исмли маъшуқадан хабар топган Шавкат унинг ишқида иккинчи сафарга отланади. Йўлда сирли ёй, гилам, жом ва қалпоқларга эга бўлади. Ёйдан отилган ўк, албатта, нишонга тегар эди. Гилам учади. Қалпоқ уни кийган одамни ғойиб қилади. Жом исталган тилакни бажаради. Шавкат бу нарсалар ёрдамида Моҳистарага эга бўлиш режасини тузади. Халқ оғзаки ижодининг хос хусусиятлари ҳақида тўхтаганимизда шартлиликни тилга олган эдик. Чол ёшлигида Моҳистара қанчалар гўзал бўлса, Шавкат унинг юртини топиб борганида ҳам ўзгармаган эди. Хуллас, Шавкат ўз ақли, топқирлиги, мардлиги, зеҳни билан Моҳистарага уйланади. Мурод-мақсадига етади. Эртақни ўқиган, аслида, тинглаган одам яқин бир кун давомида (эртақнинг ҳажми катта) ўзини сирли бир оламда юргандек ҳис қилади. Қимматбаҳо тошлар, серҳосил мевали дарахтлар, тўкин дастурхон, паричеҳра гўзал қизлар, дабдабали саройлар, сирли ёй, гилам, қалпоқ, жомлар уни ўраб туради. Эртақни эшитар эканмиз, Шавкат Шавкат эмас, биз ўзимизни Шавкатдек ҳис қиламиз. Сеҳрли эртақ бадиияти,

ундаги сўзлар магияси бизни руҳан ўз оғушига олади. Эртақни тинглаган одам халқнинг чексиз ҳаёлий воқеалар ўйлаб топишига қойил қолади, ижрочисига таҳсинлар ўқийди. Энг муҳими, безакланган кийик, беҳато отадиган ўқ-ёй, одамни ғойиб қиладиган телпак, учадиган гилам, ниятни бажарадиган жом, бошқа эртақлардаги дарёга айланган сочиқ, чангалзор бўлиб қолган тароқ – ҳамма-ҳаммасига тингловчи ҳам, китобни ўқиган ўқувчи ҳам деярли ишонади. Тўғриси айтсак, эртақ билан мулоқот қиладиган пайтда ундаги воқеаларга ишонмаслик учун вақт ҳам бўлмайди.

Шундай қилиб, сеҳрли эртақларни мазкур жанр шаклланаётган давр маҳсули деб баҳоласак, хато бўлмайди. Улардаги ҳайратомуз гўзал тасвирлар асарни ижро қилиш давомида эртақчининг маҳорат даражасига кўра қўшилиб борган бўлиши мумкин. Тажрибали ва истеъдодли айтувчи ўзи эшитган ва эндиликда айтмоқчи бўлган эртақига ижодий янгиликлар қўшгани эҳтимолдан холи эмас. Сеҳрли эртақлар инсон фантазияси чексиз эканини исботлайди. Улар турмуш ташвишларидан мушкул ҳолатга тушган ота-боболаримизнинг овуниш воситаси бўлган. Эртақни айтиш ёки маза қилиб эшитиш аждодларимизга ирода, келажакка ишонч бағишлаган. Айни пайтда халқ оғзаки ижоди намуналарининг том маънода сўз санъати эканини исботловчи далил сифатида ҳам хизмат қилган. Миллатдаги катта авлоднинг кейинги фарзандлар учун панд-насиҳат меросига айланган.

*Маиший эртақлар.* Маиший эртақлар мазмун жиҳатдан ҳайвонлар, сеҳрли эртақлардан бевосита ҳаётий воқеа-ҳодисалар ҳақида ҳикоя қилиши билан фарқланади. Тўғри, бу турдаги эртақларда сеҳрли-фантастик белгиларнинг мавжудлигини инкор қилиб бўлмайди. Аммо умумий ифода чегараси маиший эртақларда анча чекланган. Чунки уларда халқ, аввало, оддий одамлар қўлидан келадиган ишлар юзасидан фикр юритади. Бевосита реал ҳаёт, турмушда рўй бериши мумкин бўлган воқеалар асос қилиб олингани учун ҳам бундай асарлар туркумига маиший эртақлар атамаси берилган. Уларда ҳақиқий ҳаётдаги инсон – миллат вакили (хоҳ ижобий, хоҳ салбий бўлсин), унинг имконияти даражасидаги жисмоний кучи, илми, ақлига воқеалар заминида

тавсиф берилади. Аксарият ҳолларда асар қаҳрамонларининг исмлари ҳам қайд этилмайди. Чол, кампир, бир одам, ўғил, қиз, камбағал номли инсонлар мазкур эртакларнинг қаҳрамонлари бўлиб келаверади. Бу билан доно халқ эртакда бевосита тингловчи аҳолининг ҳар бири асар қаҳрамони эканини таъкидлаган бўлиши мумкин. Баъзан эса шахс ҳақидаги маълумотлар ўта аниқ шаклда берилади. Эртакчи бу усул билан ҳам қаҳрамон тақдири тўқима эмаслигини уқтиргандек бўлади. Филология фанлари доктори Комил Имомов шундай дейди: “Ҳаётий-маиший эртакларда қаҳрамон образи фольклорга хос индивидуаллаштирилган бўлиб, унинг исми, авлод-аждоди, элат, уруғи ҳамда воқеалар содир бўладиган ўрин-жой номларигача мукаммал аниқ берилади. “Ўтган замонда, Боғдод томонда, Мўмажон кампир деган аёл яшар экан. У қизидан қолган набираси Ғафлатжонни бола қилиб боқар экан”. Маълум бўладики, қаҳрамон исми берилса ҳам, берилмаса ҳам асосий мақсад эртакдаги ҳикоя қилинаётган воқеа оддий маиший турмуш шароитида кечганини таъкидлашдан иборат бўлади. Кейинги мақсад асар иштирокчилари бошидан кечирган турмуш лавҳалари воситасида ёш авлоднинг баркамол инсон бўлиб етишуви учун тарбиявий замин ҳозирлашдан иборатдир.

“Уч оға-ини ботирлар” эртагида мўйсафид ота ўз ўғилларини кўрқмас, жасур қилиб ўстиради. Ўз фарзандларини бахт топиш сафарига отлантирар экан, уларга учта маслаҳат беради: “Тўғри бўлинг – бежавотир бўласиз. Мақтанчоқ бўлманг – уятга қолмайсиз. Дангаса бўлманг – бахтсиз бўлмайсиз”. Бу панд моҳиятини таҳлил қилсак, ҳаётга тайёрланиши лозим инсоннинг ҳақиқий амал қилиши керак бўлган фазилатлар акс этганига ишонч ҳосил қиламиз. Халқимизда “Оч қорним, тинч қулоғим” деган мақол бор. Мақолда одам баъзан ночор турмуш кечириши мумкин, лекин безовта кечган сониядан кўра, оч қорин билан яшаш афзал экани кўрсатилмоқда. Ота насиҳатининг биринчиси ана шу вазиятни изоҳлайди. Яъни тинчликдан улуғ неъмат йўқлиги қайд этилмоқда. Бу фалсафанинг аниқлигини ўзингиз ҳаётда синаган бўлсангиз, ажаб эмас. Халқимизда “Мақтанма ғоз, хунаринг оз” мақоли ҳам бор. Йўқ ва амалга ошмаган ишлар қанча мақталгани билан амалга ошиб қолмайди.

Мақтанган одамнинг юзи шувут бўлади. Халқимиз “Меҳнат – меҳнатнинг таги роҳат”, дейди. Яъни: “Қимирлаган кир ошар” деганларидек, ҳар бир кимса ҳаётга ишониши, ҳаракат қилишни канда қилмаслиги лозим. Қудукдан сув топа олмаган саҳродаги йўловчи умидсизликка учраб тўхтаб қолмаслиги керак. Маълум бўладики, эртакни яратишдан асосий мақсад фарзандга қийинчиликсиз ҳаёт кечириш калитини тутқизишдан иборат экан. Насихатга амал қилиш эса эртакда баён этилган воқеаларда намоён бўлади. Оға-инилар аждар, шер, қароқчилар тўсиғидан ўз тадбиркорликлари билан осон ўтадилар. Аммо кенжа ботир боғда ухлаб ётган подшоҳга захар солмоқчи бўлган илонни қилич билан чопиб, қуролини қинига солаётганида подшоҳ уйғониб қолади ва куёвини қотиллик қилмоқчи бўлганликда айблайди. Ана шу воқеада ҳам ҳақиқат, адолат охир-оқибат ғалаба қилади. Эртак моҳияти унда ифодаланган лавҳалар давомида ечилиб боради. Ҳаётий эртакларда тўғрилиқ ва эгрилик, меҳнатсеварлик ва дангасалиқ, поклик ва нопоклик, мардлик ва хиёнат доимий равишда қарама-қарши қўйилади. Халқ эртак давомида кичик, эътиборга арзимайдиган унсурлардан усталиқ билан фойдаланади, вазият ечимини улар орқали ҳал қилади. “Тухматга учраган киши” эртагида бир бой кўчада жиянининг хотинини кўриб, унга уйланмоқчи бўлади. Инсофга келган амакидек жиянини савдога жўнатиб юборади, аммо келинига уйлана олмайди. Келин карвонбошининг қўлига тушади. Бу ерда ҳам тухматга учрайди. Зўрға қочиб қутулади. Йўлда бир ўғрини ўлимдан қутқаради. Лекин ўғри унга тухмат қилиб, карвонга сотиб юборади. Тақдир келинни қутқаради. Аммо бу сафар келин ўғрилар тўдасига дуч келади. Яна озодликка чиқади ва охир пировардида бир шаҳарга подшоҳ бўлади. Эртак охирида келинга тухмат қилган одамларнинг ҳаммаси бир жойга тўпланадилар ва ҳақиқат рўёбга чиқади. Эртакнинг бош ғояси – маънавий покликни улуғлаш. Халқ “Ҳақиқат букилади, аммо синмайди” мақолининг изоҳини бу эртакда ифодалашга ҳаракат қилган. Ҳар бир лавҳа муайян мақсадни амалга оширади. Инсон идроки чегарасиз қувватга эга эканлиги исботланади. Бир ёшгина келиннинг бошидан ўтган мудҳиш ҳодисалар, унинг турли тухматларга бардош бериши тингловчига

“Сенинг пешонангдаги мушкулот келинники олдида арзимаиди-ку” деган фикрни таъкидлагандек бўлади. Эртақ якунида яна бир ибратли ҳикмат бор. Келиннинг эри тухматчиларни жазолаш ҳақида гапирганида, хотини: – Йўқ, улар билан тенг бўлиш керак эмас, – деб жавоб берибди”. Демак, халқ ёмон ва ёвуз одам билан муомалада бўлишни, ҳатто, уни жазолашни ҳам унга тенг бўлиш аломати деб баҳолайди. Айнан шу боис, ўзбек халқи, миллат менталитети ҳақида гап борганда, олийҳимматлилик, бағрикенглик тилга олинади. Бинобарин, ҳаётий эртақлар (уларни фольклоршуносликда “ҳаётий-маиший”, “ҳаётий-сатирик”, “маиший” эртақлар деб ҳам юритадилар) қаҳрамонлари ўзбек миллатининг рамзий вакили экан. Улар халққа иймон, виждон, эрк, идрок, ирода, каноат, ақл, хунар, илм ҳақида тарбиявий тушунчалар беради.

Халқ эртақлари бадиий сўз санъатининг гўзал намунаси сифатида алоҳида аҳамиятга эга. “Бир бор экан, бир йўқ экан, бир оч экан, бир тўқ экан...” жумласидан бошланар экан, эртақ “мурод-мақсадига етибди” деган якунгача тингловчи диққатини воқеаларга тўлиқ равишда жалб этади. Ундан кейин нима бўлади, бу ҳодиса қандай тугайди деган саволлар тингловчи ҳаёлини банд этиб туради. Эртақларнинг яшовчанлигига сабаб ҳам уларнинг бадиий мукамаллиги билан белгиланади. Мазмун жиҳатидан ҳаётнинг турли масалалари эртақлар тематик диапазонини таъминлайди. Уларнинг ҳажми мазмунда ифодаланган воқеалар тизимига, муаммоларнинг ечимига боғлиқдир. Шунинг учун ҳам ўзбек халқи эртақлари бир неча дақиқада айтиб тугалланиши мумкин. Айни чоғда, гувоҳ замондошларимиз хотирасига ишонсак, бир неча кечалар давомида айтиладиган намуналар ҳам бор. Фольклоршуносликда эртақ жанри бугунги кунда аста-секин йўқолиб бормоқда, деган мулоҳазалар йўқ эмас. Аммо 2006, 2009, 2010 йилларда Жиззах, Қашқадарё, Самарқанд, Тошкент вилоятида ўтказилган фольклор экспедициялари бу фикрни билдиришга ҳали эрта эканини ҳам кўрсатди. Талабаларимиз бир қатор эртақларни ҳам ёзиб олишга муваффақ бўлдилар. Бу ижобий ҳолатнинг бош сабабини ҳам эртақлар бадииятидан ахтариш мақсадга мувофиқдир. Аввало,

эртақлар сюжети пухта ўйлаб тузилган режага бўйсунди. Ҳар бир воқеа иккинчиси билан узвий боғланади, кейинги лавҳалар аввалгиларидаги тушунчаларни ривожлантириб боради. Эртақларда халқ миллий тилига мансуб сўзлардан ўрнида фойдаланиш сезилади. Айтувчи ўз ҳикоясини содда гаплардан тузилган аниқ фикрлар воситасида давом эттиради. Бу жанрга мансуб асарларда, албатта, қизлар ўн тўрт кунлик ойдан гўзал, йигитлар мард, қиличлар кескир, дастурхонлар очилувчан, хумлар қайнама хусусиятларга эга бўлади. Эртақларда жуда бой ва турли-турли ўхшатиш, сифатлаш, муболағалар мажмуасига дуч келамиз. Шунинг учун ҳам оғзаки ижодимиз таркибидаги бу асарлар ҳақиқий маънода қадриятлар намунаси, маданий меросимизнинг ноёб гавҳар – инжулари даражасида эъзозланади.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, ertak, masal, she‘r, ilmiy-ommabop maqola, maqol, topishmoq, tez aytishlar o‘qitiladi. Ular qurilish uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘qituvchi bunday janrlarni o‘tishda unga mos metod tanlaydi.

Эртақлар олами ёш ўқувчилар учун чиройли ва ҳаяжонли. Улар эртақларнинг ўткир, кўнгилочар сюжетлари, воқеалар содир бўладиган ғайриоддий вазиятлар билан овора. Қаҳрамонлар жалб қилинади – кучли, топқир, жасур одамлар; эртақлар ўзларининг мафкуравий йўналиши билан ҳайратга солади: яхши кучлар доимо ғалаба қозонади. Болалар учун эртақда қабул қилинган ривоятнинг шакли, шунингдек оҳанги, тилнинг ранг-баранглиги, тасвирий воситаларнинг равшанлиги ҳам қизиқ. Эртақлардаги тасвирлар ранг-баранг бўлиб, аксарият ҳолларда улар яхши, адолатли, муносиб ҳурмат ва ёвузлик, очкўзлик, ҳасадга бўлинган. Эртақ тасвирлари ва сюжет таъсирининг кучлилиги шундан иборатки, ёш мактаб ўқувчилари биринчи ўқишда эртақ қаҳрамонларига ўзларининг ҳамдардликларини ва антипатияларини аниқ кўрсатадилар, жабрланган, қашшоқнинг тарафини тўлиқ қабул қиладилар ва уларга ёрдам беришга ҳаракат қиладилар. Болалар адолат ғалаба қозонганида чин дилдан хурсанд бўлишади: оддий камбағаллар қийинчиликдан чиқиб, ёмонлик йўқолади, яъни ёвузлик жазоланади, яхшилик

ғалаба қозонади. Болалар ҳаёт ҳар доим шундай бўлишини хоҳлашади. Биринчидан, бу – эртакнинг буюк педагогик аҳамияти.

Эртак ўқувчиларнинг баҳолаш қобилиятини ривожлантиради, эртакни таҳлил қилиш жараёнида улар бир неча бор саволларга дуч келишади: “Одамларда қайси хусусиятлар (қайси фазилатлар) энг қадрли? Нима жазоланади ва нима рағбатлантирилади? Нега эртак қаҳрамонларининг баъзиларига, ҳатто табиат кучлари ҳам ёрдамга келади ва кимдир, аксинча, улардан юз ўгиради?” ва ҳоказо.

Эртакларнинг афзал томони – бу унинг фаол, самарали ғалаба, ҳақиқат ғалабаси билан тугалланиши бўлиб, болалар учун, айниқса, таъсирлидир. Эртаклар матни уйғун нутқ кўникмаларини шакллантириш учун жуда яхши материалдир. Кичик ёшдаги ўқувчилар учун эртакнинг қизиқарлилиги шундаки, эртакда бадиий иборалар ва визуал воситалар сақланади, шунингдек, эртакларда қабул қилинган нутқ ўзига хос синтактик тузилишга, ривоятлар жонли характерга эга.

Мактабнинг бошланғич синфларида, дастурга кўра, ўқувчилар фақат эртакнинг фольклор жанри сифатида ўзига хос хусусиятлари билан деярли танишадилар. Эртакнинг иккита муҳим хусусияти қайд этилган: бадиий адабиёт ва композицион ўзига хослик: бошланиш, такрорлаш, тугатиш. Эртакда битта асосий эпизод одатда такрорланади. Шу билан бирга, такрорий эпизоддан сўнг охирги марта, қоида тариқасида, контрастли ҳодиса рўй беради ва танаффус кузатилади. Такрорлашлар кўпинча содир бўлади, чунки эртакда тобора кўпроқ янги белгилар пайдо бўлади ёки янги тафсилотлар киритилади.

Албатта, ҳар бир эртакнинг ўзига хос композицион хусусияти бор. Ўқувчиларни асар жанрини таниб олишга, унинг хусусиятлари умумийлигини ҳисобга олишга ўргатиш муҳимдир.

Адабий танқидда шаклланган анъанага кўра, эртак уч гуруҳга бўлинади: ҳайвонлар ҳақидаги эртак, сеҳрли ва кундалик роман.

Ҳайвонларнинг эртаклари бошқа эртаклардан фарқ қилади, яъни асосан, уларда ҳайвонлар ҳаракат қилади. Махсус тадқиқотлар тарихий ҳайвонлар



эртаклари қандай пайдо бўлганлигини аниқлайди. Ҳайвонлар эртаклари мактабидаги таҳлил услуби реал воқеаларни таҳлил қилишдан унчалик фарқ қилмайди. Матн билан ишлашнинг бир хил шакллари ва усулларидан фойдаланилади: танлаб ўқиш, саволларга жавоб бериш ва ўқувчилар томонидан саволлар бериш, оғзаки ва график чизиш, режа тузиш, барча турдаги орқага суриш, ўқилганларга ўхшаш эртакни ёзиш ва бошқалар.

Қуйидаги савол диққатга сазовордир: ўқувчилар ҳайвонлар ҳақидаги афсоналарни ўқиш афсоналари сингари очиб беришлари керакми?

Мактаб амалиёти кичик мактаб ўқувчилари эртақдаги ҳайвонларнинг хатти-ҳаракатларининг асосизлигини ва сюжетнинг одатийлигини яхши тушунишларига бизни ишонтирмоқда. Улар билишадики, кран ва тулки бир-бирининг олдига ташриф буюрмайди, бўри тулкининг маслаҳати билан думини тешикка тушириб балиқ тутати ва ҳоказо, улар билишади, лекин завқ билан ушбу ажойиб шартли дунёда қоладилар. Ва уни йўқ қилиш учун педагогик сабаб йўқ. Аксинча, болаларга эртақ айтиб бериш ва суҳбатни шу эртақ дунёсида ташкил этиш керак.

Шундай қилиб, дастлаб, эртақ ҳақиқий воқеа сифатида таҳлил қилинади ва ҳамма нарса ўқувчиларга аниқ таркибни аниқ тасаввур қилиш, сюжетнинг ривожланиши, актёрларнинг хатти-ҳаракатлари мотивлари, уларнинг муносабатлари (кимни ва нима учун қўллаб-қувватлайди)ни тўғри тасаввур қилишга қаратилган.

Ўқитувчи ўз саволлари ва топшириқлари билан болаларнинг эътиборини эртақдаги ҳаракатларнинг ривожланишига, қўл хатти-ҳаракатларининг мотивларига, муайян ҳаракатлар уларни қандай характерлашига йўналтиради:

- Эртақ учун қандай расмларни чизган бўлардингиз?
- Муаллифнинг воқеа билан қандай боғлиқлиги бор? У бу жумлаларни қайси жумлада ўқиганини айта оласизми?
- Эртақнинг асосий ғояси нима?
- Нега бу асар эртақ деб аталади?

– Сизнингча, ўжар ва қайсар одам бир хилми? Ўзингизнинг мисолларингизни келтиринг.

Кўриб турганимиздек, эртақ билан ишлашнинг сўнгги босқичида ўқитувчи болаларга эртақнинг хулосасини ҳаётдаги шунга ўхшаш ҳолатларга “ўтказиш” шароитида қўйган. Бу, бир томондан, ўқувчилар учун эртақнинг эртақ бўлиб қолишини таъминлайди, бошқа томондан, улар ҳаётнинг айрим ҳодисаларига муаллифнинг ёндашуви билан бойитилди.

Шуни таъкидлаш керакки, эртақларни ўқиш жараёнида ўқитувчи онг ва экспрессивлик каби ўқиш маҳоратининг бундай томонларини шакллантириш устида доимий иш олиб боради. Эртақдаги у ёки бу қаҳрамоннинг ўзига хос хусусиятларига эътибор қаратган ҳолда, ўқувчилар, худди шу ҳайвонга айланиб, ўз ниятларини, бошқаларга муносабатини бир овоз билан айтадилар. Бундай ҳолда, сўзнинг лексик маъноси ва унинг жумлада тўғри қўлланилиши муҳим рол ўйнайди.

#### **Савол ва топшириқлар:**

- Халқ эртақлари ҳақида фикр-мулоҳазаларингиз, уларни ўқишдан ҳосил бўлган таассуротларингиз юзасидан суҳбат қилинг.
- Эртақларнинг жанр хусусиятларини моддама-модда айтинг, уларнинг ҳар бирини изоҳланг.
- Ҳайвонлар ҳақидаги эртақлар бошқа тур эртақлардан қандай фарқланади. Бошқа тур эртақлар билан ўхшашлиги борми?
- Сехрли эртақлар ҳақида ўқиганингиз билан аввалги таассуротлар ўртасида фарқ борми?
- Ҳаётий эртақларнинг ғоявий ва бадиий қиммати ҳақида нималар дейиш мумкин?
- Халқ эртақлари – сўз санъатининг намунаси эканини исботланг.
- Ўзингиз яшайдиган ҳудудда эртақ жанри сақланганми? Сақланган бўлса, уларни ёзиб олинг ва нашр қилинган намуналар билан таққосланг.



## 17. Hikoya janridagi asarni o‘qitish metodikasi. Hikoya va ertakni o‘tish

**Tayanch tushunchalar:** *hikoya, hikoya va ertakk o‘qishga tayyorlash, reja asosida qayta hikoya qilish, lug‘at ustida ishlash, dars qurilishi, rollarga bo‘lib o‘qish, sahnalashtirish*

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotida sodir bo‘lgan voqea, hayotning muhim tomonlari tasvirlanadi.

O‘quvchilarni turli voqea, hayotning turli voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar qiziqtiradi. Shuning uchun hikoya uning mazmunini tushuntirishga bog‘lab o‘rgatiladi. Hikoyani o‘tishda matn ustida ish turlaridan va lug‘at ustida ishlashdan foydalaniladi.

Badiiy hikoyani o‘tish darsining qurilish rejasi quyidagicha:

1. Hikoyani o‘qishga tayyorlash – kirish suhbatini o‘tkazish.
2. Hikoya mazmuni bilan tanishtirish.(I sintez)
3. Idrok etishni tekshirish – analiz (qatnashuvchilar xatti-harakatlari, shaxs va voqealar o‘rtasidagi munosabatlar yuzasidan savol-javob)
4. Hikoyaning tarbiyaviy tomonini yoritish, qahramonlar haqidagi fikrlarni umumlashtirish, asarga baho berish. ( II sintez)
5. Lug‘at ustida ishlash.
6. Hikoyani o‘qish.
7. Tanlab o‘qitish, tasvirlash.
8. Qismlarga bo‘lib reja tuzish
9. Reja asosida qayta hikoyalash.

Ertak xalq og‘zaki ijodining eng keng tarqalgan janri bo‘lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan hodisalar, haqiqiy hayot tasvirlari afsonaviy, to‘qima elementlar bilan tasvirlanadi. Ertakning tarbiyaviy tomoni katta. U doim yaxshilik bilan tugaydi.

Ertak o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishda ham katta ahamiyatga ega. Uning tili sodda. Ertak matni bilan ishlashda ham tanlab o‘qish, tasvirlash, savollarga

javob berish va boshqa ishlardan foydalaniladi. Ertak qismlari rollarga bo‘lib o‘rganiladi.

Ertak o‘qish darsining qurilishi:

1. O‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash ( kirish suhbat).
2. O‘quvchilarning ertakni ifodali o‘qishi ( o‘qituvchining qayta hikoya qilishi, I sintez).
3. Ertakni o‘quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash maqsadida savol- javob o‘tkazish – analiz.
4. Ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilish. Ayrim tasviriy vositalar, sinonim, antonimlarni topish (Analiz – lug‘at ishi o‘tkazish).
5. Ertakni aytib berishga tayyorlash.
6. Ertakni aytish.
7. Umumlashtiruvchi suhbat (Tarbiyaviy tomonini ochish, II sintez).
8. Tanlab o‘qish, tasvirlash.
9. Reja tuzish.
10. Lozim topilsa, sahnalashtirish.
11. Uyga vazifa berish.

Bu hikoya va ertakni o‘tish darsining taxminiy rejasi bo‘lib, u ijodiy yondashilgan holda o‘zgartirilishi mumkin.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Hikoya va ertakning o‘ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
- O‘zingiz o‘qigan hikoyalardagi voqealarga real hayotda duch kelganmisiz? Fikrlaringizni bayon eting.
- Ertak qahramonlariga xos qanday xislatlarni o‘zlashtirishni xohlaysiz?
- Hikoya va ertaklarda uchraydigan detallarni tasvirlang (so‘z orqali, rasm orqali v.k.).
- Shaxsiy kutubxonangizdagi kitoblardan bir nechta ertak va hikoya topib o‘qing va ularni o‘zaro taqqoslang.



## **18. She'riy nutqning xususiyatlari. She'rni tahlil qilish uslubiyati. She'rni o'qitish darsida asosiy ish turi ifodali o'qish ekanligi. Lirik she'rni o'qishga tayyorlash**

**Tayanch tushunchalar:** *she'r, kechinma, ifodali o'qish, band, she'r yodlatish, obrazli tasvir*

She'rda insonning ichki kechinmalari, ya'ni his-hayajon, shodlik, qayg'u-alam, go'zal manzaralardan zavqlanish kabi hislari ifodalanadi.

Boshlang'ich sinflarda she'rni o'qitish orqali estetik did, havas tarbiyalanadi, ularning ma'naviy dunyosi boyitiladi. She'rning mazmunidan kelib chiqib, mehnatsevarlik, do'stlik, vatanparvarlik hislari shakllantiriladi. Lirik she'rni o'qish darsida asosiy ish turi his-hayajon bilan ifodali o'qishdir. She'rni tahlil qilishda yana matn ustida ishlash ish turlaridan ham foydalaniladi.

She'rni o'qitish darsining qurilishi:

1. Kirish suhbat ("Qish"she'ri bo'lsa, qish fasli haqida suhbatlashiladi).
2. She'r ifodali o'qiladi(I sintez).
3. She'rni qatorma-qator tahlil qilish – analiz.
4. She'rning tarbiyaviy tomoni yoritiladi (II sintez).
5. Lug'at ustida ishlanadi.
6. She'r qayta o'qitiladi.
7. She'r yuzasidan savol-javob o'tkazish.
8. Tanlab o'qitish.
9. Leksik va grafik tasvirlatish.
10. She'r bandlariga sarlavha tuzdirish.
11. She'rni yodlatish va yodlab kelishni topshirish.

### **Savol va topshiriqlar:**

- She'riyat nega insonga tez ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysiz?
- Ifodali o'qishda qanday qoidalarga amal qilish lozim?

- Siz qaysi shoir she'rlarini sevib o'qiysiz? Nima uchun?
- She'r tahlilida nimalarga e'tibor qaratish kerak?
- Yodlagan she'rlaringizdan bir nechtasini ifodali o'qib, uning audio variantini yarating.



## **19. Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi. Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi**

**Tayanch tushunchalar:** *masal, majoziy tasvir, allegoriya, ilmiy-ommabop asar, maqola, xulosalash*

Masal axloqiy mazmuni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiriladigan badiiy asardir. Unda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy, majoziy-allegorik obrazlar, hayvon, jonivor va o‘simliklar dunyosiga ko‘chadi.

Masalning kirish qismida yoki oxirida qissadan hissa, ya’ni ibratli xulosa chiqariladi. Masal she’riy yoki nasriy yo‘l bilan yozilgan bo‘ladi. Masalda fikr qisqa, lo‘nda ifodalangan, tili o‘tkir va xalqchil bo‘ladi.

Masal o‘tish darsining qurilishi:

I. Tayyorgarlik ishlari.

1. Masal muallifi yuzasidan suhbat yoki uni xalq yaratganligi haqida.

2. O‘qilgan masallar yuzasidan suhbat.

3. O‘qiladigan masalda qatnashuvchilar xarakteriga xos xususiyatlar haqida suhbat.

II. Masalni o‘qituvchi o‘qishi (I sintez), magnitofondan eshittirishi yoki diafilmda ko‘rsatishi mumkin.

III. Masalning aniq mazmunini analiz qilish (analiz).

1. Masal mazmuni yuzasidan savol-javob o‘tkazish.

2. Lug‘at ishi o‘tkazib, masalni o‘qish, reja tuzish, rollarga bo‘lib o‘qish.

3. Qatnashuvchilarning fe‘l-atvori va xarakterini ochish uchun tanlab o‘qish. So‘z bilan va grafik tasvirlash.

4. Masaldagi asosiy fikrni belgilash.

IV. Allegoriyani ochish (II sintez).

V. Hayotda uchraydigan o‘xshash hodisalarga taqqoslash.

VI. Uyga vazifa berish

Ilmiy-ommabop maqolalar ona-Vatanimiz tarixi, tabiati va undagi voqea-hodisalar, ijtimoiy hayot, fan va texnika yutuqlari, katta kuch bo‘lgan ajoyib inson va allomalar haqida bo‘lib, ular ilmiy jihatdan ommaga mos holda yoziladi. Maqolalarni

o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri va taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatlari o‘sadi, so‘z boyligi oshadi.

Ilmiy-ommabop maqolalarda maxsus va ilmiy terminlar ko‘p bo‘ladi. Voqelik aniq dalillar asosida yaratiladi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni o‘qitish darsining qurilishi quyidagicha:

1. O‘quvchilarni matn mazmunini tushunishga tayyorlash uchun suhbat o‘tkazish.
2. Maqolani o‘qish, ayrim so‘zlarning ma`nosini tushuntirish (I sintez).
3. Maqola yoki uning bo‘limi rejasini tuzish.
4. O‘qilgan maqola yuzasidan suhbat – analiz.
5. O‘qilgan bo‘limning asosiy mazmunini aniqlash va reja punktini yozish.
6. Reja asosida maqolani qayta o‘qish.
7. Maqolani qayta o‘qib, qayta hikoyalashga tayyorlash.
8. Xulosalash va umumlashtirish( II sintez).
9. Reja asosida qayta hikoyalash.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Masal janrini o‘rganishning asosiy sababi nimada?
- Masalnavis ijodkorlardan kimlarni bilasiz? Masallaridan namuna keltiring.
- Masalning ertak va hikoyadan farqli xususiyatlarini ayta olasizmi?
- Majoziy tasvir usuli deganda nimani tushunasiz?
- Biror masalni sahnalashtirib, tarbiyaviy jihatlarini yoritib bering.
- Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitishda qanday qoidalarga amal qilish zarur?

## 20. Maqol, topishmoq, tez aytishlar ustida ishlash metodikasi

**Tayanch tushunchalar:** *maqol, topishmoq, tez aytish, badiiy san'at, istiora, she'riy shakl, nasriy shakl, ravon nutq*

Maqollar – xalq tomonidan yaratilgan ixcham, obrazli, chuqur ma'noli gaplardan iborat janr. U o'quvchilarda rostgo'ylik, do'stlik, hunar egallsh, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Мақол деб халқнинг ижтимоий-тарихий, ҳаётӣ-маиший тажрибаси умумлашган бадий, образли мулоҳазалардан иборат ҳикматли сўзларга айтилади. Мақол ўзбек тилида мақол, тожикларда зарбулмасал, русларда пословица, арабларда (жонли сўзлашувда) нақл, туркларда ата сўзи атамаси билан юритилади. Мақол атамаси арабча [قول] – қавлун – гапирмоқ, айтмоқ сўзидан олинган. Мақолларда сўз қиммати алоҳида ёрқин ифодаланади. Чунки мақоллардаги сўзларни бошқаси билан алмаштириш, бирон сўз қўшиш мумкин эмас. Улар миллий тил таркибида қолиплашган ҳолда намоён бўлади. Бу жанр дунёдаги ҳамма халқлар оғзаки ижодида бор бўлиб, ҳажм, шакл, яратилиш мақсадига кўра муштарак ҳисобланади. Ҳатто номланишида ҳам яқинлик аниқ сезилади. Жумладан, арабларда “қавлун” – гап, сўз маъносини ифодаласа, тожикларнинг “зарбулмасал” атамаларида мисол келтириш, руслар “пословица”сида сўзлар билан фикрни ифодалаш, турклардаги “ота сўзи”да эса аждодлар фикрини эслаш маъноси етакчи. Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида ҳам “сав” атамаси “оталар сўзини эслаш” тарзида келтирилган. Хуллас, мақол атамаси умумий мазмун жиҳатдан “сўз” тушунчаси билан боғланади. Дунёдаги ҳамма халқлар оғзаки ижодида мақолларчалик шаклан ва мазмунан ўзаро яқин жанр деярли йўқ. Масалан, русча “Шило в мешке не утаишь” (Бигизни қопда яшириб бўлмас) – ўзбекча “Ойни этак билан ёпиб бўлмас”; инглизларда “East and West, home is best” (Шарқми, Ғарбми, уйинг энг яхшиси) – ўзбекча “Ўз уйинг, ўлан тўшагинг”; Вьетнамда “Рисовал дракона, получился червяк” (Аждар суратини ишлагандим, чувалчанг бўлиб чиқди) – ўзбекча “Мен дедим ўттиз – Аллоҳ деди тўққиз”, осетинларда “Его в

сени не пускают, а он лезет в комнату” – ўзбекча “Ўзига энг бўлмаган, ўзгага эн бўларми”; татарларда “Товуқ тухум қўймасдан, эгаси жўжа сотмоқчи” – ўзбекча “Жўжани кузда сана”; русларда “На чужой стране и весна не красна” (ўзга юртда баҳор гўзал эмас) – ўзбекча “Ўзга юртда шоҳ бўлгунча, ўз юртингда гадо бўл” маъноларини ифодалайди.

Топишмоқлар ҳажми ва шаклига кўра, мақолларга ўхшайди. Баъзан мазмунига кўра ҳам яқинлик сезилади. Аммо яратилиш мақсади билан фарқланади. Жанрнинг номланишига эътибор беринг. “Топ” сўзининг талаффуз этилишиданок ўйла, ахтар, солиштир, изла маънолари етакчилик қилади. Унга “иш” қўшимчаси қўшилганда, вазифа аниқлашади: “-моқ” ҳаракат номи қўшимчасидан кейин “қўлингдан келса”, “эпласанг”, “уддалай олсанг” тушунчалари ифодаланади. Топишмоқларнинг қуйидаги жанр хусусиятлари бор:

1. Ҳажм жиҳатдан қисқа ва ихчам.
2. Шаклан шеърий, насрий кўринишга эга.
3. Яратилиш мақсадида матнда яширинган нарсани топиш вазифаси қўйилади.
4. Мазмунида ҳайвонот, ўсимлик, коинот, маиший ҳаётдаги нарсаларнинг хусусиятлари яширин тарзда ифодаланади, уни топишга даъват этилади.
5. Топилиши лозим бўлган нарса, кўпинча, битта, баъзан икки ва ундан ортиқ микдорга эга бўлади.
6. Топишмоқларда қўлланган асосий бадиий санъат истиора (метафора) ҳисобланади. Топишмоқларда топилиши лозим бўлган нарсанинг шакли, ҳажми, ранги, вазифаси ва шу каби хусусиятлари ҳақида маълумот берилади, аммо бу белгилар истиора санъатидан фойдаланилган ҳолда бошқа нарса билан боғланади.

Topishmoqlar ham o‘qilayotgan matnlarga bog‘lab o‘rganiladi. Topishmoqlar javobiga xos belgilar unda beriladi, shunga qarab javob topiladi. Ular sabzavotlar, mevalar, tabiat hodisalari, osmon jismlari, hayvonlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari haqida bo‘ladi. Topishmoqlar ustida ishlash tafakkurni o‘stiradi va hozirjavoblikka o‘rgatadi.

Tez aytishlar – bir xil tovushlardan tuzilgan gaplardir. Ular nutqni o‘stiradi, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatadi. Masalan: G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Maqol, topishmoq va tez aytishlarning tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuriting.
- Xalq maqollarining qadimdan mavjudligini qaysi manbalar dalillaydi?
- Istiora san‘ati qaysi janrni shakllantirishga xizmat qiladi? Misol keltiring.
- Tez aytishlardan namuna yodlang va nutqingizga ta’siri haqida so‘zlab bering.
- Xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida videorolik tayyorlang.

## **21. Sinfдан tashqari o‘qish metodikasi.**

**Tayanch tushunchalar:** *mustaqil o‘qish, to‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish, tavsifnoma, kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari, mashg‘ulot va dars qurilishi*

Maktab o‘quvchini o‘qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda, kitobni mustaqil o‘qiy oladigan, uni tushunadigan, ma‘lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o‘qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan, sinfdan tashqari o‘qish (STO‘) tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko‘p narsani bilishga havasni orttiradi. STO‘ning maqsadi o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o‘qiydigan, o‘qilgan kitobni to‘g‘ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO‘ darslari tashkil etilgan. Bunday darslar 1-2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o‘tkazilib kelindi. Hozirgi dasturga ko‘ra, bunday darslar 1-4-sinflarda 2 haftada bir marta o‘tkaziladi. Savod o‘rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfдан tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Sinfдан tashqari o‘qish tanish bo‘lmagan mualliflarning ham kitoblari muqovasi, titul varag‘i, kirish so‘zi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Sinfдан tashqari o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchida badiiy kitoblarni o‘qishga havas uyg‘otish, o‘qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o‘rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi.

STO' sinfda o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atni boyitadi. STO' qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish – hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan "Kitobim-oftobim" nomli qo'llanmalar ham chop etilgan.

Sinfdan tashqari o'qish bosqichlari STO' darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3 bosqichga bo'linadi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi – 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun "STO' ma'lumoti" deb yuritiladi.
2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.
3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi.

STO' bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin.

Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o‘rash o‘rgatiladi, “Ertaklar bayrami”, “Ifodali o‘qish tanlovi” o‘tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o‘quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo‘lgan yaxshi o‘qish ko‘nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o‘qishni yaxshi ko‘rishlariga erishish juda muhimdir. Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlash tamoyillari metodikaning vazifalaridan biri STO‘ uchun kitoblar tanlash, o‘qiladigan adabiyotlar ro‘yxatini tavsiya qilish, yillik o‘quv rejasi va dars tuzilishi namunalari ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko‘zda tutiladi.
2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e‘tiborga olinadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she‘rlar, topishmoqlar, maqollarni o‘qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.
3. Kitobning o‘quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.
4. Kitob tanlashda o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o‘qishi hisobga olinadi.
5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to‘g‘ri tanlash sinfdan tashqari o‘qish muvaffaqiyatini ta‘minlashning muhim shartidir.

Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlik qilish shakllari STO‘ga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. STO‘ darslarida o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo‘ladi. Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.



Shularga qaramay, STO' darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfda ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

Kitobni targ'ib qilish. STO'ga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi. STO' yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o'qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfda o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari

o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir. Sinfдан tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra, ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi: 1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. 2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra, 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi. Sinfдан tashqari o'qish va qiroatxonlik saboqlari 1-sinfda haftada 1 marta, saboq o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil o'quvni paydo qilishdir. Asosan, bu sinf o'quvchilarida kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining xatti-harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Bu sinf o'quvchilari uchun, asosan, rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatlari, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi. 2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi. 3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli

bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishni, nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti, avvalo, o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilining ifodaliligi, she'riy so'zlarining musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, erkaliklari, orzu-istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega. Xalqimizning tarixi, uning urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy boyliklari, barcha orzu-istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu-havaslarini yosh avlodda – o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni o'qish tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi. O'quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desagina o'z xalqini munosib farzand bo'la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalmilal badiiy quroldir. “Uch og'ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Egri va to'g'ri” kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi kerakligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak, degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar. “Ur, to'qmoq” ertagining bola xarakterining shakllanishida alohida o'rni bor: ertak yaxshiga-yaxshi, yomonga yomon bo'lish kerak degan muhim qoidani o'rta tashlaydi. Haqiqatan ham, xalqning “Qaynar xumcha”, “Ochil dasturxon”larini zo'ravonlik bilan tortib oladigan shaxslarga nisbatan “Ur, to'qmoq”larni ishlatish zarurligini uqtiradi. Sinfdan tashqari

o‘qish mashg‘ulotlari o‘qish darslari bilan bog‘lab olib boriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir nechta kitob bilan tanishsalar, so‘ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o‘qishga o‘tadilar. Bunda, asosan, o‘qituvchi o‘quvchilarni maktab kutubxonasiga, 3-4-sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boradi. Shuningdek, bolalar gazeta va jurnallari ham o‘quvchilarga ertak, hikoyalar o‘qishda yordam beradi. Sinf dan tashqari o‘qish – o‘qish samaradorligida ijobiy tomonga ta’sir qilishning eng qulay usuli. Demak, maktab kutubxonasi, bolalar gazeta va jurnallari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Sinf da va sinfdan tashqari o‘qish boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan barcha predmet dasturlarining bo‘limlari bilan bevosita bog‘liq. O‘z navbatida, grammatika va to‘g‘ri yozuv, tabiatshunoslik, tasviriy san’at, musiqani o‘rganishda olingan bilim va hosil qilingan ko‘nikmalardan o‘qish darslarida foydalaniladi. O‘qish darslarida o‘tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o‘quvchini ijod qilishga undaydi.

Har bir sinfdan sinfdan tashqari o‘qilgan barcha asarlar o‘quvchilarga mos ravishda sahnalashtirilishi mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o‘quvchining diqqati oshib, xotirada saqlash qobiliyati o‘sadi. Hatto sahnalashtirish o‘quvchini har tomonlama yo‘naltiradi, ya’ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o‘rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida, albatta, o‘qituvchi rahbarlik qiladi. O‘quvchilarning qahramonlar harakatini to‘g‘ri bajarishlari, shuningdek, obrazli, ifodali o‘qishlari o‘quvchilarda zavq-shavq uyg‘otib, kitobga, badiiy asarga havas, uni o‘qib-o‘rganishga intilish uyg‘otadi. Sinf dan tashqari o‘qish darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borishi lozim. Q.Muhammadiy, P.Mo‘min, Z.Diyor, A.Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning

asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishi shart. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga, uni sevib-ardoqlashga chaqiradi. Kitobning, asarning qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib, badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va axloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardan oq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi, albatta, xalq og'zaki ijodini yaqindan o'rganishi lozim. Ertaklar – yaxshilikka yetaklar deganlaridek, o'quvchi ertaklar bilan tanishar ekan, mard, jasur, vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan, topag'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi.

Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni bilgan holda aqlan yetuk, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash biz murabbiylar, ustozlar zimmasidadir. Shunday ekan, mashaqqatli, ammo sharaflil kasbimizni sidqidildan bajarishda izlanuvchan ijodkor bo'lishimiz zarurdir. Chunki Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek: "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lishlari shart".

O'quvchilarning sinfdan tashqari o'qish davomida hosil qilgan bilimlarini tarbiyaviy soatlarda mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Quyida shunday dars ishlanmasidan namuna keltiramiz:

### **Mavzu: Inson odobi bilan**

Darsning maqsadi: Odob inson ko'rki ekanligi, odobli bola elga manzur bo'lishini, bir so'z bilan aytganda, odob xulq-atvorlar yig'indisi ekanligini o'quvchilar ongiga singdirish va shu orqali ularni odobsizlikdan, noo'rin xatti-harakatlardan saqlashdan iborat.

Darsning jihozlanishi: Alisher Navoiyning rangli rasmi, plakat va ko'rgazmalar, kitob-jurnallardagi odobli bolalarning suratlari, xalq maqollaridan namunalar

Darsning borishi:

O'qituvchi: Odob insonning oliy fazilatidir. Hazrat A.Navoiy ham o'z asarlarida, shu jumladan, "Hayrat ul-abror" dostonida odobni to'la tushuntirib beradi. Yoshi ulug'larga samimiy hurmat-izzat keltirish har kimning holatiga qarab bo'lishi kerak. Agar yosh bolaga tik turib salom berilsa, uni odob demaydilar. Gadoning oldida sajda qilish kerak emas, unga bir tiyin berilsa shu karam bo'ladi. Bolalar Navoiy bobomiz nihoyatda kamtar bo'lganlar. Hozir sinfdoshlaringiz Alisherning odobi bilan bog'liq bir voqeani namoyish qilishadi. (Oldindan tayyorlangan 7 nafar o'quvchilardan biri Sh.A.Yazdiy rovida, biri Alisher, qolganlari uning o'rtoqlari qiyofasida chiqishadi)

O'qituvchi (izoh beradi): A.Navoiy 1447-yili Taft shahrida mashhur tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashib qolibdi. Sahnada bir mo'ysafid xayolga cho'mib o'tiribdi. Shu payt bir to'da (5-6 nafar) bolalar quvalashib o'ynay boshlaydilar. Ularni kuzatib o'tirgan mo'ysafid bolalarni yoniga chorlaydi:

– Qani bolalarim buyoqqa kelinglar-chi. Bolalar mo'ysafidning ovozini eshitib tarqab ketishadi. Faqat 5-6 yoshlar chamasidagi bola qoladi. Uning boshida oq sallacha, egnida yupqa matodan tikilgan ixcham kamzul, oyog'ida etikcha. U yugurib kelib, qo'llarini ko'ksiga qo'yganicha salom beradi.

O'g'lim, oting nedur? – deb so'radi mo'ysafid.

Alisher, dedi bola.

Maktabga qatnaysanmi?

Qatnayman. Qur'onni taborak surasigacha o'qiganman.

Men chaqirganimda o'rtoqlarining qochib ketdi. Sen esa huzurimga kelding. So'roqlarimga yaxshi javob qilding. Shuning uchun senga rahmat. Umring uzoq, boshing omon bo'lsin. Olim, fozil bo'lib, yaxshi obro'ga erishgaysan, – mo'ysafid uni duo qiladi.

Bu sahna ko'rinishidan keyin bo'lib o'tgan voqealar bolalar bilan tahlil qilinadi. Alisherning yoshi ulug' kishilarga salom berishi, o'zini tutish, odobli ekanligi

uqtiriladi. Shuningdek, insonga xos odatlardan biri kulgu haqida ham A.Navoiyning fikrlaridan foydalanish mumkin.

O'qituvchi: Kulgu – insonga xos odatlardan biri, boshqacha aytganda, kulgi orqali odamning qanday ekanligini bilish mumkin. Hozir tengdoshlaringiz bu haqda Navoiy ijodidan namunalari keltiradi.

1-o'quvchi:

Bo'lmas odobsiz kishilar arjumand,

Past etar ul xaylini charxi baland.

O'qituvchi (izoh beradi): Har bir kishining izzat-hurmati odobi orqali keladi.

2-o'quvchi:

Tarki odobdin biri kulgu durur,

Kulgu odob tarkiga belgu durur.

O'qituvchi: Adabsizlikning bir ko'rinishi noo'rin va beo'xshov kulgudur. Demak, bo'lar-bo'lmasga irjayish yoki bo'lmasa xo'mrayib yurish insonning zebi-ziynati emas.

3-o'quvchi: Izzati haddan kam esa xo'p emas,

Haddan ortuq dog'i marg'ub emas.

O'qituvchi : O'zga kishilar to'g'risida kichikka shafqatda bo'lish kerak, o'rtacha kishilarga esa o'rtacha muomala qilish lozim, deydi. Darvoqe, bolalar, Payg'ambarimiz Rasululloh Alayhissalom hadisda "Ko'p kulmang, ko'p kulish dilni o'ldiradi" deb nasihat qilgan ekanlar. Endi bolajonlar mana bu rasmga (A. Navoiy portretiga ishora qilib) qaranglar, unda qanday ma'no o'qiyapsiz?

4-o'quvchi: Bobomizning yuzlari tiniq ekan.

5-o'quvchi: Yuz-ko'zlaridan odobli ekanliklari bilinib turibdi.

O'qituvchi: Barakallo, juda ham to'g'ri angladinglar. Demak, biz odobni ko'proq kimdan o'rgansak bo'lar ekan?

O'quvchilar: Navoiy bobomizdan. Shundan so'ng, mashg'ulot yakunlanadi. Navbatdagi mavzu e'lon qilinib, o'quvchilarga odob-axloqqa oid 4-5 maqollarni o'rganib kelish topshiriladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunasiz?
- Sinfdan tashqari o'qishning o'quvchi uchun qanday afzalliklari mavjud?
- Bo'sh vaqtlaringizda qanday kitoblar mutolaa qilasiz? Misollar bilan dalillang.
- O'zingizga yoqqan asar, uning mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering.
- Dars davomida va sinfdan tashqari o'qishning foydali va farqli tomonlariga munosabat bildiring.

## **V. FONETIKA, GRAMMATIKA VA SO'Z YASASHNI O'RGATISH METODIKASI**

### **22. Fonetika bo'limini o'rgatish metodikasi. Jarangli va jarangsiz tovushlarni farqlash. Bo'g'in ustida ishlash**

**Tayanch tushunchalar:** *fonetik bilimlar, tovush va harflar, unli va undosh tovushlar, ularning xususiyatlari bilan tanishtirish, bo'g'inga ajratish ko'nikmasi*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetik bilimlarning ahamiyati katta.

1. Fonetik bilimlarga asoslangan holda 1-sinf o'quvchilari savod o'rgatish davrida o'qish va yozishni bilib oladi.
2. Fonetik bilim so'zni to'g'ri talaffuz qilish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni ajratish asosini tashkil qiladi.
3. Fonetik bilim o'quvchilarda qator orfografik malakalarni, shuningdek, jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilish qoidalarini shakllantirish uchun zamin bo'ladi.
4. Fonetik bilim gapning ohangiga ko'ra, to'g'ri aytish, logik urg'u va gap qurilishidagi pauzalarga rioya qilish uchun zarurdir.
5. Fonetik bilimlar so'zning tovush tomonini bilish, ma'nosini tushunish uchun kerak. Masalan: atlas-mato, atlas-xarita.



Tovush va soʻzning tovush tarkibi ustida ishlash savod oʻrgatish davridayoq boshlanadi. Bolalar talaffuz qilganda yoki eshitganda soʻz tovushlardan tuzilishini bilib oladi.

Boshlangʻich sinflar tovush haqida quyidagi tushunchalarga ega boʻlishi kerak:

Tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz.

Tovushdan boʻgʻinlar va soʻzlarning hosil qilinishi.

Soʻz leksik maʼnosining soʻzdagi tovushlar tarkibiga bogʻliqligi. Masalan: gul-kul.

Oʻzbek tilidagi yozuv tovush yozuvi hisoblanadi. Chunki, tovush yozuvda harf bilan ifodalanadi. Oʻquvchilar quyidagilarni bilib olishlari lozim: tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz, harfni koʻramiz, oʻqiyamiz va yozamiz, harf tovushning yozuvdagi belgisi.

Nutq tovushlari ikki guruhga boʻlinadi: unli va undoshlar. Buni oʻquvchilarga tushuntirishda quyidagi belgilar hisobga olinadi:

Talaffuz qilish usuli. Unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi ogʻiz boʻshligʻidan erkin ravishda oʻtadi.

Undosh tovush talaffuz qilinganda havo ogʻiz boʻshligʻida toʻsiqqa uchraydi.

Ovoz va shovqinning ishtiroki. Unli tovushlar faqat ovozdan iborat. Undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi. Baʼzan shovqin va qisman ovoz chiqadi.

Boʻgʻin hosil qilish xususiyati. Unli tovushlar boʻgʻin hosil qiladi. Undosh tovushlar boʻgʻin hosil qilmaydi.

Jarangli va jarangsiz undoshlar bilan tanishtirish. Oʻquvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlar ham tovushlarning talaffuzini kuzatishga asoslanib tushuntiriladi. Baʼzan soʻzlar bitta undosh tovush bilan farqlanadi: faqir-paqir, dil-til kabi. Bunday hollarda soʻzlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiqdir. Bunda oʻqituvchi oʻquvchilar diqqatini b-p, v-f, g-k, d-t, z-s, j-ch, j-sh, gʻ-q tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga qaratadi. Ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi. Jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi. Jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin qatnashadi.

Doskaga quyidagicha yozib qo'yiladi:

Jufti bor jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, j, g'.

Jufti bor jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, q.

Jufti yo'q jarangli undoshlar: m, n, l, y, ng, r.

Jufti yo'q jarangsiz undoshlar: x, h.

Bo'g'in ustida ishlash. Bo'g'in ko'chirish qoidalarini tushuntirish.

Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. O'quvchilar so'zni bo'g'inlarga bo'lishda so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o'rgatish davridanoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so'zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so'zda nechta unli bo'lsa, uni shuncha bo'g'inga bo'ladilar.

Birinchi sinfda o'quv yilining birinchi yarmida og'zaki va yozma tarzda so'zni bo'g'inlarga bo'lish, shuningdek, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, muayyan bo'g'inli so'z tanlash mashqlari har kuni o'tkaziladi. So'zni bo'g'inlarga to'g'ri va tez bo'lish ko'nikmasini hosil qilish 1-sinfda o'tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi.

2-3-sinflarda ham unli tovush bo'g'in hosil qilishi, bo'g'inlar soni unli soniga bog'liqligi qoidalarda berilgan. Ular turli mashqlar bilan mustahkamlanadi.

So'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasi o'quvchilar uchun so'zning oldingi qatoriga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab to'g'ri ko'chirish uchun zarur.

Quyidagi bo'g'in ko'chirish qoidalari o'rgatiladi:

so'zlar bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: mak-tab, ki-tob;

bir harfni satr oxirida qoldirib bo'lmaydi: o-najon emas, ona-jon

so'z oxirida bo'g'in hosil qilgan bir harfni keyingi satrga ko'chirib bo'lmaydi: voqe-a emas, vo-qea;

bir bo'g'inli so'zlar ko'chirish uchun bo'g'inlarga bo'linmaydi: do'st, fasl;

bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh,ch,ng) keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: si-ngil, ach-chiq, pe-shona;

tutuq belgili so'zlar bo'g'inga ko'chirilganda, tutuq belgisi birinchi bo'g'inda qoladi:

Ra'-no, jur'-at.

Yuqoridagi qoidalar mashqlar orqali mustahkamlanadi.

Alfavit bilan tanishtirish. Tutuq belgisi va uning qo'llanishini tushuntirish.

Boshlang'ich sinfning savod o'rgatish alifbe harfiy davrida o'quvchilar barcha tovush va harflar bilan tanishib bo'lgach, harflar tartib bilan joylashgan alfavitni bilib oladilar. Har bir harfning o'z o'rni va nomi borligini biladilar.

1-sinfda: ona tili darsligida. Alifboda harflar tartib bilan joylashgan, degan qoida berilgan va alifbo jadvali keltirilgan.

2-sinfda: Alifbo tartib bilan qo'yilgan barcha harflardir. Alifboda har bir harfning o'z o'rni bor, deb alifboga ta'rif beriladi.

3-sinfda esa: Tartib bilan berilgan barcha harflar alifbodir, deb o'rgatiladi.

Yuqoridagi bu qoidalar amaliy mashqlar bilan mustahkamlanadi. Masalan, alfavit tartibisiz berilgan meva, sabzavot, hayvon nomlari, kishilarning ismi, familiyalarini alfavit tartibiga solib yozish topshirig'i beriladi. O'quvchilar alfavitni yod oladilar.

Alfavitni yod olishning ahamiyati:

1. Lug'atlarda so'zlar alfavit tartibida keltirilgan. Alfavitni bilgan o'quvchi so'zni tez topadi.

2. Kutubxonalaridagi kitob javonlarida yozuvchilar ro'yxati alfavit tartibida joylashtirilgan.

Boshlang'ich sinflarda tutuq belgisi haqida quyidagi bilimlar beriladi:

1. Tutuq belgisi tovush bildirmaydi.

2. Tutuq belgisi unlidan so'ng kelganda, shu unlining cho'ziqroq aytilishini bildiradi: sa'va, e'lon.

3. Tutuq belgisi undosh tovushdan so'ng kelganda, uning keyingi unlidan ajratib talaffuz qilinishini bildiradi: san'at, mash'al, Tal'at.

4. Tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib ko'chirishda tutuq belgisi oldingi satrda qoldiriladi: in'-om, ta'-sir.

Mashqlar bajartirish bilan yuqoridagilar mustahkamlanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni egallashlarida fonetikadan olgan bilimlarining ahamiyati katta: a) fonetik bilimga asoslangan holda 1-sinf o'quvchilari savod o'rganish davrida o'qishni va yozishni bilib oladilar; b) fonetik

bilim soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish (tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, urgʻuli boʻgʻinni ajratish, orfoepik meʼyorga rioya qilish) asosini tashkil etadi; v) fonetik bilim morfologik va soʻz yasalishiga oid bilimlar bilan birga oʻquvchilarda qator imloviy malakalar (jarangsiz va jarangli undoshlarning yozilishi)ni shakllantirish uchun zamin boʻladi; g) fonetik bilim gapni ohangiga koʻra toʻgʻri aytish, logik urgʻu va gap qurilishidagi toʻxtamlarga rioya qilish uchun zarur; d) soʻzning tovush tomonini bilish uning maʼnosini tushunish va nutqda ongli qoʻllash uchun muhimdir; hozir va hozir, atlas va atlas soʻzlari maʼnosidagi farq faqat urgʻu orqali ajratiladi. Soʻzning tovush tomonini tasavvur qilish soʻzlarni talaffuzda farqlash, ayrim soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish va qoʻllash uchun zarur.

Oʻqituvchi boshlangʻich sinflarda oʻqitiladigan barcha fanlarga oid darslarda soʻzni aniq va toʻgʻri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda koʻpincha soʻzni tovush tomondan tahlil qilishdan foydalanadi.

Maktab dasturiga muvofiq, boshlangʻich sinf oʻquvchilari fonetik-grafik koʻnikmalar tizimini hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yoʻq jarangli va jufti yoʻq jarangsiz undoshlar; soʻzni boʻgʻinlarga boʻlish, urgʻuli boʻgʻinni ajratish koʻnikmalariga ega boʻladilar.

Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy oʻzlashtiradilar, ammo ular maxsus oʻqigunlariga qadar soʻzni boʻgʻinlarga boʻlishni, soʻzdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf oʻquvchilarida soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish, boʻgʻinlarga boʻlish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish koʻnikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash, oʻz navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, soʻz tarkibida bir-biriga taʼsiri kabi ayrim elementar bilimlarni oʻzlashtirishga imkon beradi.

1-sinfda fonetika va grafikani oʻrganishga katta oʻrin beriladi, chunki oʻquvchilar oʻqish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda mustahkamlanadi, takomillashtiriladi. Tovush murakkab tushuncha boʻlgani uchun boshlangʻich sinflarda unga taʼrif berilmaydi. Shunga qaramay, bolalarda tovush haqida toʻgʻri ilmiy tasavvur amaliy mashqlar yordamida hosil qilinadi. Bunda

yetakchi usul soʻzdagi tovushlarniig talaffuzi hamda soʻzning leksik maʼnosi soʻzdagi tovushlarning tarkibiga bogʻliqligi ustida kuzatish hisoblanadi. Masalan, aka, uka, opa, ona, ota, kul, gul, qora, qara kabi bir unli yoki bir undosh bilan farqlanadigan soʻzlar har xil lugʻaviy maʼnoni ifodalaydi.

Soʻzning tovush tarkibi ustida ishlash savod oʻrgatish davridanoq boshlanadi. Bolalar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan soʻz tovushlardan tuzilishini bilib oladilar. Ular soʻzni tovush tomonidan tahlil qilishga oʻrganadilar, yaʼni soʻzni boʻgʻinlarga boʻladilar, soʻzdagi tovushlarni tartibi bilan aytadilar. Bunda tovush tomondan tahlilni harf tomondan tahlil bilan aralashtirmaslikka alohida ahamiyat beriladi.

Soʻzning tovush tarkibini toʻgʻri tasavvur etish undagi harflarni tushirib qoldirmay yoki oʻrnini almashtirmay yozish malakasini shakllantirish uchun ham, soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun savod oʻrgatishdan soʻng ham soʻzni tovush tomondan tahlil qilish mashqlari yordamida soʻzdagi tovushlar tarkibini aniqlash koʻnikmasini takomillashtirish ustida ishlab borish zarur.

Maʼlumki, nutq tovushlari ikki katta guruhga boʻlinadi: unli tovushlar va undosh tovushlar. Buni oʻquvchilarga tushuntirishda ularning quyidagi belgilari hisobga olinadi:

1) talaffuz qilinish usuli (unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi ogʻiz boʻshligʻidan erkin ravishda oʻtadi, undosh tovush talaffuz qilinganda, havo ogʻiz boʻshligʻida toʻsiqqa uchraydi);

2) ovoz va shovqinning ishtiroki (unli tovushlar faqat ovozdan iborat, undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin eshitiladi, baʼzan shovqin va qisman ovoz eshitiladi);

3) boʻgʻin hosil qilish xususiyati (unli tovushlar boʻgʻin hosil qiladi, undosh tovushlar boʻgʻin hosil qilmaydi).

Oʻquvchilar bu belgilarni yodlab olishlariga yoʻl qoʻymaslik lozim, 1-sinfdanoq bolalarda tovushni talaffuz qilganda, ovoz yoki shovqin eshitilganda nutq aʼzolarining vaziyatini kuzatish koʻnikmasini oʻstirib borish lozim. Bunday kuzatishlar 4-sinfda ham davom ettiriladi va umumlashtiriladi. Tovushlarni oʻzlashtirishga bunday yondashish, unli va undosh tovushlarni puxta oʻzlashtirishga

imkon berishi bilan birga, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini o‘stirish vazifasini ham bajaradi; xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir necha belgilarini taqqoslashga, umumlashtirishga o‘rganadilar.

O‘zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi, chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi. 1-sinf o‘quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim:

a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz;

b) harfni ko‘ramiz, o‘qiymiz va yozamiz;

v) harf – tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi.

O‘quvchilar ko‘pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yo‘l qo‘yadilar. Ularda grafik malakani shakllantirish uchun quyidagilarni o‘rgatish zarur:

1) bir undosh harf yozuvda ikki undosh tovushni ifodalashi mumkin (masalan, maktab so‘zidagi b harfi p tovushini, maktabim so‘zidagi b harfi b tovushini ifodalaydi);

2) jo‘ja, jajji so‘zlaridagi j tovushi (jarangli, portlovchi) ham, jurnal, vijdon so‘zlaridagi j tovushi (jarangli, sirg‘aluvchi) ham bitta j harfi bilan ifodalanadi;

3) tong, keng so‘zlaridagi uchinchi jarangli undosh tovush (ng) ikki harf birikmasi (ng) bilan ifodalanadi;

4) sh, ch harf birikmalari ham bir tovushni ifodalaydi (shamol, choy).

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning yozuvda ifodalanishi. O‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlar ham tovushlar talaffuzini kuzatishga asoslanib tanishtiriladi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. Kuzatishda o‘quvchilar faol qatnashishi va ularga jufti bor jarangli undosh bilan jarangsiz undoshlarni ajratish qanchalik muhim ekanini yaqqol ko‘rsatish uchun faqat bitta undosh tovush bilan farqlanadigan baqir – paqir, gul – kul, dil – til, zina – sina, joy – choy kabi so‘zlardagi tovushlarni taqqoslash maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini b-p, v-f, g-k, d-t, z-s, j-ch tovushlari biri jarangli, ikkinchisi jarangsiz undoshdan iborat tovush juftlarini hosil qilishiga qaratadi, ularning talaffuzidagi farqni amaliy tushuntiradi (jarangli undosh tovushlarda shovqin va qisman ovoz qatnashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin eshitiladi). Xattaxtaga quyidagicha yozib qo‘yiladi:

Jufti bor jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, dj, g‘

Jufti bor jarangsiz undoshlar: p, f, k, t, s, ch, sh, q.

Jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar bilan ham o‘quvchilar har xil fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi. Buning uchun o‘quvchilar so‘z oxirida yoki unli tovushdan oldin kelgan ko‘l, bilim, otam, olmos; quyon, bino; shifoner, fabrika; tong, singil; qo‘y, kiyik kabi so‘zlardagi jarangli undoshning talaffuzini taqqoslaydilar va l, m, n, r, ng, y jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda, ovoz va shovqin eshutilishini, ya‘ni jarangli undosh tovush ekanini, bularning jarangsiz jufti yo‘qligini (jufti yo‘q jarangli undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Xuddi shunga o‘xshash usulda o‘quvchilar x, h undoshlari talaffuz qilinganda, faqat shovqin eshutilishini, jarangsiz undosh tovush ekanini, jarangli jufti yo‘qligini (jufti yo‘q jarangsiz undosh tovush ekanini) bilib oladilar. Kuzatish natijasi xattaxtaga quyidagi ko‘rinishda yoziladi (yoki kartonda tayyorlangan ko‘rgazma ko‘rsatiladi):

Jufti yo‘q jarangli undoshlar: l, m, n, r, ng, y

Jufti yo‘q jarangsiz undoshlar: x, h

Bolalar jufti yo‘q jarangli undosh tovush so‘zning oxirida kelganda ham alifbodagi xuddi shu harf yozilishini, ya‘ni talaffuzi doim yozilishiga mos kelishini bilib olishlari yetarli. Jufti bor jarangli undosh tovushlar so‘z oxirida kelganda, bunday moslik bo‘lmaydi, ya‘ni ko‘pincha uning jarangsiz jufti talaffuz qilinadi (maktap, ozot kabi). Bunday so‘zlar o‘zbek tilida ko‘p bo‘lgani uchun 1-sinf danoq o‘quvchilarni ularning ayrimlari bilan tanishtirish zaruriyati tug‘iladi. Dasturga ko‘ra, 1-sinf o‘quvchilari b va d jarangli undoshi so‘z oxirida kelganda, uning jarangsiz jufti p va t talaffuz qilinishi bilan va bunday so‘zlarning yozilishini qanday tekshirish bilan tanishtiriladi. Ularning talaffuzi va yozilishini tekshirishda fonetikaga asoslaniladi. O‘quvchilar fonetik bilimlariga asoslangan holda, jufti bor jarangli undoshlarning yozilishini quyidagicha tushuntiradilar:

– Kitob so‘zi oxirida jufti bor undosh tovushni eshityapman, shuning uchun so‘zni tekshirish kerak. Shu undoshdan keyin unli tovush eshitaladigan so‘z tanlayman: kitobi. Kitobi so‘zida b tovushi eshityapti, shuning uchun kitob so‘zida b harfini

yozaman. Bunday muhokama yuritish uchun o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarni egallashlari kerak:

1. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajratish.
2. So'z oxirida kelgan jufti bor jarangli undosh tovushning jarangsiz jufti eshitilishi, shuning uchun bunday so'zlarni tekshirish kerakligini bilish.
3. Undosh tovush unli tovushdan oldin kelganda, boshqa tovush bilan almashmasligini bilish. Undosh tovushdan so'ng unli tovush kelgan so'z tekshiruvchi so'z bo'la olishini bilish.
4. Tekshiruvchi va tekshiriluvchi so'zdagi undosh harfni taqqoslash (kitobi – kitob, maqsadi – maqsad, maqsadga).

Shunday qilib, o'quvchilar qanday so'zlar tekshirishni talab qilishi va uning sababini, qanday so'zlar tekshiruvchi so'z hisoblanadi va nima uchunligini bilishlari zarur.

O'qituvchi qanday so'zlar tekshirishni talab qilishini tushuntirish uchun jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushi bo'lgan so'zlar ustida kuzatish o'tkazadi: maktabim – maktab, tuzi – tuz kabi.

O'quvchilar yozilishi talaffuzidan farq qiladigan so'zlarni va so'zdagi jarangsiz undosh tovush o'ziga mos harf bilan ifodalanishini taqqoslash bilan so'zning oxirida jufti bor undosh tovush kelsa, u so'z tekshirishni talab qilishiga ishonadilar. Tekshirishga tayangan holda, yozishga imkoniyat yaratish uchun o'quvchilar tekshiruvchi so'zni tekshiriladigan so'zdan doim oldin yozadilar: avlodi – avlod, kitobi – kitob.

Bo'g'in ustida ishlash. Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O'quvchilar so'zni bo'g'inlarga bo'lishda so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o'rgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so'zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so'zda nechta unli bo'lsa, uni shuncha qism (bo'g'in)ga bo'ladilar.

1-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida og'zaki va yozma tarzda bo'g'inlarga bo'lish, shuningdek, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, muayyan bo'g'inli so'z tanlash



mashqlari har kuni o'tkaziladi. So'zni bo'g'inlarga to'g'ri va tez bo'lish ko'nikmasini hosil qilish 1-sinfda o'tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. O'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallashda mana shu ko'nikmaga tayanadilar. O'zbek grafikasida bo'g'in tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi. O'quvchi so'zni to'g'ri yozish uchun uni avval bo'g'inlarga bo'ladi. Bo'g'inlardagi tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'sirini aniqlaydi, undosh va unli tovushlarni ifodalash uchun zarur harflardan foydalanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Tovushlar jumla tuzishda, fikrni bayon etishda qanday rol o'ynaydi?
- Yozuv va alifboning til taraqqiyotidagi o'rni haqida fikr bildiring.
- Bo'g'in ko'chirish qoidalarini sanab bering.
- Jarangli va jarangsiz tovushlar nima uchun farqlanadi?
- So'z va gaplarni shakllantirish uchun qanday vositalarga tayaniladi?

### **23. Grammatik tushunchalar va so'z yasashini o'rgatish metodikasi**

**Tayanch tushunchalar:** *grammatik tushuncha, morfemik tarkib, shakl yasovchi qo'shimcha, so'z yasovchi qo'shimcha, o'zak, gap tuzish, nutqiy vaziyat*

Boshlang'ich sinflarda morfologiyadan „ot”, „sifat”, „son”, „fe'l”, „kishilik olmoshi” tushunchalarini; siktaksisdan „gap”, „ega”, „kesim”, „ikkinchi darajali bo'lak”, „uyushiq bo'lak”, „undalma” kabi tushunchalarni; so'z yasashidan „o'zak”, „qo'shimcha”, „o'zakdosh so'zlar” kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi. O'qituvchi tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o'quvchilar aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun tushuncha nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o'zlashtirish qanday sharoitda natijaliroq bo'lishini ko'z oldiga aniq keltirishi lozim.

**Grammatik tushunchalarni o'zlashtirish.** Tushuncha atrof-muhitdagi predmet va hodisalarning muhim belgilari va o'zaro aloqadorligi aks ettirilgan

tafakkur shaklini tasvirlab ko'rsatadi. Grammatik tushunchalarda ham, boshqa tushunchalar kabi, hodisalarning muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalarining o'ziga xos xususiyati, ya'ni tushunchaning mazmun tomoni grammatik tushunchaning o'ziga xos xususiyatini keltirib chiqaradi. Til hodisalari, til kategoriyalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Biologik tushunchalarni shakllantirishda belgilarini kuzatish, bir tizimga solish va umumlashtirish mumkin bo'lgan aniq hodisalar va predmetlar material sifatida asos qilib olinadi. Grammatik tushunchalar esa so'z, so'z birikmasi, gap, morfema, leksema, fonema va boshqalarning o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos bo'lgan dastlabgi materialning o'zi yetarli darajada mavhumdir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yana umumlashtirilgani hisoblanadi. Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli o'quvchilarda tushuncha juda ko'p qiyinchilik bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur ma'lum darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Mavhum tafakkur ta'lim jarayonida vujudga keladi va maxsus mashqlarni talab qiladi. Bu mashqlar muayyan aqliy ko'nikmalarni va lingvistik tasavur hamda bilimlar yig'indisini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ko'pgina ruhshunos olimlarning tekshirishlari natijasida aniqlanishicha, tushunchani shakllantirish jarayoni tafakkurga oid analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish amallarini bilib olish jarayoni ham hisoblanadi. O'quvchilarda tushunchani shakllantirishning natijasi ularning mavhumlashtirish faoliyatining qay darajada o'sganligiga bog'liq. Mavhumlashtirishda qiynaladigan o'quvchilar so'zlarni taqqoslay olmaydilar va ularning muhim grammatik belgilariga ko'ra bir guruhga birlashtira olmaydilar, tushunchani shakllantirishda qiynaladilar va xatoga yo'l qo'yadilar. Masalan, fe'l o'rganilganda o'quvchilar fe'l predmetning harakatini bildirishini bilib oladilar. Yurmoq, o'qimoq, olmoq kabi fe'llarda leksik ma'no grammatik ma'noga mos keladi. Ko'p fe'llarda bunday moslik bo'lmaydi. Grammatikada predmet harakati deyilganda, harakat bilan birga predmetning holati, uning boshqa predmetlarga munosabati, predmet belgisining o'zgarishi kabilar ham

tushuniladi: uxlamog, o'ylamoq, sevmog, o'smog, ko'karmog va hokazo. Predmet harakatini bunday keng ma'noda, umumlashtirilgan holda tushunish endigina tilni o'rgana boshlagan o'quvchilarga qiyinlik qiladi, ular harakatni ko'proq yurish, siljish ma'nosida aniq tasavur qiladilar. Shuning uchun fe'lni o'rganishning boshlang'ich bosqichida yotmog, kasallanmog, turmog, qizarmog kabi so'zlarni predmet harakatini bildiradi deb hisoblamaydilar. Bunday hodisani o'rganishda ham uchratish mumkin. Ayrim o'quvchilar tinchlik, qahramonlik, qadam kabi so'zlarni ot turkumiga kiritmaydilar. Tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilarda mavhumlashtirish ko'nikmasini o'stirish, ular diqqatini so'zning aniq leksik ma'nosidan grammatik ma'nosiga qaratish va shu guruhdagi so'zlarga oid umumiy, grammatik belgilarni hisobga olgan holda, ularni bir guruhga birlashtirish talab etiladi. Masalan, kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladigan barcha so'zlar „ot“ turkumiga birlashadi; predmet bildirish, son (birlik va ko'plikda kelish), egalik qo'shimchalari bilan o'zgarish, kelishiklar bilan turlanish bu so'zlar uchun umumiy grammatik belgilar hisoblanadi. Tushunchani shakllantirishda xatoning oldini olish uchun ta'lim berish jarayonida qator metodik talablarga rioya qilinadi.

Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayoni. Grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy o'sishi bir-birini taqozo etishini, grammatik bilimning nutqdagi o'rnini asos qilib oladi. Grammatik tushunchalarda til hodisalarining muhim belgilari umumlashtiriladi. Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayonida o'rganiladigan muhim belgilarni ajratish maqsadida muayyan til materiali analiz qilinadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha uchun quyidagi ikki muhim belgi xarakterli: 1) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha — so'zning o'zgaradigan qismi; 2) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha sintaktik vazifani bajaradi, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarda o'qituvchi muayyan bir tushunchaning muhim belgilarini aniqlab oladi, dastur

talabiga ko'ra, shu sinf o'quvchilarini tushunchaning qanday belgilari bilan tanishtirishni, foydalanganda yaxshi natija beradigan leksik materiallarni, metodik usul va vositalarni belgilab oladi. Til materialini analiz qilish jarayonida o'rganiladigan tushunchaning muhim belgilari ajratiladi (tushuncha ustida ishlashning birinchi bosqichi), so'ng belgilar o'rtasidagi bog'lanish topiladi, bir tushunchaning xususiyati sifatida ular orasidagi o'zaro munosabati aniqlanadi, atama beriladi (tushuncha ustida ishlashning ikkinchi bosqichi). O'quvchilar o'rganilgan tushuncha mohiyatini anglashlari va bilimlarni nutq tajribasiga tatbiq etishlari uchun tushuncha ta'rifini aniq ifodalash ustida ishlanadi (tushuncha ustida ishlashning uchinchi bosqichi); to'rtinchi bosqichda o'rganilgan kategoriyani bilib olish uchun mashq qilinadi; amaliy vazifani hal qilish maqsadida (fikrni aniq ifodalash, so'zni va gapni to'g'ri yozish uchun) o'quvchilarda tushunchaga asoslanish ko'nikmasi shakllantiriladi. Shunday qilib, tilga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linadi: Birinchi bosqich — tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini tahlil qilish. Bu bosqichda ma'lum so'z va gaplarning leksik ma'nosidan kelib chiqib mavhumlashtirish amalga oshiriladi va shu til hodisasi, til kategoriyasi uchun umumiy hisoblangani ajratiladi. O'quvchilar tahlil qilish va mavhumlashtirish aqliy amalini bilib oladilar. Ikkinchi bosqich — tushunchaning belgilarini umumlashtirish, ular orasidagi bog'lanishni aniqlash (tushunchalarning ichki bog'lanishini aniqlash), atamani berish. O'quvchilar taqqoslash va tarkib amalini bilib oladilar. Uchinchi bosqich — tushuncha ta'rifini ifodalashni tushunish, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bog'lanishni aniqlash. To'rtinchi bosqich — yangi til materiali asosida o'rganilayotgan tushunchani aniqlashtirish, bilim tajribaga tatbiq etiladigan mashqlar ishlash, o'rganilayotgan tushunchaning ilgari o'zlashtirilgan tushunchalar bilan bog'lanishini aniqlash. Ko'rsatilgan bosqichlarni „fe'l“ grammatik tushunchasini shakllantirish jarayoni misolida ko'rib chiqaylik: Tushuncha ustida ishlash til materialini tahlil qilish va tushunchaning muhim belgilarini aniqlashdan boshlanadi. Ko'pgina tekshirishlar, agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida muayyan vazifani bajarish bilan dastlabgi til materialini o'zlari tuzsalar yoki tanlasalar, ularning analitik faoliyati samaradorligi

ortishini ko'rsatdi. Masalan, o'quvchilar harakatlarini kuzatish asosida gap tuzadilar. Darsda o'quvchilarni fe'ldan foydalanish va e'tibor bilan yozishga undaydigan qulay nutqiy vaziyat yaratiladi. Ekskursiya, yaqinda ko'rilgan film, shu darsda ko'rsatilgan diafilmning biror qismi, o'qilgan hikoya, rasm materialiyuzasidan gaplar tuzish ham mumkin. Gap tuzishda fikrni aniq ifodalaydigan kerakli so'z (fe'l)ni jamoa bo'lib topish imkonini beradigan vaziyat yaratish muhimdir. Masalan, mavzuni o'rganishdan oldin o'quvchilar bahorda tabiatda yuz beradigan o'zgarishlarni kuzatadilar. O'qituvchi: - Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar yuz beradi? O'quvchilar: — Kunlar isiydi. — O'tlar ko'karadi. — Daraxtlar kurtak chiqaradi. — Bodom gullaydi. — Dastlab shaftoli, o'riklar gullaydi. — Olma keyinroq gullaydi. O'quvchilar o'qituvchi tavsiya qilgan bir necha gapni izohlab yozadilar. O'qituvchi: — Narsaning harakatini ifodalash uchun siz qaysi so'zlardan foydalandingiz? Ularning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing (O'quvchilar vazifani bajaradilar). — Harakatni bildirgan so'zlarga so'roq bering va taqqoslang (O'quvchilar nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? so'roqlarini beradilar). — Endi darslikda fe'l haqida nima deyilganini o'qing. — Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar qanday ataladi, ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi? — Bodom gulladi. Olma gullaydi gaplarini gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiling (O'quvchilar eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadilar). — Gulladi, gullaydi fe'llari gapda qaysi bo'lak vazifasida kelgan? (Kesim.) — Fe'l haqida nimalarni bilib oldingiz? Rejadan foydalanib ayting (umumlashtiring): 1. Fe'l nima? (So'z) 2. Nimani bildiradi? (Shaxs va narsaning harakatini) 3. Qaysi so'roqlarga javob bo'ladi? (Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?) 4. Qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi? (Kesim) — Kitobdagi qoidada rejaning qaysilariga javob berilgan? Rejani o'qing va unga javob bering. O'quvchilar kitobdagi va qo'shimcha mashqlarni ishlaydilar. — Fe'ldan boshqa yana qanday so'z turkumlarini bilasiz? (Ot, sifat, son, kishilik olmoshi) — So'zlarni taqqoslang: gul, gulli, gulladi. So'z turkumlari (ot, sifat, fe'l) bir-biridan qanday farqlanadi? (O'quvchilar rejadan foydalanib javob beradilar). O'quvchilar mustaqil bir necha gap tuzadilar, ayrimlarini yozib, fe'llarning tagiga chizadilar. Bu dars fragmentida tushuncha bilan tanishtirish jarayonining yuqoridagi to'rt bosqichi qisqa

shaklda o'z aksini topgan. Biroq bu darsda o'quvchilar tushuncha bilan faqat tanishtirildi, uni o'zlashtirish uchun esa dasturda mavzuni o'rganishga ajratilgan barcha darslardagi mashqlar tizimini bajarish lozim. Mavzuni o'rganish jarayonida „Fe'l" tushunchasi chuqurlashadi va kengayadi, o'quvchilar fe'ining yangi belgilarini o'rganadilar (fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik, ulaming shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l zamonlari). O'quvchilarda fe'llarni shaxs-son, zamon, bo'lishsizlik qo'shimchalari bilan o'zgartirish va fikr bayon etish maqsadiga mos fe'l shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi. Tushunchani shakllantirish jarayonida so'zning leksik ma'nosi, uning gap tarkibida boshqa so'zlar bilan birga kelgandagi ma'nosi asta-sekin aniqlanib, oydinlashtirilib boriladi, og'zaki va yozma nutqda so'zni uslubiy to'g'ri ishlatish ko'nikmasi orta boradi. Buning uchun o'quvchilar so'zning ko'p ma'noliligi, o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi, sinonim va antonim so'zlar bilan elementar tanishtiriladi. O'rganilgan grammatik belgilarni amalga keng tatbiq etish va ulardan jonli nutqda aloqa maqsadida bevosita foydalanish uchun grammatik tushunchani shakllantirishda o'quvchilarda mavhumlashtirishni va so'zlar uchun xarakterli bo'lgan umumiy grammatik belgilarni sintezlashni o'stirish zarur, shuningdek, ular so'zning leksik ma'nosini chuqur bilishlariga erishish muhimdir. Bular o'quvchilarning nutqini o'stirish mohiyatini aks ettiradi, yani o'quvchilar nutqda so'zlardan amaliy foydalanishga, so'zning leksik ma'nosini tor tushunishdan chuqurroq tushunishga o'tadilar, so'zning leksik va grammatik ma'nolari bir-biriga ta'sir qilishini tushuna boshlaydilar, natijada nutqda so'zlardan ongli foydalanishga asos yaratiladi.

### **Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishning metodik shartlari**

I. O'quvchilar aqliy faoliyatini faollashtirish. Bilimni o'zlashtirishning natijasi ma'lum darajada o'qitish metodlariga bog'liqdir. Bayon metodi, asosan, o'quvchilarning eslab qolishiga mo'ljallanadi va ularning bilish faoliyatini faollashtira olmaydi, shuning uchun kutilgan natijani bermaydi. Maktab tajribasini ommalashtirish va olimlar (L.V. Zankov, Yu. N. Babanskiy, V. P. Strezikozin va boshq.)ning maxsus tekshirishlari ko'rsatishicha, izlanish metodlari (boshlang'ich sinflarda qisman izlanish metodi) ko'proq samarali hisoblanadi. Grammatik

tushunchani shakllantirishda izlanish vaziyati o'qituvchi bergan vazifa va uni jamoa bo'lib bajarish vaqtida yaratiladi. Izlanish vaziyati o'quvchilarni yangilikni bilishga qiziqtiradi va vazifani bajarish usulini mustaqil ravishda ijodiy tanlashga undaydi. Masalan, o'quvchilarni so'z yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirishda o'qituvchi xattaxtaga gul — gulchi, g'alla — g'allakor, traktor — traktorchi kabi so'zlarni ikki ustun tarzida yozadi. O'quvchilarga „Ikki ustun shaklida yozilgan so'zlarni kuzating, ma'nolaridagi farqini o'ylab ko'ring, shu so'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilayotgan qismini toping" topshirig'i beriladi. Birgalikda o'tkazilgan muhokamadan so'ng o'quvchilar quyidagicha xulosaga keladilar: — Gul so'zi o'simlikning bir turini, gulchi esa gullarni parvarish qiluvchi kishi ma'nosini bildiradi; g'alla — o'simlik, g'allakor — g'alla yetishtiruvchi kishi; traktor so'zi qishloq xo'jalik mashinasini, traktorchi esa traktorda ishlovchi kishi ma'nosini bildiradi. So'zning -chi, -kor qismi ikki so'zning ma'nosini farqlashga xizmat qiladi; -chi, -kor alohida kelganda ma'no anglatmaydi, bular qo'shimcha; so'zga qo'shilganda ishlovchi, shug'ullanuvchi kishi ma'nosini anglatyapti, ya'ni yangi ma'noli so'z hosil bo'lyapti; demak, -chi, -kor so'z yasovchi qo'shimcha. Muammoli vaziyatni orfografik mavzu bilan tanishtirish jarayonida ham yaratish mumkin. Masalan, o'qituvchi „Hayvonlarga qo'yilgan nomning bosh harf bilan yozilishi“ mavzusini tushuntirish uchun o'quvchilarga „Kim qanday uy hayvonlarini boqadi? Ularga o'zingiz nom qo'yganmisiz? Qanday nom qo'ygansiz?“ kabi savollarni beradi. O'quvchilar tartib bilan o'zlari boqayotgan hayvonlari va unga qo'ygan nomlarini aytadilar (mushuk — Mosh, kuchuk — Olapar, sigir — Targ'il, ot — Lochin kabi); o'qituvchi ikki ustun shaklida xattaxtaga yozib boradi. O'qituvchi: „Ikki ustun shaklida yozilgan so'zlarni o'qing, ularni taqqoslang. Ularning yozilishida qanday farq bor? Nima uchun? Isbotlang" topshirig'ini beradi. Bu savol-topshiriqlar xarakteri bolalarni o'ylashga, izlanishga majbur qiladi. Ular birinchi ustundagi so'zlar kichik harf bilan, ikkinchi ustundagilar esa katta (bosh) harf bilan yozilganini aytadilar, ammo nima uchun shunday yozilganini isbotlashga ularning bilimlari yetishmaydi. Shunday qilib, muammoli vaziyat yaratiladi. O'quvchilar yangi materialni o'rganish zarurligini sezadilar. Bu metodda eng muhim jihat muammoli vaziyat yaratish, til hodisalarini

tahlil qilish, o‘zaro taqqoslash omillarini bajarish bilan bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Suhbat-muhokama jarayonida muammoni o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarning o‘zlari hal qilishlari yoki o‘qituvchi tomonidan hal qilinishi ham mumkin. Muhokamaning borishi bilimlar asosida topshiriqlarni faol bajarishni, faol aqliy faoliyatni talab qiladi.

II. O‘quvchilarda so‘z va gapga lingvistik munosabatni o‘stirish ustida maqsadga yo‘naltirilgan ishlar. O‘quvchilarda so‘z va gapga lingvistik munosabat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, mavhum tafakkurni o‘stirish jarayonida shakllantiriladi va tilning semantik hamda grammatik tomonining bir-biriga ta‘sirini anglashni bildiradi. O‘quvchilar tilni ularda til birliklariga, xususan, ularning asosiylari bo‘lgan so‘z, morfema, so‘z birikmasi, gapga lingvistik munosabatni parallel shakllantirish bilan birga ongli o‘zlashtiradilar. So‘zga lingvistik munosabat so‘zni tovush-harf tomonidan tahlil qilib, uning tovush va grafik tomoni o‘rtasidagi bog‘lanishini aniqlash, so‘zni morfemik tahlil qilish va so‘zga leksik ma‘no berishda morfemaning o‘rnini tushunish; so‘zni grammatik tahlil qilish va shu so‘zning muayyan so‘z turkumiga oid ekani bilan uning grammatik belgilari o‘zaro bog‘liqligini tushunish ko‘nikmasining shakllanishiga qarab o‘sinib boradi. Lingvistik munosabat o‘quvchilarda asta-sekin shakllantirib boriladi, ularda bilish, tushunib olish saviyasi ham har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, 2-sinf o‘quvchilari gapdagi so‘z birikmalarini topadilar, ammo u so‘z birikmasidagi so‘zlar o‘zaro qanday, ya‘ni nimalar yordamida bog‘langanini tushuntira olmaydilar. 4-sinf o‘quvchilari gapdagi so‘z birikmasini topadilar va so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlar o‘zaro so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar (kelishik, shaxs-son qo‘shimchalari) yoki ohang yordamida bog‘langanini tushuntiradilar, ya‘ni bog‘lanish grammatik vositalar bilan ifodalanishini ko‘rsatadilar. Bu so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning bog‘lanish mohiyatini elementar darajada tushunish bo‘lib, uni yuqori sinflarda chuqurroq (so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning bog‘lanish turlari, bosh va ergash so‘zning xususiyatlarini) tushunadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarda so‘zga, so‘z birikmasi va gapga lingvistik munosabatni ta‘lim jarayonida maqsadga muvofiq o‘stirib boradi, xususan, o‘rganiladigan kategoriyani o‘quvchi tushunib olishiga g‘amxo‘rlik qiladi.



III. Yangi tushunchani ilgari o'rganilgan tushunchalar tizimiga kiritish tushunchani o'zlashtirish, bilimni nutq tajribasiga tatbiq etishning muhim sharti hisoblanadi. Tushunchalar orasida bog'lanishni vujudga keltirish, amalga oshirish o'quvchilarning o'zbek tilidan egallaydigan bilimlar tizimiga hamda tildan ongli foydalanishiga poydevor bo'ladi. Tushunchalar orasidagi bog'lanishni bilib olish amaliy (grammatik, orfografik, nutqiy) vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni ko'proq tatbiq etishga imkon beradi. Tushunchalar orasidagi bog'lanishni aniqlamay, ularni bilimlar tizimiga kiritmay turib, o'quvchilar tilni ongli o'zlashtira olmaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan asosiy bog'lanish yo'llari quyidagilar:

1. So'zga beriladigan morfologik so'roqlar va ularning grammatik belgilari (kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsani bildiradi, birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi; qanday?, qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning belgisini bildiradi, o'zgarmaydi; necha?, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning soni va tartibini bildiradi, asosan, o'zgarmaydi; nima qildi? nima qilyapti?, nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z predmet harakatini bildiradi bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda qo'llanadi, shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi, o'tgan, hozirgi va kelasi zamondan birini ko'rsatadi).

2. So'z turkumi — gap bo'lagi bo'ladi (ot gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak, sifat — ikkinchi darajali bo'lak, son — asosan, ikkinchi darajali bo'lak, fe'l — kesim vazifasida keladi).

3. Bosh kelishikdagi ot — ega, boshqa kelishiklardagi otlar — ikkinchi darajali bo'lak bo'ladi.

4. Kishilik olmoshlari fe'llarda shaxsni ifodalaydi (agar fe'l men yoki biz olmoshlari bilan qo'llansa, I shaxs, sen yoki siz olmoshlari bilan qo'llansa, II shaxs ifodalanadi).

5. Umumiy o'zak va o'zakdosh so'zlarning ma'nosidagi umumiylik (o'zakning umumiyligi, o'zakdosh so'zlarning ma'nosidagi o'xshashlikka sabab bo'ladi).

6. So'zning leksik ma'nosi va uning morfemik tarkibi (so'zning morfemik tarkibi o'zgarsa, ko'proq uning leksik ma'nosi o'zgaradi: gul — gulchi, guldon, gulla kabi).

IV. Ayrim til kategoriyalari bog‘lanishining mohiyati yangi til kategoriyasini o‘rganish jarayonida ochiladi, shuningdek, bir yoki bir necha til kategoriyasi o‘rganilgandan keyin oydinlashadi. Masalan, so‘zning leksik ma‘nosi va uning morfemik tarkibi so‘zning ma‘noli qismlarini o‘rganish jarayonida biryo‘la muhokama qilinadi, chunki u yoki bu morfemaning rolini boshqacha yo‘l bilan tushuntirib bo‘lmaydi; o‘qituvchi so‘z tarkibini o‘zgartiradi va shu bilan bog‘liq holda so‘z ma‘nosining o‘zgarishini ko‘rsatadi, bu o‘zgarish so‘zning qaysi qismi (so‘z yasovchi qo‘shimcha) hisobiga hosil bo‘lganini tushuntiradi: ishchi — ishla — ishchan; paxtakor — paxtazor. Fe’llarning shaxs-sonda tuslanishi kishilik olmoshlari o‘rganilgandan so‘ng, fe’lda shaxs kishilik olmoshlarining uch shaxsni ko‘rsatishi bilan bog‘lab o‘rganiladi. Maktabda grammatik materialni o‘rganish amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgani va, birinchi navbatda, o‘quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qilgani uchun, bir til kategoriyasining boshqasiga tobeligini va bir-birini taqozo qilishini tushunish bilan birga, o‘quvchilarning bu haqdagi bilimlaridan amaliy vazifalarni hal qilishda, ya’ni so‘zlarni yozish, gap tuzish, so‘zni tahlil qilishda foydalanishga o‘rgatish ham muhimdir. O‘qituvchi tilni o‘rgatish vazifalarini hisobga olib, doimo o‘quvchilarning nutqiy tajribasiga suyanadi va til kategoriyalarining bog‘liqligi haqidagi bilimlarni tajribaga tatbiq etish jarayoniga yo‘naltiradi. Bilim komponentlari o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash bilimni tajribaga, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqiga tatbiq etish imkonini beradi. Ona tilini o‘rganish jarayonida bilimlarning izchilligi qanday ta‘minlanadi? Avvalo, maktab dasturi lingvistik materialni o‘rganishda yangi o‘rganiladigan materialning ilgari o‘rganilganlar bilan ilmiy asoslangan bog‘lanishini aniqlashga imkon beradigan izchillikni ko‘zda tutadi. O‘qituvchi bu bog‘lanishning mohiyatini metodik jihatdan ko‘z oldiga aniq keltirishi zarur. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan til hodisalarini ketma-ket va parallel o‘rganish mumkin. Bularning qaysi biridan foydalanish ma‘qulroq degan masala ko‘proq materialning lingvistik mohiyatidan kelib chiqib hal qilinadi. Masalan, kishilik olmoshlari fe’ldan oldin o‘rganiladi, bu fe’ining shaxs-sonda tuslanishini kishilik olmoshlariga bog‘lab o‘rganish imkonini beradi. O‘qituvchi yangi o‘rganiladigan materialni ilgari o‘rganilganlar bilan bog‘laydi. Buning uchun

til tushunchalarini taqqoslaydi va bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarni o'rganishda ular so'z yasovchi qo'shimchalar bilan taqqoslanadi (so'z yasovchi qo'shimcha yangi so'z hosil qilish uchun xizmat qilsa, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha so'zning shaklini o'zgartirish uchun, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi aniqlanadi).

V. Tushunchani ko'rgazmali o'rganish. Tushunchani shakllantirishning turli bosqichida ko'rgazmalilikdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tushuncha belgilari bilan tanishtirishning boshlang'ich bosqichida ko'rgazmalilikdan o'rganiladigan hodisani belgilarini nutqda aniq ko'rsatish maqsadida foydalaniladi. Til tushunchalarini shakllantirishda foydalaniladigan ko'rgazmali vositalarning o'ziga xos xususiyati o'rganiladigan obyekt hisoblangan so'z, so'z birikmasi, gap, gap bo'lagi va boshqalarga mos bo'ladi. Shunday ekan, ko'rgazmali vositalarga jadval, chizma, biror predmet, uning rasmi bilan bir qatorda til materialning o'zi ham kiradi. Tanlangan matnlar, alohida so'z va gaplarda o'rganilayotgan hodisa aniq va lo'nda berilgan, nutqiy vazifasi va grammatik xususiyati ravshan ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu ichki ko'rgazmalilik o'quvchilarga tushuncha belgilarini mavhumlashtirish, o'rganilayotgan hodisani biror tomondan o'xshashi bo'lgan boshqa hodisalar orasidan topish imkonini beradi. Masalan, o'zakdosh so'zlarni o'rganishda tarkibida bir necha o'zakdosh so'z bo'lgan matndan foydalanish maqsadga muvofiq: 1. Maktabimiz hovlisida katta gulzor bor. Unga har xil gul ekilgan. Gullarni gulchi o'quvchilar parvarish qiladilar. 2. Rahimning otasi zavodda ishlaydi. U ilg'or ishchi. Rahimning o'zi - ishchan bola. Bu ikki matnda uchtdan o'zakdosh so'z bo'lib, ularning ikki muhim belgisi (bir xil umumiy qismga egaligi va ma'nolaridagi o'xshashlik)ni hisobga olgan holda, o'zakdosh so'zlar yuzasidan umumlashtirish imkoni tug'iladi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zakdosh so'zni shu so'zlarning bir shakli bo'lgan so'z (gullarni) bilan taqqoslab, o'zakdosh so'zlar bilan so'z shakli o'rtasidagi farq haqida elementar tushunchaga ega bo'ladilar. Tushunchaning mohiyatini ochishga qaratilgan vazifalarning o'zi o'quvchilarni ularni bajarishga undashi, majbur etishi lozim. Bu bilan tushuncha ko'rgazmaliligi ta'minlanadi. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari tushunchasining mohiyatini

ochishda ikki-uch gapdan bitta gap tuzish vazifasini berish maqsadga muvofiq. Masalan, Bahorda biz qaldirg'ochlarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz maynalarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz. ~ Bahorda biz qaldirg'ochlarni, maynalarni, chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz. Gaplar gap bo'laklari jihatidan tahlil qilinadi; o'quvchilar uchala gapda takrorlangan so'zlarni aytadilar; bunday hollarda kishilar uch gap o'rniga bitta gapdan foydalanishlarini tushunadilar. Shunday qilib, ular uch gapdan bitta gap tuzadilar, uni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiladilar, chizmasini tuzadilar. Bu vazifalarni bajarish bilan o'quvchilar ko'rgazmali xulosa chiqaradilar: bir kesimga bir necha ikkinchi darajali bo'lak bog'lanishi va ular bir xil so'roqqa (nimalarni?) javob bo'lishi mumkin; bir bo'lakka qarashli va bir xil so'roqqa javob bo'lgan bunday so'zlar gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda foydalanilgan k'rgazmalilik o'rganilayotgan til hodisalarining belgilarini ajratishga qaratilgan, ya'ni ko'rgazmalilikdan tushunchani ta'riflashdan oldin foydalanilgan. Darsda foydalanish uchun ko'rgazma material tanlashda o'qituvchi qo'yilgan maqsadga ko'ra o'quvchilar nimani bilib olishlarini aniq ko'z oldiga keltirishi kerak. Bir ko'rgazma materialdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, predmet yoki uning rasmidan so'zning leksik ma'nosini tushuntirishda ham, grammatik tushunchani shakllantirishda ham foydalanish mumkin. O'quvchilarni sifatning nutqdagi ahamiyati bilan tanishtirish uchun o'qituvchi berilgan predmetni tasvirlash, uning belgilarini aytish vazifasini topshiradi. O'quvchilar har qanday predmetni tasvirlash uchun o'z nutqlarida sifatlardan foydalanadilar. Bu — tabiiy. O'qituvchi „Predmetni tasvirlashda siz qaysi so'zlardan foydalandingiz? Nima maqsadda?“ kabi savollar berib, bolalar diqqatini o'rganiladigan grammatik tushunchaning (bu o'rinda sifatning) belgilariga qaratadi. O'quvchilar predmetni tasvirlash uchun qaysi sifatlardan bir predmetni boshqasidan ajratish maqsadida foydalanganliklarini aytadilar. Bu misolda ko'rgazmali material nutqda grammatik tushuncha (sifat)ning rolini kuzatish maqsadida foydalaniladi va o'quvchilar aniq materialdan umumlashtirishga o'tadilar. Tushunchani shakllantirish uchun jadval va chizmalardan keng foydalaniladi. Bu ko'rgazmalardan ko'proq tushuncha belgilari ajratilgandan

soʻng mavhumlashgan belgilarni umumlashtirish, ular oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlash maqsadida foydalaniladi. Shunday qilib, grammatik tushunchani oʻzlashtirishga yordam beradigan asosiy metodik shartlar oʻquvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olish uchun qiziqtirish, oʻquvchilarning nutqiy tajribasiga tayanish, bilimlarning tizimliliigi, oʻquvchilarda til birliklariga lingvistik munosabatni shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash hisoblanadi.

**Grammatik va soʻz yasalishiga oid mashqlar.** Maktabda tildan nazariy bilimni oʻrganishdan maqsad fikrni ogʻzaki va yozma tarzda grammatik toʻgʻri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qoʻllashni esa maqsadga muvofiq va muntazam oʻrgatib borish talab etiladi. Mashqlar tizimi tushunchani oʻzlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va oʻquvchilar mustaqilligi oʻsib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni koʻzda tutadi. Bu tizim mashqlarning oʻzaro bogʻlanishiga asoslangan. Grammatik mashqlar turli asosga koʻra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turi hosil boʻladi. Agar bilimni shakllantirish xarakteriga asoslanilsa, grammatik mashqlar ikki katta guruhga boʻlinadi: 1) morfologik mashqlar (bunga leksik-morfologik mashqlar ham kiradi); 2) sintaktik mashqlar. Agar oʻquvchilar faoliyatining xarakteri, yaʼni mashq jarayonida oʻquvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa, mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga, guruhlashga, umumlashtirishga oid mashqlarga boʻlinadi. Mashqning oʻziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan soʻzlardan gap tuzishni va gap boʻlaklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga koʻra sintaktik mashq, faoliyat xarakteriga koʻra sintetik-analitik mashq hisoblanadi. Boshlangʻich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam qoʻllaniladi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qoʻyish, qaysi kelishik ekanini koʻrsatish talab etilsa, bu leksik-morfologik mashqdir. Oʻquvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlashi uchun u bogʻlangan soʻz (feʼl yoki ot)ni aniqlashi (soʻz birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga koʻra bu mashq

sintaktik mashq hisoblanadi. Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil soʻz turkumiga koʻra (morfologik) tahlilni, gap boʻlaklariga koʻra (sintaktik) tahlilni oʻz ichiga oladi. Gap boʻlaklariga koʻra tahlil oʻquvchilar oʻzlashtirgan sintaktik bilimlarning meʼyoriga qarab chuqurlashib boradi. Amaldagi dasturga koʻra, 1 -sinf oʻquvchilari „ega” va „kesim” atamalaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapning bosh boʻlaklarini amaliy ravishda topish koʻnikmasiga ega boʻladilar, yaʼni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan soʻz (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan soʻz(kesim)ni topadilar. Masalan, Bolalar olmalarni terdilar gapini tahlil qilishda oʻquvchilar quyidagicha fikr yuritadilar: „Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar? — bolalar (soʻzning tagiga bitta toʻgʻri chiziq chizadilar). Bolalar— nima qildilar? — terdilar (soʻzning tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizadilar). Bolalar terdilar — gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) — olmalarni. 2-sinfda 1-sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chu- qurlashtiriladi. Masalan, 2-sinf oʻquvchisi „Chiroyli gullar bogʻni bezadi“ gapini quyidagicha tahlil qiladi: „Gap gullar haqida aytilgan. Nimalar? — gullar — ega (tagiga bir chiziq chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? Ochildi — nima qildi? — kesim (tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizadi). Qayerlarni? (bezadi) — adirlarni — ikkinchi darajali boʻlak, gapni toʻldirayapti (tagiga uzuq chiziq chizadi). Qanday? (gullar) — chiroyli (gullar) ikkinchi darajali boʻlak, egani izohlayapti. Gullar bezadi — gapning asosi. Chiroyli gullar va adirlarni bezadi - soʻz birikmasi 3—4-sinflarda sintaktik tahlil sifat jihatidan oʻzgarmaydi, ammo soʻz birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi. Morfologik tahlilning mohiyati soʻzning qaysi soʻz turkumi ekani, gapda qanday grammatik shaklda kelganida ifodalanadi. Toʻliq morfologik tahlilda oʻquvchi soʻz turkumining oʻzi oʻrgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf oʻquvchisi shu soʻz qanday savolga javob boʻlishini va nimani bildirishini aytadi (shaxs yoki narsa, narsa belgisi, harakati). 3-sinfda soʻz turkumlari oʻtilgach, morfologik tahlil quyidagi tartibda oʻtkaziladi: Ot: 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Birlik yoki koʻplikda ekanligi. Sifat: 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Qaysi ot bilan bogʻlanganligi. Feʼl: 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Boʻlishli yoki boʻlishsiz ekanligi. Oʻzaki tahlil namunasi: Mevali daraxtlar gulladi. Mevali — sifat, qanday? — mevali; daraxtlar oti bilan bogʻlangan:

mevali daraxtlar; daraxtlar — ot, nimalar? — daraxtlar, ko‘plikda; gulladi — fe‘l, nima qildi? — gulladi, bo‘lishli. 4-sinfda o‘rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil biroz to‘ldiriladi va quyidagi tartibda o‘tkaziladi: Ot: 1. So‘z turkumi. 2. Bosh kelishik shakli. 3. Birlik yoki ko‘plikda ekanligi. 4. Egalik qo‘shimchasi, shaxs-soni. 5. Kelishigi. Sifat: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Qaysi ot bilan bog‘langanligi. Son: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Qaysi ot bilan bog‘langanligi. Olmosh: Kishilik olmoshi: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Shaxs-soni. 4. Kelishigi. Fe‘l: 1. So‘z turkumi. 2. So‘rog‘i. 3. Bo‘lishli yoki bo‘lishsiz ekanligi. 4. Shaxs-soni. 5. Zamoni. O‘quvchilar tahlil tartibini bilib olishlari uchun o‘qituvchi bu tartibga rioya qilib so‘zga xarakteristika berishning qulayligini tushuntiradi. So‘z turkumiga ko‘ra tahlil og‘zaki va yozma tarzda o‘tkaziladi: uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. To‘liq bo‘lmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi. Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o‘zbek tilida so‘z qanday ma‘noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil 3-sinfdan boshlanadi. Bu sinfda o‘quvchilarga o‘zakdosh so‘zlar, o‘zak o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi ekani, so‘z yasovchi qo‘shimchalar va so‘z o‘zgartuvchi (shakl yasovchi) qo‘shimchalar haqida elementar ma‘lumot beriladi. So‘z tarkibiga ko‘ra tahlil quyidagicha o‘tkazilishi mumkin: 1. So‘zga so‘roq berish va u nimani anglatishini bilish. 2. O‘zakni aniqlash. Buning uchun so‘zga o‘zakdosh so‘zlar tanlash. O‘zakdosh so‘zlarni taqqoslash va umumiy qismi (o‘zak)ni aniqlash. 3. So‘z yasovchi qo‘shimchani aniqlash. Bu yangi so‘z yasash uchun xizmat qilishini aytish. 4. So‘z o‘zgartuvchi (shakl yasovchi) qo‘shimchani aniqlash. Bu so‘zni boshqa so‘z bilan bog‘lash uchun xizmat qilishini aytish. 3-sinfda „So‘zning tarkibi“ mavzusi to‘liq o‘rganilgach, gulzor so‘zini so‘z tarkibiga ko‘ra og‘zaki tahlil qilish tartibi quyidagicha bo‘lishi mumkin: 1. Qaysi so‘z turkumi ekanini bilaman. Gulzor so‘zi nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, narsani bildiradi, bu — ot. 2. O‘zakni aniqlayman. Buning uchun o‘zakdosh so‘zlar tanlayman: gulzor, gulli, gulsiz, gulla. Ularni solishtirib, umumiy qismini topaman — gul. Bu — o‘zak. 3. So‘z yasovchi

qo'shimchani aniqlayman, gulzor so'zi gul so'ziga -zor so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. 4. Bu so'zda so'z o'zgartuvchi qo'shimcha yo'q. So'z tarkibiga ko'ra tahlildan so'ng shunday ko'rinish hosil bo'ladi: gulzor. 4-sinfda paxtakorga so'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil qilish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin: 1. Paxtakorga — ot. 2. O'zakni aniqlayman. Buning uchun o'zakdosh so'zlar tanlayman: paxtakor, paxtazor. Solishtiraman. Umumiy qism - paxta. Bu — o'zak. 3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlayman: paxtakor so'zi paxta so'ziga -kor so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. 4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchalarni aniqlayman: -ga — so'z o'zgartuvchi qo'shimcha, kelishik qo'shimchasi. 4-sinfda ishladim so'zini so'z tarkibiga ko'ra og'zaki tahlil tartibi: 1. Ishladim — fe'l. 2. O'zakni aniqlayman. O'zakdosh so'zlar tanlayman: ishla, ishli, ishsiz, ishchan. Solishtiraman. Umumiy qism — ish. Ish — o'zak. 3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlayman: ishla fe'li ish so'ziga -la qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. -la — fe'l yasovchi qo'shimcha. 4. So'z o'zgartuvchi (shakl yasovchi) qo'shimchani aniqlayman: -di — o'tgan zamon qo'shimchasi, -m — shaxs-son qo'shimchasi, I shaxs, birlik: ishladim. So'z tarkibiga ko'ra tahlildan mustaqil mashq sifatida foydalanish ham mumkin. So'zni morfologik tahlil qilish uning lug'aviy ma'nosini tushunishda, morfemalarni to'g'ri yozishda o'quvchilarga yordam beradigan muhim vositadir. Boshlang'ich sinflarda grammatik va morfemik tahlil bilan birga, so'zni tovush-harf tomonidan tahlil qilishdan ham foydalaniladi. Bu tahlilning vazifasi so'zda tovushlarning tartibini, ularning xarakterli xususiyatlarini, tovushlar va harflar o'rtasidagi munosabatni aniqlash hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda tovush-harf tomonidan tahlil tartibi quyidagicha: 1. So'zda nechta bo'g'in bor? 2. So'zda nechta tovush va nechta harf bor? (Tovushlar soni harflar sonidan kam yoki ko'p bo'lsa, sababini aytish) 3. Unli tovush nechta? Undosh tovush-chi? 4. Har bir tovushni xarakterlash. Tovush so'zda qaysi harf bilan ifodalangan? Masalan, kitob so'zi quyidagicha tahlil qilinadi: 1. So'zda ikki bo'g'in bor: ki-tob. 2. So'zda beshta tovush, beshta harf bor. 3. So'zda ikki unli tovush, uch undosh tovush bor. 4. k — undosh, jarangsiz, k harfi bilan ifodalangan i — unli tovush, i harfi bilan ifodalangan t — undosh tovush, jarangsiz, yozuvda t harfi bilan



ifodalangan o — unli tovush, o harfi bilan ifodalangan. b — undosh tovush, jarangli, b harfi bilan ifodalangan Tovush-harf tomonidan to‘liq bo‘lmagan tahlildan so‘zning yozilishini tushuntirishda ham, orfoepik to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatish maqsadida ham foydalaniladi. Masalan, maktab so‘zi oxirida b undoshi p tarzida talaffuz qilinadi, jufti bor undosh, tekshiramiz: maktabim — maktab, b harfi yoziladi.

### **Boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish metodikasi**

So‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi ustida ishlashning ahamiyati va bu jarayondagi vazifalar. So‘zning leksik ma‘nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o‘zining nazariy asosiga ega. Morfema — so‘zning eng kichik, bo‘linmaydigan ma‘noli qismi. Morfema ikki turga bo‘linadi: 1. Ovzak morfema — so‘zda albatta qatnashadigan va leksik ma‘no anglatadigan morfema. 2. Affiksial morfema - mustaqil holda leksik ma‘no anglatmay, so‘zning leksik va grammatik ma‘nolari shakllanishi uchun xizmat qiladigan morfema. Masalan, gullami, gulla so‘zlaridagi gul — o‘zak morfema, -lar, -ni, -la affiksial morfemadir. Affikslar (qo‘shimchalar) ikki turga bo‘linadi: 1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar. Ular so‘zning leksik ma‘nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, bog‘bon, paxtakor, gulzor, ishchi so‘zlaridagi -bon, -kor, -zor, -chi so‘z yasovchi affikslardir. 2. Shakl yasovchi qo‘shimchalar. Bu qo‘shimchalar so‘zlarni grammatik jihatdan shakllantirib, turli grammatik ma‘nolarni ifodalaydi. Masalan, maktablarimizni so‘zida -lar, -imiz, -ni shakl yasovchi qo‘shimchalar bo‘lib, -lar ko‘plik ma‘nosini, -imiz egalikning I shaxs ko‘plik ma‘nosini, -ni tushum kelishigi ma‘nosini ifodalaydi. Morfemalarning qo‘shilishi bir-biriga ta‘sir qiladi, bundan tashqari, ko‘pgina o‘zak va so‘z yasovchi qo‘shimchalar ko‘p ma‘noli. Shunga qaramay, ko‘p so‘zlarning leksik ma‘nosini uning morfemik tarkibiga qarab aniqlash qiyin, bu maqsadda so‘zni morfemalarga ajratishdan foydalanishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilar so‘zning morfemik tarkibini va so‘z yasalishini o‘rganishlariga qarab, so‘zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar. Ular yasama so‘zlarning leksik ma‘nosini so‘zlarning semantik o‘xshashligiga qarab bilib oladilar. So‘zlarning morfemik tarkibi ustida ishlashning ahamiyati va shunga mos ravishda o‘qituvchining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Soʻzning morfemik tarkibi ustida ishlash bilan oʻquvchilar soʻzning leksik maʼnosini aniqlashning asosiy usullaridan birini bilib oladilar. Bunda oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilar soʻzlarning leksik maʼnosi va morfemik tarkibi bir-biriga bogʻliqligini bilib olishi uchun eng qulay sharoit yaratish, shu asosda ularning lugʻatiga aniqlik kiritishga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish hisoblanadi.
2. Soʻz yasalishi haqidagi elementar bilim ham oʻquvchilarning tilimizning yangi soʻzlar bilan boyishining asosiy manbasini tushunishlari uchun muhimdir. Yangi soʻz tilda mavjud boʻlgan morfemalardan, maʼlum usul va modellar asosida vujudga keladi (yasaladi). Soʻz yasalishini kuzatish oʻquvchilarda soʻzga faol munosabatni shakllantirishga ijobiy taʼsir etadi, tilning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga olib keladi.
3. Soʻz yasalishi asoslari bilan tanishish oʻquvchilar lugʻatini atrof-muhit haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. Predmet, jarayon, voqea-hodisalar haqidagi tushunchalar soʻz bilan ifodalanadi. Soʻzlar oʻrtasidagi maʼno va tuzilish jihatidan bogʻlanishni belgilash oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar oʻrtasidagi bogʻlanishga tayanadi (masalan, traktor va traktorchi soʻzlari oʻzaro munosabatda boʻlgan tushunchalar, shu tufayli maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlangan). Oʻquvchilar soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʻra oʻzaro munosabatini haqiqatan bilsalar, atrof-muhitda mavjud boʻlgan predmetlar, jarayonlar, voqealar oʻrtasidagi bogʻlanishni chuqur tasavvur etadilar, biladilar.
4. Soʻzda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qoʻshimchalarning semantik maʼnosini bilish oʻquvchilarda nutqning aniq shakllanishiga taʼsir etadi. Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilarning soʻzning leksik maʼnosini tushunibgina qolmay, kontekstda aniq qoʻshimchali soʻzlardan ongli foydalanishlarini ham oʻrgatish hisoblanadi.
5. Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish imloviy malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Fonetik tamoyil yangi oʻzbek imlosining yetakchi tamoyili boʻlib, bunga binoan soʻzlar va ularning tarkibiy qismi (oʻzak va qoʻshimchalar) koʻproq talaffuziga muvofiq yoziladi. Oʻzak va qoʻshimchalami toʻgʻri yozish malakasini nazariy asosda shakllantirish fonetik, soʻz yasalishiga oid grammatik

bilimlarni maqsadga muvofiq tatbiq etishni talab qiladi. Shuning uchun soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning muhim vazifalaridan biri oʻzak va qoʻshimchalarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalar asosini yaratish hisoblanadi.

6. Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish oʻquvchilarning aqliy qobiliyatini oʻstirishda, xususan, til birligi sifatida soʻzni ongli bilib olish uchun zarur boʻlgan maxsus aqliy koʻnikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli. Oʻqituvchining vazifasi taʼlim jarayonida bilimni oʻzlashtirish bilan oʻquvchilarda aqliy faoliyatni oʻstiradigan, analiz, taqqoslash koʻnikmalarini shakllantiradigan sharoit yaratish hisoblanadi.

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida soʻz tarkibi va yasashini oʻrganish metodikasi. Boshlangʻich sinflar ona tili dasturiga muvofiq soʻzning morfemik tarkibi 3-sinfda oʻrganiladi. 4-sinfda soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish koʻzda tutiladi. Avvalo, til materialini oʻrganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur. Til materialini oʻrganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va oʻzaro bogʻlanishdagi bilimlar yigʻindisini oʻzlashtirishni taʼminlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy koʻnikmalarni shakllantirish tushuniladi. Soʻzning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim soʻz yasashiga oid va grammatik bilimlarni oʻzlashtirish: a) dastur materialini oʻrganish tizimida soʻzning morfemik tarkibini oʻrganishning oʻrni bilan; 2) „oʻzak”, „oʻzakdosh soʻz”, „soʻz yasovchi qoʻshimcha”, „shakl yasovchi qoʻshimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan; 3) soʻzning morfemik tarkibi va soʻz yasashining oʻzaro bir-biriga taʼsir qilishi bilan; 4) morfemalarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bogʻliqligini belgilab beradi. Soʻz tarkibi toʻrt bosqichda oʻrganiladi: Birinchi bosqich – soʻz yasashini oʻrganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi — oʻquvchilarni bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼno va tuzilishiga koʻra bogʻlanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qoʻyilishiga sabab, birinchidan, soʻzning maʼno va tuzilishi jihatidan bogʻlanishini tushunish, oʻzining lingvistik mohiyatiga koʻra, bir xil oʻzakli soʻzlarni va soʻz yasashini oʻzlashtirishga asos hisoblanadi.

Haqiqatan ham, yasalgan va yasashga asos bo'lgan so'zlar bir-biri bilan ma'no va tuzilishi jihatidan bog'lanadi: ish ~ ishchi, g'alla — g'allakor. Ikkinchidan, o'quvchilar bir xil o'zakli so'zlarni va morfemalarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ular bir xil o'zakli so'zlarning ma'nolaridagi umumiylikni tushunishda qiynaladilar, chunki ularda mavhum tafakkur hali yetarli rivojlanmagan bo'ladi; o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning vazifalarini o'zlashtirishda ularga bir xil o'zakli so'zlarning ma'no va tuzilishi jihatidan o'xshashligi va farqini aniqlash anchagina qiyinlik qiladi. Shuning uchun so'zning morfemik tarkibini maxsus o'rganishdan oldin uning ma'no va tarkibiga ko'ra yaqinligi kuzatiladi. 1-sinfda kuzatish o'rganiladigan materialning mazmuni va ayrim so'zlarning ma'nosini, yozilishini tushuntirish bilan uzviy bog'lanadi. 1-sinfda kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning „Nima uchun u yoki bu narsa shunday nomlangan?“ savoliga birgalikda javob topishi ularni bir xil o'zakli so'zlar o'rtasidagi munosabatni tushunishga tayyor- lashda anchagina mos va qiziqarli usul hisoblanadi. Bu savolga javob topish bilan o'quvchilar „Nega so'zlar o'zakdosh hisoblanadi?“, „Bir so'zdan boshqa so'z qanday hosil bo'ldi?“ savollariga javob berishga tayyorlanadilar. Tilda juda ko'p so'zlar shaxs va narsaning nomi hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilar bilan nega shaxs yoki narsa shunday nomlanganini aniqlashdan asta-sekin tildagi bir so'z bilan ikkinchi so'z o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga o'tish mumkin. Masalan, „Nega kishilar paxta ko'p ekilgan joyni paxtazor (paxta — paxtazor), daraxt ko'p ekilgan joyni daraxtzor (daraxt — daraxtzor) deb nomlashgan?“, „Nega kishilar bir uyni g'ishtli (g'isht — g'ishtli), boshqasini sinchli deyishadi?“ O'quvchilar predmet yoki predmet belgisining nomlanish sababini aniqlashdan so'zlarning ma'nosi va tarkibidagi umumiylikni topishga o'rganadilar. Bularning hammasi o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlarning yasalishi mohiyatini tushunishga tayyorlaydi; ular bir so'z boshqa so'zdan o'zaro ma'no jihatdan bog'lanishi asosida yasalishini, o'z navbatida, shu so'z bilan nomlangan tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishga asoslanishini tushuna boshlaydilar. O'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismini bilib olgan sari ularda so'z yasalishi haqidagi tasavvur chuqurlasha boradi.

Keyingi bosqich — bir xil o‘zakli so‘zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o‘quv vazifasi — so‘zlarning ma’noli qismlari sifatida o‘zak, so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar bilan tanishtirish, „o‘zakdosh so‘zlar“ tushunchasini shakllantirish, bir xil o‘zakli so‘zlarda o‘zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi. „O‘zakdosh so‘zlar“ tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya’ni mazmuniy umumiylikni (ma’nosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga ko‘ra umumiylikni (umumiy o‘zak mavjudligini) o‘zlashtirish bilan bog‘lanadi. Shuning uchun bu belgilarni o‘quvchilar o‘zlashtirishiga ta’lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Bu o‘quvchilarda bir xil o‘zakli so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari bilan morfemik tarkibi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilar gul, gulzor, gulli (ko‘ylak), gulladi so‘zlarini taqqoslaydilar, bu to‘rt so‘z ma’nosiga ko‘ra o‘xshashligini va bir xil umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun bularni bitta o‘zakdosh so‘zlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlaydilar. Bir xil o‘zakli so‘zlarning ma’nolaridagi umumiylik o‘zakning umumiyliigi tufayli vujudga keladi, ularni bir guruhga birlashtiradi; qo‘shimchalar esa so‘zning ma’nosiga o‘ziga xos ma’no qo‘shadi; ularni bir-biridan farqlaydi. Bir xil o‘zakli so‘zlar ustida bunday ishlash usuli o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ular diqqatini so‘zning umumiylikka asoslangan aniq belgilariga jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o‘qituvchi kombayn rasmini ko‘rsatadi va „Kombaynni boshqaradigan kishi nima deb nomlanadi?“ savolini beradi. Javob xattaxtaga yoziladi: kombayn — kombaynchi. Tushunchalarni taqqoslab kuzatish quyidagi aniq til materialini yaratish imkonini beradi, uni tahlil qilish jarayonida bir xil o‘zakli so‘zlarning xususiyatlari haqida xulosa chiqariladi: Avval so‘zlarni ma’no va tarkibiga ko‘ra taqqoslash asosida „o‘zakdosh so‘zlar“ atamasi beriladi, keyin o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi o‘zak deyilishi, o‘zakdosh so‘zlarni, boshqacha qilib, bir xil o‘zakli so‘zlar (ya’ni o‘zakdosh so‘zlar) deb nomlanishi ham tushuntiriladi. O‘quvchilarda bir xil o‘zakli so‘zlarni ikki muhim belgisiga ko‘ra aniqlash ko‘nikmasini o‘stirish uchun o‘zakdosh so‘zlar yaqin ma’noli — sinonim so‘zlar bilan, shakli o‘xshash bo‘lgan so‘zlar bilan taqqoslanadi. Masalan, o‘quvchilar baxtli — baxtsiz o‘zakdosh so‘zlari bilan baxtli

— saodatli sinonim soʻzlarini taqqoslab, oʻzakdosh soʻzlar ham, sinonim soʻzlar ham yaqin maʼno bildirishini (oʻxshash tomonini), oʻzakdosh soʻzlarda umumiy qism (baxt) mavjud boʻlib, sinonim soʻzlarda bunday umumiy qism yoʻqligini (farqli tomonini) aniqlaydilar, ular bogʻ — bogʻbon oʻzakdosh soʻzlari bilan suv — suva soʻzlarini taqqoslab, quyidagi xulosaga keladilar: bogʻ — bogʻbon oʻzakdosh soʻzlar hisoblanadi, chunki bular yaqin maʼnoli va umumiy qismi bor; suv — suva soʻzlari shakli tomonidagina oʻxshaydi, ammo butunlay taʼlimning bu bosqichida oʻquvchilarning morfema haqidagi bilimlari yetarli emas, ularni bu tushunchalar bilan amaliy mashqlarni bajarish jarayonida endigina tanishtirilyapti. Shuning uchun oʻqituvchi tarkibi va yasash usuli oʻquvchilarning yosh xususiyatiga mos boʻlgan soʻzlarni tanlaydi, bu soʻzlarni analiz va sintez qilishni boshqaradi, soʻzlarning leksik maʼnosi bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni oʻquvchilarning bilib olishlariga doimiy gʻamxoʻrlik qiladi. Uchinchi bosqich — oʻzak, soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini oʻrganish metodikasi. Bu bosqichning oʻquv vazifasiga „oʻzak“, „soʻz yasovchi qoʻshimcha“, „shakl yasovchi qoʻshimcha“ tushunchalarini shakllantirish, soʻzning leksik maʼnosi bilan morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanish haqidagi tasavvurlarni oʻstirish, oʻzakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli soʻzlarni toʻgʻri yozish malakasini shakllantirish, nutqda soʻz yasovchi qoʻshimchasi bor soʻzlarni ongli ishlatish koʻnikmasini oʻstirish kiradi. Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan maʼlum bogʻlanishda hal qilinadi. Masalan, soʻzda har bir morfemaning ahamiyatini oʻzlashtirish asosida oʻquvchilar soʻzning leksik maʼnosi bilan uning morfemik tarkibi oʻrtasidagi bogʻlanishni bilib oladilar. Barcha vazifalar bilan uzviy bogʻliq holda, soʻzlarning morfemik tarkibini hisobga olib, ulardan nutqda mumkin qadar aniq va ongli foydalanish vazifasi ham bajariladi.

**Oʻzakni oʻrganishning xususiyatlari.** „Oʻzak“ tushunchasini shakllantirishda oʻquvchilar oʻzak oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismi ekani va u barcha bir xil oʻzakli soʻzlarning maʼnosidagi umumiylikni oʻz ichiga olishi bilan tanishtiriladi. Oʻzakdosh soʻzlarni tahlil qilish bilan oʻquvchilar soʻzning qaysi qismi shu soʻzlardan oʻzakdosh soʻzlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular oʻzakni

ajratadilar), qaysi qismi har xil ma'noli so'zlar hosil qilayotganini tushuntirishga (bunda ular so'z yasovchi qo'shimchalami ajratadilar) o'rgatiladi. Bunday vazifalarni to'g'ri bajarish natijasida o'quvchilar o'zak va so'z yasovchi qo'shimchani so'zning leksik ma'nosini hosil qilishdagi rolini elementar tarzda bo'lsa ham tushunadilar, shuningdek, o'zak o'zakdosh so'zlarga asos bo'ladigan qism ekanini bilib oladilar. O'zak ustida ishlash bu bilan tugamaydi, balki boshqa morfemalarni maxsus o'rganishga ajratilgan darslar mazmuni bilan va keyinroq so'z turkumlari o'rganilganda, so'z yasashga doir mashqlar bilan ham uzviy bog'lanadi.

**So'z yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash.** Bu morfemani o'rganishning asosiy vazifasi o'quvchilarni so'zda so'z yasovchi qo'shimchani ahamiyati bilan tanishtirish va shu asosda so'z yasovchi qo'shimchali so'zdan o'z nutqida ongli foydalanish ko'nikmasini o'stirish hisoblanadi. O'quvchilar so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'noli so'z yasash mumkinligini tushunishi muhim ahamiyatga ega. So'z yasovchi qo'shimchalar ustida ishlash ba'zi so'z yasovchi qo'shimchani ma'nosini va yasama so'zning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. So'z yasovchi qo'shimchani ma'nosini tushuntirish uning so'z yasashdagi ahamiyatini o'quvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-e'tibori so'z yasovchi qo'shimcha yordamida yangi leksik ma'noli so'z yasashiga qaratiladi. Masalan: ish — ishchi, ishli, ishchan, ishla). Yasalgan so'z qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlash so'z yasovchi qo'shimcha yordamida har xil so'z turkumiga oid so'zlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi. So'z yasovchi qo'shimchani ongli o'zlashtirish uchun quyidagi mashqlar guruhidan foydalanish yaxshi natija beradi: Birinchi guruh mashqlarga har xil so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish bilan hosil bo'lgan bir xil o'zakli so'zlarning ma'no jihatdan farqini qiyoslashga oid vazifalar kiradi. Masalan, gul so'zidan -chi, -zor so'z yasovchi qo'shimchalari bilan yangi so'z yasang. Hosil bo'lgan so'zlarni ma'nosi va tarkibiga ko'ra qiyoslang. Ularda nima o'xshash? So'zning qaysi qismi ularni ma'nosiga ko'ra farqlayapti? Yangi so'zlarni qatnashtirib gap tuzing. Ikkinchi guruh mashqlarga bir so'z yasovchi qo'shimchani har xil so'zlarga qo'shishdan hosil bo'lgan so'zlarda so'z yasovchi qo'shimchani ma'nosini qiyoslashga oid vazifalar

kiradi. Bunday mashqlarning maqsadi soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosi haqidagi bilimni elementar tarzda umumlashtirish hisoblanadi. Masalan, ishchi, suvchi, gulchi soʻzlarini taqqoslash, maʼnosiga koʻra oʻxshash tomonini belgilash (biror ishni, vazifani bajaradigan kishini — shaxsni bildiradi), soʻzning qaysi qismi bajaruvchi shaxs maʼnosini bildirayotganligini aniqlash (soʻz yasovchi qoʻshimcha - chi). Uchinchi guruh mashqlarga matnni leksik-grammatik va leksik- uslibiy tahlil qilishga oid vazifalar kiradi. Masalan, matndan oʻzakdosh soʻzlarni topish, ularning maʼnosidagi farqni aytish, bu farq soʻzning qaysi qismi yordamida yuzaga kelayotganini aniqlash; berilgan soʻzlardan namunadagidek gap tuzish (masalan, Soatsoz soatni tuzatdi. Traktorchi yerni traktor bilan haydaydi); oʻzakdosh soʻzlarni aniqlash va tarkibiga koʻra tahlil qilish va hokazo.

**Shakl yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganish xususiyatlari.** Har bir morfemaning lingvistik mohiyatida oʻziga xoslik boʻlib, uni oʻrganish metodikasi ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. Shakl yasovchi qoʻshimchada grammatik vazifa yetakchi hisoblanadi, bu bilan u soʻz yasovchi qoʻshimchadan farqlanadi. Shakl yasovchi qoʻshimcha soʻzning grammatik maʼnosini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Oʻquvchilar soʻzning grammatik maʼnosini bilmay turib shakl yasovchi qoʻshimchaning vazifasini ham anglab yetmaydilar. Bundan tashqari, shakl yasovchi qoʻshimcha bir necha maʼno ifodalaydi (masalan, kitobni oʻqidim soʻz birikmasidagi -im I shaxs birlik maʼnosini bildiradi). Shakl yasovchi qoʻshimchani oʻrgatishda uning mana shu xususiyatlari hisobga olinadi, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ikki belgisi bilan (soʻz shaklini oʻzgartirishi va gapda soʻzlarni bir-biriga bogʻlashi bilan) amaliy tanishtiriladi. Oʻquvchilar otlarda birlik va koʻplik, boʻlishli va boʻlishsiz feʼllar, otlarning egalik va kelishik qoʻshimchalari bilan oʻzgarishi, kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi, feʼllarda shaxs-son, zamonni (4-sinf) oʻrganishlari bilan bogʻliq holda ularning shakl yasovchi qoʻshimcha haqidagi bilimlari asta-sekin chuqurlashtirila boriladi. Oʻquvchilarda gapda soʻzlar shakl yasovchi qoʻshimcha yordamida bogʻlanishi haqidagi dastlabgi tasavvur mashqlarni bajarish jarayonida hosil qilinadi. Masalan, gapning mazmuniga mos ravishda ajratib berilgan soʻzning shaklini soʻroqlardan foydalanib oʻzgartirish va u soʻz gapdagi



qaysi soʻz bilan bogʻlanganini aniqlash soʻraladi: Oʻquvchi (nimani?) kitob... sevadi. U (nimadan?) kitob... yaxshi foydalanadi? Oʻquvchilar oʻqituvchi rahbarligida „Soʻzning shaklini nima uchun oʻzgartirishga toʻgʻri keldi?, Soʻz shaklini oʻzgartirish bilan nimaga erishildi?“ savollariga javob beradilar. Oʻquvchilar shakl yasovchi qoʻshimchalarning sintaktik vazifasini gapda soʻzlarning bogʻlanishi va soʻz birikmasini oʻzlashtirish jarayonida oʻzlashtiradilar. Oʻquvchilarning soʻzlarning bogʻlanishi haqidagi bilimi elementar xarakterda boʻlsa ham, ularning soʻz birikmasidagi soʻzlar maʼno va grammatik jihatdan shakl yasovchi qoʻshimchalar yordamida bogʻlanishini tushunishiga erishiladi. Oʻquvchilar ot va kishilik olmoshlarining kelishik qoʻshimchalari bilan turlanishini oʻrganganlaridan soʻng gapda maʼno va grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlangan soʻzlarni ajrata olish va nimalar yordamida bogʻlanganini tushuntirish koʻnikmalariga ega boʻlishlari mumkin, soʻngra shakl yasovchi qoʻshimchalarning sintaktik vazifasini oʻzlashtira boshlaydilar. Oʻquvchilar har bir morfemaning topshirigʻini boshqa morfemalar bilan qiyoslab koʻrsatish talab qilingan vazifani bajarish jarayonida shakl yasovchi qoʻshimchaning oʻziga xos xususiyatini yaxshi oʻzlashtiradilar. Masalan, oʻzakdosh soʻzlar tanlash vazifasini bajarish davomida soʻz yasash uchun qanday morfemalardan foydalanilgani, soʻz yasovchi qoʻshimcha tufayli soʻzning maʼnosi qanday oʻzgargani aniqlanadi. Shundan soʻng oʻquvchilarga „Otni shunday oʻzgartiringki, u birlikni emas, koʻplikni bildirsin“ topshirigʻi beriladi. Bolalar bu vazifani bajarib, otga shakl yasovchi koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilganda, soʻzning leksik maʼnosi oʻzgarmaganini, faqat shakli oʻzgarganini, koʻplik bildirganini aytadilar. Soʻz yasovchi qoʻshimcha bilan shakl yasovchi qoʻshimchalarni taqqoslash orqali oʻquvchilar shakl yasovchi qoʻshimchaning soʻz shaklini oʻzgartirishdagi oʻrnini yaqqol koʻradilar. Toʻrtinchi bosqich — soʻz turkumlarini oʻrganish bilan bogʻliq holda soʻzning tarkibi ustida ishlash (3-, 4-sinflar). Soʻzning morfemik tarkibini oʻrganish tizimida bu bosqichning maqsadi soʻz yasovchi qoʻshimchaning soʻz yasashdagi ahamiyati va shakl yasovchi qoʻshimchaning soʻz shaklini oʻzgartirishdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtirish; oʻquvchilarni ot, sifat, feʼllarning yasash xususiyatlarini tushunishga tayyorlash hisoblanadi. Soʻz

turkumlarini o'rganish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga so'z yasalishi asoslarini, so'z yasovchi qo'shimcha yordamida bir so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z turkumining o'zini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko'proq boshqa bir otdan (ishchi, baliqchi; sinfdosh, sirdosh; bog'bon, oshpaz, kitobxon, zargar), shuningdek, fe'ldan (elak, kurak, yutuq, o'roq, yotoq, terim, bilim); sifat ko'proq otdan (suvli, suvsiz; yozgi, qishki, ishchan, ishli, ishsiz), shuningdek, fe'ldan (maqtanchoq, o'tkir, sezgir); fe'llar otdan (ishla, gulla, gapir), sifatdan (oqla, yaxshila, oqar, qoray) yasaladi. O'quvchilarni so'z yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o'qituvchi ularga muayyan bir yangi so'z qaysi so'zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o'qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo'riqlaydigan kishini bildiradigan o'zakdosh ot tanlashni topshiradi (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o'qituvchi so'zni va so'z yasovchi morfemani beradi. O'quvchining vazifasi yangi so'zni to'g'ri yasash va leksik ma'nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so'zidan -chi qo'shimchasi yordamida yangi so'z yasash (baliqchi), uning leksik ma'nosini tushuntirish, qaysi so'z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o'quvchilar so'zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini hosil bo'lgan so'z qaysi morfema yordamida, qaysi so'z turkumidan yasalganiga, qanday ma'no anglatishi va qaysi so'z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo'lgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibining o'zaro bog'liqligiga va biror so'z turkumiga xarakterli bo'lgan so'z yasalishi usuliga asoslaniladi. Boshlang'ich sinflarda u yoki bu so'z turkumining yasalishini kuzatish propedevtik xarakterda bo'ladi, uning natijasi mashqning mavzuni o'zlashtirish maqsadiga qaratilishi, darsda faol va individual ishlarni to'g'ri uyushtirish, foydalanilgan leksik materialning o'quvchilar saviyasiga mosligi va ko'rgazmalilikka bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarning biror morfemani qay darajada o'zlashtirganini ularning morfemik tarkibi bolalar saviyasiga mos so'zlardagi morfemalarni ajratish ko'nikmasiga, o'zak va shakl yasovchi qo'shimchadan yo o'zak va so'z yasovchidan, yoki o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchidan tuzilgan so'zlarni mustaqil tanlay bilishiga, so'zdagi morfemalarning

rolini soʻz bilan tushuntirish koʻnikmasiga, gapda soʻz yasovchi qoʻshimchali soʻzlarni toʻgʻri ishlatish koʻnikmasiga qarab aniqlaydi.

### **Savol va topshiriqlar:**

- Grammatik tushunchalarni oʻzlashtirishning metodik shartlari nimalardan iborat?
- Kichik yoshdagi oʻquvchilar tilga oid tushunchalarni oʻzlashtirish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keladilar? Sababini izohlang.
- Soʻzning morfemik tarkibi boshlangʻich sinflarda nima uchun oʻrganiladi?
- Oʻquvchilarga qoʻshimchalar haqida maʼlumot berishda siz qanday yoʻl tutasiz? Qoʻshimcha turlarini aniq farqlashni oʻrgatishda yangicha yondashuv yaratishga harakat qiling.
- Soʻz yasalishi mavzusiga oid koʻrgazma material tayyorlang.

### **Ona tili oʻqitish metodikasi fanidan yakuniy nazorat savollari:**

1. Metodikaning amaliy fan sifatidagi vazifalari nimalardan iborat?
  - A. Nimani oʻqitish kerak? degan savolga javob berish.
  - B. Qanday oʻqitish kerak? degan savolga javob berish.
  - C. Nega xuddi mana shunday oʻqitish kerak? degan savolga javob berish.
  - D. Barcha javoblar toʻgʻri.
2. Ona tili oʻqitish metodikasi qaysi fanlar bilan aloqadorlikda oʻrganiladi?
  - A. Mantiq, psixologiya, psixolingvistika
  - B. Mantiq, psixologiya, tarix
  - C. Mantiq, psixologiya, psixolingvistika, tilshunoslik
  - D. Logika, pedagogika, tarix, informatika
3. Oʻqitish prinsipi nima?
  - A. Dars samaradorligini taʼminlash, taʼlim jarayonini tashkil etish, uyushtirishga qoʻyilgan asosiy talablar, qoidalar
  - B. Asos, talab, qoida

- C. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish
- D. O‘qitishning ilmiyligi, onglilik, faollik
4. Boshlang‘ich sinfda fan dasturi doirasida bolalar qancha muddatda o‘qish va yozishni o‘rganadilar?
- A. 3-5 oyda
- B. 1-2 yilda
- C. 3-3,5 oyda
- D. 1 yilda
5. Quyidagilardan qaysi biri bolalarga savod o‘rgatish vazifalari qatoriga kirmaydi?
- A. Imlo qoidalariga rioya qilib, savodli yozishga o‘rgatish
- B. O‘quvchilarning lug‘at boyligini va nutqini o‘stirish
- C. Harflarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish
- D. O‘quvchilarda kiyinish madaniyati ko‘nikmasini shakllantirish
6. “Hijjai qadimiy” usuli necha bosqichdan iborat?
- A. 4
- B. 3
- C. 5
- D. 2
7. “Ustodi avval” qo‘llanmasi muallifi va asar yaratilgan vaqtni aniqlang.
- A. Munavvarqori Abdurashidxonov, 1890-yil
- B. Saidrasul Saidazizov, 1902-yil
- C. Botu, 1888-yil
- D. Behbudiy, 1900-yil
8. K.D.Ushinskiy tomonidan yaratilgan savod o‘rgatish metodini belgilang.
- A. Tahlil-tarkib metodi
- B. Hijo usuli
- C. Tovush metodi

- D. Analiz-sintez tovush metodi
9. Savod o‘rgatish nechta davrga bo‘linadi?
- A. 2ta: alifbe davri va alifbegacha bo‘lgan davr
  - B. 1ta: alifbe davri
  - C. 3ta: tayyorgarlik davri, alifbe harfiy davri, alifbedan keying davr
  - D. 2ta: to‘g‘ri o‘qish va to‘g‘ri yozish davri
10. “Alifbe” kitobi bilan tanishtirish va partada to‘g‘ri o‘tirish savod o‘rgatishning qaysi davri vazifasi sanaladi?
- A. Alifbe harfiy davri vazifasi
  - B. Alifbedan keying davr vazifasi
  - C. Tayyorgarlik davri vazifasi
  - D. Bu savod o‘rgatish davri vazifalari sanalmaydi.
11. O‘quvchilarni nutqni analiz qilishga o‘rgatishda, asosan, qanday mashqlardan foydalaniladi?
- A. Analitik mashqlardan
  - B. Sintez mashqlaridan
  - C. Murakkab mashqlardan
  - D. Bu jarayonda mashq kerak bo‘lmaydi.
12. Savod o‘rgatishning dastlabgi davrida ish turi qancha vaqtda boshqasi bilan almashtirilib turishi zarur?
- A. 10-15 minutda
  - B. Har 5 minutda
  - C. 15-20 minutda
  - D. Har 15 minutda
13. Qaysi pedagog o‘z uslubini “yozish va o‘qish uslubi” deb atagan?
- A. Komenskiy
  - B. Ushinskiy
  - C. Behbudiy
  - D. A.Avloniy

14. Savod o‘rgatishning Alifbe davri qancha muddat davom etadi?
- A. Avgust-sentabr oylarida
  - B. Sentabr oyidan may oyigacha
  - C. Sentabr oyidan yanvar oyigacha
  - D. Bir yil
15. Alifbedagi tovushlarni o‘rgatishning nechta bosqichi mavjud?
- A. 2ta
  - B. 3ta
  - C. 5ta
  - D. 4ta
16. Diksiya – bu....
- A. Ravshan, burro gapirish
  - B. To‘g‘ri yozish
  - C. Nutqning g‘alizligi
  - D. So‘zlarning bir-biriga bog‘lanishi
17. Quyidagilardan qaysi biri “Alifbe” darsligi tuzilishining ilmiy-pedagogik tamoyillari qatoriga kirmaydi:
- A. “Alifbe”dagi materiallarning hajmi savod o‘rgatishga mos bo‘lishi kerak.
  - B. “Alifbe”ning harfi, terilishi, qog‘ozi, rasmlarining bo‘yoqlari gigiyenik talablarga javob berishi zarur.
  - C. “Alifbe”ning tashqi ko‘rinishi chiroyli, bolalar diqqatini o‘ziga tortadigan bo‘lishi lozim.
  - D. “Alifbe” tuzilishida tovush-harflarning kam ishlatilishi maqsadga muvofiq.
18. Yozuv daftari qaysi harfni yozdirish bilan boshlanadi?
- A. “a” harfini
  - B. “e” harfini
  - C. “o” harfini
  - D. “i” harfini
19. Yozuv darsining qancha miqdori yozuv uchun ajratiladi?

- A. 20 daqiqasi
  - B. 30 daqiqasi
  - C. 10 daqiqasi
  - D. Yozuv darsi to'la yozuvga bag'ishlanadi.
20. Bitta yozuv darsida nechta so'z yozdirilishi kerak?
- A. 20ta
  - B. 4ta
  - C. 15ta
  - D. 1ta
21. Yozish vaqtida qancha qiyalikda yozish kerak?
- A. 65<sup>o</sup>
  - B. 25<sup>o</sup>
  - C. 15<sup>o</sup>
  - D. 20<sup>o</sup>
22. Yozish vaqtida daftar parta ustiga qancha qiyalikda qo'yilishi zarur?
- A. 65<sup>o</sup>
  - B. 25<sup>o</sup>
  - C. 15<sup>o</sup>
  - D. 20<sup>o</sup>
23. Yozuv darslarida o'quvchilar qanday malakalarni egallaydilar?
- A. Orfografik malakalarni
  - B. Grafik malakalarni
  - C. Grammatik malakalarni
  - D. Orfoepik malakalarni
24. Savod o'rgatish darslari qaysi jihatiga ko'ra alifbogacha bo'lgan davrdagi va alifboni o'rganish jarayonidagi darslarga bo'lingan?
- A. Ta'limning predmetiga ko'ra
  - B. Ta'limning davri va bosqichlariga ko'ra
  - C. Darsda yangi mavzu o'tilishi va o'tilmasligiga ko'ra

- D. Barcha javoblar to‘g‘ri
25. Savod o‘rgatishning tayyorlov davrida bir dars qancha vaqt davom etadi?
- A. 20 daqiqa
  - B. 35 daqiqa
  - C. 45 daqiqa
  - D. 30 daqiqa
26. Savod o‘rgatishning alifbe davrida bir dars qancha vaqt davom etadi?
- E. 20 daqiqa
  - F. 35 daqiqa
  - G. 45 daqiqa
  - H. 30 daqiqa
27. “Alifbo bilan xayrlashish” festivali qachon o‘tkaziladi?
- A. Alfavitdan keying davr oxirida
  - B. Alfavit davrining birinchi bosqichida
  - C. Alfavit davrining ikkinchi bosqichida
  - D. O‘quv yili oxirida
28. Husnixat bilan yozish deganda nima tushuniladi?
- A. To‘g‘ri yozish
  - B. Chiroyli yozish
  - C. Tez yozish
  - D. Sekin yozish
29. Quyidagi fanlardan qaysi biri Husnixat va uni o‘qitish metodikasi fani bilan aloqador emas?
- A. Fiziologiya
  - B. Psixologiya
  - C. Tarix
  - D. Kimyo
30. Yozuv – bu.....
- A. Biror tilda qabul qilingan belgilar yig‘indisi



- B. Tilda mavjud tovushlar va soʻzlar jamlanmasi
  - C. Rasm va imo-ishoralar tasviri
  - D. Soʻzlarning moddiy qobigʻi
31. Fransuz olimi Shampalon tomonidan oʻqilgan yozuv?
- A. Mixxat yozuvi
  - B. Finikiya yozuvi
  - C. Oʻrxun yozuvi
  - D. Misr iyerogliflari
32. Yozuvning eng qadimgi shakli – bu?
- A. Piktografiya
  - B. Ideografiya
  - C. Logografiya
  - D. Fonografiya
33. Yozuv mashgʻuloti vaqtida koʻz bilan ruchka uchidagi oraliq necha sm boʻlishi kerak?
- A. 2-5 sm
  - B. 25-30 sm
  - C. 20-35 sm
  - D. 15-40 sm
34. Savod oʻrgatish jarayonida asosiy yozuv qurolini koʻrsating.
- A. Koʻk ruchka
  - B. Binafsharang ruchka
  - C. Qora qalam
  - D. Binafsharang ruchka va qora qalam
35. Savod oʻrgatish jarayonida oʻquvchilarga qanday daftar tavsiya qilinadi?
- A. Katak daftar
  - B. Ikki chiziqli daftar
  - C. Maxsus “yozuv daftari”
  - D. Husnixat daftari

36. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirishdagi eng birinchi qoida?
- A. Yozuv qurolidan to‘g‘ri foydalanish
  - B. Idrok etish
  - C. Gigiyenik talablar
  - D. Partada to‘g‘ri o‘tirish
37. Tovushni harfga aylantirishda nima muhim ahamiyatga ega?
- A. Ko‘rgazmalilik
  - B. Eshitish
  - C. Onglilik
  - D. Chiroyli yozish
38. “Yozuv daftari”da qiya chiziqlar oralig‘i qancha bo‘ladi?
- A. 33 mm
  - B. 25 mm
  - C. 65 mm
  - D. 130 mm
39. “Yozuv daftari”da kichik harflar yoziladigan satr chizig‘i oralig‘i qanchaga teng?
- A. 33mm ga
  - B. 25mm ga
  - C. 5mm ga
  - D. 130mm ga
40. O‘quvchilar uchun tavsiya etiladigan sharikli yoki gelli avtoruchkalarining uzunligi necha mm dan oshmasligi zarur?
- A. 33mm dan
  - B. 25mm dan
  - C. 5mm dan
  - D. 130mm dan
41. Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullarini ko‘rsating: 1) namunaga qarab yozish; 2) namunaga qarab ko‘chirib yozish; 3) nusxa

ko‘chirish; 4) tasavvur orqali yozish; 5) harflarning shaklini tahlil qilish; yozuv malakasini ongli o‘zlashtirish; 6) sanoq-ohang usuli; 7) xatolar ustida ishlash

- A. 1, 2, 4, 5, 7
- B. 2, 3, 4, 5, 6
- C. 2, 3, 4, 6
- D. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

42. Nechanchi sinfdan boshlab chiroyli yozish malakasiga o‘rgatishda kichik va bosh harflarni bir xil balandlikda chamalab yozish, 4-5 harfdan iborat so‘zlarni qo‘l harakatini uzmasdan bog‘lab yozish qoidalari talab etiladi?

- A. Birinchi sinfdan
- B. Ikkinchi sinfdan
- C. Uchinchi sinfdan
- D. To‘rtinchi sinfdan

43. “Alifbe” kitobida o‘quv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo‘lgan davr qancha kun etib belgilangan?

- A. 30 kun
- B. 20 kun
- C. 20-25 kun
- D. 10 kun

44. Husnixat mashqi uchun ona tilidan qancha vaqt ajratiladi?

- A. 10 minut
- B. 5 minut
- C. 10-15 minut
- D. 6-8 minut

45. 2-3-sinflarda husnixat uchun qancha vaqt ajratiladi?

- A. 30 minut
- B. 5 minut
- C. 1 soat
- D. 6-8 minut

46. 4-sinfda husnixat uchun qancha vaqt sarflanadi?
- A. 1 soat
  - B. 30 daqiqa
  - C. 6-8 daqiqa
  - D. 40 daqiqa
47. Alifbe davrida bajariladigan asosiy grafik ishlarni belgilang: 1) kichik va bosh harflarni alifbe tartibida yozish; 2) bo‘g‘in va so‘zlarda harflarni qo‘shib yozish; 3) harf va uning unsurlarini bir xil balandlikda va qalinlikda yozish; 4) harf va harf unsurlarini bir xil qiyalikda yozish; 5) qo‘l harakatini uzmay yozishga o‘rgatish; 6) harflarning qiyaligini va enini to‘g‘ri saqlashga o‘rgatish.
- A. 1, 2, 4, 5
  - B. 2, 4, 5, 6
  - C. 1, 2, 5, 6
  - D. 1, 2, 3, 4, 5, 6
48. “Yozuv daftari”dan o‘quvchilar qancha muddat foydalanadilar?
- A. Alifbegacha bo‘lgan davri tugaguniga qadar
  - B. Alifbe davri oxirigacha
  - C. Alifbedan keyingi davr oxirigacha
  - D. 4-sinfgacha
49. Alifbe davrida o‘quvchilarning yozayotgan matnlarini tahlil qilish yo‘llarini ko‘rsating?
- A. So‘zlarning tarkibini aniqlash.
  - B. So‘zlarning ma’noviy tomonini aniqlash.
  - C. Mashqlarning grafik tasviri ustida ishlash.
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri.
50. O‘quv dasturiga ko‘ra, 1-sinfda yozuvga o‘rgatish uchun necha soat ajratilgan?
- A. 50 soat

- B. 70 soat
  - C. 40 soat
  - D. 18 soat
51. Alifbe davrida o'quvchilar yozgan matnlarni necha xil yo'lda tahlil qilish mumkin?
- A. 3 xil
  - B. 4 xil
  - C. 5 xil
  - D. 2 xil
52. Har bir yozuv darsida necha marta jismoniy mashq daqiqalarini o'tkazish kerak?
- A. 1 marta
  - B. 2-3 marta
  - C. 4 marta
  - D. 5 marta
53. 2-sinfda husnixat darslari necha soatni tashkil etadi?
- A. 30 soat
  - B. 32 soat
  - C. 34 soat
  - D. 36 soat
54. 2-sinfda bir chiziqli daftarga yozishda bosh harflarning o'lchami qanchani tashkil etadi?
- A. 6 mm
  - B. 5 mm
  - C. 4 mm
  - D. 3 mm
55. 2-sinfda bir chiziqli daftarga yozishda bosh harflarning o'lchami qanchani tashkil etadi?
- A. 6 mm

- B. 5 mm
  - C. 4 mm
  - D. 3 mm
56. 3-4-sinflarda ona tili darsining qancha vaqti husnixatga ajratiladi?
- A. 5-6 daqiqasi
  - B. 6-7 daqiqasi
  - C. 8-10 daqiqasi
  - D. 10-12 daqiqasi
57. 4-sinf o'quvchilarining yozuvi nimasi bilan farq qiladi?
- A. Kattalarning yozuviga xosligi bilan
  - B. Harflarning notekis yozilishi bilan
  - C. Bosma shaklga o'xshashi bilan
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
58. Daftar parta yuzasida qanday qiyalikda joylashishi lozim?
- A. 45 gradus qiyalikda
  - B. 65 gradus qiyalikda
  - C. 90 gradus qiyalikda
  - D. 15 gradus qiyalikda
59. O'quvchilar qachondan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tadilar?
- A. 2-sinfning ikkinchi yarmidan
  - B. 3-sinfdan
  - C. 2-sinfning boshidan
  - D. 3-sinfning ikkinchi yarmidan
60. O'qish darslari qachondan boshlanadi?
- A. Savod o'rgatish davri tugagach
  - B. 1-sinfdan
  - C. 2-sinfdan
  - D. 3-sinfdan
61. O'qish darslarining asosiy vazifasi nima?

- A. Ongli o‘qish malakasini shakllantirish
  - B. To‘g‘ri o‘qish malakasini shakllantirish
  - C. Tez va ifodali o‘qish malakasini shakllantirish
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri
62. O‘qish kitoblarida uchraydigan tasviriy vositalarni belgilang.
- A. O‘xshatish
  - B. Sifatlash
  - C. Mubolag‘a
  - D. Barchasi to‘g‘ri
63. O‘qish nechta turga bo‘linadi?
- A. 2 turga
  - B. 3 turga
  - C. 4 turga
  - D. 5 turga
64. Qaysi turdagi o‘qish davomida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar aniqlanadi?
- A. Ovoz chiqarib o‘qishda
  - B. Ichda o‘qishda
  - C. Matn boshqa birov tomonidan o‘qib berilganda
  - D. Ovoz chiqarib va ichda o‘qishda
65. “Bolalar dunyoni va o‘z-o‘zini bila boorish bilan birga katta avlodlar yaratgan ma’naviy va moddiy boyliklar uchun o‘zining mas’ulligini oz-ozdan bila borishi kera..” degan fikr kimga tegishli?
- A. V.A.Suxomlinskiy
  - B. T.G.Yegerov
  - C. K.Qosimova
  - D. To‘g‘ri javob yo‘q
66. O‘qish malakasining shakllanish jarayonini T.G.Yegerov nechta bosqichga ajratgan?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- C. 4 ta
- D. 5 ta

67. O‘qish malakasining shakllanish jarayonini T.G.Yegerov qanday bosqichlarga ajratgan?

- A. Analitik va sintetik
- B. Analitik va avtomatlashgan
- C. Sintetik va avtomatlashgan
- D. Analitik, sintetik va avtomatlashgan

68. “To‘g‘ri o‘qish – xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qishdir” degan fikrning muallifi kim?

- A. V.A.Suxomlinskiy
- B. T.G.Yegerov
- C. K.Qosimova
- D. To‘g‘ri javob yo‘q

69. “To‘g‘ri o‘qish – bu materialni tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko‘chirishdir” degan fikr muallifini belgilang.

- A. Yakovleva
- B. Ashrapova
- C. Qosimova
- D. Yegerov

70. O‘qish jarayonida xatolar nechta sababga ko‘ra kelib chiqadi?

- A. 2 ta
- B. 3 ta
- C. 4ta
- D. 5 ta

71. O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan xatolar necha xil bo‘ladi?

- A. 2 xil
- B. 3 xil



- C. 4 xil
  - D. 5 xil
72. O‘qish malakasining qanday sifatlari bor?
- A. To‘g‘ri, tez, ongli
  - B. Tez, ongli, ifodali
  - C. Ongli , tez, ifodali
  - D. To‘g‘ri, tez, ongli, ifodali
73. Tez o‘qish matnini tushunishdan ajralib qolmasligi lozimligini kim alohida ta’kidlab o‘tgan?
- A. K.D.Ushinskiy
  - B. K.Qosimova
  - C. Yakobleva
  - D. M.Odilova
74. Tez o‘qishni ta’minlovchi vositalarni toping.
- A. O‘qishni turli topshiriqlar asosida mashq qilish.
  - B. Rollarga bo‘lib o‘qitish.
  - C. Matnini navbat bilan o‘qitish.
  - D. Barchasi to‘g‘ri
75. O‘qish sur’ati bir daqiqada sinflar bo‘yicha tasniflangan. Unga ko‘ra, 2-sinf birinchi yarim yillikda nechta so‘z o‘qish belgilangan?
- A. 20-25 ta
  - B. 25-30 ta
  - C. 30-35 ta
  - D. 35-40 ta
76. Ongli o‘qish qanday metodik shartga bog‘liq?
- A. O‘quvchining haayotiy tajribasiga
  - B. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushunishga
  - C. Gapda so‘zlarning bog‘lanishini tushunishga
  - D. Barchasi to‘g‘ri
77. Ongli o‘qish necha xil ma’noda qo‘llaniladi?

- A. 2 xil
- B. 3 xil
- C. 4 xil
- D. 5 xil

78. Urgʻu, temp, ritm, toʻxtam, ovozning baland-pastligining yigʻindisi nima deb ataladi?

- A. Intonatsiya
- B. Ohang
- C. Ritmik jarayon
- D. Nafas rostlash jarayoni

79. Ifodali oʻqishni egallashning asosiy shartlarini belgilang.

- A. Nafasni toʻgʻri olish va toʻgʻri sarflash.
- B. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, tushunarli gapirish.
- C. Adabiy talaffuz normalarini egallash.
- D. Barchasi toʻgʻri

80. Ifodali oʻqishga tayyorlanish shartli ravishda nechta bosqichga boʻlinadi?

- A. 3 ta
- B. 2 ta
- C. 4 ta
- D. 5 ta

81. Kichik yoshdagi oʻquvchilar adabiy qahramonga necha xil munosabatda boʻladi?

- A. 3 xil
- B. 5 xil
- C. 4 xil
- D. 2 xil

82. Kichik yoshdagi bolalar adabiy qahramonga qanday munosabatda boʻlishini belgilang.

- A. Adabiy qahramonga emotsional munosabat
- B. Elementar tahlil qilish

- C. Tanqid qilish
  - D. A va B javoblar to'g'ri
83. O'qilgan matnning mazmunini, badiiy asar vositalarini va qahramonlarini tushunib o'qish o'qishning qaysi turiga kiradi?
- A. Ongli o'qish
  - B. Tez o'qish
  - C. Ifodali o'qish
  - D. To'g'ri o'qish
84. To'g'ri o'qishning belgilarini ko'rsating.
- A. So'zni qayta takrorlamaslik
  - B. Tovushlarning joyini almashtirmaslik
  - C. So'zni tushirib qoldirmaslik
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
85. Tez o'qish me'zoniga ko'ra, 4-sinfda bir daqiqada nechta so'z o'qish muvofiq deb belgilangan?
- A. 70-80 ta
  - B. 70-85 ta
  - C. 80-95 ta
  - D. 90-100 ta
86. Ovoz chiqarib o'qishning asosiy xususiyati nima?
- A. Ifodali o'qish
  - B. Tez o'qish
  - C. Ongli o'qish
  - D. To'g'ri o'qish
87. Ifodali o'qishning elementar vositalari nechta?
- A. 3 ta
  - B. 4 ta
  - C. 5 ta
  - D. 6 ta
88. Nutq o'stirishga oid mashg'ulotni belgilang.

- A. Lugʻatni boyitish
  - B. Soʻz birikmasi va gap tuzish
  - C. Hikoya tuzish
  - D. Barcha javoblar toʻgʻri
89. Taʼlimiy vositalarni belgilang.
- A. Darslik, tarqatmalar
  - B. Doska, koʻrgazmali qurollar
  - C. Suratlar, jadvallar
  - D. Barcha javoblar toʻgʻri
90. Taʼlimiy vositalar ichida qaysi biri eng ahamiyatli sanaladi?
- A. Elektron qurilma
  - B. Darslik
  - C. Suratlar
  - D. Jadvallar
91. “Boychechak” sheʼrining muallifini toping.
- A. Gʻayratiy
  - B. Usmon Azim
  - C. Turob Toʻla
  - D. Erkin Vohidov
92. “Kuz” nomli sheʼr muallifini belgilang.
- A. Gʻayratiy
  - B. Yusuf Shomansur
  - C. Turob Toʻla
  - D. Erkin Vohidov
93. “Bizda yashab, qolmay armoni,  
Uchib oʻtar turna karvoni.  
Yer-u koʻkni qoplab suroni,  
Xush qol, kuz...”. Sheʼriy parcha muallifini toping.
- A. Y.Shomansur
  - B. Gʻayratiy

- C. Turob To‘la
  - D. A‘zam O‘ktam
94. “O‘zbek noni” she‘rining muallifini belgilang.
- A. A.Oripov
  - B. G‘ayratiy
  - C. Y.Shomansur
  - D. Turob To‘la
95. “Bolaligim seni sog‘indim” asarida keltirilgan bozor nomini toping.
- A. Xastimom
  - B. Chorsu
  - C. Juma
  - D. Barchasi to‘g‘ri
96. “Kichik vatan” asarida boboning ismi kim?
- A. Jo‘ra bobo
  - B. Qodir bobo
  - C. Alim bobo
  - D. Olim bobo
97. “Vatanni sev” she‘rining muallifi?
- A. Oybek
  - B. A.Oripov
  - C. Hamid Olimjon
  - D. Cho‘lpon
98. “Barkamol avlod” she‘rida kimga “tole yor” deyilgan?
- A. Yoshlarga
  - B. Qizlarga
  - C. Yigitlarga
  - D. Barchasi javob to‘g‘ri
99. Badiiy asar tahlili nechta bosqichda amalga oshiriladi?
- A. 2 ta
  - B. 3 ta

- C. 4 ta
  - D. 5 ta
100. Matni yaxlit o‘qish asosida asarning mazmuni bilan tanishtirish qanday nomlanadi?
- A. Sintez
  - B. Analiz
  - C. Tahlil
  - D. Qayta tahrir
101. Reja necha xil shaklda tuzildi?
- A. 2 xil
  - B. 3 xil
  - C. 4 xil
  - D. 5 xil
102. Matn necha xil usulda tasvirlanadi?
- A. 2 xil
  - B. 3 xil
  - C. 4 xil
  - D. 5 xil
103. Kimning fikricha, ilk tasavvurning tug‘ilish bosqichi dastlabgi idrok etish hisoblanadi?
- A. A.A.Abdullina
  - B. Yakobson
  - C. Qosimova
  - D. Turniyozov
104. “Ertak” atamasini “etuk” tarzida qo‘llagan shaxs kim?
- A. M.Qoshg‘ariy
  - B. Yusuf Xos Hojib
  - C. Ahmad Yugnakiy
  - D. Alisher Navoiy
105. Toshkentliklar ertakni qanday ataydi?

- A. Cho‘pchak
  - B. Ushuk
  - C. Matal
  - D. Varsaqi
106. Xorazmda ertak qanday ataladi?
- A. Cho‘pchak
  - B. Ushuk
  - C. Metal
  - D. Varsaqi
107. “Navodir ush-shabob”da ertak atamasi qanday shaklda uchraydi?
- A. Cho‘pchak
  - B. Metal
  - C. Cho‘rchak
  - D. Ushuk
108. “Oyguil bilan Baxtiyor” ertak-dostonining muallifi kim?
- A. G‘ayratiy
  - B. Hamid Olimjon
  - C. Shayxzoda
  - D. Mirtemir
109. Ertaklarning an’anaviy belgisini toping.
- A. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” deb boshlanish
  - B. “Murod-maqсадiga yetibdi” degan tugallanish
  - C. Har xil obrazlardan foydalanish
  - D. A va B javoblar to‘g‘ri
110. Ertaklarning umumiy formulasini belgilang.
- A. Initsial
  - B. Medial
  - C. Final
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri

111. Olimlar ertaklarning boshlanishida “...ekan” birligi nechtagacha bo‘lishini aniqlagan?
- A. 20 tagacha
  - B. 30 tagacha
  - C. 40 tagacha
  - D. 50 tagacha
112. “O‘n ikki oy” ertagi qaysi millatga tegishli?
- A. O‘zbek
  - B. Rus
  - C. Nemis
  - D. Qozoq
113. O‘zbek ertaklariga bo‘lgan ilmiy e’tibor qachondan boshlangan?
- A. XVII asrdan
  - B. XVIII asrdan
  - C. XIX asrdan
  - D. XX asrdan
114. O‘zbek ertaklari qaysi olim tomonidan tadqiq etilgan?
- A. Miyon Buzruk Solihov
  - B. Hodi Zarifov
  - C. Xolid Rasul
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri
115. Ertaklarda hayot muammolari aks ettirilganda qaysi mezoniga bo‘ysuniladi?
- A. Adolat mezoniga
  - B. Yaxshilik mezoniga
  - C. Ezgulik mezoniga
  - D. Halollik mezoniga
116. Xalq ertaklarining mazmuniga ko‘ra nechta turi mavjud?
- A. 2 ta
  - B. 3 ta



- C. 4 ta
- D. 5 ta
117. Xalq ertaklarining mazmuni va hayotdagi voqealarni tasvirlash yoʻnalishiga koʻra turlarini kim tadqiq etgan?
- A. M.Afzalov
- B. K.Imomov
- C. A.Xoliqov
- D. A va B javoblar toʻgʻri
118. Hayvonlar ishtirok etadigan ertaklarni sehrli ertaklar qatorida tadqiq etgan olim kim?
- A. K.Imomov
- B. Gʻ.Jalolov
- C. M.Afzalov
- D. A va B javoblar toʻgʻri
119. Qaysi ertakdan baxtga erishish oson emas, ammo erishilgan baxtni saqlab qolish undan ham qiyin, degan xulosa chiqadi?
- A. “Susambil”
- B. “Ur toʻqmoq”
- C. “Uch ogʻayni botirlar”
- D. Barcha javoblar toʻgʻri
120. Qaysi ertakda kaptar, sichqon, qargʻa, toshbaqa, kiyikning doʻstligi tasvirlangan?
- A. “Ovchi, Koʻkcha va Dono”
- B. “Susabil”
- C. “Ur toʻqmoq”
- D. “Uch ogʻayni botirlar”
121. Ertaklarda bolalarning qaysi xususiyatini eʼtiborga olish muhim ahamiyatga ega?
- A. Yosh xususiyatini
- B. Xohish-istaklarini

- C. O‘qish malakasini
  - D. Tahlil qila olish ko‘nikmasini
122. Jahon xalqlari ertaklaridagi umumiy o‘xshashlik qanday ertaklarda uchraydi?
- A. Hayvonlar haqidagi ertaklarda
  - B. Sehrli ertaklarda
  - C. Maishiy ertaklarda
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri
123. Qaysi ertakda qahramonlarga ko‘pincha nimadir(asosan, farzand) yetishmasligi motivi uchraydi?
- A. Sehrli ertak
  - B. Hayvonlar haqidagi ertak
  - C. Maishiy ertak
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri
124. Qaysi olim ertaklar voqealaridagi tartibni ishlab chiqqan?
- A. V.Propp
  - B. Yegorov
  - C. X. Ahmedov
  - D. B. Qosimov
125. “Mohistara” ertagidagi shohning ismini toping.
- A. Jahongir
  - B. Odil
  - C. Ali
  - D. Olim
126. “Mohistara” ertagidagi shohning kichik xotini kim edi?
- A. Mohistara
  - B. Diloru
  - C. Dilorom
  - D. Mohlaroy
127. Qaysi turdagi ertaklar hayotiy voqea-hodisalar asosiga quriladi?

- A. Sehrli ertak
  - B. Hayvonlar haqidagi ertak
  - C. Maishiy ertak
  - D. Fantastik ertak
128. “Hayotiy-maishiy ertaklarda qahramon obrazi folklarga xos individuallashtirilgan bo‘lib, uning ismi, avlodi, ajdodi, elati, urug‘i va voqealar sodir bo‘layotgan joy nomlarigacha aniq, mukammal beriladi” degan fikr muallifi kim?
- A. K.Imomov
  - B. B.Qosimov
  - C. B.Karimov
  - D. I.Sulton
129. “Tuhmatga uchragan kishi” ertagining bosh g‘oyasini toping.
- A. Ma’naviy poklikni ulug‘lash
  - B. Har doim yaxshilik qilish
  - C. Halollik
  - D. To‘g‘rilik
130. Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlarida qachon folklore ekspeditsiyasi o‘tkazilgan?
- A. 2006-yil
  - B. 2009-yil
  - C. 2010-yil
  - D. Barcha javoblar to‘g‘ri
131. Kichik hajmli asar bo‘lib, unda kishi hayotida sodir bo‘lgan voqeaning muhim tomonlari tasvirlanuvchi janrni toping.
- A. Ertak
  - B. Hikoya
  - C. Qissa
  - D. Roman
132. Insonning ichki kechinmalarini ifodalovchi badiiy atamani aniqlang.

- A. Ertak
  - B. She'r
  - C. Hikoya
  - D. Qissa
133. Lirik she'rni o'qish darsida asosiy ish turi nima?
- A. His-hayon bilan o'qish
  - B. Ifodali o'qish
  - C. Yoddan o'qish
  - D. A va B javoblar to'g'ri
134. Mazmuni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiriluvchi janrni belgilang.
- A. Masal
  - B. Topishmoq
  - C. Hikoya
  - D. She'r
135. Qaysi janrda inson xarakteriga xos xususiyatlar majoziy yo'lda tasvirlanadi?
- A. Hikoya
  - B. Masal
  - C. Qissa
  - D. She'r
136. Xalq tomonidan yaratilgan ixcham, obrazli, chuqur ma'noli gaplardan tashkil topuvchi janrni toping.
- A. Topishmoq
  - B. Maqol
  - C. Masal
  - D. Hikoya
137. Bir xil tovushlardan tuzilgan gaplar – bu ...
- A. Tez aytishlardir.
  - B. Topishmoqdir.
  - C. Maqoldir.

- D. Barcha javoblar to'g'ri
138. Maktablarda qachondan boshlab sinfdan tashqari o'qish tashkil etilgan?
- A. 1959-yil
  - B. 1960-yil
  - C. 1961-yil
  - D. 1962-yil
139. 1-4-sinflarda STO' necha haftada bir marta o'tkaziladi?
- A. 4 haftada
  - B. 3 haftada
  - C. 2 haftada
  - D. Har haftada
140. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish nechta bosqichda amalga oshiriladi?
- A. 2 ta
  - B. 3 ta
  - C. 4 ta
  - D. 5 ta
141. Nutq tovushlari nechta guruhga bo'linadi?
- A. 2 ta
  - B. 3 ta
  - C. 4 ta
  - D. 5 ta
142. Qanday tovushlar bo'g'in hosil qilish xususiyatiga ega?
- A. Unli tovushlar
  - B. Undosh toovushlar
  - C. Jarangli tovushlar
  - D. Jarangsiz tovushlar
143. Y.N.Babanskiy fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitganda qaysi metod ko'proq samara beradi?
- A. Izlanish metodi

- B. Bayon metodi
  - C. Qiyosiy metod
  - D. Tahlil metodi
144. Qaysi sinf o'quvchilari so'z birikmasini topa oladi, ammo ularning qanday bog'langanini tushuntirib berolmaydi?
- A. 1-sinf
  - B. 2-sinf
  - C. 3-sinf
  - D. 4-sinf
145. Bosh kelishikdagi ot sintaktik tahlilda qanday vazifada keladi?
- A. Ega
  - B. Kesim
  - C. Aniqllovchi
  - D. Hol
146. Qaysi sinf o'quvchilari ega va kesim atamalaridan foydalanmaydilar, ammo gapning bosh bo'laklarini amaliy ravishda toppish ko'nikmasiga ega bo'ladilar?
- A. 1-sinf
  - B. 2-sinf
  - C. 3-sinf
  - D. 4-sinf
147. Qaysi tahlilning mohiyati so'zning qaysi so'z turkumiga oidligini toppish hisoblanadi?
- A. Sintaktik
  - B. Immanuel
  - C. Morfologik
  - D. Matn tahlili
148. Morfema nechta turga bo'linadi?
- A. 2 ta
  - B. 3 ta

C. 4 ta

D. 5 ta

149. Soʻzga yangi maʼno yuklovchi qoʻshimchalar qanday nomlanadi?

A. Soʻz yasovchi

B. Lugʻaviy shakl yasovchi

C. Sintaktik shakl yasovchi

D. Shakl yasovchi

150. Grammatik mashqlar necha turga boʻlinadi?

A. 2 turga

B. 3 turga

C. 4 turga

D. 5 turga









